

Istiqlolni orzulab o'tganlar xotirasiga hamda  
mustaqilligimizning 20 yilligiga bag'ishlanadiMuallif  
O'lsm, yuzimni Vatanim tarafga qaratib ko'minglarMuhojir vasiyati  
Birinchi Qism: Qochish. Andijon Qashqar

I

Dastlabki kundanoq Beknazarning ichi xotiniga ilimiadi.

Kelinchakning husni-malohati binoyidek edi: qosh-ko'zları qora, yuzları nafarmon rangli, bo'yı ham Beknazarga mos, xullas, chetdan qaraganda kuyov-qayliq bir-birlariga juda munosib, uzukka ko'z qo'ygandek edi. Ammo

Beknazar Shohistaning dakkisidan keyin qizlarga deyarli tikilib qaramas, g'ururi poymol etilgan o'sha alamli damlarni eslasa, hanuz yuzi o'z-o'zidan qizarib, qizib ketaverardi.

U sinfdoshi Shohistani yoqtib-rib qolgandi...

Qizga zimdan tikilib-tikilib qo'yardi-yu, bet kelib gapirolmasdi. Bir kuni dildagini qog'ozga bitdi-da, xoliroq joyda Shohistaning kamzuli cho'ntagiga sezdirmay solib qo'yi. Ertasigacha qanday javob yozarkin, deb o'ylanib, rosa hayajonlandi. Yuragi gupurib, mактабга barvaqt jo'nadi. Sinfda hech kim yo'q edi. Shiddat bilan kirib kelgan Shohista Beknazarning yonida to'xtadi-yu, cho'ntagidan xatni chiqardi va uni mayda-maydalab yirtib "oshiq"ning partasiga sochib yubordi, so'ng sumkasini o'z partasiga zarda bilan tashladi-da, yana tez-tez yurib chiqib ketdi. Beknazar o'sha paytda yer yorilsa kirib ketishga rozi edi Lekin qiz mardlik ham qildi noma haqida birovga og'iz ochmadi, yigitning o'ziga ham qaytib hech nima demadi. Beknazar darslarga mukkasidan berildi-yu, qaytib hech qayoqqa qing'aymadi, qizlarga yaqin yo'lamadi.

Akasidey boshini ikkita qilib, bo'yninga olaxurjunni ilib qo'yishlaridan cho'chigan Beknazar Andijondagi o'qituvchilar tayyorlash institutiga o'qishga kirishni mo'ljalladi. Biroq Darmonqul aka uni shashtidan qaytardi.

Qamalayotganlar, ta'qib-tazyiqqa, quvg'inga uchrayotganlarning hammasi o'qiganB=lar, ilmu ziyo egalari bo'lyapti, hozirgi zamonda ilm pand beryapti, xolos. Ammo huB=narB=dan odam hech qachon firib yemaydi. Ota kasbini egallagan esa ikkala dunyodayam kam bo'lmaydi, dedi u.

Beknazar qiblagohning amri vojib deb uqqan solih farzandlar sirasidan edi, arra-teshani olib, uning yoniga kirdi.

Faqat, otamga aytинг, meni uylanishga shoshiltirmasin, dedi u onasiga.

Aslida padari buzrukvor ham to'y qilishga oshiqayotgani yo'q, ularning qo'llari yupqaroq edi. Yigit yigirma beshga yaqinlashganda qiyin-qistov bilan bo'yin egdi. Ko'ngli hamon chopmasdi. Bejiz bezillamagan ekan...

Katta o'g'ilni xorijga ketgan amakiga qarashli, asosiy qismi musodara qilingan hovlining bir chetidagi qiytiq yerga naridan-beri tom solib chiqarishgan. Uyda bo'yı yetib qolgan bir singil bor onaizor otaning poytesha chopib topgan puliga ko'z tikib o'tirar, ro'z'orga ajratilgan mablag'dan ham chegirib bir nimalar olib, qizining sep sandig'iga tashlab turardi.

Beknazar xos xonaga uyalib-tortinibgina kirdi. Go'shangadan kuchli atir hidlari taralardi. Lampa chiroqning xira shu'lasida ohorli ko'rpalor shundoqqina yerga to'shalgan va sirli tuyulayotgan o'rinni ko'rib hayajonga, sarosimaga tushgan kuyov bolaning shuuri esa o'zga tashvishlar bilan band edi.

An'anaga ko'ra, birinchi oqshom o'sha g'aroyib, sehrli o'ringa moslashish, visol tuni arafasidagi ruhan tayyorgarlik kechasi bo'lishi lozim. Lekin tashqarida hali g'ala-g'ovur batamom tinmagan. Dahlizda kelin-kuyovlarning hissiyotlarini junbishga keltirish maqsadida o'zlarining erga uzatilgan kuni boshidan o'tkazgan holatlар xususida baland ovozda valaqlashib o'tirgan taftishchi yangalarning salobati boshdimi, qoidaga xilof, nojo'ya harakat sodir etib qo'yishdan cho'chidimi, kuyov bola joyning narigi chetida teskari qarab, ko'rpara burkangan holda, nafasi qaytib, pishillab yotgan kelinchak tomon surilishga jur'at qilmadi. Boz ustiga bir necha kundan beri to'y tashvishlari, tashkiliy yumushlar bilan u yoqdan bu-yoqqa chopib toliqqan, vaqt esa ham allamahal bo'lib qolgan edi. Yuragi gupillab-gupillab pasaydi.

\*\*\*

Ertasiga kun bo'yı o'rtoqlari bilan qo'shnilarnikida dam olishdi. (Bu ham bir taomil-da!). To'yxonadan go'sht va boshqa yemishlar olib chiqib, maishat qilishdi. Uylanganlar o'zlarining to'ylari, visol oqshomidagi ajab, qiziq kechmishlari to'g'risida gapirib, kuyov bolaning ko'ngliga dam g'ulg'ula, dam hayajon solib, jo'yali ham qitmirona yo'l-yo'riq, maslahatlar berib o'tirishdi. Kechga tomon Beknazarning yuragi gursillab ura boshladi. Bugun u o'z nikohiga qabul qilgan, xotin degan bir umrlik mahram va hamdamni bag'riga, panohiga olmog'i, shu bilan e'tiboran yigitlik imtihonidan o'tib, o'zga bir dunyoga qadam qo'yomog'i zarur... U kechagidan sal beriroqda, yaqinrog'ida yuzini shiftga qaratgan ko'yı ko'zlarini yumib, lablarini qimtib yotgan kelinposhshaga ko'rpa ostidan asta qo'l cho'zdi. Qizning seskanib-sapchib ketishi, o'zini nari tortishini kutgan edi, kelinchak salgina titrandi, xuddi bunaqa go'shangalarni avval ham ko'rgan-u, badaniga erkak panjasining tegishi oddiy holday, vaholanki, uning uchun ham bu ilk sinov va umridagi ilk hayajonli, eng hadikli, eng zavqvor tun edi. Yigit kelindagi bu holat uning tabiatan sovuqqonligidanmi yo befarqligidanmi tushunolmay hayratda edi. Yana sinamoq uchun qizning u yer-bu yeriga go'yo beixtiyor barmoq tekkizib ko'rdi. Kelinchak o'zini jiddiy, sipo tutishga, kuyov qo'lining huquqiy xatti-harakatlariga qarshilik ko'rsatmaslik uchun qitigi'i, sezgilarini kuch bilan jilovlab yotganga o'xshardi. Beknazar shunday xayol qildi. Shu bilan birga uning ichiga ilonning bolasiday gumon o'rmaladi. Nahotki?.. Sharob va mas'uliyat tufayli qo'zg'algan ehtiros oloviga go'yo suv sepildi. Ishtiyoq otiliq gijinglagan samanning shashti pasaydi. Shirin, xushomadli so'zlar, muloyim silab-siypalashlar ilinjida yuragi hapriqayotgan qiz esa, balki yigit harakatlarining sustligidan, uning mizojidan xavotirlangandir, axir kelinchaklar ham erta-indin dugonalari va boshqalar nazariga, muhokamasiga tushishini biladilar va o'z qayliqlarining dangalligi, chapdastligi, bahodirligi bilan... g'ururlanishni xohlaydilar-da... "Yoqmadimmikin?.." degan hadik yuragini nashtarday tilib o'tdi, a'zoi badani qizidi, nazarida yuzlari lovullab ketayotgandek, iyagigacha tortilgan ko'rpani yondirib yuboradigandek tuyulib, ko'rpani sal tushirdi. Lekin miq etmasdi, albatta kuyov soqovday jim bo'lgach, kelin nima ham derdi? Biri shiftga, ikkinchisi devorga qarab, ko'zlarini yumganicha, go'yo bir-birovidan uyalgandek, bir-biriga tegib ketishdan avaylangandek, nafaslarini ichiga yutib yotishardi.

Kechaning qolgan qismi, dahlizdagи yangalarning shivir-shivirini hisobga olmaganda, deyarli sokin, osoyishta o'tdi. Balki "sokin", "osoysishta" so'zları bu o'rinda u qadar joiz emasdir, zero, kelinposhsha ham, kuyov to'ra ham qariyb tonggacha chala qo'zg'algan, qoniqmagan hissiyotlar olamida beoram, xayollarning har xil ko'chalarida kezib chiqishgandir.

Nihoyat, uzoqqa cho'zilgan tun ham chekinib, tong yoriشا boshladi. Qoidaga ko'ra, kuyov chimildiqli xonadan erta sahar turib chiqib ketishi lozim, lekin u o'y surib yota-yota azonga yaqin uxlab qolgan edi, kelinchak ham, yangalar ham uni uyg'otishga istihola qilishardi. Bir payt ko'zini ochdi-yu, apil-tapil o'zini tashqariga urdi. Uylari orqasidagi ariqchada yuz yuvayotgan edi, yon

qo'shninikida tom yopayotgan hazilkash usta Boqi "Qulluq bo'lsmi, kuyov bola?" deb gap soldi. Beknazarning qulog'i chimillab, butun vujudidan alanga chiqib ketganday bo'ldi-yu, o'zini eshitmaganga olib, darvoza tomon shitob yurdi. Ko'chada do'stlari kutib turishgandi. Ulardan biri "bo'rimi, tulkimi?" deb so'radi jilmayib. Beknazar asabiy qo'l siltadi.

\*\*\*

Bugun endi og'aynilardan birinikida o'tirishdi.

"Qani, gapir-chi, nima bo'lди o'zi?" deya qiyin-qistovga olishdi, har xil askiyalar qilishdi.

Beknazar qanday sabab, vaj ko'rsatishga hayron edi. Kelinchakning miq etmay, pismayib yotishi borasida gapirib yuboray-gapirib yuboray deb og'iz juftladi-yu, "arpa un bahona..." deya battar kulishlarini o'ylab, tilini tiydi. Hayajonlanganini ro'kach qildi.

Bo'pti, mayli. Ba'zan shunaqayam bo'ladi. Qizlardan uzoq yurganingni oqibati-da, deyishdi. Dadillik uchun ham issiqlik... deb, konCHbyak ichirishdi. Chindan ham Beknazarning ichi qizidi, xayolida unda tog'ni ursa tolqon qilgudek shijoat, kuch paydo bo'lidi, noxush taassurotlar chekindi, jahdga uyqash mayl uyg'ondi.

Chimildiqda esa yana kechagi, o'tgan kungidek anvoyi hidlar anqirdi, lekin o'z og'zidan may isi burqsib turgani bois, Beknazarga uncha ta'sir qilmadi. Kallasida ustuning ertalabki tagdor va tig'dor savoli aylanardi. Ahdi qat'iyashdi. Lekin... Kechagidan ham g'alati holat yuz berdi. Kuyovning o'z taxminlariyu "tajribali" o'rtoqlarning bashoratlari tasdig'ini topmadni: kelinchak tomonidan qo'rqish, cho'chish niqobidagi iboyu andisha maqomida ko'rsatilajak qarshiliklarni yengish, mudofaani daf etish uchun uzoq va qizg'in jang olib borishga, tavsiya etilgan hujum usullarini qo'llashga ham hojat bo'lmasdi. Taajjubu hayronlik girdobida qolgan yigit tonggacha gumonu ishtibohlar dunyosida izg'ib, unsiz to'lg'onib chiqdi. So'ng esa o'zicha mushohada yuritib bir fikrga keldi: "xonim" tezroq kuyovning "xasmiga aylanib olish" niyatida monesizlik, taslimchilik yo'lini ma'qul ko'rgan, avvaldan shu choraga o'zini tayyorlagan bo'lsa kerak...

Xullas, keyingi kuni yangalar tarqalishdi, qudalar tarafga xushxabar ketdi. Beknazarning ko'ngliga ham yorug'lik tushdi, ammo... Mayl, ishtiyoq nimagadir qayta avjlanmadi, sustligicha qoldi. Holbuki, qiz o'sha kundagi o'z musallamligini keyinchalik gap orasida boshqacha izohlab o'tdi. Ya'ni, kelinposhshaga ham turmush ko'rgan dugonalari chimildiqda yuz berajak voqealar to'g'risida hazil-chin aralash gapirib, uni pishiqtirib qo'yishgan, xususan ortiqcha tannozligu uyalish bilan kuyov bolani qynamaslik, ko'zda tutilgan ish tezroq amalga oshmasa, yigitning nomus o'tida qovurilib, oshna-og'aynilari o'rtasida izza tortishi, natijada qizdan sovib qolishi mumkinligi, kuyovning qaylig'iga qanchalik mehr-muhabbat qo'yishi kelinchakning ayanan o'sha ilk visol chog'larda o'zini qanday tutishiga, yigitga baxsh etajak zavqu suruga bog'liqligini uqtirishgan, "qo'yinga kirish kechasi ko'ngilga ham kirish kechashidir", deya ta'kidlashgan ekan. Shuningdek, mas'ul shaxslar yangalar ham "bu ish"ning xamirdan qilni pichagina qattiqroq sug'urishday gapligi, ochiq chiroy bilan, xushlashib qovushish kelgusidagi totuvlikning asosiy garovi ekanligini Rashidaning qulog'iga qayta-qayta quyishgan edi. Qolaversa, yolg'iz qiz to'rt aka-uka orasida, ular bilan tortishib-turtishib, ko'rpara, qorlarda dumalashib ulg'aygani bois, qitig'i ham erta kunda barham topgan, binobarin, erkak bilan ayol tanasining ilk bor bir-biriga tegishidan hosil bo'ladiqan uchqunlar allaqachon sezilmay chaqnab so'ngan, bu borada bilib-bilmay yigitning rag'batini qaytarib qo'ymaslik yoki unda shubha uyg'otish xususida qayg'urish esiga ham kelmagandi. O'zining e'tiroficha, visol tunida u avvaliga g'aroyib bir olamga tushib qolganday hayajonlanib yotgan-u, so'ng yuqoridagi pandu o'gitlar qulqlari ostida qayta jaranglay boshlagach, o'zini qo'lga olgan va mayli, rizoligini soxta sapchishlari titroqlarsiz, sukut bilan izhor aylamoqqa jazm etgan. Zero, o'zining ham suyib tekkan yorini ranjitish, izza torttirish niyati yo'q edi. Shuningdek, u tuni bilan ko'zlar eshik tirkishida bo'lgan yangalaru qulqlarini ding qilib kutishayotgan mahalla ayollari, qarindosh-urug'lar, "uloq"ni oldirib yuborib dog'da qolgan qizlar oldida yuzi tezroq yorug' bo'lislini istagandi.

Bu iqrorni ham kelinchakning tilidan sug'urib olish oson kechmadi: u damduz edi. Ishlarni indamay qilaverar, birov bir nima so'rasa "ha" yo "yo'q" so'zi qimtilgan lablari orasidan arang sirg'alib chiqar, o'zicha minba'd gap qo'shmasdi. Qaynona qaynsingil ovsinlar bilan suhbatlashib o'tirishni ham xush ko'rmasdi. Ovqat mahalida-ku miq etmaydi. Mana shu fe'li ko'pchilikka uncha singmadi. Bosh xususiyati "bulbuligo'yo"lik bo'lgan ayol zoti olamida bu kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa edi.

"Ichimdan top"niyam ja bo'lakchasidan ekan-a, derdi Rahima bosh chayqab.

Ha-ya, yuragi dimlanib, yorilib ketmaydimikin? qo'shimchilardi kelinaya.

"Visir-visir"larning mazmunidan xabar topgan qaynota: "Sizlarga qulog'ingizni qoqib qo'lingizga beradigan bo'lsa yaxshimiidi?!" deb tanbeh berardi. Lekin u o'g'lining ham kelinchak bilan munosabati sustroqligidan xavotirlanib qo'yardi. Bu boradagi axborot ham ojizalar orqali yetib keldi: Beknazar ko'ngilsiz emish

Nima sababdan, shu kamgapligi uchunmi?

Bu savolning javobi aniq emas edi. Ona yelkalarini qisdi.

Menam hayronman. So'rasam, o'g'lingiz tuzuk gapirmaydi.

Hay, sekin-asta ilib qoladi.

Biroq, Beknazarning ilishidan darak yo'q edi. Eski kitoblar voqeasi dard ustiga chipqon bo'lidi.

## II

Ular o'rtahol yashashardi. Chunki, ancha yillar burun yurt boylarining mol-dunyolari tortib olinib, o'zları SibirCH, Ukraina va boshqa olis, sovuq yurtlarga badarg'a etilib, tug'ilib o'sgan go'shalaridan izlari batamom quritilgach, birov boyishni havas qilmay qo'yan. Hamma bir amallab kun o'tkazish niyati bilangina yashar, hech kim katta daromad keltiradigan "yog'li" ishlarni ketidan quvmas, hatto yirik-yirik rahbar-amaldorlar ham maoshdan o'zgasini deyarli ko'zlashmas, "poraxo'rlik" degan so'z ahyon-ahyondagina qulqoqqa chalinib qolsa-da, ko'pchilik uning mazmunini ham durust anglamasdi. Keyingi, pora desa o'zini tomdan tashlaydigan, xalq mulki bo'lgan savdo markazining eskalatorini hech tap tortmay dang'llama uyiga o'rnatib oladigan, uch-to'rt kishidangina iborat oilasi uchun yigirma-o'ttiz xonali, qavat-qavat koshonalardan iborat hovli-joylar qurish borasida kim o'zar o'ynaydigan mansabdu ahli bizneslar hali go'dak yoyinkim onalarining qornida, otalarining belida edilar. Binobarin, farovonlik, obodonlik ham o'sha siyosatga yarasha: aholi jo'ngina, qishloqlarda hatto loysuvoqli, bo'yra bilan yopilgan kulbalarda umrguzaronlik qilishardi. Ikkinci jahon urushidan keyinroq, elliginchi yillar boshida kattalarda fikr bir oz o'zgarib, siyosat, boshqaruv tizgini andak bo'shashdimi, odamlar tetiklanib, qurbi yetganlar boshpanalarini sal-sal rostlamoqqa kirishdilar.

Beknazarlarning uylari ham ancha puturdan ketgan edi. Darmonqul aka-ku shunisigayam shukr deb yurardi, illo, o'g'illar, xususan har xil xonadonlarni ko'rib yurgan Beknazar Mulla Ahmadali bobolaridan meros qolgan devor tomlarining xarobligidan nomus

qilib, har zamonda ming'irlab qo'yishardi. Lekin ular hali oilaning umumiy daromadiga besh tanga qo'shadigan bo'lishgani yo'q, poytesha bilan topishgani kundalik ro'zg'or tebratishga arang yetardi. Darmonqul akaning dilidan bo'zchi belboqqa yolchimas, degan maqol o'tardi. Ustachilikka to'lanadigan xizmat haqi choy, non pulidan oshmasdi. U mahallarda savdolashish degan gap yo hunarmandning yo ish egasining xayoliga kelmas, har kim ko'nglidan chiqqarganini, ataganini berardi. Usta ham tuz-namagingizga rozi bo'ling, deb ketaverardi. Qolaversa, qishloqda asosan mayda-chuyda ta'mirlov ishlari bo'lib turar, yangi bino quruvchilar kam, bunga imkonli borlar ham jur'at qilishmay, eski deraza ko'zlariga gazeta yopishtirib o'tirishaverardi.

Niyatlaring yaxshi, ammo tomni yangilashga pul kerak-da, o'g'illarim, dedi ota axiri muloyimlik bilan. Uning dilida ham orzu-havas, mehnatu mashaqqat bilan o'tayotgan umrining qolgan qismini ko'r kamroq imoratlarda farog'at bilan kechirish umidi yo'q emas edi. U o'g'illarimga gapim ta'naday tuyulmadimikin, degan andishaga borib, qo'shib qo'ydi: Mayli, sabr qilib turaylik-chi, Xudo bir yo'lga boshlar...

Ertabahorda yana Beknazardan fikr chiqdi.

Qo'riq ochib, ko'proq sholi eksak... dedi u bir kuni nonushta chog'ida.

Darmonqul aka "Sen nima deysan?" deganday katta o'g'liga qaradi. Xolnazar inisining taklifini quvvatladi.

Ma'qul, dedi ota farzandlarining ahididan, ularning yakdilligidan quvonib.

\* \* \*

Qishloqning janub tomonida, Qoradaryo bo'ylarida kolxoz foydalanmaydigan bir necha yuz gektar baland-past tashlandiq yerlar bo'lib, odamlar chekkaroq, qulayroq joylardagi chimzor do'ngliklarni kuchlari yetganicha o'zlashtirib sholi ekishardi.

Beknazarlarning ham ozroqqina sholipoyasi bor, ammo u yerdan chiqqan sholining guruchi tirikchilikni zo'rg'a qoplardi. Odamlar cho'chishganidanmi, insof-andisha qilibmi yo soddaliklaridanmi, kattaroq yer ochishga urinishmasdi. Sirasini aytganda, ko'proq ekin maydoni yaratish ham oson ish emas: chimzor qo'riqlarning yuzasi yupqa tuprog'u tagi g'ichirama toshloq bo'lib, ketmon har gal albatta toshga jangillab tegar, har qanday o'tkir quroq, hatto metin cho'kichning tig'i ham yarim, bir soatga yetmay to'mtoq bo'lib o'tmaslashgach, marzaga o'tirvolib, asbobni egov yo qirrali tosh bilan uzoq terib, qayrashga to'g'ri kelardi. Qisqasi, ish unmas, ketmonchi ikki-uch soatdayoq bezillab, qo'llari qavarib, ishni bas qilish payiga tushardi.

O'sha yili qish cho'zilib ketganidan hadeganda kun isiyvermadni. Keng to'qayzor qo'riq tarafdan salqin shamol esib etni junjiktirar, yalang oyoqlar muzzday tosh, maysa-chim ichida qaqshab, uvushib qolardi.

Aka-uka yigirma kuncha ketmon charxlab, chim qo'porishdi. Kechgacha ikkalasining ham sillasi qurib, tovonlari qirrali toshlarga tegaverib qonab ketar, qo'ltilqlari osti zirqirab, yelkalarini ko'tarolmay qolishar, har kuni kechqurun paxta yog'in qizdirib tovonlari va qadoqli kaftlariga chilpillatib surkab o'rik o'tin cho'g'iga toplashgach, bog'lab yotishar, ertalabgacha og'riq xiyla bosilardi.

Zahmat va mashaqqatlar besamar ketmadi. Alloh yigitlarning niyatlariga yarasha xirmonga baraka berdi. Lekin ko'klamning surilishi evazigami, kuz injiq, seryog'in keldi sholini quritish qiyin bo'lidi. Buning ustiga to'yga hozirlik boshlab yuborildi.

Beknazarning jilla qursa, yozga chiqaylik, oldin hovli-joylarni o'nglaylik, degan iltijolariga qulqoq osishmadni. Onaizor: "Sen tengilar ikkitadan bola ko'rishdi", deb yig'iga tushdi, shundan keyin ota: "Bahor uya urinib ketsak, to'y yana suriladi. Shuncha qo'yib berdik, menam mahalla-ko'ydan nomus qilyapman", deb gapni kesdi. Sholini qizimaguday sergitib qoplab qo'yishdi.

To'ydan keyin ko'p o'tmay qor tashladi. Sholini kunda-kunda bir qop-ikki qopdan sandal atrofida aylantirib-aylantirib quritishguncha qish yarimladi.

### III

1951 yil, ko'klamning ilk pallasi. Taqvim bo'yicha bahor rasman kirgan bo'lsa-da, keksalar ta'biricha, qishning yana bir hafta o'n kunlik haqi bor. Kun yiltillab turganiga qaramay pana-pastqamlarda qorlar hali batamom erib bitmagan,sovuvning zahri ketmagan. Mashriq tomonidan esayotgan izg'irin, xususan, ertalablarda goh pasayib, goh avjlanib, bo'sh-bayov, sust kishilarni junjiktiradi. Lekin qahratondan omon-eson chiqib olganiga shukr keltiruvchi xalqning asosiy qismi tirikchilik tashvishida g'imirlab, qishloqlarda ham jonlanish boshlangan. Beknazarlar qishi bilan sichqon-kalamushlardan, qush-parrandalardan qo'rib chiqqan sholini qo'shni qishloqdagi objuvozda bir hafta yotib oqlashdi va bir necha yakshanba Andijondagi kappon bozoriga (u mahallarda shaharda ham savdo faqat yakshanba kunlari bo'lardi) tashib sotishdi. O'shanda yaxshi guruchning narxi nari borsa yuz so'm bo'lardi, yuz ming so'mdan ortiqqa pulladilar. Kunlar ham ilidi. Beknazarlar ko'ch-ko'ronliyuu ashqol-dashqollarini baland so'riga va uning ostidagi chorpoymaga ko'chirib, eski binolarni buzishga kirishishdi.

Sinch bilan tiklangani tufayli shuvoqlari yorilib nuray boshlagan bo'lsa-da, yiqilmay turgan uyning ikki tokchasi oralig'idagi guvalalarni cho'kich bilan ko'chirishayotgan paytda bo'yraga o'ralgan bir dasta kitob chiqib qoldi. Ular juda yaxshi saqlangan, semiz-semiz, qoramtil, qizg'ish, jigarrang saxtiyon muqovalariga ham uncha shikast yetmagan, sichqon ham tegmagan, faqat qalin chang o'tirgan va sarg'ayib, burishib, chetlari bir-biriga yopishib ketgan edi.

Hashardagilar mahallalik turli yoshdag'i uch-to'rt erkak varaqlab ko'rishmoqchi bo'lishgandi, Darmonqul aka "hay-hay"lab, "ular ichida Kalomullo bo'lishi mumkin. Muqaddas kitoblarga betahorat qo'l tekkizish mumkin emas", dedi va o'zi tahorat yangilab kelib, topilmalarni hozirgina yuz-qo'lini artgan nam durraga o'rabi chorpoymaga olib bordi-da, sandiq ustiga yig'ilgan ko'rpalr qatiga joylab qo'ydi.

Oqshom ota va o'g'illar kitoblarni ko'rpa orasidan chiqarib, noyob ashyo kabi qo'lma-qo'l qilib, ko'zlariga surtishdi. Zarhalli arabiy harflar nihoyatda zich, ammo kashta misoli chiroqli edi. Unga tikilish, tomosha aylash ham zavqli: ko'ngilda tushunuksiz bir tuyg'ular uyg'otar, bu tuyg'ular afsus-nadomat hislari bilan omixtalashib og'riq berardi. Nahotki uch birday odamdan birontasi bu nodir bitiklarni tatalab ham o'qiy olmasa? Nahotki katta bir xonodon ota-bobolarining ilmi-ma'rifat bulog'idan butkul bebahra, benasib bo'lsa?

Beknazar bobosidan arab imlosini o'rganib olmaganini, bu borada g'irt omi ekanini tuyub, ichidan zil ketdi.

Uy qurilganda Darmonqul aka taxminan o'ttiz yoshlarda bo'lib, devor urilayotganda otasi mulla Ahmadali bilan yonma-yon turgan, boshqa hasharchi-yordamchilar ham bor edi. Lekin kitoblarni guvalalar orasiga kim, qanday uring, suvab yuborganini ko'rmagandi. Bunday xavfli tadbirni ko'pchilik ko'z oldida, guvohligida amalga oshirish ham mumkin emas edi. Demak, ota o'g'liga, o'zgalarga ham bilintirmay, bu ish bilan tunda bir o'zi shug'ullangan. Darmonqul aka otasining sandalda mutolaa qilib o'tirishini, ixchamgina, vassajufti shifti pastakkina xonaning o'rta tokchasida ustma-ust taxlog'lik turadigan kitoblarning birdan g'oyib bo'lib qolganini esladi. O'ttizinchchi yillarda sallaga va eskicha ilmlarga qarshi o't ochilganda mamlakat bo'yicha qanchadan-qancha noyob kitoblar daryolarga oqizilib, qabristonlarga ko'mib yuborilgan. Agar bu ehtiyyot chorasi ehtiyyotsizlikka aylanib, o'g'li va nabirasiga shuncha

tashvishu aziyat yetkazishini bilganida, balki u ham boshqacha chora qo'lllagan bo'larmidi...

Sho'rining dastlabki kunlariidan mamlakatda islom va boshqa dinlarga qarshi boshlangan taqiq va siquv o'chib-yonib turadigan olov singari vaqt-vaqt bilan kuchayib alanga olar, bu tazyiqlar ham ziylilarga, ilmlilarga nisbatan e'lon qilinmagan umumiy hujumga qo'shilib ketardi. Tazyiqu ta'qiblardan zada xalq ichida faqat keksa yoshdagilar, diniy idora va soha bilan bevosita daxldor kam sonli xudojo'ylargina (ular ham hadik bilan) namoz o'qishar, qolgan toifa, xususan, yoshlarning to'qson to'qqiz yarim foizi namoz, ro'za va boshqa islamiy farzu sunnatlardan tamomila yiroq edi. Yarim foiz moyillar pinhona ibodat qilib, yashirinchcha (asosan qiz-juvonlar) ro'za tutishardi. Beknazarga bobosi namozni o'rgatgan edi, lekin u ham o'qimasdi. Ota o'g'illarini sajdaga bosh qo'yishga undamasdi... Xalqda e'tiqod parokanda, vijdon erkinligi degan narsaning o'zi yo'q edi. Navro'zni bayram sifatida nishonlash va boshqa milliy qadriyatlar esklilik sarqiti sifatida qoralanardi. "Kommunizm" atalmish xayoliy kelajakni odamlar aniq ko'z oldiga keltirolmas, ammo, har qalay, unga ixtiyoriy-majburiy tarzda ishonuvchilar, xususan, rahbar-amaldorlar ichida ancha topilardi. Voqeа yuz bergen pallada qatag'onning navbatdagi quyuni ko'tarilib, siyosat shamshiri madaniyat va ma'rifat kishilari millat gullarini yana chilpiy boshlagan edi.

Endi nima qilsak ekan bu kitoblarni? o'ychan savol tashladi ota.

Ertaga qishloq sovetidagi kutubxonaga olib borsam, ehtimol ilmiy asarlardir, dedi Beknazар.

Avval imom-domlaga o'qitib ko'rish kerakmikin?..

Xolnazar ham otasining fikriga qo'shildi.

Abdujalil domla bo'ychan, qovun shakl quyuq soqoli kumushrang, engashib ko'p kitob o'qib, ko'p toat-ibodat qilganidanmi, bir oz enkayib yuradigan ancha sipo kishi edi. U Beknazarning so'zlarini xushlamaygina tingladi.

Meni maslahatim, dedi u sovuqqonlik bilan, yo'qotish kerak, vassalom. Balodan hazar, bo'tam. Agar ulug' kitoblar bo'lса, Xudoning o'zi kechirsin. Siyosat degani o'ta rahm-shafqatsiz narsa, siyosatchi esa yuzsiz hech kimni shohniyam, gadoniym, olimniyam, omirniyam ayab o'tirmaydi. Siyosat bamisol o't, o't bilan o'ynashib bo'lmaydi deb qo'li, tili kuyganlar aytgan. Avvalgi talato'plarda qancha-qancha mulla kishilar urilib-surilib, yo'q bo'lib ketdi. Meniyam, o'zlariningniyam bir falokatga giriftor qilib o'tirmanglar. Meni afv eting, bo'tam, dadangizga uzrimni yetkazing. Bu gapni menga aytdingiz, boshqa birovga zinhor og'iz ocha ko'rman. Meni oldimga qay vajdan kelganingizniyam hech kas bilmasin...

\* \* \*

Ota-bolalar bir to'xtamga kelishguncha ikki kun o'tdi. Uchinchi oqshom, namozgar arafasida darvoza taqilladi. Eshikni ochgani Beknazar chiqdi. Darvozaxonada o'rta bo'yli, o'ttiz yoshlardagi qizil galstuk taqqan kimsa bilan andak qorin qo'ygan, qoshlari sarg'ish, qarashlari ma'nosizdek ko'rindigan qishloq milisasi turardi.

Beknazar xushlamaygina qo'l uzatdi. Mehmonlar mezbon bilan naridan-beri takallufsiz qo'l olishib, uning ko'zlariga tikilishdi. Beknazar ikki qanolti taxta darvozaning ochiq tomonini gavdasi bilan deyarli to'sib qo'ygandi. Albatta, sharq odobiga ko'ra, har qanday mehmon hech qanday savol-javobsiz, surishtiruvtsiz, aksincha, tavoze bilan kutib olinmog'i va sidqidildan hovliga boshlanmog'i lozim. Lekin keluvchilarning tund qiyofasi, sovuq muomalasidan, xususan, militsiya kiyimidan Beknazarning ko'ngli allanechuk xijil tortgandi.

Xizmat, akalar? so'radi u bir unisiga, bir bunisiga sinovchan yuzlanib.

Ichkarida gaplashsak, dedi o'rta bo'yli.

Beknazarning qoshlari chimirildi.

Nima masalada?

Shu asnoda ostonada ota ko'rindi, u mehmonlar bilan xushhol ko'rishib, ularni uyga taklif etdi. Beknazar "Nima qilyapsiz, ota?" deganday tomoq qirdi. Lekin Darmonqul aka unga e'tibor bermagach, noiloj o'zini chetga oldi.

Chaqirilmagan "mehmonlar" tashrifining sababi ayon, masala ravshan edi. DarB-monqul aka kitoblarning qayerdan, qanday topilganini yashirmay, bo'yamay so'zlab berdi, o'zimiz olib borib bermoqchi bo'lib turuvdik, deb vaziyatni yumshatishga harakat qildi.

Unda nimaga ikki kundan beri saqlab o'tiribsizlar? so'radi o'rta bo'yli o'dag'aylagan ohangda.

Qayerga eltishni, kimga topshirishni bilmadik, dedi Beknazar. Uning g'azabini yashirib, o'zini arang tutishga harakat qilayotgani ovozining dag'alligidan anglashilib turardi.

Nimaga bilmaysizlar?! Bizga raykomga olib borib topshirish kerak. Bilishga-ku, bilasizlar, lekin xohlamagansizlar, kim sezib o'tiribdi, deb o'ylagansizlar. EshitB-gandik: sizlar asli avlod-ajdodingiz bilan dindor-taqvodor kishilar ekansiz!

Beknazar bobosini juda yaxshi ko'rardi. Yoshi yetmisiga qarab borayotgan qariya melisaxona qamog'ida ko'rganlarining bir uchini chiqqargan, qolganini undan-bundan eshitganlari, o'qiganlari bilan to'ldirib tasavvur qilgach, nafratini kimga, qayoqqa qaratishni bilmay yurar, bobosini oppoq soqoli bilan kun tushmaydigan yer ostida zax xonada saqlaganlarda keki bor edi. Begunohdan begunoh-a... Aybi uning ilmi borligi edi.

"Uyidan eskicha kitob chiqibdi" degan chaquv bilan darhol hid oluvchi ikkita "laycha"ning yetib kelishi va o'zlarini surbetlarcha tutishi, ota-bolani katta jinoyat ustida tutib olishganday o'dag'aylashlari dard ustiga chipqon bo'lib, qonini ko'pirtirdi.

Tuhmat bu. Bir bobom savodli odam bo'lgan, xolos! Beknazarning vujudi ham, tovushi ham qaltirab ketdi.

Tuhmat? Hali men senga tuhmatchi bo'ldimmi?! gezardi raykom xodimi. Sen o'zi nima ish bilan shug'ullanasan?

Ota "hay-hayla"di:

Mayli, bularni olib keta qolinglar. U kitoblarni raykom xodimiga yaqinroq surdi. Uzr, endi, o'g'illarim, aqlimiz noqislik qipti.

Uyimiz to'kilay deb qoluvdi, shuni buzish bilan ovora bo'lib...

Pulinglar ko'payib ketdimi? dedi yana raykom xodimi dag'dag'a bilan.

Devorning orasidan tilla-pillayam chiqqandir, gap qo'shdi uchastkovoy. Bularning bobolari boy o'tgan.

Unaqa demang, o'g'lim, dedi Darmonqul aka yoshinqiragan, chetlarini ajin qoplagan jigarrang ko'zlarini mo'litratib.

Kimligimizni siz yaxshi bilasizu. Boylar avlodi bo'lsak, shu alfovza o'tirarmidik... U qo'llarini yozib, boshini silkib, hovliga ishora qildi.

Raykom xodimi atrofga birrov nazar tashladi. Darhaqiqat, tomorqada diqqatga arzigelik narsa yo'q edi. O'sha yillardagi qishloq xonadonlariga xos manzara: bir tarafda ostida ikki-uch quchoq xas-xashak uyulgan, tomiga besh-o'n bog' g'o'zapoya bosilgan, tol xoda ustunlarini qurt yegan ikki yoni va oldi ochiq bostirma, boshqa tomonda shoxlari tarvaqaylagan, tanasi eshilib, po'stlari archilib ketgan qari behi yonida bir oyog'i kalta odamday qiyshayib, tagidagi katakda olachipor makyon g'ilmayib yotgan g'arib

tandir ko'zga tashlanardi, xolos. Uylar buzilayotgani sababli, ko'chishga tayyorlanayotgan xonodon kabi hammayoq besaranjom, ivirisq edi.

Raykom xodimi kitoblarning u yoq-bu yog'ini ag'darib, ichlarini olib ko'rgan bo'ldi-da (Darmonqul aka bu betahoratning bepisandligi, beadabligidan ijirg'anib o'tirdi), sanay boshladi.

Bir, ikki..., yetti... Nechtasini yashirib qo'ydinglar?

Ota kalovlanib qoldi. Zug'umchilar xatti-harakatini qovog'ini uygancha jimgina kuzatib, gapga aralashishdan o'zini zo'rg'a tutib o'tirgan Beknazар chidamadi.

Nima, bizga ishonmayapsizlarmi? U ovozini boyagidan ham ko'tarib, raykom xodimiga tikildi.

Darmonqul aka o'g'lining biqiniga sekin nuqidi.

Xabar ol-chi, choy damlashdimikin?

Beknazар o'rnidan turib, baland so'ri tomon jildi. Raykom xodimi uning ortidan bir qarab qo'yib, yana otaga yuzlandi.

To'g'risini aytинг.

Darmonqul aka soqolini tutamladi.

Oppoq soqolim hurmati...

Soqolingizni pesh qilmang bizga, soqol echkidayam bor.

Otaning dili og'ridi.

Dasturxonda o'tiribmiz. Yashirganimiz yo'q, yashirish niyatimiz ham yo'q, bori shu, o'g'llarim.

Kapitan, kitoblarni ro'yxatga oling.

Kapitan yiltillab ketgan qora charm sumkasidan qog'oz, ruchka olib, yozishga shaylandi.

Qanaqa kitoblar o'zi bular, Darmon aka?

Bilmaymiz, bolam, men ham, o'g'llarim ham arabchani o'qiyolmaymiz.

O'qishni bilmasanglar nimaga ushlab turasizlar?.. Nima deb yozaman? Militsioner sherigiga qaradi.

Sonini, rangi-tusini yozing. Akt tuzing. Otaga qo'l qo'ydiramiz.

Men qo'l qo'yib beraman, dedi choy ko'tarib kelgan Beknazар kapitanga yondoshib.

Ikkalangiz ham imzo chekasiz, dedi raykom xodimi. Ajabo, diydasi sovuq, qarashlari hissiz, so'zlash ohangi ham o'zgarmas birday edi. Siz, yigitcha, davom etdi u ko'rsatgich barmog'ini Beknazarga bigiz qilib, ertaga tushdan keyin mening huzurimga borasiz. Kitoblar diniy bo'lmasa, qaytarib beramiz.

#### IV

Kitoblarning xatlab ketilishi-yu, bu voqeanning oqibatlari Darmonqul akani ham, Beknazarni ham jiddiy tashvishga solganicha yo'q edi. Balki, har biri o'zicha har xil xayollarga borgan bo'lsa-da, bir-birini cho'chitmaslik andishasi bilan, gap gapga qovushmagan nonushtadan so'ng hech narsa yuz bermaganday, yana ishga tushish taraddudida turishuvdi, ko'cha eshik shiddat bilan ochilib, darvozaxonada Beknazarning amakisi, ya'ni otasining kichik og'asi Xalil aka (kattasi o'ttizinchi yillarda o'ziga to'qroq, qo'lida sal jiri bor o'rta hol quloq sifatida xatga tushib qolgach, xorijga chiqib ketgan, ayni vaqtida Saudiya Arabistonida yashardi) ko'rindi, u eshikni ehtiyyotkorlik bilan zinch yopdi-da, xuddi izidan birov tushganday, shipillab kela boshladi. Ota-o'g'il unga peshvoz chiqishdi.

Xalil akaning bezovtaligi, nimadandir hadiksirayotgani qarashlaridan ham ayon edi.

Keling, aka, dedi Darmonqul aka so'riga omonat o'tirishgach, tinchlikmi, degan ma'noda.

Kecha uyinglarga raykomdan, melisadan odam keldimi? so'radi pastroq tovushda Xalil aka bir ukasiga, bir jiyaniga hayrat va ta'na nigohini tikib.

Darmonqul akaning rangi-quti o'zgardi kutilmagan, xijolatli xabar eshitgan yo ko'ngliga bir g'ulg'ula tushgan mahalda uning qoramag'iz yuzi ko'kimtir tusga kirardi.

Qayerdan eshitdingiz? savolga savol bilan javob berdi u.

Kechqurun Turdi teripurushning choyxonasiga chiquvdim. O'sha yerda qulog'imga chalindi. Nima bo'luvdi?

Darmonqul aka yuz bergen hodisani batafsil aytib berdi va shundaymi, qo'shimchang yo'qmi, deganday Beknazarga qaradi. U otasining so'zlarini tasdiqlaganday, bosh tebratib qo'ydi.

O'g'ling raykom vakilini yoqasidan olibdiymish?, Xalil akaning yuzida yana kinoya va achinish aks etdi. Beknazarning qorachiqlari g'azab bilan chaqnadi, tishlari g'ichirladi, keyin xuddi qorni birdan qattiq mijib qolganday, afti burishdi.

"Yo, alloh!" xitob qildi Darmonqul aka, axir kechagi voqeа ustida o'zlaridan boshqa hech kim yo'g'idiyu...

Yo'q, men birgaydim, bunisi g'irt bo'hton, aka. Darmonqul aka "ozgina aytishib qoldi" demoqchi bo'lib, fikridan qaytdi. Qaysi uying kuygur vaysadi sizga?

Hammaning og'zida shu gap. Hovliga kirmaysizlar, deb darvozani yopvolganiyam yolg'onmi?

Beknazар cho'k tushib o'tirgan joyida yana bir qo'zg'alib qo'ydi, g'ijindi, izoh berishga og'iz juftladi-yu, kattalar oldida o'zini tutishni lozim ko'rди. Mish-mishlarda ozgina bo'lsa-da asos borligi uchun ichida o'zini yanib, sekin uh tortdi.

Ana xolos, dedi ota ham suyukli farzandiga qayrilib. Uning bu qarashidan "Ana, ko'rdingmi, nima qilib qo'yding?!" degan mazmunni anglash mumkin edi. So'ng u yana akasiga yuzlandi.

Yolg'on, aka, yolg'on. Beknazар shu darajada... Darmonqul aka johil yo nodon emas-ku, demoqchi bo'ldi. Biroq bu iboralar jigargo'shasiga og'ir botishidan cho'chidi, odamovimas-ku.

Bilmadim, rostmi, yolg'onmi, ko'chada shu gap yuribdi. Xo'sh, endi nima qilmoqchisizlar?

Hech narsa. Hali, tushdan keyin Beknazар aytgan joylariga borib ko'rsin-chi.

O'z ixtiyori bilan ajdahoning komiga boshini tiqib beradimi? Otamizni nima ko'yga solishgani esingdan chiqdimi? Sal bo'lmasa hammamiz qaqqashab qolay devdigul!..

Menam birga borib kechirim so'rasammikin? dedi xavotirlangan Darmonqul aka.

Tutab yotgan o'tinga kirasin sepib-a?

Ota bo'shashib, ko'zlarini ayanchli javdiratdi.

Nima maslahat berasiz bo'lmasa, aka?

Maslahat? Xalil aka ham bu yog'ini o'ylamagan ekanmi, yo miyasida bir yo'l-yo'riq rejasini pishirib kelsayam, aytishga ikkilandimi, to'xtalib qoldi. Menam dabdurustdan bir narsa deyolmayman. Sizlarni ogohlantirib qo'yyapman, xolos, yana o'zinglar

bilasizlar. Har qalay, yaxshi bir chora topish kerak. Ammo ishni puxta bitirinqlar. Xalil aka shoshib turgan odamday piyoladagi choyni katta bir xo'pladi-da, xo'p, men ketdim bo'lmasa, deb, yuziga naridan-beri fotiha tortdi-yu, so'ridan tushdi. Amakini kuzatishgach, ota-bola yana so'zsiz chorpoya chetiga o'tirishdi. Endi ikkalasining ham ko'z oldida kechagi vakillarning tund basharalari, xayollarida "Kitoblar diniy bo'lmasa, qaytarib beramiz" degan quruqqina so'zlarini aylana boshlagandi. Diniy bo'lmasa, ularni devor orasiga urib berkitib tashlasharmidi? Albatta, vakillar ham kitoblarning qanaqaligini fahmlashgan. Demak, ularning "qaytarib beramiz" degani shunchaki vahima qilmaslik niyatida aytligan gap.

\*\*\*

Darmonqul akaning boshi qotdi. Shu kecha tonggacha mijja qoqmadni. Kim chaquvdiykin o'zi? Bularni yomonotliq qilish kimga, nimaga zaril bo'ldiykin? Axir bu kitoblardan ikki-uchta qo'shni xabardor edi, xolos. Yo, Abdujalil domla... Yo'g'-ey, o'libdimi... Balki... Eshqul agentning ishidir bu... Rostdan, endi nima qilish kerak? Akasi bejiz kuyukmayapti. Ikki birday odam xatga tirkab ketishdi-da. Buning ustiga Beknazар qo'rslik qilib, ularning g'ashiga tegib qo'ydi. Haqiqatda chakki gapirdi. Bir ayblari ikki bo'ldi. O'g'li tushmagurning o'jarligi qolmadi qolmadi-da. Mabodo, mabodo... Unga biron kor-hol bo'lsa, sho'ri quriydi-ku. Suyangan o'g'li shu-ya. Yo'q, bir ko'ngilsizlik yuz bersa, bu alamga chidashi qiyin, qiyin... Undan ko'ra... Nihoyat bir to'xtamga keldi. Beknazар qishloqdan, yurtdan ham chiqib ketishi kerak, vassalom.

Rostdanam muomalang anovi shapka kiyganlarga xush kelmadi, o'g'lim, dedi u salmoqlab. Faqat "qulluq", "xo'p bo'ladi"ga o'rgangan kattalar gap qaytarganni yoqtirishmay, qo'pollikni ko'tarishmaydi. Amakingning jon koyitganicha bor. Qisqasi, bu ishning yaxshilik bilan tugashiga meniyam ko'zim yetmay qoldi. Bunaqa savdolar elimizda yangilikmas. Biz shuni o'ylamabmiz, bolam, endi birdan-bir choramiz shu.

Amakiyu otaning gaplari shunchaki vahima emasligiga Beknazarning ham aqli yetib turardi. Bunday g'avg'oni bobosi mulla Ahmadali boshidan kechirgan. NKVD degan joyda olti kun yotgan. Olchoqlar diliqa xudo insof, shafqat solganmi, "Masjidga qadam bosmayman, namoz o'qimayman" mazmunida tilxat yozdirib, hartugul qo'yib yuborishgan. Barvasta, baquvvat odam bir hafta ichida ozib, rang-ro'yi bir ahvolga tushib qolgan edi. Tuzuk-quruq yemish berishmas, uydan olib borilgan ovqatlarni ham o'zlarini tinchitib qo'ya qolisharkan shekilli, ichkariga kiritishmas ekan. Unda Beknazар yosh edi. Bobo milisa hibsxonasining ranju g'urbati "mazasini" totib ko'rgach, Darmonqulga namozni jamoat deb o'tirmay, uysa, iloji boricha pinhona o'qiyver. Allohnning o'zi shohid, zamon bilan hisoblashmaslikning, hukumat yo'rig'i yurmaslikning iloji yo'q, deb tayinlay boshladi. O'zi ham namozlarni uyni ichidan berkitib o'qiydigan bo'lgan edi. Holbuki, u o'shangacha nabiralarini ham besh vaqt ibodatga, islomning besh farzi va boshqa vazifalarini ado etmoqqa undardi. "Dahriylar davlatining siyosati ko'chada, idoralarda hukmrondir, illo, uysa, qalbda ibodati islomiya bo'lmosi' zarur", deya ta'kidlardi. "Bu riyoga, ikkiyuzlamachilikka kirmaydi. Parvardigor e'tiqodni saqlash uchun chora axtarganni xush ko'radi", derdi. Milisaxonadan zax, qo'lansa hidlardan dimog'i achishib, yuragini mog'or bosganlarning hissizligi, berahmligidan ozurda bo'lib, populdirig'i pasayib chiquvdi. Uning shahdini batamom qayrib tashlashgan edi. Shundan so'ng oqsoqol o'g'liga arab tili, alifbosidan saboq berish fikridan ham qaytgan, hatto uni Darmonqori o'rniga Darmonqul deb atay boshlagan, boshqalarni ham shunga o'rgatgan, uni avvalgiday ma'raka-marosimlarga yetaklamay, Qur'on tilovat ham qildirmay qo'yan. Darmonqul aka ham bolalariga namoz, ro'za to'g'risida umuman gapirmasdi, o'zi imi-jimida sajdaga bosh qo'yib, ro'za tutib yurardi. Mana, endi bu falokatga yo'liqib o'tirishibdi. Bobosi "Arboblar bilan o'ynashish och yirtqichning g'ashiga tegish bilan teng", der edi-ya. Beknazар bu gapni endi esladi. Eslab mag'zini chaqa boshladi. Lekin bir o'zining jonini qutqarib, boshqalarga etak siltib jo'navorish insofdan emas-ku...

Sizlarsiz qayoqqa ketaman, ota? Qochsak, hammamiz birga qochaylik.

Yo'q, o'g'lim, bosh chayqadi Darmonqul aka. Onang bilan biz oshimizni oshab, yoshimizni yashagan, to'rimizdan go'rimiz yaqin odamlarmiz. Akang royish. Sen dangalroq, shitobroqsan. Biz qochib qayergacha borardik, qayta senga tushov bo'lamic.

Unda menam hech qayoqqa bormayman. Men ketsam, sizni qiyashlari mumkin.

Ja bunchalikka borishmas. Seni so'rav kelishsa, yolg'oni xudo kechirsin, sizlarning idorangizga ketgan bo'yicha daragi yo'q, bizam xavotirlanib o'tiribmiz deymiz.

Shu gapga ishonishadi deb o'ylaysizmi, ota?

Keksa odamning gapiga ishonishadi, o'g'lim. Bizdan xavotirlanma. Akangni hovliga ko'chirib kelamiz. Sen ko'p qiyinchilik bilan katta bo'lgansan, xudoga shukr, hamma havas qiladigan yigit bo'lib yetishding. Qo'limdan kelganicha seni elga qo'shdim.

Og'zingda o'rischa bo'lsayam ilming, qo'lingda hunaring bor. Faqat seni uylashda onang ikkimiz bir oz adashdik shekilli...

Opam nima derikin? dedi Beknazар otasining so'zini bo'lib.

Unga o'zim yotig'i bilan tushuntirib aytaman.

Xo'p, ota-ku masalaning jiddiyligini anglagani uchun ayriliqqa dosh berar, lekin o'g'ilginasi, nuridiydasining kechalari ko'chadan, guzardan qaytishini kutib, ovqat, choyini issiq o'rab, darvoza zulfinining shiqirlashiga quloq tutib o'tiradigan ko'ngilchan onaizorning judolikka sabri, bardoshi yetarmikin? O'zi-chi, nima gapi, istagi bo'lsa tortinmay ayta oladigan g'amguzori diydorini ko'rmay, uning yoqimli, tasallibaxsh so'zlarini eshitmay qanday chidaydi?..

Yo'q, sizlarni baribir tashlab ketmayman, ketolmayman! Qamashsa, qamashar...

Darmonqul akaning ko'z oldiga xizmatchi-xodimlari qo'rs, badqovoq, allaqanday yoqimB=siz hidlar anqiydigan, bo'yoqlari o'ngsiz, sovuq, tor xona devoridagi qora panjara va uning ortida ozib-to'zib so'rraygan, yuzlari ichiga botgan, soqlari o'skin Beknazarning tirqishdan mo'ltirab qarab turgan siyoqi keldi-yu, a'zoi badani titrab ketdi...

Ha, ota-bobosining bir wagon mol-dunyosini in'om etgan fidoyi mansabdorlarga-yu, umrini, butun kuch-quvvatini xalq ishiga tikkan olimu ulamolar, fozilu fuzalolarga zarracha rahm-shafqatni ravo ko'rmagan yuzsiz hukumat oddiy bir kambag'alning soddabayov, to'porigina farzandini ayab o'tirarmidi. Yo'q, ulardan ro'shnik, marhamat kutmoq borib turgan nodonlik, gumrohlikning o'zginasi.

Tavba de, jon bolam. Bular shunchaki qamab qo'yishmaydi, tepkilab yo och qoldirib qiyashadi, mayib qilishadi. Qanchadan-qancha ilmli, sal-pal savodi bor odamlar begunohdan-begunoh otib tashlandi, qanchasi surgunga jo'natildi. Bittasi qaytib keldimi? Juvonmarg bo'lib ketishingni istamayman, o'g'lim. Qayerda yursang ham, sog'-omon bo'lsang, bas. Allohnning musulmonlarga rahmi kelib, zamonlar charxi aylanar, inshollo... Podsholar yangilansa, davlatning tuzumi, siyosatiyam o'zgarib qolar, unda qaytib kelovrasan. Yurtdan bosh olib ketganlar ko'p, ularam diliida bir kuni qaytamiz, degan umid bilan jo'nashgan. Ularning ayrimlari bilan topishvolsang ajabmas. Azim hoji, Noraliboylarni Qashqarda deb eshitaman, o'shalar senga yo'l-yo'riq ko'rsatishib, yordam berishar. Ularni choyxonalardan, ustaxonalardan surishtirasan. Alloh yo'lingni ohib, Makatilloga yetib borsang, bilasan, Ro'zmat

amaking o'sha shaharda, orqavorotdan kelgan xabarlarga qaraganda o'ziga xiyla durustmish. Unda, bizniyam ko'nglimiz xotirjam tortadi. Taqdir nasib qilib, hoji bo'lib qaytsang, nur ustiga nur. Ishqilib, qaysi bir tarzda tinchligingni bilib tursak, bas.

Peshonamizga bitilgan bo'lsa, bizni akang bilan tepalab-tepalab ko'marsizlar. Sendan boshqa tilagimiz, tamamiz yo'q, zinhor xijolat chekmagin.

Beknazar yana ancha oyoq tirab turdi, akamni aytib kelay, kengashaylik, deb ko'rdi. Darmonqul aka ko'nmadni, u to'ng'ichi fikridan qaytarishga harakat qilib, boshqa yo'l ko'rsatib, ishni buzib qo'yishidan hadiksirdi. Ota uchun hamma farzand birday aziz, lekin nimagadir kenja o'g'il bo'lakcharoq, yurakka yaqinroq bo'ladi chog'i. O'zbeklarda aynan ana shunisi ota-onasi bilan birga yashaydi, padari buzrukvor unga suyanch sifatida qaraydi bu tug'ma bir tuyg'udir. Darmonqul aka ham Beknazarni joni-dilida ko'rар, unga bir tikan sanchilganchalik ozor yetishini sira-sira xohlamasdi, undan ko'ra ayrliqqa sabr qilish osonroq, ma'qulroq. Har qalay, o'g'lim ozod, salomat yuribdi degan o'y odamga taskin beradi-ku. Beknazar ham o'ziga hayot bag'ishlagan mehribonining izzat-ikromini joyiga qo'yishga urinar, ustachilikda yurishgan paytlarda unga iloji boricha yog'ochning yengil tomonini, ishning qulay joyini ro'para qilish, og'irroq, qiyinroq yumushlarni o'ziga olish payida bo'lardi. Qiblagohini shu qadar e'zozlab, avaylaydigan, qobil, solih o'g'longa havasi kelgan kishilar Darmonqul akaga "Biz ham o'g'il o'stirdik, deb yurgan ekanmiz-da, farzand tarbiyasini sizdan o'rganish kerak ekan, usta", deyishardi.

Yaratganning bizga ko'rsatgan karami bu, ming qatla shukr, hammamiznikigayam insof bersin, deb qo'yardi ota ham g'ururini yashirmay va zimdan iftixor bilan dilbandiga bir nigoh tashlab qo'yardi. Ha, ishqilib ko'z tegmasin...

O'z qishlog'iyu bir shaharni biladigan, bir kecha ham xonardonidan o'zga joyda tunamagan Beknazarning birdaniga manziliyu muddati noayon darbadarlikka "mahkum" etilishi uning ko'ngliga faqat oila a'zolari, yoru do'stalaridan, boshqa yaqinlaridan ayro yashash, ularni sog'inib zoriqish tashvishinigina emas, qanday yurtu ellarda tentirab, tili o'zga qanday kimsalarga javdirab, ko'mak o'tinib yuramanikin, degan hadikni, sarosimani ham solmoqda edi. Axir, odam bolasining o'z tug'ilgan go'shasidan oyoq uzib ketaverishi oson emas-da.

Agar bu yerda qolib, yuziga tund avzo berib gapirdi ota, dangalchililingga borib yana bir ish ko'rsatsang, ularni battar o'chashtririb qo'yishing mumkin. Unda hammamizga qiyin bo'ladi, yara pasodga aylanadi. Qochsang, seni yo'q desak, "ana keladi mana keladi" bilan kunlar o'tadi, yomon niyatlar hovuridan tushadi. Bolta tushguncha kunda dam oladi, o'g'lim. Meni, onangni o'ylasang, aytganimga kir, kegin pushaymon yeyishning foydasi yo'q.

Beknazar hamon ikkilanar, bir to'xtamga kelolmay iztirob chekardi. Tavakkal desa, vijdoni qiyonaladi axir qilg'ilikni qilib, juftakni rostlab yuborsa, xudo biladi, otasi bilan akasining boshiga qanday kunlarni solishadi? Xo'p demasa, ota xohishi. Qolaversa, padari buzrukvorining kuyinib tushuntirishlaridan so'ng uning yuragida ham g'imirlayotgan g'ulg'ula kuchaydi. Bobosining qaprali qulqlari ostida jaranglab, ota iltijosini quvvatlaganday bo'lardi: "Hibsxonasi shu bo'lsa, qamoqxonasi qanaqa bo'larkin? Qarimisan, yoshmisan, odammisan, itmisan, ochlikdan o'lyapsanmi diyishmasakan. Xuddi sen ularning arpasini xom o'rib qo'yganday, o'qrayib, tutrib o'tishovradiykan. Odamni ja xor qilib, xo'rligini keltirishvoradiykan..." Ha, na iloj, ota amri xudo amri, uch-to'rt oy ko'zdan g'oyib bo'lib turib, qaytib kelaman, deb o'yladi Beknazar ichida. Ota-bola vaqtincha O'shdagi, Beknazarning hatna to'yida pichma qo'y yetaklab kelishgan va sovrinning "idishqaytdi"si latta-sarpo vajidan ranjib, arazlab ketishgan, o'sha bo'yи o'lim-yitimdan o'zga mahallarda deyarli bordi-keldi qilmay qo'yishgan o'gay amma va pochchanikidan panoh topishni maslahatlashishdi.

Agar o'ng kelib qolsa, Qashqarga jo'navorovrasan, dedi Darmonqul aka o'g'lining yelkasiga qo'l tashlab. Shunday qilganing ma'qul. O'sh bir qadam, ishonib bo'lmaydi... Kelinni olib ketasanni?

Savolning befoydaligi ma'lum edi. Lekin ota har ehtimolga qarshi so'rab qo'yishni lozim topgandi.

Beknazar indamay boshini quyi soldi.

Mayli, o'g'lim, agar istasa, bizminan yashab turovlar, dedi Darmonqul aka mujmalgina.

Sizlarni diqqat qilmasmikin, ota? Yaxshisi, boshini ochib qo'yish kerakmikin? dedi Beknazar past ovozda, padarining norozilik alomati aks etishi mumkin bo'lgan nigohiga ko'zi tushib qolishidan cho'chiganday, bo'ynini yanada egib.

Darmonqul aka taraddudlandi. Qanday bo'larkin? Yaxshi niyat bilan kelin qilishuvdi. Qiz bechorayam bularning ostonasiga umid bilan, yuragida bir dunyo orzu-havaslar bilan qadam bosgan. Qudalar nima deyisharkin?..

\*\*\*

Safardan qachon qaytishim ma'lummas, shuniychun siz otalaringiznikiga keB-tovring, dedi Beknazar kelinchakka diydasini qattiq qilib. Juvonning qorachiqlari hayronlikdan, xavotirdan kengayib ketdi, og'zi ham lang ochilganicha qoldi. Kuyov nigohini yosh, yangi, lekin bag'ridan iliqlik qochgan qayliqning yuzi, ko'zidan chetga qaratdi. U garchi begunoh Rashidaga achinsa-da, o'z xulosasidan afsuslanmadni, "to'g'ri qilyapman", degan fikr kechdi xayolidan. Erning umr yo'ldoshiga "uyingga ketaver" demoqligi shariat, islomi nuqtai nazardan taloq hukmidadir. Islom ta'limotida oila mustahkamligi oliy, muqaddas hisoblangan va u "taloq" degan juda kuchli, keskin qonun bilan himoyalangan. Ana shuning uchun ham ilgarilari musulmonlar xonardonlarida qo'yidi-chiqli, ajralishlar nihoyatda kam bo'lgan, bu chora, ya'ni taloq hukmi o'zga tadbir qolmagan paytlardagina, boz ustiga, darajasi bilan qo'llangan. Hozir ham ayni o'sha ilojsiz payt edi.

Sirasini aytganda, zamona zayliga muvofiq, boshqa aksariyat yoshlari kabi diniy aqidalarga Beknazar ham ikkilabroq qarar va ularga amal qilavermasdi. Lekin hozirgi masalada otasi ko'rsatgan yo'l-yo'riq unga jo'yaliday tuyuldi. Tabiiyki, o'sha mahalda Beknazarning zavjai ojizasi ko'ngliga "Pushti panohim meni qo'yib yubordi, javobimni berdi" degan xayol kelmagandi, u faqat sovuq yangilikdan safar muddatining noaniqligidan esankirab qolgan edi (kuyovining xomush va o'ychan yurishlari sababini shunga yo'yib andak taskin ham topdi). Ammo, juvonning chaqaloqligida Juravoy so'fi tomonidan azon aytilgan qulqlari bilan eshitigan noxush jumlalar mag'zi-mohiyatini uning ota-onalari chaqib anglamoqlari kerak. Lekin qudalar ham mo'min, royish odamlar. Rashida ularga bo'lgan gapni aynan yetkazolmadimi yo umidli dunyo debmi, qizlarini kech kuzgacha qariyb besh oy qo'yib berishdi. Rohila opa kelinining shahdi past, g'amginligini ko'rib, rahmi kelganidan uning siqilgan yuragini yozish choralarini sidqidildan izlar mahalladagi to'y-ma'rakalarga (odatda Rashida bunaqa izdihomlarga yurishni ham uncha xush ko'rmasdi) Rahimani qo'shib, zo'rlab chiqarar, "Otangiznikiga borib, bermalol yayrab kelavering" deb jo'natardi. Biroq qizning o'z hovlilarida ham chehrasi ochilmas, bir-ikki kun turgach, bezovta bo'la boshlar, nazarida Beknazar kelib, uning yo'qligidan astoydil xafa bo'ladiganday tuyular va zdulik bilan bu yoqqa chopardi. Uyga kelgach, tarvuzi qo'ltig'idan tushib, qallig'ining javondagi ko'ylik va boshqa ichki kiyimlariga yuzini bosar, u bilan birga bosh qo'ygan yostiqlarni quchoqlab, badanining izlari qolgan choyshablarni paypaslab silab, charos ko'zlaridan yosh to'kib uzoq-uzoq o'tirardi. U Beknazarni yaxshi ko'rар, unga tegib, ko'p

qizlarni armonda qo'yganidan boshi osmonda edi. Shuning uchun kuyovining unga nisbatan beparvoligi, erkalatib suyavermasligini uning sal odamoviroqligi, tili qattiqligidan, qizlarga befarqligidan ko'rар, yaqin bo'lib ketishlariga juda-juda ishonardi. Beknazarning undan o'zini tortibroq yurishini sezib-sezmaganga olar, illo uning ra'yini aslo qaytarmas, sadoqatli posbon, sodiq xizmatkorday mudom ko'ziga qarab, amriga muntazir turardi. Zero, u xotin zoti erving har qanday xohishiga hamisha hoziru nozir bo'lishi kerak degan hadisga amal qilishga, shu yo'l bilan uning ko'ngliga kirishga urinardi. Beknaz ar esa qaylig'ining vafoli, itoatlari yostiqdoshga xos fazilatlarini qadrlagan holda, unga ilimagani, iliy olmayotganidan o'zi ham qayg'urardi. Yuqoridagi hodisa shu jihatdan uning ishini "o'nglaganday" bo'ldi.

\* \* \*

Beknazarning tuyqis "safari"ga onaning munosabati, hayrati kelinnikidan kam bo'lmaidi. Erkaklarning o'zaro visir-visiridan, allanechuk bezovta alfozlaridan Rohila opa xavotirga tushuvdi. U ham harakatchan, tirishqoq Beknazarini jon-dilida ko'rар, unga mehri baland edi, nuridiydasining undan ikki sinf yuqori, hammahalla oshnasi Shahobiddin bilan kechalari ayvon tomida oy yorug'ida kitob o'qib yotishlarini o'zicha baholab, "Hay, Xolnazar (er-xotinning bir-birovini to'ng'ich farzandlarining ismi bilan atash odati yaqin-yaqingacha ham bor edi), bu boladan bir kattakon chiqadi-yov, shunisidan ko'ramiz shekilli" derdi quvonchini, g'ururini ichiga sig'dirolmay. "Inshoollo, aytganing kelsin", deb duo qilardi Darmonqul aka. Beknazarning katta o'qishga kirmaganiga ona qanchalar kuyingan, ota esa: "Qo'yovur, o'g'ling o'ris ilmida (boyoqish dunyoviy ilmlarni shunday anglardi) olim bo'lmasa ustachilikni qo'limdan olar", deb zo'rg'a ovutgan edi. Tomdan tarasha tushganday, "Beknaz safarga jo'nayapti" degan gapdan u ham Rashidaga o'xshab gangib, sarosimalanib, ovozi ham chiqmay qoldi. "Qanaqa safar, qayoqqa?" so'radi u bir ozdan keyin nafasini rostlab. Kitoblar mashmashasi, rayondan keluvchilar tashrifining sababi ayollarga mumkin qadar yumshatib aytigan, Beknaz "Mening uzoq yo'lga otlanayotganimni onamizga zinhor aytta ko'rmang", deb kelinni pishiqtirgan edi. Zaifa zotining ko'ngliyam, tiliyam bo'sh bo'ladi-ku, bir pasda mahalladagi xotinlarga hasrat xaltasini to'kib, hamma yoqqa ovoza qilib yuborishi hech gap emas-da.

Podadan oldin chang ko'tarma, qo'shnilar yugurib chiqishmasin, uqdirdi Darmonqul aka muloyimlik bilan. O'g'ling dunyoning narigi tomoniga ketayotgani yo'q, Busora opamizning tobi qochib, ayttilvoripti. Xabar olib, besh-o'n kun qarashib keladi. Bechoralarning bolasi yo'q, pochchayam qarib qolgan. Shuniychun sal uzoqroq turishiyam ehtimol.

Bu xonadonda ham o'sha paytlardagi aksariyat musulmon oilalaridagi kabi otaning so'zi so'z, amri vojib edi. Binobarin, Rohila opa ortiqcha diydiyoning foydasizligini yaxshi bilardi. Unsiz nolasi, xo'rsinig'i pasayib, ko'z yoshlari tinguncha yuzini Beknazarning keng kiftiga bosib turdi. U erining tasalli so'zlari yo'liga, uni ovutish uchun aytgilanini, ota-o'g'ilning xufiyona tadbir-tadoriklarida g'ayri bir taraddud, reja yashirinligini onalik hissiyotlari bilan tuyardi. Qolaversa, Rahima ko'chadan ancha-muncha mish-mishlar topib kelib onasiga bir uchini chiqaruvdi. Beknaz suyukli singilginasiga onalariga bildirmaslik sharti bilan olisroqqa ketayotganini shipshib qo'yan edi.

\* \* \*

Rashida qaynsinglisi bilan tayyorlashgan ust-bosh, non, turshak va boshqa mayda-chuydalar solingen ikkita tugunni erining qo'liga tutdi. Xuddi shu paytda Beknaz unga otasi shama qilgan gaplarni o'zini sovuqqonlikka solib aytdi. Odamning yuzi issiq, bir ko'rpara yotgan tanmahramiga ko'ngilsiz xabarni, judolik daragini, ayniqsa "javob" ma'nosidagi ishorani yetkazish naqadar og'ir! Kelinchak bundan yarim soatcha avval to'satdan yo'l anjomlarini hozirlashni buyurguncha ham jufti halolining safarga aynan bugun jo'nashi va boshqa niyatidan voqif emas edi. U odatdagiday, shu oqshom ham uylariga barvaqt kirib, bor ko'rpa-yakandozni to'shab, qalin joy solib qo'yuvdi. Fayri shuuriy ravishda o'ringa bir qarab qo'yan Beknaz gapini tugatar-tugatmas, boyadan beri anqayib turgan Rashida sharitta orqasiga o'girildi-da, joy chetiga cho'kkalab, kaftlarini yuziga bosganicha yig'lab yubordi. Uning ko'z yoshlari ayriliq qo'rquvi, iztirobining ifodasimi yo'ozi tutilib-tutilib tiliga chiqargan so'zlarning alam achchig'imi yigit anglamasdi. Erkak og'ushining naqadar huzurbaxshligini tuyib, qaylig'iga qattiq ko'ngil bog'lagan hamda yoshligiga borib, hayotning, yashashning nash'u namosi, ayollik rohati, baxti baxtiyor yostiqdoshlikdan iborat ekan, degan xulosaga kelib ulgurgan juvon o'sha qimmatli boylikdan, taqdir ato etgan bemisl ne'matdan ajralib qolayotganidan tahlikaga tushib, birdan o'zini yo'qotib qo'yan, g'am o'tida qovurilardi. U chayon chaqqanday sapchib o'rnidan turdi-da, erining bo'yniga osilib, yuzini uning tomog'i ostiga ishqay ketdi. Bir ozdan keyin esa yana baralla xo'ngray boshladi. Beknaz uning changak kabi mahkam qisib olgan qo'llarini yelkalaridan bo'shatmoqqa urindi.

\* \* \*

Beknaz hovliga chiqqanida oila a'zolari chorpoya yonida tik turgancha asta-asta gaplashishardi. Faqat Rahima chorpoymadan nariroqdagi loysuvoqli yero'choqqa g'o'zapoya qalardi. Atrof qorong'i bo'lsa-da, yigit gulxan yorug'ida singlisining yuzlari cho'g'day qizarib, bo'g'riqib ketganini ko'rди. Akasiga ko'zi tushgan qiz o'choqdagi qumg'onni qop-qora dastmol bilan ko'tarib oldida, biqinidagi alyumin tog'oraga ag'dardi. Idishga bug' orasidan qaynoq suv bilan birga bir nechta tuxum shaloplab tushdi. Rahima tog'orachani yonboshlatib qaynoq suvni to'kib yuborgach, tuxum ustiga sovuq suv quydi, keyin tuxumlarni bir qiyiqqa tugib shoshib keldi-da, bo'xchaldan biriga joylashtirdi. Beknaz bu paytda akasi Xolnazarning quchog'idan ajralib, otasi bilan bag'irlashmoqda edi. Novchaligi uchun uning boshi padari buzrukvoridan tepada turardi u amakilariga tortgan edi. Qiblagohining issiq og'ushidan chiqar ekan, uning ko'zlarida yosh g'iltilayotganini ilg'ab, ko'ngli buzildi, xo'rsiniq tomog'iда g'ilqillab turib oldi. U onasiga yopishdi. O'g'lining keng qo'yniga singib ketgan ushoqqina jussali Rohila opa oshkora, faqat tovushini baland ko'tarmasdan yig'lardi, shu holatda u jigarporasini qo'yib yuborishni xayoliga ham keltirmayotganga o'xshardi. Uning yonida esa Rahima Beknazarning zabardast yelkasiga boshini qo'yanicha obidiyya qilar, gavdasi bilinar-bilinmas silkinardi. Tortinchoqqina singiljon qizlarning havasi keladigan shu akasi bilan faxrlanar, unga erkalanardi. Shu akasidan cho'chib, ancha-muncha yigitlar unga tegajoqlik qilishga botinisholmasdi. Beknaz ham esli-xushli ma'suma qizaloqni xalq dostonlari qahramonlariga o'xshatib, "Meni Parizod singlim" deb suyar, "Seni hech kim xafa qilmayaptimi, birontasi jig'ingga tegsa, menga aytgin, a", deya rag'batlantirib qo'yardi. Suyanchi, himoyachisining shundoq zo'r yigit bo'lishiha qaramay, qayliqdan omadi chopmaganiga u ham achinar, orzulagani apoq-chapoq, sirdosh bo'lib yurishga loyiq ochiq chiroy kelinoyi uchramaganidan yana afsuslanardi. Bu borada o'zini ham aybdor hisoblardi. Rashidalar qo'shni qishloqda yashashgani, birda-ikkida yaqin hamsuhbat bo'lishmagani sabab, uning qanaqligidan, to'g'risi, bexabar edi. Shuning uchun ikkilanuvdi, lekin o'sha tomonlik qizlardan tuzukroq surishtirib ko'rish esiga kelmagan ekan. Ba'zida xafa bo'lib, onasiga: "Sizga aytuvdim-a, u qiz akajonimga munosib bo'lmasa kerak deb,

qulqo solmadingiz", deb ta'na qilib qolar, Rohila opa esa: "Lekin manaqa fe'li bor demagansan-da, bolam, unisini senam bilmagansan-da, to'g'rimi? Umas, bumas, taqdir. Esi-xushi joyida, saranjom-sarishtaykan, shunisiga shukur, keyin-keyin ochilib, damligi yozilib ham ketar...", deb qizining ko'ngil xijilligini tarqatish payida bo'lardi. Beknazар bu haqda hech kimga og'iz ochmagan, og'iz ochmoqchi ham emas edi. Har nechuk, hamdilligi, hamdardligi uchun sezgir, ziyrak singlisiga nisbatan Beknazarda ixlos, mehr yanada ortgan edi. Hozir u shularni ko'nglidan o'tkazar ekan, shunday mehribon, g'amxo'rларимни tashlab ketamanmi, degan nadomat, ularsiz kunim qanday o'tadi-yu, holim nima kechadi, qayerlarda, qancha vaqt izg'ib yurarkinman, ishqilib tezroq qaytib kelish nasib etarmikan, degan tashvish va xavotir qalbini kemira boshladi. O'sha badbaxtlarga darvozani lang ohib, kelinglar, kelinglar, akajonlar, deb, qo'lini ko'ksiga qo'yib tursa bo'lmasmidi? Lekin, baribir itilagini, to'ng'iz to'ng'izligini qilaverardi. Qolaversa, Beknazар murosayu madora, mulozamatu iltifot boralarida no'nogroq, o'jarroq edi, dangalchilikni yoqtirardi, dilidagi bir zumda yuziga va tiliga lop etib chiqadiganlar toifasidan edi. Agar shu fe'li pand bermaganida balki joni-jahonlari validai azizi va singlisi hozir ohu fig'on chekib, o'zining ham ichini it tatalab turmagan bo'larmidi...

Beknazар nima qilay deganday, otasiga iltijoli boqdi, lekin Darmonqul aka bu qarashning ma'nosini o'zicha tushundi.

Bas endi, yo'ldan qolyapti, dedi u va hammani noxush holatdan chalg'itish uchunmi, "Pichog'ingni oldingmi, Bek" (ota o'g'lini ko'pincha, xususan unga mehri tovlangan paytlarda shunday atardi), deb so'radi.

"Bosmachilik" deb atalgan davrlardan keyin sovuq aslaha sifatida pichoq olib yurish yozilmagan qonunlar asosida bir muncha taqiqlangan bo'lsa-da, ikkinchi jahon urushidan so'ng katta yoshdagи erkaklarning uni chorsи bilan beliga taqishi, yigitlarning esa kamariga bog'lab, shimming cho'ntagiga solib yoki etik qo'njiga tiqib yurishlari qayta taomilga kirgan edi. Ancha-muncha pichoqbozliklar yuz berib turishiga qaramay, ota-bobolardan davom etib kelayotgan udum bo'lgani uchunmi, har qalay, bu yarog'ni butunlay man etishni, aftidan kattalaradolatdan deb bilishmasdi.

Keyinchalik mana shu matoh bo'limganda boshimga shuncha sho'rishu g'avg'olar tushmasmidiykin, degan gap Beknazarning ko'p bora xayolidan o'tdi. Ammo o'shanda u eng kerakli ashyosini yodiga solgani uchun padari buzrukvoridan minnatdor bo'lgan edi. Aslida uning o'zi ham pichoq taqishni yigitlik martabasi mezonida ko'rardi. Yonboshida kamarida yarqirab, yurganida soniga tegib turadigan bu qurol erkak kishiga qandaydir salobat, mardona siyoq berardi go'yo. Darvoqe, sharq xalqlari, jumladan, o'zbeklar orasida xotin, bosh kiyim, ot va pichoq azaldan g'urur, or-nomus maqomida yuksak qadrlanib, e'zozlab kelingan va bu narsalar hech kimga, hatto eng yaqin odamga ham bir jiddiy sababsiz berilmagan. Zamonning, inson dunyoqarashining shu qadar tez evrilihini qarangki, deyarli yarim asr ichida do'ppi, pichoq, ot ham urfdan iftixor, hamiyat timsolligidan chiqdi... Ayol esa xorijma-xorij tijoratda.

Beknazар otasining so'rog'idan keyin "iy-y-i" dediyu uysa qaytib kirdi. Rashida yig'idan tingan, biroq hamon bolish quchoqlab yotgan edi, erini ko'rдиyu irg'ib turib yana bo'ynidan quchoqladi. Yigit garchi bir necha daqiqqa burun taloq mazmunidagi gapni aytib qo'yan, shariat qoidasi bo'yicha endi ular nomahramlarga aylanishgan esa-da, unda mehr-shafqat tuyg'usi uyg'ondi, jig'ibyron bechora, begunoh kelinchakni o'zidan itarib tashlashga jur'ati yetmadi, to'grirog'i ko'ngli chopmadni, uni asta bag'ridan ajratib, ikki kiftidan omonatgina tutdi, unda birrov kelinchakning yosh izi qolgan yuzlaridan yengilgina o'pib qo'yish fikri tug'ildi, ammo shu zahoti bu ahidian qaytdi, juvonni o'ziga xiyol tortib, boshiga iyagini qo'yanicha bir lahma turdi. "Chakki qilyapsan, bu ishing nojoiz endi", derdi ichida bir ovoz. Rostdan, balki oddiy insoniyalda, yupatish ma'nosidagi mana shu ayash, rahmdillik izhori keyin Rashidaga umid berib, uni shu xonadonda bir necha oy tutib turgandir. Albatta, u ham ko'p qatori ojizai benavo bir banda, uning ham qalbi, xohish-istiklari, hissiyat va tuyg'ulari bor, binobarin, u ham boshqalarday sevib-sevilishga, oila qurib yashashga, o'zini kimgadir baxsh etishga, baxtli bo'lishga haqli... Nochor, nomukammal mardumlarning saxvu xatolarini to'g'rilab, dunyo ishlarini muvozanatga solib turuvchi Parvardigor uni ham tashlab qo'ymas...

Beknazар uy burchagida, devordagi mixda ilig'lik muguz sopli, amirkon qinli pichoqni oldi-da, yo'l-yo'lakay uni o'sha paytda rasm bo'lgan paxtalik fufaykasi ostidan kamariga bog'lashga tutingan chog'da, fikri o'zgarib, sarg'imtir xrom etigining qo'njiga tiqib, hovliga chiqdi.

Yarog' erkak kishining hamrohi, dedi ota, faqat uni joyida, yaxshilikka ishlatish kerak.

Xolnazar ona bilan singilni ukasidan avaylabgina ajratdi. Ikki mushtipar ojiza o'z jigargo'shalaridan umrbod ayrilishayotganday, bir-birlarini quchib hiqillashardi.

Qani, qo'lingni och, duo qilaylik, ovozini ko'tarib ayolini undadi Darmonqul aka va Beknazarga yuzlanib yirik, qadoqli kaftlarini yozdi: Alloh panohiga topshirdik. Parvardigor seni faqat yaxshi odamlarga yo'litiqtsin, o'zidan boshqaga muhtoj qilmasin. Eson-omon diydor ko'rishguncha... Ota bir nima yodiga tushganday xotini tarafga bir ko'z tashladi-da, qo'shib qo'ydi: Ammang, pochchanglarga bizdan qattiq duo degin, oy borib, omon kel...

"Qulxulloahad"ni, "Qulauvzu"ni o'qib yurish esingdan chiqmasin, bolam, tayinladi yig'idan tiyilmagan ona.

Biz sizni sog'inib qolamiz, tezroq qayting, akajon, o'tinib iltijo qildi Rahima.

Omon bo'linglar... Beknazар qancha harakat qilmasin, onasi oldida o'zini shunchaki qisqa fursatl safarga ketayotganday qilib ko'rsatishning uddasidan chiqolmayotgandi. U yana Xolnazarni quchoqladi. Aka!.. Shu birgina kalom talaffuzida bir dunyo mazmun mujassam edi. Ikki tug'ishgan birodar ayrim og'a-inilarga nisbatan ahil edi. Albatta, ular orasida ham kelishmovchilik, ziddiyat chiqib turardi Xolnazarga otasi Beknazarni avaylab, og'ir yumushlarni ko'proq bunga buyuradiganday tuyulib, gohida tumrayib olar, erka ukasiga g'ashlanib, bir-ikki kun arazlaganday yurardi. Keyin u singillari Rahimaning ham o'zidan ko'ra Beknazarga hurmati bo'lakcharoqligi, bunga aytmaydigan sirlarini ukasi bilan o'rtoqlashishini payqab ichida andak kuyayotganga o'xshardi. Shunga qaramay, undan ajralish ham Beknazarning yuragini simillatmoqda edi. Hozirgi "Aka!.." degan iltijoli xitobda esa o'kinch, uzr ohangi, ota-onamiz ham, singlimiz ham sizga qolyapti, ularni ehtiyyot qiling, mening yo'qligimni bilintirmang, bu notavon iningizni eslab turing, degan o'tinchlar bor edi. U kipriklariga sizib chiqayotgan yoshini ko'rsatmaslik uchun yuziga fotiha tortish bahonasida barmoqlarining uchi bilan mijjalarini siypaladi.

V

Ikkita tugunni yelkasiga xurjunday osgan Beknazар yarimta oy atrofidagi yulduzlar kechqurungiga nisbatan siyraklashgan, tong yorishgan-yorishmaganini farqlash qiyin bo'lgan, odatda otasi ko'pincha anor sotgani bozorga jo'naydigan pallada darvozadan chiqdi, shu paytda u o'zini beixtiyor qalandarlarga mengzadi. Tor ko'chalari shaharga eltuvchi asosiy yo'l bilan tutashgan joygacha bir chaqirimcha masofaga piyoda yurish kerak. Atrof sokin, hatto qo'shnilarining "og'zi ochiq" sovlig'i ham ma'ramasdi. Bahorning beqaror, salqin shabadasi yigitning yoldor ko'kraviga xush yoqar va bir oz junjiktirardi. Yoz nafasi kelib qolgan bo'lsa-da, hali tunlar uncha isib ketmagan edi.

Bugun yakshanba bozor. To'rtko'chada kirakash mashinalar bo'lishi kerak. Chorraha qishloq markazi, asosiy guzargoh, bozorchilarning bekat pakkasi ham edi. Qishloq odamlari tomorqalariga asosan anor, behi, uzum ekishadi va ko'pchilik mevalarni qishi bilan saqlab, ko'klamda ilik uzildi, pul uzildi mahalda sotishga o'rganishgan. Go'sht-yog', sabzi-piyoz va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini shahardan olib kelishadi. Beknazarlarning hovlisida ham o'ttiz tupcha anor bo'lib, ulardan besh-olti yuz kilo hosil olishadi. Asosiy ulgurji daromadlari shu. Bir qismini anor pishig'ida, qolganini bahorda pullashadi. Mavsumda arzon, barakasiz bo'ladi-da. Ota boyoqish saharga yaqin turib, oqshom xamir qoradigan tog'oraga gumbaz shaklida terib, katta etakka yo dasturxonga tugib-rostlab qo'yanan orqasiga xuddi bolani opichlaganday choponi etaklarini qayirib, ko'tarib chiqib ketadi. Darmonqul aka bozorga xushi, sabri yo'q, ham tajribasiz o'g'llarining anorni ko'tarasiga, arzon berib yuborishlaridan bezillab, ham ayni uyquga to'ymaydigan davrlarida ularni ijirg'antrimaslik uchun bozorga o'zi qatnardi. Doimiy kira qiladigan, shu qishloqqa o'rgangan tepasi brezent bilan yopilgan, orqasi ochiq bitta yuk mashinasini (uni вЂњkapalikвЂќ mashina deyishardi) bo'lib, u ham boshqa joydan kelardi.

Beknazar o'nqir-cho'nqir yo'lidan xayol surib borarkan, xo'p, Andijonga-ku yetib olarman, keyin O'shga qayerdan, qanday ketarkinman? Ishqilib, hozir kapalik mashina bo'lsin-da, deb g'udunglardi. Negaki, gohida o'sha bittayu-bitta kirakash ulov ham kelmay qolardi. Beknazar yorug' tushmasdan qishloqdan chiqib, iloji boricha tezroq shaharga yetib olishi zarur edi.

To'rtko'chada, shoxlari tarvaqaylagan qari tut ostida sakkiz-o'n chog'lilik, asosan katta yoshdag'i kishilar cho'nqaygancha davra qurib gaplashib o'tirishar, yana ikki-uchtasi tosh yotqizilgan yo'lida u yoqdan bu yoqqa ohista yurishardi.

Ha, Beknazar, bozorgami, oqsoqol dam oldimi? so'radi yurib turganlardan biri, mahalladosh Erkinboy aka.

Ha, qisqa javob berdi Beknazar va boshqalar ham gapga tutib qolmasin, deb tugunlarini bir chetga qo'ydi-da, cho'nqayib o'tirib oldi.

Nihoyat, вЂњkapalikвЂќ mashina keldi, odamlar, tog'ora, qoplar o'rnashdi. Yo'lga tushdilar. Beknazarning ko'nglida hadik, hayajon, shuurida O'shga yetib olish tashvishi, arazlab yurishgan o'gay amma va pochchalar qanday munosabatda bo'lisharkin, qayerda qo'nim toparkinman, qochishim to'g'ri bo'ldimi o'zi, anovi xudobexabarlar otamni kattam singari tergov qilib, u yoq-bu yoqqa sudrab qiyashsa-chi?.. degan, keyin ham yuz martalab takrorlangan savollar aylanar, ular javobsizligi bois, yuragiga g'ashlik solardi.

\* \* \*

Qarindoshlar Beknazarni boshda iliq qarshilashdi, biroq ikki-uch kun o'tib, mehb-monning bexos tashrifi sababidan voqif bo'lishgach, uni tezroq jo'natib yuborish payiga tushib qolishdi. Pochcha bezovtalanib, Qashqar tomoniga ketadiganlarni surishtira boshlagan, bu sa'y-harakatlarni jiyanga mehribonchilik, g'amxo'rlik niqobiga o'rab ko'rsatishga urinardi. Beknazar xonadonning halovatini buzganini anglab, "Men QashB-qarga o'tishdan aynidim, o'ylab ko'rsam, uydagilarni tashvishga qo'yib ketishim to'g'ri emas ekan, shuning uchun Anjanga qaytaman", deb chiqib ketdi. O'sh soyi bo'yidagi choyxonaga tushdi. O'zi kabi bo'yodor, yoshi bir joyga borgan, yuz terilari, baqbaqasi bir oz osilgan, lekin gap-so'zi, qarashlaridan ancha hushyor va dadil choyxonachiga tavakkal deb dil yordi. Pochchasi O'shda Beknazarga o'xshagan qochoqlarni Qashqar tomonlarga yashirin yo'llar bilan olib o'tib qo'yadigan yovqur, devkor yigitlar borligiga shama qiluvdi.

Ha, shunaqalar bor, dedi choyxonachi, Beknazarning rost, samimiy gapirayotganiga shubhalanmay va ulardan birining manzilini tushuntirib qo'ydi.

Begmat sor laqabli ovchining hovlisi shaharning mag'rib qismida, Zahiriddin Muhammad Bobur toshdan hujra soldirgan Sulaymon tog'i poyidagi mahallada edi. Beknazarning baxtiga u uyida ekan. Muddaoni bildirish asnosida ko'rgilagini bo'yamay-bejamay gapirib berdi, chunki najotkorga yolg'on so'zlashi o'ziga nisbatan ishonch, hurmat ildiziga bolta urish demak-da.

O'sha mahalda navbatdagi qatag'on uyurmasi yana butun ittifoq bo'ylab g'uvullab, har tomoniga uchar, yo'lida duch kelgan ezgulik, ziyo daraxtlarini qo'porib, chirpirak qilib, tubsiz jarlarga itqitib tashlamoqda edi. Beknazarning boshiga tushgan savdo birligina uning qismati emas, Begmat sor buni yaxshi anglardi. Buni nafaqat unga o'xshagan xaloskorlar, balki butun xalq bilardi, lekin kim "girdibod" dan nolib hasrat qilsa, yozg'irma, holiga voy edi to'zon uni ham omon qo'yemasdi. Zero, to'zon "tashkilotchilar" ga zid bir so'z demoq kuyikkun urg'ochi sherning jig'iga tegish bilan barobar edi. Begmat sor ham alamzadalardan edi. Shaxsiy kutubxonasida Lenin, Stalin to'mlari to'la emasligi, aksincha, kommunistik tarbiyaga xizmat qilmaydigan ko'plab kitoblar saqlagani uchun kitobdor tog'asi, butun ma'naviy boyligi musodara qilinib, o'zi o'n yilga kesib yuborilgan edi.

Chegara siyosati qattiq, Qashqar bilan bordi-keldiga ruxsat tugul, hech qanday imtiyoz ham yo'q, yashirinchha o'tishga uringanlarga jazo shafqatsiz edi. Shunga qaramay, tirk jon iloj qidiraveradi. Tavakkalchilik, yashash uchun qulay shart-sharoit yaratishga intilish, nekbinlik qon-qoniga singib ketgan inson, ertaga yo boshqa joyda besh battar mashaqqatu riyozaatlarga duch kelishi muqarrarligini notinch ko'ngli sezib tursa-da, ilinj bilan talpinaveradi.

Begmat sor Beknazarga uning yolg'iz emasligini, ikki-uch kun ichida yo'lga chiqishlarini aytib, ko'nglini tinchitdi, kutilmagan mehmonni o'rdak go'shti bilan siylab, unga qator tushgan pastak uylari chekkasidagi bir xonani ajratib berdi. Beknazarning diliqa yorug'lik inib, o'zini erkinroq, dadilroq tuta boshladi, unda Qashqarga o'tib, u yerda otasi aytgan kishilarni uchratishga ishonch uyg'ondi. Qishlog'idan chiqqandan beri uyqusi chala-yarim, behalovat edi, katta bir dovonni zabit etgan, yo'lining bu yog'i oydinligiga shubhasi qolmagan kimsadek miriqib kerishdi. Rashida qavat-qavat qilib to'shaydigan o'rindan ham huzurliroq, yumshoqroq tuyulgan yupqagina ko'rpachaga cho'zilib, chuqur nafas oldi. Kun botishga qaragan darchadan kirayotgan ancha salqin, ammo yurakka orom beruvchi yoqimli shabadadan badani ham yayradi.

## VI

O'sh Ergashtom dovon yo'lida qariyb uch kecha-kunduz yurishdi. Adirlar, dovon, daralar, changalzorlar oralab o'tgan, asrlar davomida ostki qatlamlari toshday qotib qolgan, ammo yuzasi yog'ingarchilikda sirpanchiq loyga aylanadigan ensiz yo'l goho narigi boshigacha ko'rinish turganday to'g'ri, tik, goho ilang-bilang arg'amchini eslatardi. Ular Begmat sor, uning sheriqi Osman, Beknazarga taqdirdosh Dadamat va Toshtanboy aka bilan uning nimjon va kasalvand o'spirin o'g'li Alisher jami olti kishi edilar. Safarga chiqishgan o'zaro yaqin odamlar singari gurunglashib ketishdi. Osman novcha, qotma, ammo jussasiga nisbatan kallasi kattaroq o'ttiz yoshlardagi qirg'iz bashara yigit edi. Uni tanishtirarkan, Begmat ovchi "Buning asli oti Usmon, ammo metrika beradiganlar osmonlarga yetib yursin, deb o'zgartirib qo'yishgan", deb hazillashdi. Darhaqiqat, Osmanning boshi hammanikidan baland, oyoqlarining uzunligidan tizzasini tepaga ko'tarib, bukib ot qorniga niqtardi. Begmatning ayg'iri gavdali, ko'r kam bo'lgani sabablimi, Osmanning kulrangga moyil yo'rg'asi xachirga o'xshab ko'rindi. Begmat sor, aftidan, jo'rasining qahqahasiga

ishqibozu, hozir vaziyat taqozosiga ko'ra, o'rinsiz jarangli kulishlarning damini kesishga, ehtiyoitlanishga harakat qilayotganday tasavvur uyg'otardi, boshqalarni ham hazil-chin aralash ogohlantirardi. "Qiziq gap, afandi aytish yo'q. Osman bir xandon ursa, naq hammamiz qo'lga tushamiz". Shunga qaramay, diqqinafas bo'lib ketganida yo qadrdon kulgini qo'msab qolganida, behadikroq joyda ajibroq gap bilan birodarini bir xaxolatib xumorbosdi qilib olardi.

Boshqa mahal mayliyu, gezada sovuqdan titrab-qaqshab o'tiramiz, endi churrak xo'rakka tushganda qahqaha urib o'ljani uchirvorgani chatoq.

O'zingam tek turmaysan-da, dedi Osman miyig'ida jilmayib. Qo'lim tepkiga borishi bilan, ketiga otma, churrasini mo'ljallama, deb odamni kulgisini qistatasan. O'lgandan keyin baribirmsimi?

Yo'q, baribirmsas, churrakchi, e'tiroz bildiradi Begmat jiddiylik bilan. Erkak zoti uchun bunaqa qismat bilan o'lish juda alamli-da, to'g'rimi, birodarlar?

Biroq boshqalarning ko'nning kulgu sig'mas, ular o'z hadik va tashvishlari bilan band edi. Baqaloqroq, ellikni qoralagan Toshtanboy ko'rinishdan o'n ikki-o'n uchlari orasidagi (aslida murti sabza urib qolgan) o'g'li Alisher bilan ancha yillar muqaddam Qashqarga o'tib ketgan otasini yo'qlab borishayotgandi. Bundan uch haftacha ilgari padari buzrukvorining og'ir betobligi to'g'risida xabar kelgan, Begmatga qarab, hayallahsgan edi. Uning fikri-yodini otam tirikmikin, ishqilib diydor ko'rishish nasib etarmikin, degan xavotir chulg'ab olgandi.

O'rta bo'yli, qoramag'iz, o'ttiz sakkiz-qirq yoshlar chamasidagi Dadamat, uning ham azon aytilgan ismi Dadamuhammad bo'lishi kerak, og'ir vazminligidanmi, bir oz sust ko'rinar, qarashlari ham sokin edi. Yemagan somsaga pul to'lagan, ya'ni viloyat taftishchilar boshqarmasida ishlaydigan bir xeshiga yengil mashina olish uchun ismi-familiyasini "berib turishi" o'z boshiga balo bo'lgan edi. Tuman ichki ishlar bo'limiga chaqirishib, shuncha sarmoyani qayerdan topgansan, demak, biror quloq qarindoshingdan tilla-pilla meros qolgan, yana mashinani katta foydaga pullagansan, ya'ni chayqovchilik bilan shug'ullangansan, deb rosa tinkasini quritishgan. Dadamat jigarini sotgisi kelmagan, taftishchi unga "Pulni qarindoshlardan qarz ko'taruvdim, o'qib, hujjat olgunimcha minib turish uchun bo'lama bergenman deyavering", deb gap o'rgatgan. Lekin melisadagilar anoyi emas-da, tergashda davom etishgan, yakka holda do'pposlathishgan, bir natija chiqishiga ko'zlar yetmay, oxiri ishini sudga oshirib yuborishgan. Voqeanning bunaqa tus olishidan vahimaga tushgan Dadamat qochvorgan va O'shga kelib, u ham Begmat sorga yo'liqqan edi.

Ular o'sha kuni yarim tunda yo'lga otlanishdi.

Tong otguncha aholi qalin yashaydigan ovullardan, Oloydan o'tib, dovon yo'liga yetvolishimiz kerak, dedi Begmat sor.

\* \* \*

Kiftiga qalin, oppoq ko'rpa yopilgan tog' yaqinlashgan sayin izg'iriq avjga minar, ayniqla, subhi sodiqda kun chiqishga qor zahri kelayotgan tarafa qarab yurish uqubatli edi. Quлоqlar chimillab, qarog'lar yoshlanar, burun tuklari qirov bog'lab tortishar va achishtirardi. Yo'lovchilar boshlarini yonboshga burib yo badaviylarday yuzlarining ko'zdan tashqari qismini qiyiq bilan o'rabb chirmab olishadi. Nam tortgan kipriklarini, bir-biriga yopishib qolishidan qo'rqib, tez-tez pirpiratib yurishga harakat qilishardi. Daxan sal ochilsa sovuq tanglayni, kichik tilni ham chimillatar, shuning uchun hamma lablarini qimtib, miq etmay ketardi. Izg'irin ustki kiyimlarning peshini shiddat bilan qayirib, boldir, sonlarga urib dirillatadi. Peshlarni kuch bilan tortib, oyoqlarini yopib, qimtib, mahkam bosib olishadi, lekin ulovni niqtash zarur bo'lгanda tizzalar ko'tarilib, etaklar yana orqaga qarab uchadi.

Ahvoli ancha og'irlashgan Alisher orqasi bilan deyarli otasiga suyalib, inqillab-sinqillab borardi, ota uning yonlarini o'rab, yengi bilan og'zi-burnini ham shamoldan to'sishga urinardi. Uning qiyonalayotganini sezgan hamrohlar o'smirni navbatma-navbat o'z oldilariga o'tirg'izib olishardi. Hamon gap gapga qovushmas, barchaning fikri-yodi betob bola va chegaradan o'tish g'amida.

O'smir hanuz o'zini dadil tutolmas, mingashtirib borayotgan kishi uni bo'sh qo'li bilan quchoqlab, ehtiyoitlab ketishga majbur bo'lardi. Albatta, yuzasi yupqa muzlagan botqoqli yo'lda bir ulovga ikkovlon minish o'ng'aysizlik tug'dirardi. Og'ir yuk bilan tobora yuqoriga o'rlayotgan dovondan yurish eshagu otga ham qiyin qattiq hansiray boshlagan jonivorlarning tumshuqlari yerga tegay-tegay der, og'iz-burunlaridan, yolları orasidan quyuq hovur ko'tarilardi. Hayvon ter hidi bilan uyqash hovur ulov ustidagilarning dimog'lariga urilib, nafaslarini qaytarar, xususan, Alisherning ko'nglini ozdirardi. Ulovlargina emas, odamlar ham haddan ziyyod toliqishgandi. Toshtanboy aka boz ustiga o'g'li bilan hammani tashvishga, azyatga qo'yishayotganidan iztirob chekar, Alisherni ko'proq o'zi mingashtirib olish payida bo'lар, ammo sheriklarning og'rinishayotgani sezilmas (Beknazlar bilan Dadamat ham endi ularga shafqat va xavotir nazari bilan qarashardi), aksincha, ular "Bolaning ahvoli xatarlimas, xudo xohlasa, hademay tuzalib qoladi", deya otaxonning ko'nglini ko'tarishib, unga ko'proq dam berishga harakat qilishardi.

Rostdan ham o'smirning dardi u qadar og'irga o'xshamasdi, har qalay, ko'makda bo'lsa ham ulovda tikka ketyapti-ku, butunlay yotib qolgani yo'q-ku. Lekin tashqaridagi buyuq bilan ichidagi haroratning o'zaro ziddiyati, muvozanat buzilishi oxir-oqibat nimjon va yanada zaiflashgan vujudga salbiy ta'sir o'tkazdi shekilli, kechga yaqin bolaning afti og'riqdan bot-bot tirisha boshladи. Endi uni ichburug' ham iskanjaga oлgan edi. "Shunisi kamidi", o'yladilar. Dam-badam to'xtashga to'g'ri kelar, ota boyoqish o'g'lini bir chetga boshlab o'tardi-da, chakmoni etaklarini kapalak qanotiday yozib, uni nazardan, shamoldan ihotalab turardi.

Beknazarning, balki o'zgalarning ham nazdida endi Toshtanboy aka ham bo'shashib, so'lishib borardi, axir kechadan beri tuz totgani yo'q. Boshqalar ham xijolat bo'lishib naridan-beri, yengil-elpigina tamaddilanishar, hatto ulov ustida qattiq nonni kusirlatmaslik uchun og'izlarida ohista aylantirib, shimib, xiyla yumshatishgach, Begmat va Osmandning belbog'idagi suvdonlardan yetgan joyigacha muzlatib ketadigan suv xo'plab, luqmani bir amallab ichkariga surib yuborishardi. Ular ham uch kundan beri issiq taom ko'rishgani yo'q, ammo Toshtanboy akaga yanada qiyin uning yoshi o'tib, ovqatga suyanib qolgan davri.

Mo'ljaldagi manzilga keldik, tog'ning eng o'ng'ay joyi shu yer, dedi nihoyat Begmat sor otini to'xtatib, qamchi bilan tepaga ishora qilarkan. Ehtiyoit bo'lib, sekin ko'tarilasizlar, tog'dan tushib, yana etakka kelgan tomonimizga qarab yurasizlar, besh-olti chaqirimlardan keyin chapga kun chiqish tarafga ketasizlar. Ikki chaqirimcha borasizlar, tomlar ko'rinati. Qishloq bilan yonbag'irlik o'rtaida sim to'siq bormi, yo'qmi, bilmayman, mabodo bo'lsa, hushyorlik bilan o'tasizlar.

Osmandning taklifi bilan tamaddiga o'tirishdi. Toshfonarni yoqishib, qotgan kulcha, turshak, mayiz, xullas, hamma bor bisotini belbog' dasturxonga to'kdi. Begmat bilan Osmand ham xurjunlaridan yaxna go'shtlar olib qo'yishdi.

Qorinni yaxshilab to'ydirish kerak, dedi Begmat sor, tog'dan oshishga ko'p kuch kerak. Biror soat dam olinglar, keyin tepaga qarab montiysizlar. Yuqoridagi qor beti muzlagan, hazir bo'lasizlar. Bekmirza, Dadamat, ota-bolaga yordam berasizlar.

Albatta, albatta. Rahmat sizga. Beknazlar nima qilamiz, deganday Toshtanboy akaga ma'noli qaradi. U boshda xizmat haqi borasida gap ochganda Begmat: "Avval ishni bitiraylik, o'sha yoqda gaplashamiz", deb gapni qisqa qiluvdi. Yo'l-yo'lakay esiga

tushsa, qancha so'rakin deb, Beknazarning ichi bir g'imirlab qo'yardi. O'sha savol kattakon ilmoqday yana ko'z oldida likillay boshladi. Ikki yo'l boshlovchi, himoyachi bu yoqqa uch kundan ortiq yurishdi, qaytishda yana shuncha yo'l bosishadi... Yonidagi mablag' hisobli, Qashqarga o'tib, otasi aytgan kishilarni topib, ulardan qarz so'rashi yo ularning maslahati, yordami bilan mardikor ishlab bo'lسا-da, pul jamg'arishi mumkin, hozir esa... Otasi bergen pulning hammasini olib kelavermabdi-da. Yo'q, ularga asqotish o'rniga bor-budlarini yig'ishtirib jo'nashi insofdan emas edi. Yetmasa, sheriklardan olib turar...

Xizmatlaringizdan juda minnatdormiz, ko'p ulug' ish qildilaring, sizlarsiz bu joylarni topib kelishimiz guman edi. Bexavotir kelvoldik, gap boshladi Toshtanboy aka Beknazarning imosidan keyin. Endi sizlarni rozi qilib qo'ysak, u bo'xchasini kovlay boshladi. Beknazar bilan Dadamat ham Begmat sorning og'ziga tikilgancha cho'ntakka qo'l solishga shaylanib turishardi. Osman, unga bu "savdo"ning daxli yo'qdek, xas-xazonlarni shitirlatib, shundoq yerga beparvogina yonboshladi.

Begmat sor o'tirgan yerida qaddini rostlab, boshidagi quloqlari ikki yonga osilib tushgan tulki telpagini qamchisi bilan teparoqqa surib, chakkasini qashidi.

Oqsoqol, qani, bir duo qiling-chi, dedi u keng kaftlarini ohib. Qorong'ida uning ko'zlari xuddi burgutnikidek chaqnar va kayfiyati chog'ligidan dalolat berardi.

Toshtanboy aka avval dasturxonga fotiha o'qidi, yegan-ichganlari savobini davradagilarning o'tganlari ruhiga bag'ishladi, keyin Begmat bilan Osmanning umriyu rizqlariga barakai-azim va hech qachon dog' ko'rmasliklari, hamisha Yaratganning panohipa, Xizr buva madadida bo'lishlarini tiladi, o'zlariga esa allohdan eson-omon Qashqar tuprog'iga yetkazishimi, norasidasiga shifo, quvvat ato etishini so'radi.

Mana shu duolaringizning o'zi bizga katta to'lov. Borliq istak-tilaklaringiz ijobat bo'lib, hammalariningizga o'z yurtimizga to'rt muchangiz sog' qaytib kelish nasib qilsin. Eshaklarni berardigu, baribir ularminan manavi baland toqqa chiqolmaysizlar...

Tili kalimaga kelmay qolgan Toshtanboy aka taraddudlanib, yonidagilarga yuzlandi. Yetakchining gapi faqat ota-bolaga tegishli deb o'ylashgan Beknazar bilan Dadamat qo'yinlaridan bir siqimdan pul chiqarib uzatishdi.

Rahmat sizlarga, ketgan vaqtlarining rozi bo'linglar, dedi biri.

Oz bo'lsa, ko'p o'rnida ko'rasiszlar, yaxshiliklaringizni hech esdan chiqarmaymiz, dedi unisi.

Begmat endi cho'kkalab o'tirgan hamkorining yelkasiga turtdi.

Qirg'izcha so'yladim shekillig-ov, Osman, manavi jo'ldaslarga o'girib ber...

Otaxon ham, boshqalar ham yo'l boshlovchilardan xizmatlariga yarasha haq olishlarini astoydil o'tinishdi, aks holda, mol-mulkulari uchun zakot bermaganday, ko'ngillari xijil bo'lib, ishlari yurishmay qolishi mumkinligini biri qo'yib, biri ta'kidlashardi. Ayniqsa, o'z jigarlarinikiga ikki kun sig'magan va boyagi o'ylaridan mulzam tortgan Beknazar balandroq ovozda, bir Begmatga, bir Osmanga qarab jonlanib gapirardi. Zimistonda yuz-ko'zlardagi ifodani ilg'ash qiyin esa-da, tovushlar jarangi va qo'l, bosh harakatlari shiddatidan o'tinch, iltijolar yurakdan chiqayotganini payqash mumkin edi.

Kamgap, boqibeg'am Osman churq etmasdi, aftidan churrakchi Begmat sorning chizig'idan yurardi. U o'qtin-o'qtin kift qoqib qo'yardi xolos.

Qaytishda biznikiga tushish eslaringdan chiqmasin, Osman ikkovimiz churrak bilan mehmon qilamiz, kuldi Begmat va ularga tasalli berganday qo'shimchaladi: Yo'l-yo'lakay ov qilib ketamiz. Besh-oltita tulki, bo'rsiq-mo'rsiqni o'lja olarmiz. Xo'p, endi biz ketdik. Sizlarniyam, bizniyam yo'limizni bersin, omin, u dast tiklanib, otalarday quchoq ochdi.

Eski qadrondalar kabi, ko'krak qafasları bir-biriga botguday bag'irlashib xayrashdilar. Kuzatuvchilar otlari boshini kelgan izlariga burishdi, eshaklar ergashdi. Bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lilar, shatir-shutir sharpalar ham tindi. Atrofni sirli zulmat chulg'adi, bir yoqda mahobatli tog', ikkinchi yonda etagini ko'z ilg'amas yalang cho'l qorayib ko'rindari.

## VII

Qashqarda ayrilishdi. Yo'llari, borajak manzillari har xil, notanish shaharda bir-birlariga ko'mak berishdan ojiz edilar. Toshtanboy aka qiblagohining Yorbog' degan joyda yashashini aytib, manzirat yuzasidan hamrohlarini taklif etdi. Beknazar tezroq otasi tayinlagan odamlarni izlab topishi zarurligini bildirdi. Dadamat safarni davom ettirish niyatida, Islomobodga o'tishni mo'ljallayotgandi. Hindistondan ajralib chiqqaniga bir necha yil bo'lgan Pokiston musulmonlar diyori va panohgohi sifatida ahli sunna muhojirlar e'tibori va ko'nglini torta boshlagandi.

Hamsafarlarni bir necha kunlik yo'l azoblari bir-birlariga mehrli og'a-inilar kabi yaqin qilib qo'yuvdi. Allohdan yaxshi kunlarda boz diydor ko'rishtirishni tilab, yig'lab xayrashishdi. Xiyla o'ziga kelib qolgan Alisher dam Beknazarga, dam Dadamatga ko'zlarini jovdiratib tikilar, uning bolalarcha beg'ubor nigohlarida uyalish, xijolat hissi bilan birga minnatdorlik tuyg'usining ham ifodasi mujassamday edi.

ERTA QISMAT

Erta qismat qanday kechishini, yana qayerlarda, qay holatda umrguzaronlik qilishni hech kim bilmasdi. Toshtanboy aka padari buzrukvorı huzurida uning tuzalishi yo boshqa... munosabat bilan ma'lum muddat turgach yurtga qaytmoqchi edi, lekin o'sha mahallarda bu ahdni komil ishonch bilan aytib bo'larmidi?

\*\*\*

Beknazarning tasavvuriga juda katta shahar sifatida kirib qolgan Qashqar ancha kichik ko'rindi, aholisi ham siyrakka o'xshadi. Har qalay, torroq va tartibsizroq bozorni uncha qynalmasdan topdi. Andijonliklar rastasida qidirganlaridan birini uchratdi, boshqalari savdo ishlari bilan har yoqqa ketishgan ekan. Beknazar musofirlikda kishilar o'zaro ahil va inoq, mehribon va oqibatli, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash tuyg'usi kuchli bo'lischini dastlab o'shanda bildi. Har xil sabablar bilan Qashqarga o'tib o'rnashib qolgan andijonliklar ko'p, ammo ular orasida kambag'ali kam edi. Beknazar qashqarliklarning O'zbekistondan, asosan vodiyyadan borganlarga (ularning hammasini "anjonliqlar" deyishardi) iliq munosabatdaligidan juda suyundi. Ular musofir birodarlariga mehmonxona yoki ijara uy desa, uni topib berishar va joylashib, o'zlarini o'nglab olguncha andijonlik boylar qatori moddiy jihatdan ko'maklashib turishardi.

Andijonliklar kunduzlari rastalarida, kechqurunlari choyxonalarda, ko'proq bir-birlarinikida to'planib gurung qilishar, suhbatni savdo-sotiqdan boshlashib, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Yusuf xos Hojib hikmatlari, Bedil ruboysi, Navoiy, Mashrab g'azallari mutolaasi va muhokamasiga o'tishar, nihoyasida gap sho'ro davlatida, xususan, O'zbekistonda, shuningdek, Andijonda yuz berayotgan hodisalar, "qama-qama" larga borib taqalardi.

Sho'ro degani yomon qattol chiqdi-da, bu ketishda xalq qochib, qamalib, qirilib bitadi-yov. Bu baloi azimni xudoning o'zi daf qilsin, deya muloqotga yakun yasashardi.

Beknazar bir necha kun yurtdoshlari xonadonida fayzli, latif suhbatlardan bahramand bo'lди. Hamma ehtirom bilan uni to'rga o'tqizар, bunday siylovlardan u yimanib, esankirardi. Umrida bunaqa izzat-ikrom ko'rimgandi, charchoqlaru mashaqqatlar ham deyarli unutildi. (O'zining "qo'lma-qo'l" bo'lishi Azim hojining mulla Ahmadal bobosiga hurmatidan ekanligini keyin angladi u). Ammo negadir bu shaharda qolishga o'zida kuchli ishtiyoyq sezmasdi. Ota tanishlari... baribir jigarmas-da, ular bunga qachongacha g'amxo'rlik ko'rsatishardi? Arabistonda esa tug'ishgan buvasi bor... Azim hojiga padari buzrukvorining xohishiga ko'ra Saudiyyaga bormoqchi ekani, haj amallarini o'tash orzusidaligini, shunga pul jamg'arishi lozimligini, mardikorlikka ham roziliginini aytib, yo'l-yo'riq so'radi.

Biz bobongizni, otangizni yaxshi bilamiz, ular imoni but, halol odamlar. Xususan, kattangiz elga muruvvatli, saxovatli inson edi. Hoji tog'a qo'yndan semizgina hamyon chiqarib Beknazarga uzatti. Bu sizga hamyurtlaringizdan tuhfa, ular, agar shu yerda qolmoqchi bo'lsangiz, hovli-joy masalasida ham yordam qo'lini cho'zishmoqchi edi.

"Demak andijonliklar meni to'g'rimda qayg'urishib, shunaqa fikr qilishibdi-da", deya o'yaldi Beknazlar va eti dirillab ketdi, yuragi to'liqib, ko'zlariga yosh keldi. Ammo bu ajoyib insonlarning tortiqlarini shundoq olish o'ng'aysizligini yuzlari qizarib-bo'zarib aytди.

Xudoga shukr, to'rt mucham sog', bilakda quvvatim bor, ishlab pul topsam... Axir, hajga har kim o'z mehnati, halol yo'l bilan topgan sarmoyasini xarjlashi lozim deyishadi.

Hoji tog'a Beknazarga bobosining yuzi hurmatidan, otasi va o'zining tabarruk ahdi-niyati haqqi, ajru savoblarga doxillik umidida ko'ngildan chiqarib hadya etishayotganini ta'kidladi, agar ularning qo'lini qaytarsa, ranjishlari mumkinligiga shama qildi.

Sizlardan o'la-o'lguncha minnatdorman, hoji tog'a, dedi Beknazlar qalbidan toshib chiqayotgan hayajonini mumkin qadar bosishga tirishib, menga issiq qo'yB-ninglardan joy berdinglar, bundan ortiq, bundan qimmatli hadya bo'ladimi? Arabistonga shoshib borishimning hojati yo'q. Muhimi, tahlikali yo'llardan eson-omon o'tib, bexavotir yerga kelvoldim... Avvali xudo, rizqim qayga, qancha sochilgan bo'lsa, terib yerman. Qo'limdan sal-pal yog'och-randa ishi keladi, yengil-elpi, kalta-kulta ish topilsa, shu orada sizlarga ozgina xizmat qilsam, aqalli qo'llaringizga suv quysam, kattamning ruhi shodlanib, otam oldida yuzim yorug' bo'larmikin?..

Azim hoji uncha to'la emas, lekin qandaydir salobatli, sochlari kumushrang, quyuq o'skin qoshi, soqol-mo'yloviha ham oq oralagan, ko'zlar katta-katta, qizil yuzli, og'ir-vazmin, mulohazali kishi edi. U mehmonning xiyla es-xushli, ota-bobolariga o'xshab hamiyatl, qat'iyatl ekanini his etib, xayolan uni alqab, uchlari tekis kuzalgan soqolini qashlagan kabi silab o'tirardi.

Obbo' siz-ey, ancha o'jar yigit bo'psiz, dedi u kulimsirab. Lekin so'zlash ohangidan, tabassumining samimiyligidan u qadar ranjimaganini, bilaks, bir muncha yumshaganini, yuzlarda mehr alomati zohir bo'lganini tuygan Beknazlar yengil tortdi, ichida chiroq yongandek bo'ldi.

Hoji tog'ani Beknazardagi diyonat, uning mardona o'tinchi ham rom qilgan edi. Aslida, arg'amchiga qil quvvat deganday, andijonliklar sonining yana bittaga ortgani afzal edi, zero arqonning yanada chiyalishi uchun Beknazlar kabi pishiq tolalar ayni muddaodir. Illo, masalaning boshqa nozik, nomatlubroq jihatni ehtiyojkorlikni taqozo etardi. Asli Qo'qon xonligiga qaragan, atigi bir necha yil burun sho'ro imi-jimida Xitoya oshirib yuborgan bu o'lkada har bir qochoq, muhojir, har bir notanish kimsa dushman xufiyasi gumonlanmog'i, kuzatuvchilar, ayg'oqchilar nazoratiga tushmog'i shaksiz, shuningdek, o'zlaridan ham kimmingdir dilida har bir yangi qo'shilgan kishi to'g'risida to u sinovlardan o'tib, ishonch qozonguncha "Uning kelish sabablari, asil maqsadi rostnikin, yuragining tubida o'zga niyati, zimmasida g'ayri vazifalari yo'qmikin?", degan ishtiboh tug'ilishi mumkin, bunga dalillar ham yo'q emas edi. Lekin dini va tili g'orat qilingan bir alamdiyda yurtdan o't ichidagi ikkinchi mamlakatga panoh, suyanch izlab, ne-ne xavfu xatarlarda arang jon asrab kelgan jabrdiyda vatangadoning hilvirab turgan ko'ksidan itarib: "Bu shahardan ham tezroq gumdon bo'lganizing ma'qul, to'rt tomoningiz qibla!" deyishga qay bir vatandosh, qismatdoshning beti chidardi?

Azim hoji Beknazarning ota-bobolarini yaxshi tanigani bois, ular avlodiga g'alamslik, munofiqlik yotligiga kafillik berishga hozir, ammo buni fe'liyu dunyoqarashi, maqsad-maslagi turlicha kishilarning hammasiga anglatib, isbotlab chiqish imkonsiz-da.

Qolaversa, oralarida ham maxsus mahkamalarning har yerda izg'ib yuradigan, o'z kasbining piriga aylangan, otasini tanimaydigan, tanisa ham ayamaydigan xufiyachi iskovuchlari tuzog'i, makri to'rige ilinib qolganlar, nafs yo boshqa bir tama ko'yida har qanday tubanlik, razillikdan qaytmaydiganlarning mutlaqo yo'qligiga imoni butkul komil emas edi. Durust, shaharda Azim boyning nufuzi baland, uning qanoti ostidagilar haqida birov nojo'ya gap aytishga botinolmas, ammo bilib bo'lmaydi-da.

\* \* \*

Kechga yaqin hoji tog'a ertagayoq o'z hovlisida bir bostirma va omborxonada qurishni boshlashi mumkinligini aytganida Beknazlar ham suyundi, ham bir oz taajjublandi. O'n to'rt yoshli Himmat yordamchilikka tayinlandi: "Ajabmas, bungayam ozroq yuqsa, hunar o'rgansa..."

Beknazarning duradgorlikda ko'zi ancha pishib qolgan bo'lsa-da, shu paytgacha mustaqil tesha ushlagandagi. Eplay olarmikinman degan hadik ko'ngliga g'ulg'ula soldi, lekin ustachilik qo'lidan kelishini aytib xobbonilik qilib qo'yan, endi taysallash noqulay. Har holda uymas, bostirma-ku, degan xayol unga dalda berdi. Lekin, boylarning bostirmasi, ombori ham oddiy bino bo'lmaydi. Qurilish bir oyga yaqin davom etdi. Imoratlarning devori urilmadi. "Sinchi tiklanib, tomi yopilib qolsa bas, guvala kessagini keyin bir hashar bilan urdirib qo'yamiz", dedi xonadon xojasi. Beknazlar jadalroq harakat qilish lozimligini angladi, tamaddi, nafas rostlash onlarini qisqartirdi. Bir qo'lligi uchun ish uncha unmayotganday edi. Orada bir kun Toshmiliqqa borib kelganini hisobga olmaganda deyarli hovlidan tashqariga, to'g'rirog'i shaharga chiqmadi, bunga hojat ham, ehtiyoj ham yo'q edi: yog'och-ashyo, asbob-anjom hamma narsa muhayyo etilardi. Qo'rg'on etagidagi mo"jazgina hujra Beknazarga yotoqxona sifatida ajratilgan, shu xonada "shogird" bilan tomoqlanishardi.

Hoji tog'a barvaqt rastaga chiqib ketar, tushlikdan avval yo keyinroq kelib, ishning borishini kuzatar, binokorga tahnin aytardi. Ba'zi-ba'zida kechki ovqatda Beknazlar bilan birga bo'lib, Sharqiy Turkistonda ham har xil toifadagi bandai noraso, notavonlar yo'q emasligi, alg'ov-dalg'ovli bu zamonda davlatlararo nizoyu nifoqlar avj olib borayotgani, shunga qaramay, Qashqar bilan Andijon o'rtasida o'zaro munosabatlar yaxshiliqi, uyg'ur xalqining o'zbeklarga ixlosi va mehri bo'lakchaligi va boshqa mavzularda gapirib o'tiradi.

Beknazlar undan ko'p narsalarni so'ramoqchi bo'lар, birov tortinardi. Bir kuni Toshtanboy aka va uning shu shaharda yashaydigan otasi haqida o'smoqchilovdi, hoji tog'a negadir: "Ha, shunaqa odam bor, lekin avvalroq nojo'ya bir ishlarga aralashib, yuzi yurtdoshlar oldida shuvit bo'lib qolgan", dedi-yu, tafsilotini ochiq aytmadidi. Beknazlar shaharga chiqib, Shohi Mashrab kezgan

ko'chalarni, bozorlarni ko'rib, mashhur Opoq xoja qabrini, kitoblarda ko'p tilga olinadigan Iydgoh degan saylgohni, minoralari ko'kka bo'y cho'zib turgan qadimiy bino-obidalarni ziyorat qilmoqni, andijonliklarni o'z og'a-inilariday ardoqlaydigan millat kishilari bilan suhbat qurmoqni, qo'li gul uyg'ur tungoni oshpazlarining ta'rifi Andijongacha yetib borgan totli lag'monu bo'lug' montilariga oshxonada bema'lol o'tirib, bir to'ymoqni ko'ngillar, ammo bu istakni ham oshkor aylamoqqa tortinar, ishni bitirgach, bafurja aylanarman, deya o'ziga tasallি berardi. Galdagi rejalarini xayolidan o'tkazar ekan, hoji tog'aning qo'llab, yo'llab yuborishidan umidvor edi.

Beknazaz kunduzlari ish bilan bo'lib, qanday kech kirganini payqamas, charchaganidan kechki ovqatdan keyin ko'pincha tezgina pinakka ketar, ba'zi-ba'zida yo'l qo'ygan noma'qulchiligi, yot yerlarda bostirma yopib, qiz bolaning savolidan ham hadiksirab yurgani esiga tushsa, uyqusi qochib, anchagacha xayol surib yotardi. Shunaqa paytlarda Azim hojining so'zlarini o'ylab, o'zicha xulosalar yasardi. Nazarida tog'a unga nimalarnidir ochiq aytishdan iymanayotganday, nimalarnidir yashirayotganday tuyulardi. Beknazaz, jumladan bir narsaga kelgan kunlaridagi kabi uni mehmondorchilik va izdihomlarga taklif etmay qo'yishganiga, bunday ma'raka-marosimlar to'g'risida hoji tog'aning ham indamayotganiga ajablanar, hovli egasining uysa qariyb har kuni barvaqt qaytayotganidan, unday yig'inlar bo'lmayapti chog'i, nahotki o'sha ziyofatlar men uchun uyuشتirilgan bo'lsa, degan mulohazaga borib, ham quvonar, ham xijolat chekardi. Lekin gap bundagina emas edi.

\* \* \*

Doim havorang ro'mol o'rab yuradigan xipchagina Poshsha opa eriga nisbatan ancha yosh ko'rinar, millati uyg'urga o'xshardi. Beknazarda hoji tog'a shu yurtga kelib uylanganmikin, avvalgi oilasi Andijonda qolganmikin, degan savol tug'ilgandi. Lekin ayolning ancha-muncha uyg'urcha lajhani qo'shishini hisobga olmaganda, sof o'zbekcha gapirishi uni yanada hayratga solardi. "Shogird" dan ilmoqlashga chog'landi-yu, otasiga aytib qo'ysa, nimaga surishitrib qoldiykin, degan xayolga bormasin deb, fikridan qaytdi. Ha-da, unga baribir emasmi, har kimning o'z ishi, o'z xohishi. Yigitning ko'nglida taqdirimizda o'xshashlik yo'qmikin, degan faraz tug'ilgan, shuningdek, oila hayotining osoyishtaligi ham unda qiziqish, havas uyg'otgan xonadonda qovoqgirlik, qattiq-quruq gap umuman yo'q edi.

Shu yil maktabni bitirgan, o'n olti-o'n yetti yoshlardagi bodom qovoq Xongul tantiqroq, erkaroq edi, u choyni yangilash bahonasida hadeganda kelib Beknazarni gapga tutar, "Andijon qizlari chiroyli bo'ladi? Sizlarda kelin tushdi to'yi qanday o'tadi? Sepiga nimalar berishadi?" kabi so'roqlarni qalashtirib tashlar, Beknazaz javob berishga ulgurmay qolar hamda ishdan chalg'irdi. Xongul onasining aksi o'laroq bo'lagina, oppoq, aksariyat bo'yи yetgan qizlar singari hissiyotchan edi, faqat, yigit uning tap tortmasligidan injir, o'zini noqulay sezar, "shogird" va beka oldida xijolat chekardi. Himmel uning fikrini uqqanday, "Ustani ishdan qo'yyapsan, hozir otam kelib qoladi" deya, go'yo opasiga tanbeh bermoqchi bo'lар, ammo Xongul ukasining e'tirozi, ogohlantirishlariga qo'l siltar va labini burib, "Nima, bilgim kelyapti-da" deb, yana Beknazarga ijikilab savol yog'dirishda davom etardi. Hatto "Uylangammisiz yo endi uylanasizmi? Sizga qanaqa qizlar yoqadi?" deb so'rashdan ham toymas, boyoqish yigit terlab ketar, nima deyishni bilmay, o'zini eshitmaganga olardi. Yaxshiki, qizni onasi chaqirib qolib, joniga ora kirardi. Gohida uning yaxshi kiyingan va o'ziga oro bergen holda paydo bo'lishi Beknazarni yanada esankiratib, xavotirga solardi. Ertalab va kechqurunlari u yotgan xona derazasi yonidan u yoq-bu yoqqa o'tayotganini payqab, kirib qolmasa go'rgaydi, deya sarosimaga tushadi. Lekin nafsilamrini aytganda hovli Xongul bilan gavjum va fayzli edi, usiz Beknazaz o'zidek kamgap va hali bola bo'lgan Himmel bilan zerikib, yuragi toza ziqlanishi mumkinligini o'ylab, ichida "Yaxshiyam shuning borligi..." deb qo'yardi. Faqat, qizning kulchadek dumaloq, oppoq yuzi va qisiqroq ko'zlariga, durkun qaddi-qomatiga tikilib qarashdan tiyilar, xullas, u bilan xush-noxush muloqotlarda o'zini sipo, beparvo tutishga tirishardi. Qalbidagi nogahoniy hissiyotlarni sovuqqonlik bilan jilovlay organidan o'zicha mammun edi.

Bir kuni Xongul anor rangli yupqa, torgina ko'ylak kiyib, beliga allaqanday yaltiroq tasma bog'lab chiqdi. Balog'at nishonalari ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Beknazaz bir qaradi-yu, ishdan boshini ko'tarmay qo'ydi. Qiz odatdagiday, payraxalarni yig'ishtirib, o'zicha ish qilayotgan kishi bo'lib, yigitning atrofida aylana boshladи. Shunaqa mahalda Beknazaz: "Hoji tog'a kirib qolmasa-da", deb bezillardi. Balki qizning xatti-harakatlarda g'ayricha alomat ma'no yo'qdir, uning fe'li o'zi shundaydir, ehtimol, buni ota-onalari ham bilishar, aksincha, Beknazarning o'zi u haqda chakki xayollarga borib, behuda tashvishlanayotgandir? Nima bo'lisa-da, yigit unga boshpana, non-tuz berayotgan xonadondagi yolg'iz qizning bolalarcha sodda muomalalariga nisbatan shunday munosabatda bo'lishni vijdoni yurchi deb bilardi. Ana shu burch, mas'uliyat tuyg'usi uni qizdan mudom nigohini olib qochishga va imoratlarni tezroq poyoniga yetkazishga undardi.

\* \* \*

Beknazaz xizmati evaziga Azim hojidan zinhor-bazinhor haq olmoqchi emas, iloji bo'lsa tog'a unga boshqa buyurtmachilar topib bersa qancha ish bo'lsa bajarib, mo'lroq sarmoya yiqqach, bu iltifotli, saxovatli odamlardan izn so'rab yo'lga chiqmoqchi edi. Ishni yakunlayman deb turgan kuni ertalab xonaga nonushtani Xongul olib kirdi (odatda bunday vazifalarni Himmel bajarardi), u Beknazarning ko'ziga parishonroq ko'rindi, balki endi turgani uchun uyqusi yaxshi yozilmagandir, deb o'yladi, lekin qiz sinchiklaganday tikilayotganini sezib o'ng'aysizlandi. Xongul poygahda tizzalaganicha, to'rida chordona qurib, keng o'mgani xontaxtaning yarmini egallab o'tirgan Beknazarga choy uzatarkan, piyola xiyol titrayotganday tuyuldi-yu, yigit beixtiyor qaradi ko'zlar bir soniya uchrashdi.

Ketib qolasiz ekan-da, yana kelasizmi? Xongulning ovozida odatiy jarang va shiddat yo'q, aksincha, ancha yumshoq va qat'iyatsiz edi. Beknazaz piyolani indamay, g'o'rasha panjalari qizning latif barmoqlariga tegib ketishidan avaylanib oldi. U Xongul ish oxirlab qolgani uchun shunday deyayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Qachon ketyapsiz? so'radi yana qiz.

Hoji tog'am nima desa, shu, dedi mehmon issiq choydan asta xo'plab.

Otam menga qolsa, butunlay olib qolardim, ehtimol bir aylanib qaytar deyapti.

Hmm... Beknazaz gapning tagiga yetganday bo'ldi, xayolida Azim hojining jumboqli jumlalari takrorlandi: "Hamma joyning qozisiyu tarozisi bor-da. Sizlardagiga o'xshab, bu yerdayam hukumat qimirlagan jonga shubhalanib qaraydi..."

Stalining qo'llari boshqalarnikidan farqli o'laroq ertaklardagi ajdaB-holarniki kabi bir nechta, balki son-sanoqsiz edi: qonsiragan ikkitasi mudom o'z qalamravidagi xalqlarning ziyoli, ilmli, aqlli, iste'dodli vakillari giribonida bo'lsa, yana ikki-uchtasining Yaponiya, Shimoliy Koreyada, Xitoyda o'lja izlagan ilon kabi paypaslanishini, yana birining esa avvaldan Sharqiy Turkistonda hali u teshikdan, hali bu tirkishdan ajal tayogi kabi cho'zilib, Vatan ozodligini orzu qilishda gumon etilganlarni mavhum bir zulumot qa'rige tortib ketishlarini Azim hoji Beknazarga aytishni lozim ko'rmsadi.

Endi qayoqqa borasiz? ta'kidlab so'radi yana qiz tantiqlanib.

Qismatim meni shu yerga sudrab keldi, yana qayoqqa tortqilasa, peshonamga yana qanday kunlar yozilgan bo'lsa ko'raveraman-da, Xongul, sizlarnikida xuddi o'z uyimdagiday mehr-muruvvat ko'rdim, sizam o'z singlimday bo'p qoldingiz...

\* \* \*

Beknazar jahd bilan ishga kirishdi, ammo saldan keyin qo'lidagi teshaning sust harakatlanayotganini, xayoli hadeganda ertalabki suhabatga bog'lanib qolayotganini payqab g'ashlandi. U nima gapligini hoji tog'a aytar, deb kutgan edi, lekin Azim hoji ko'rinnmadni, undan hol-ahvol so'rashga, qolgan ishlarni maslahatlashishga ham kelmadi. Uning barvaqt shoshilib chiqib ketganini Himmeltdan bilgach, yuragidagi g'ulg'ula kuchaydi. To'g'ri, baribir bu shahardan bir kuni jo'nashi aniq edi, faqat bunday tarzda emas... Nahotki Andijondan qochib kelganini kimdir ayg'oqchilar idorasiga yetkazgan bo'lsa?.. Unda hoji tog'aniyam diqqat qilishlari mumkin, demak, bir ishkal chiqmay turib, jo'nash kerak...

U shomga yaqin so'nggi mixni qoqib, asbob-uskunalarini Himmeltda topshirdi, xonadon egalari bergen ish kiyimlarini yechdi. Oqshom hujraga Azim hoji kirdi. U yoqdan-bu yoqdan so'zlashib, oshni yeyishdi. Beknazarining qo'li laganda-yu, ko'zi, qulog'i hoji tog'aning og'zida edi. Nihoyat, qo'llar artilgach, mezbon ovoz qilgan edi, Himmeltda kirib, tagida anchagina palov oshib qolgan havorang gulli xitoyi chinni tovoqni olib ketdi, dam o'tmay, bir patnis ko'tarib keldi-da, otasiga berdi, hoji tog'a uni Beknazarining oldiga qo'ydi. Patnisda taxlog'liq yupqa sabzish to'n, ustida qarg'a shoyi chorsa va to'rt gulli, Andijonnigiga o'xshashroq do'ppi bor edi.

Manavi ishni chiroyli yakunlaganingizga uydagilarning atagani, dedi hoji tog'a. Ancha pishib qopsiz, mening mo'ljalim to'rt-besh kun oshig'roq edi, chaqqon ish qilarkansiz, xudo xohlasa, har joyda noningiz butun.

Beknazar boshini ko'tardi.

Bularning hojati yo'q, hoji tog'a, dedi u xijolat chekib. Qo'limdan shugina ish keptiyu...

Bu o'zi arzimagan narsa, vatandosh, aslida ish qilmasangizam berishimiz kerak edi, uyimizga birinchi kelishingiz, qolavursa, eski udumimiz, olmasangiz kelinayangiz ranjiydi. Xonadon sohibi qo'ynidan bir dasta pul chiqarib, sal cho'zilib, sarpolar yoniga ohista qo'ydi. Bunisi bizning ko'ngildan chiqarganimiz.

Ko'z kosalar kengayib ketgan Beknazar, o'zini olovdan tortganday, gavdasini orqaga tashladi.

Uyingizdan joy berdingiz, non-tuzingizni ichdim, meni izza qilmang, hoji tog'a. Busizam sizdan minnatdorman.

Men sizga ehsan berayotganim yo'q, mulla Beknazar, bu ona sutiday halol mehnat haqingiz.

Beknazar pulni qo'liga oldi-da, ozroq bir qismini qayirib qolib, oshig'ini mezbonning oldiga qo'ydi.

Shu yog'i yetadi, hoji tog'a, buniyam tavarik deb, irim qilib olaman.

Azim hoji bosh barmog'i bilan kalta soqolini titib, iyagini qashirkagan, Beknazar qilmayib tikildi.

Musulmonchilikda katta bir narsa deganda kichikning xo'p deyishi vojib, mulla. Men sizga ot bilan tuyu berayotganim yo'q, u pulni yana yigitning oldiga surdi.

Beknazar tag'in e'tiroz bildirsam kibrga yo'ymasin degan andishada sukut saqladi. Sirasini aytganda, yo'lga chiqadigan bo'lsa, pul unga suv va havodek zarur, ammo...

Qani, dasturxonga fotiha qilaylik, duoga qo'l ochdi hoji tog'a. Aytganda, yangi shogird qalay, boqsa odam bo'ladimi? so'radi u kulimsirab.

Albatta, uquvi yaxshi, ishga yopishib kelishiyam ma'qul.

Unday bo'lsa, ertaga shogird bola ustoziga Qashqarni bir tomosha qildirsin, keyin yana kengashamiz.

Gap mavridi keldi. Beknazar asta tomoq qirib, "Hoji aka..." dedi. Turishga chog'lanayotgan mezbon qayta cho'kdi.

Menga bir dunyo pul berdingiz, endi ishslashniyam hojati qolmadi shekilli. Yaxshisi, ertaga shahar aylanaman-u, keyin menga javob bersangiz...

Muncha tez? ajablandi xonadon egasi.

Qashqar ham notinchroqqa o'xshaydi. Sizga tashvish oshirib o'tirmay...

Azim hoji sergaklandi.

Birov sizga bir nima dedimi? so'radi u ranjigan ohangda.

Yo'q-yo'q, hoji tog'a, dedi izza tortgan Beknazar shosha-pisha.

Azim hojining ko'zlari va so'zlaridagi taranglik yumshadi.

Hozir notinch bo'Imagan yurt bormi, o'g'lim. Manfaat, nafs degan narsalar mavjud ekan, mansab-mavqe, mulk talashish yo'qolmaydi. Mol-dunyosi bisyor odamga hamma o'g'ri, qo'rkoq podshoga hamma g'ayir ko'rinnaveradi. Falokat oyoq ostida. Balo yopishaman desa, joyning farqi yo'q. Shuning uchun siz har xil o'ylarga bormang. O'zimizga qarashli yana bir-ikki xonadondan ish daraklab qo'yanman. Hoji tog'a so'zdan to'xtab, Beknazar qilmayib tikildi.

Boshda aytganimday, otam Arabistoniga borishimni tayinlovdi... dedi Beknazar gapini o'nglab. Xayolim o'sha yoqda...

Shunday deng, bosh irg'adi Azim hoji, to'g'ri, bu yorug' olamda har bandaga allohning farzlaridan so'ng, birinchi galadagi muhim vazifa, bu ota rizoligini, duosini olmoq, buniyichun albatta, padari buzrukvor tayinlagan yumushlarni so'zsiz, kechiktirmay, bekami-ko'st ado etmoq lozim. Ahdingiz qat'iymi?

Beknazar ish boshlagan dastlabki kunlarning birida shularnikida Andijonga qaytayotgan bir savdogar bilan uchrashgan, Azim hoji vositachiligidagi undan agar malol kelmasa, qishlog'imizga o'tib, otamga Qashqarga eson-omon yetib kelib, tanishlarni topganimini, xavotir olmasliklarini aytgach, uydagilarning salomatligini bilib, biron keluvchi orqali ikki enlik xat bitib yuborsangiz, boshim ko'kka yetardi, deb iltimos qiluvdi. Kuni kecha qisqa va ehtiyyotkorlik bilan yozilgan, manzili, kimdan va kimgaligi ham ko'rsatilmagan maktub olgan, unda otasining bir oz betoblanib, andak ovoragarchiliklari yuz bergani (demak, g'alamislar uni urintirib qiyashgan), hozir salomatligi durustligi, qishloqdagi shamol-dovullar pasaygani ma'lum qilingan, ammo Beknazarining ikkilanmay yo'lida davom etishi kerakligi ta'kidlangan edi. Yigitning ko'ngli xiyla joyiga tushgan esa-da, uydagilar meni xotirjam qilish uchun hammasi joyida deb xat bitishni tayinlashmadimikin, degan ishtiboh qalbining bir chekkasida g'imirlab-g'imirlab qo'yardi. Lekin hamyurtidan bor haqiqatni ma'lum qilishini qayta-qayta o'tingani bois, to'g'risini yozgandir, axir ovoragarchiliklari, otamning betoblangani va shamol-quyunlar pasaygani aniq aytilibdi-ku, deya o'ziga taskin berardi. Unda nimaga safarni davom ettiraverishini tayinlashdiykin?..

Ha, hoji tog'a, shunday qilganim ma'quldir.

Unday bo'lsa, bugun-erta men so'rab-surishtiray, sizga hamroh qo'shmog'imiz zarur. Ha, bir gap: olis, nosinashta mamlakatlarga

ketyapsiz, kishi musofirlikda o'z bo'yidan bir kalla pastroq yurgani durust. Og'ir-vazminlik odatingizni mahkam tuting. Boshidan ancha issiq-sovuqlar, muhojirlik savdolarini kechirgan bir faqir sifatida, azbaroyi sizni tug'ishganimday ko'rganimdan, omadi gapni aytib qo'yyapman, og'ir olmaysiz. Uyg'ur birodarlarimiz tezlik, jangarilik xulqlaridan o'z yurtlarida ham ko'pda aziyat chekishadi, lekin bu fe'l ularning qonida bor...

Beknazarning dilidan "Bu odamga nisbatan sarkashlik yo dimog'dorlik qilmovdim shekilli..." degan xayol kechdi. Faqat bir kuni tomga taxta qoqishayotganda u Himmatga ishonib, bir taxtaning o'zi tomonidagi chetini bosib, oyog'i osmondan bo'lib yiqilayozdi. Epchillik qilib to'singa osilib qoldi. "Shogird" bolaligiga borib, kulgisini yashirolmadi. Shunda Beknazар hansirab turib, "Bu kuladigan ishmas, uka" dedi va darhol lab tishladi, lekin so'z o'q kabi uchib ulgurgan, uni qaytarishning iloji yo'q edi. Shu voqeani bolakay otasiga oshirib aytuvdimikin? Ha, yana bir kuni hoji tog'ani so'rab kirgan bir kishi (o'zini tanishtirmadi, ustaning kimligi bilan ham qiziqmadi) xuddi binoni qabul qilib oladigan tashkilot rahbariday, e yo'q, be yo'q, bostirmaning u yog'iga o'tib qaradi, bu yog'iga o'tib qaradi-da, "Tomning shiyponi tikka bo'lib ketibdi, yog'in-sochin ichkariga urib yuboradi", qabilida tanbeh bergenida Beknazар "Men o'rgamchik ustaman, hoji tog'aning ko'rsatmasi bilan bilganimcha qilyapman", deb javob aytgan, shunda ovozi sal dag'alroq chiqqanga o'xshovdi. Ehtimol "shogird" tushmagur yoshlik qilib shuniyam otasiga yetkazgandir yo o'sha kimsaning o'zi hoji tog'aga bir narsa devdimikin? Yo, bilib-bilmay, manmanlikka, qo'rslikka yo'yilguvchi boshqa bir harakatlar sodir etdimikin?..

Albatta, Beknazар izoh berish fikridan yiroq edi.

Tushundim, hoji tog'a, siz otam qatori yaqin bo'lib qoldingiz, o'gitlaringiz bosh ustiga...

Ko'p o'tmay uni xuddi o'z oila a'zosini harbiy xizmatga yo uzoq safarga jo'natayotgandek kuzatib qolishdi.

Xudo xohlasa, orzu-niyatlaringizni ro'yobga chiqargach, qachondir albatta qaytasiz, inshollo, tag'in uchrashamiz, hoji tog'a shunday deya Beknazarni bag'riga bosdi.

Boshingiz toshdan bo'lsin, inim, alqadi uy bekasi.

Qashqarni yanagi safar kelganining yaxshilab tomosha qildiraman, usta, deya ko'zlarini jovidiratib qo'l cho'zdi Himmat.

Ukam chala shogird bo'p qoldi-da... tortinibgina gap tashladi onasi biqinida turgan Xongul.

## VIII

Azim hoji topib bergen savdogar-hamrohlar bilan ko'hna Toshqo'rg'on shahrida yuanlarini sarroflardan rupiyga almashтирib, Pokistonga yo'l olishdi. Shu joygacha hoji tog'aning maslahatiga ko'ra pana-pastqam joylardan yurib, odamlar ko'ziga tashlanmaslikka harakat qilishdi. Garchi hoji aka Beknazarga ruxsatnama yozdirib bergen bo'lsa-da, ayl'oqchilar shubhalanib, tutib qolishlari mumkin edi. Nisbatan osoyishta hududga qadam qo'yishgach, u yengil nafas oldi, uni deb poyu piyoda, mashaqqatli kecha-kunduzlarni o'tkazishgani uchun sheriklardan uzr so'radi. Nari yog'iga duch kelgan ulovda goh xachir aravada, goh har turli tepasi ochiq yuk mashinalarida davom etishdi. Chatral tog'idagi Qoraqurum dovonni juda baland, ko'cha nihoyatda tor: bir yon omonat osilib turganday, mana hozir bosib qoladiganday ko'rindiganday burgut qanot qoyalar, ikkinchi taraf yurak orqaga tortib, seskanib ketadigan darajada tubi yo'q jarlik. Ba'zi joylarda ko'zlarini chirt yumib olishar, tillari "La ilaha illallah" kalimasiga arang aylanardi.

Gilget va yana bir qancha shahru qasabalar ortda qoldi. Dastlab to'rt kishi edilar, yo'l-yo'lakay goh ko'payib, goh kamayib borishardi. Hamsasafarlar orasida savdogarlardan tashqari haj qilish niyatida Makkayu Madinaga yo'l olganlar yo boshqa yumushlar bilan bir shahardan ikkinchi kentga ketayotganlar bor edi. Kvettaga nihoyatda qiyinchilik bilan yetishdi. Yo'llar juda nobop, notinch bo'lib, aksariyat qismi quyuq daraxtorlar orasidan yo yulg'inzor cho'llardan o'tardi. Har qadamda qaysi dara yoki tog' ortidan qaroqchilar chiqib qolisharkin, degan sarosima, vahima. Bir manzildan ikkinchisiga sog'-omon, beshikast yetib olishganidan keyin yelkalaridan tog' ag'darilganday yo pulsirotdan o'tishganday, o'zlarini qushday yengil va baxtiyor sezishardi. Asli Karochidan Turkiyaning Marsin shahriga yo Bombeidan Saudiyyaga paroxodga o'tirib ketish ham mumkin edi, lekin "Dengiz quturib, kemalar tez-tez halokatga uchrab turadi" degan sovuq gaplar quloqqa chalinar, qolaversa, Bombey uzoq, ayrimlarning hujjalari ham chatoq edi. Shu sababdan Beknazarning hamrohlari, aylanish esa-da, bexitroq deb shu yo'nalishni ma'qul ko'rishdi. Beknazarga esa, baribir qaysi yo'ldan bo'lsa ham ishonchli, sinashtaroq yo'ldoshlar bilan ko'zlagan manziliga yetib olsa bas. Faqat bu olis masofada kalta-kulta ulov va boshqa kutilmagan harajatlarga pul ko'p ketardi. U Azim hojidan ich-ichidan minnatdor edi. U ko'pni ko'rgan odam-da.

Ikki marta qo'lga tushishdi. Bir Gilgetdan beriroqda, ikkinchi gal Kvetta bilan Eron chegarasi o'rtalig'ida qalin, o'skin yulg'inzorli yo'l yassiroq tog' bilan tutashib ketgan hududda. Ikkalasidayam ko'ngildan chiqarib pul to'plab berishdi. Qaroqchilarining ashaddiylarini ko'rgan ayrim yo'lovchilar omadimiz bor ekan, "havaskor" bosqinB=chilarga uchradik, deb kulishardi. Chegara posbonlariga, qaroqchilarga "hajga ketyapmiz" deyishar, shu dastak ularga qalqon bo'lib, ko'p balo-qazolardan asrardi.

Odam keyin-keyin xatarli yo'llarda yurishga ham o'rganib, yirtqich hayvon havfidan, tunovchilar vahimasidan ham uncha cho'chimay qo'yarkan. Ba'zi joylarda allohga tavakkal qilishdan o'zga iloj ham qolmas edi. Balki, inson ongi, yuragida qo'rquinchli narsalarga, tahdidlarga ham qarshilik hissi vujudga kelar.

O'sh Qashqar dovonlarida ancha "pishgani" bois, Beknazар bu yoqdagi mashaqqatlarga chidam va sabot bilan dosh berardi. Kuni bo'yи arava, qattiq mashina o'nqir-cho'nqir, tosh yo'llarda selpib-koqib sillani quritardi. Shunaqa mahalda Beknazар o'z ahmoqgarchiligi, kalta o'yligidan ming bora afsuslanib, yuragi battar ezildi. Lekin bu darbadarlik ko'ngil qo'yolmagan xotini bilan yashash, ikkilanish azobidan, ota-onal oldidagi xijolatchilik uqubatidan xalos etgani uchun ozgina taskin topar, ammo Rashidaga nisbatan achinish tuyg'usi qalbini yana timdalardi. Biroq baribir turmushlari yaxshi bo'lmashligiga imoni komil edi.

Ruhiy qynoqlar oldida jismoniy toliqish, safar azoblari hech ekan, degan xulosaga kelgan edi o'shanda u.

Jazirama kunlarda, ayozli tunlarda, yomg'ir yog'ib, jala quyib turganda tugunlariyu engillari shilpillab, achchiq sovuq yo garmesl kuchayib nafasni bo'g'adigan hollarda ham to'xtamay yo'l bosishardi. Bir shahardan ikkinchisiga borganda yangi ulovga o'tirishardi. Ulov topish ham oson emas, ba'zida xachir arava, ko'proq olti g'ildirakli, yon to'sig'i pastroq yuk mashinasiga yo'liqishardi. Haydovchilar har xil: biri qo'ramas , ikkinchisi tajang... Yurtdan yurtga o'tishganda iqlim o'zgarar, gohida ertalab bir xil, tushdan keyin boshqa xil kiyinshardi. Lekin aksariyat hamrohlarda, shu jumladan, Beknazarda ham libos ko'p emas, borlaridan ter hidi keladigan bo'lib ketgandi. Yo'l-yo'lakay yuvib quritishning iloji yo'q vaqtadan qizg'anishar, ko'ngillariga ham sig'masdi. Faqat bet-ko'l artadigan durra, dastro'mol kabi yengil-elpi narsalarni suv duch kelgan yerda pishib-pishib, mashinada g'ujanak bo'lib o'tirgan joylarida bosh yo tizzalariga yoyib selgitib olishardi. Egniga ikki yo bir kun avval yechilgan, yoqalari mog'or yaktakni ilishdan o'zga chora yo'q edi. Paypoq, paytava to'g'risida gapirilmasayam bo'ladi. Terdan qotib ketgan ust-bosh

hidi ayniqsa kun qizigan mahallarda baralla ko'tarilar, kechalari, ko'y lakning battar tarashasi chiqib, qovurg'alarga botar, yomg'ir yoqqanida esa badanga chilpillab yopishgan yog'day ijirg'antirardi. Bemalolroq to'xtashlari tayin bo'lgan qo'noqxona yo karvonsaroya hamma apil-tapil kir chayishga tushardi.

Ko'pincha qishloq, shahardagi musofirxonasi yo masjidda uch-to'rt soatgina mizg'ib olishardi. Ba'zan esa, vaqt taqozosiga ko'ra yoki mashina buzilib, shundoq cho'lbiyobonda, yulg'irlarni ostlariga to'shab, yo daraxt panalarida it yotish, mirza turish qabilida omonat yonboshlab tong ottirishardi. Ayni shunday damlarning gashtli tomoni ham yo'q emas edi. Bolalikdan qadrdon yulduzlar novdalar, yaproqlar orasidan Beknazarga mo'ralab qarashar, go'yo "Ana shunaqa, biz seni hamma joydan topib olamiz, sen bir yurtdan boshqasiga qochib borarsan, ammo bizdan yashirinib yurolmaysan", deya dashnom berishar, gohida esa uning holahvoliga achinib, ruhlar kabi "Biz senga hech qachon xiyonat qilmaymiz, boshing uzra panohmiz, qo'rhma, bizga ishon, bizga suyan..." deyishayotganday tuyulardi. Mana shunday lahzalarda hayot unga jilmayib boqqanday, dilxiralik uzoqlashib, qalbida iliq hislar jo'sh urardi. Biroq, yarim tunda jonga tekkan do'qillab yurish boshlanardi.

Qashqardan birga chiqqanlar Ravalpindida har yoqqa tarqab ketishgan, Beknazар boshqa yo'lovchilarga qo'shilib olgandi. Yangi hamsafarlar orasidan o'zidan bir-ikki yosh katta Sariqul bilan chiqishib qoldi, ulovda yonma-yon o'tirib, o'z boshlaridan kechirgan voqealarni bir-biriga so'zlab berishardi. Lekin odam gapdan ham zerikarkan. Ko'pchilik og'ziga tosh solganday jim, mudragancha xayol surib ketishni xush ko'rardi. Endi tamaddi paytlarida yo yangi ulov kutiladigan bekatlarda uch-to'rt og'iz so'zlashishar, bu qisqa, to'mtoq muloqotlar mavzui esa yo'l azobidan nolishu mayda-chuyda hasratdan nariga o'tmasdi. Boz ustiga, o'z xohishi bilan, bir olam orzu-havasni diliga tugib dunyo kezishga chiqmagan Beknazар uchun ko'cha va ovullar ko'rksiz-befazilat, "sayohat" maroqsiz tuyulardi. Bir-biridan uzoq-uzoq masofada joylashgan shaharlarning ko'chalari, xiyobonlaridagina xurmo, palCHъma yaproqlari uni tuzsiz o'y-xayollardan chalg'itib, mudroq, hafsalasiz ko'zlariga ozgina huzur bag'ishlardi. Ammo bu shaharlar hududi tezgina tugab, yana o't-o'lanlari qovjirab yotgan, yantog'u burgandan iborat til-zabonsiz dasht, sahro boshlanadi. Maysagiyo unmaydigan yalang'och, qaqrqoq yerning narigi tomoniga o'tib ketganday ko'rindigan adoqsiz to'q jigarrang tog'u toshlar, oqmay turgan ko'l suviday, kishi bahri-dilini ochadigan manzara kasb etmaydi. Ichadigan toza oqar suvning kamligi dard ustiga chipqon edi. Ahyon-ahyonda tog' yonbag'irlarida, qir sifat daralarda yakkam-dukkam bo'y ko'rsatib qoladigan, terak yo qarag'ayga, pista yo bodomga ham o'xshamaydigan siyrak bargli so'ppaygan daraxtlar tarovatu latofatdan xoli. Ko'kda ham bir zog' uchmas, tabiat jonsiz jismlar majmuiday taassurot uyg'otardi. G'arbda cho'g'day qizil, tandirning og'ziday oftobning go'yo bir yoni bilan zaminni yorib kirib ketishi, borliqning zimziyolikka va vahimali sukunatga chulg'anishi mahzun o'ylar girdobiga tortadi.

Marra esa hali olis edi. Yuk mashinalari nosoz yo'llarda aravadan salgina tezroq yurardi xolos. Tug'ilib o'sgan go'shasidan qancha yiroqlashgan sari Beknazarning yuragi battarrog ezilib, uni orqaga tortar, ana shu sustgina ulov g'ildiragining har aylanishi esa uni aziz diyoridan bir emas, bir necha chaqirim uzoqlashtirayotganday tuyular, oldindagi dovonu manzillarni, kelgusi kun, oylarini mutlaqo tasavvur etolmasdi.

Eron zamini sarhadida, Mirjava bojxonasida bir kecha-kunduz tutib turishdi. Tujjorlarning xalta-xurjunlarini tit-pit qilib yuborishdi. Beknazarda bir necha kiyim-bosh solingen tuguncha, Azim hoji hadya etgan puchchayib qolgan charm hamyondan bo'lak hech vaqo yo'q edi. Lekin uni ham qayoqdan kelyapsan, qayoqqa ketyapsan, pasportingdag'i muhr xira bositgan, sho'raviy, deb ancha ensasini qotirishdi. O'tkazmay qo'yishsa-ya, unda qayga boradi, qanday qaytib ketadi? Biron nimaga shama qilishmayaptimikin?.. Epchil, muomalalikkina Sariqul joniga ora kirdi, bojgurlarga hajga borishayotganini aytib, ularning qo'yiniga qo'l solib... ruxsat oldi. U anchagini ish ko'rganga o'xshardi, aytishicha, Afg'onistondan Eronga o'tish uchun ancha uringan, evini qilolmagach, Pokistonga jo'nagan. Qismat ekan, endi bu tomonlarda aylanib yuribdi. Beknazар u bilan uchrashuvni taqdirning inoyati deb bildi. Zero, har qanday safarda yaxshi hamroh non-suvga barobar.

Eron hududi ham nihoyatda bepoyon bo'lub, uning shaharlari orasi ham Pokiston kabi sahroyu yobondan iborat edi. Zoxidonu Mashhad, Tehronu Qazvin, Zanjona Tabriz osha Turkiya jumhuriyatiga o'tib (bu chegarada ham Sariqulning chorasi ish berdi), nihoyat, uning eski poytaxti Istanbulga yetib borishdi.

O'sha kuni kechqurun Beknazар oyog'ini cho'zib, tuguniga bosh qo'yanicha, qadimi sharqona usulda to'sin terilgan baland shiftga termilib chuqur-chuqur nafas olarkan, tili o'z-o'zidan pichirladi: "Devor ichidan chiqqan uch-to'rt dona kitob sabab, shuncha sargardon bo'ldim, Vatandan, ota-onadan ajralib, dunyoning bir chekasiga kelib qoldim-a..."

## Ikkinci Qism: Istanbul. Ishq Balosi

I

Sayyoohlар Turkiyaga kirib borishganda quyosh harorati, yer tafti pasayib, sho'x anhorlar shovqin solishdan charchagan, dovdaraxtlarning oltinrang yaproqlari to'kilib, oyoqlar ostida pildirab, zorlanib ucha boshlagan, sarg'aygan gul-chechaklar, yo'l chetlaridagi dilgir maysa-o'tlarning boshi egilib, o'ylarga cho'mgan, ammo suv, osmon tiniqlashgan, umuman, tabiat mo'ysafid qiyofasida, hamma yoqda bosiqlik, sipolik hukmronday edi. Sokinlashgan Marmar dengizi yuzasi kuz shabadasida yengilgina mavjlanib yotardi. Odatda bo'ron yo dovul oldidan shunday osoyishtalik yuzaga keladi va ko'pincha odamni g'aflatda qoldiradi. Etik g'ajigan chap tovoni azob berayotganini hisobga olmaganda Beknazар ham ancha xotirjam, endi taqdirga tan bera boshlagandi.

Qadimdan, boshqa nomlar bilan atalgan davrlardanoq ma'lum va mashhur Istanbul dong'ining Turon Turkiston tomonlargacha yetib kelishiga asosiy sabab haj ziyyoratini ixtiyor etib karvon bilan jo'naganlar Makkai mukarrama yo'lida joylashgan bu mo'tabar shaharga albatta qo'nib, nabiy Muhammad sallallohu alayhi vasallamning yaqin sahobalaridan biri Abu Ayyub al-Ansoriyning hazrati Ilcha mavzesidagi qabrini ziyyorat qilib o'tishardi. Shu bois, musulmonlar orasida "Istanbul yarim haj" degan gap yurardi. E'tiqodga, e'zozga javoban qardoshlar qulay sharoit, imkoniyatlar yaratib, yo'lovchilarni xushhollik bilan kutib olishardi.

Takyalar2, musofirxonalar bag'riga har qancha mehmon jo bo'lishi mumkin edi...

Musofirxonalarning langarxonalik xizmati ham bor edi, ya'ni bu dargohlarda muhtojlarga taom berilgan, boshqa xayriya ishlari amalga oshirilgan. Tavakkaldan yoki kamroq sarmoya bilan muqaddas safarga otlanganlar, savdogarlarning hamyonlari puchaysa tezroq Istanbulga yetib olishga oshiqishgan. Takyalarda ular yordam so'rashi mumkin bo'lgan yurtdoshlar, hatto yaqin kishilari bilan uchrashib qolishlari ham ehtimoldan uzoq emas edi. Qo'nimgochlarni oziq-ovqat va boshqa zarur ashyolar bilan asosan xayr-saxovatli boylar ta'minlab turishardi, yaqin-atrofdagi mahallalardan ham o'ziga to'q xonadonlar savob yo'lida har turli yeguliklar chiqarib yuborishardi.

Abjir, uquvlilar hammollik yo mardikorlik bilan pul topib, yo kimdandir qarz ko'tarib yo'lida davom etishar, ayrimlari ishi yurishmay yo o'zga vajlarga ko'ra qo'noqxonalarda anchagacha qolib ham ketishardi.

Qisqasi, takyalar nafas rostlash yo xotirjam hordiq chiqarishni xohlovchilar uchun quB-lay pakka, suhbat, o'yin-kulg'i maskani, g'ariblarga esa jon saqlaydigan dargoh bo'lib, ularning xonalari kabi, xo'jayinlariyu xizmatchilarining bag'irlari ham keng edi. O'tmishda ham (sho'ro zamonigacha) hajga eng ko'p o'zbeklar borishardi, shu tufaylimi, Istanbulning Eski shahar qismida, Uskudar mavzeida uch qavatl, alohida O'zbeklar takyasi qurilgan, u Sultan Ahmad maydoni va Olti minorli masjiddan atigi bir necha yuz qadam kunbotishda.

Xalqaro yo'nalishlarda naqliyot, uchoqlar, shaharlarda zamonaviy mehmonxonalar ko'payib, sayyohlik madaniyati yuksalgach, umumyotoq maqomidagi takya-qo'nqxonalarga hojat, e'tibor susayib, birin-ketin yopila bordi. Jumladan, O'zbeklar takyasida ham endi ilgarigiday fayz bazmi jamshidlar, gavjumliklar yo'q edi. Shunga qaramay, Istanbulday shahri azimda O'zbeklar ko'chasi borligidan Beknazar bag'oyat g'ururlandi, beixtiyor entikkanida ko'ksining kuchli shamolda egilgan daraxt novdalari qayta tiklangandek baland ko'tarilganini yaqqol sezdi. Bu ko'chada, umuman shaharda o'z muzofotidagi kabi bemalol, behadik yurish mumkinday tuyulib, dilidagi begonasirash, iymanish hissiyotlari ham ancha tarqaldi. Biroq...

Biroq u takyada oshiqlik domiga ilinib, Istanbulda qolib ketishi va ne ranju balolarga girifto bo'lishini xayoliga ham keltirmagandi...

Shu joygacha eson-omon yetib olganidan mammun, dengizlar o'ramidagi shaharning ajoyib manzaralarini ko'rgach, yo'l dagi mashaqqatlar ko'z oldidan yiroqlashgan, har ne g'urbat, jabru jafo yelkadan oshdi, deb xiyla xotirjam tortuvdi. Faqat uzoq va tahlikali masofada ham jisman, ham ruhan toliqcan, kamharakatlikdan boldirlari shishib uvushar, bu ham yetmaganday, o'ng bo'ksasiga chiqqan lo'mbozday chipqon yursa-tursa lo'qillab, miyasigacha zirqiratib yuborardi. U sheriklariga (kamayib-kamayib yetti kishi qolishgandi) ikki-uch kun dam olishni, oyoqlarining ishig'i bir oz qaytgach, yo'lga chiqishni taklif etdi.

Takyada bir xizmatchi va bir qariyadan bo'lak kimsa ko'rinsmasdi. Xonalar bo'm-bo'sh, lekin dim va zax, asrlar davomida turli-tuman yo'lovchilar badani va nafasidan chiqqan hidlar devoru shiftlarga o'rnab qolganga o'xshardi... Beknazar hovlining bir chetidagi serbarg arg'uvon tagiga joy to'shab oldi.

Hamrohlari shahar aylangani chiqib ketishar, Beknazar esa son-boldirlarini olib, shapatilab o'tirar, yarasiga qo'rga ko'milgan piyoz bosar yoki qo'y yog'i surkardi. O'riq pasayib, ko'zi suzila boshlagach shartta chap yonboshi bilan yotardi-da, dong qotardi. U asli tabiatan uyquchiqoq edi. Lekin yo'lida, ko'pchilikning, xususan, uydagi qora ko'zları qoshiga oshiqayotgan aravakash va haydovchilarning betoqatligi tufayli uyquga to'ymay qiyalgandi, shu bois endi uyqu azobdan ham zo'r kelardi. Uchinchi kunga o'tar kechasi saharga yaqin badaniga tekkan namdan uyg'onib ketdi, ihtilom bo'ldim shekilli, deb ko'ngli g'ashlandi, g'usl tashvishini o'ylab, battar ijirg'andi. Keyin chipqonning yorilganini bilib, ichi yorishdi va shundagina sirqirash ham ancha paysal topganini angladi. Oyog'i bir muncha dadil bosadigan bo'lib qolgandi, ammo baribir shu ahvolda tag'in yo'l yurish qiyinda o'xshardi.

Buning ustiga hali charchoq ham yaxshi tarqamagandi. Nafsilaqini aytganda, inson vujudi ham quv bir xilqat andak rahmini yeb, mehribonlik ko'rsatsangiz, u sizdan yana ko'proq imtiyoz va muruvvatlar tama qilaveradi. Ha-da, oldindagi maqsad aniq emas, manzilda ularni hech kim kaftini manglayiga qo'yib, intizor kutayotgani yo'q-ku, ikki-uch kun farq bilan borishsa, nimaga kechikdinglar, deb qiyin-qistovga olisharmidi yo shaharga kiritmay qo'yisharmidi? Aytishlaricha, hali haj mavsumiga ancha bor ekan. Lekin bu yoqda hamyon masalasi ham chatoq-da...

Beknazar qadrdonlashib, ko'ngillari yaqin bo'lib qolgan mozori-shariflik, asli ota-bobolari "qoch-qoch"larda Surxon vohasidan Afg'onistonga o'tib ketishgan Sarqul ko'magida sheriklarini tag'in ikki kungina kutishga ko'ndirdi, darddan tuzukroq forig' bo'lgach jo'nagan ma'qul-da. Hali oldinda qancha yo'l, birmas, ikki mamlakat Shom va O'rdun bor, ozgina yurib yana inqillashni boshlasa, undan yomoni yo'q...

\*\*\*

Mo'ljalidagi kuni Beknazar barvaqt, hamsafarlaridan avval uyg'ondi, o'zini bir navi yengil sezdi. Bir oz aylanib, ham oyog'ini sinab ko'rish maqsadida tashqariga qarab yurdi. Qo'sh qanot, o'yma naqshli darvoza hali ochilmagan edi, u ustanadagi zulfindan zanjirni tushirib, qopqaning bir tabaqasini o'ziga tortdi-yu, ostonaning u betidagi g'aroyib bir mo"jizaga ko'zi tushib, qo'lini eshil tutqichidan olishni ham unutganicha, serrayib qoldi. Ro'parasida boshiga yengil pushti ro'mol tashlagan, shahlo ko'zları charaqlagan, yuzlari oq-sariqqa moyil, qirmizi lablari xiyol ochilib, durri marjon tishlari yiltillab, bir malak siymo turardi. Uning bir qo'lida tuguncha bor edi. Umrida chehrasi bu qadar chiroyli, maftunkor, qarashlari otashu alanga qizni uchratmagan yigit o'ngimmi yo ko'zimga ko'rinyaptimi degan xayolda karaxt, kiprik qoqish ham esiga kelmasdi. Qiz ro'molini yuziga qiya qilib yopgani, so'ng o'sha qo'lining latif barmoqlari bilan och yashil tusdag'i ko'ylagi yoqasini xiyol qayirib ko'ksiga "tuf-tuf" laganiga nazari tushgan yigit uning ro'yo ham, tush aksi ham emas, hayotiy xilqat ekanligini fahmlab, battar angraydi. Shu asnoda qizning nim kulimsiragan ko'yi "Kun oydin, afandim..." deganini eshitib, unda birdan hayajon junbishga keldi, ichida kimdir taajjub izhori etdi: "Ovozining sho'xligi, yoqimliligini..."

Aqlu idrokidan ayrilayozgan Beknazar o'ziga keldi, lekin qarshisidagi huriliqoning gapini durust anglamadi. Hoynahoy, yo'l bo'shatishimni so'rayapti shekilli, deb o'zini chetga oldi. Pari ruxsor yonidan chaqqonlik bilan soyaday lip etib o'tib ketdi. Yigit boshini qayirib, yelkasi osha qaradi. Shitob yurib borayotgan qiz o'n-o'n ikki qadamdan so'ng sal sekinlab orqasiga hali ham qoqqan qoziqday qaqqayib turgan yigitga ilkis nigoh tashladi-da, bino muyulishida ko'zdan g'oyib bo'lди. Malakning bo'g'ma yoqali uzun, o'ziga yarashgan ko'ylagi ostidagi shamshoddek tik qomati, bir oz qimtinib yurishi ham kishini o'ziga mahliyo qilardi. Ammo bir soniyalik ma'sumona tabassumi, sirlı boqishi Beknazarni adoi tamom qilgan, u tig'day o'tkir nigoh nihoyatda merganlik bilan otilgan kamon o'qiday, o'shshaygan musofirning sher o'mrov ko'kragini osongina teshib o'tib, qoq yuragiga sanchilgan edi. Bu parivash kim bo'ldi? Sahar-mardonlab takkada nima qilib yuribdi? Kimning oldiga keldiykin?..

Xayoli to'zg'in yigit qayoqqa, nimaga ketayotganini ham yoddan chiqarib, beixtiyor ichkariga qaytdi. Yuragi borgan sari gupurar, o'ziga nima bo'layotganini tushunmasdi. Qadami o'z-o'zidan tezladи. Uni uylangan, qisqa fursatda "xotin"idan sovib, loqaydlikni o'ziga oshno tutgan odamni bir lahzada dovdiratib, ayol zoti to'g'risidagi noxush fikrлarini harsangga tekkan oynadek chil-chil qilib, ehtiroslari ilk bora tizgin uzgan bo'ydoqqa aylantirib qo'yan oy yuzli dildor qator tushgan xonalar ayvoni zinasi oldida qo'lidagi tugunni etagi to'pig'iga tushadigan kulrang qabo kiyib, movut taqiya ustidan urinib-o'nggan salsa o'ragan takya xizmatchisiga uzatayotgan edi. Beknazar ularga yaqinlashganda sarosimalanib to'xtadi, shu damda mohitobon orqasiga burilib, torroq yo'lakda garangsib turgan yigitning chap tirsagiga kifti bilan bexos, yengil turtilib o'tib ketdi. Beknazar yurakka yaqin joyiga cho'g' tekkanday bo'lib titrandi.

Bu qiz kim, tog'a? so'radi uning holatini kuzatib, miyig'ida kulib turgan xizmatchidan. U o'z ahvoli-ruhiyatini yashiradigan,

uyaladigan alpozda emas edi.

Qizi qurmag'ur go'zal-a, bosh-bosh qildi xizmatchi. Husndan xudo bergan-da.

Azonlab kelganiga hayron bo'lyapman, dedi o'zini sal bosib olgan Beknazar.

Ko'pchilikka ko'rinnmaslik uchun barvaqt chiqadi. Cho'lpon yulduziga o'xshaydi.

Yaqin-o'ttada yashaydimi?

Namuncha surishtirib qolding, yigit, oshiq bo'ldingmi? Ishq bir olov, senga o'xshagan pahlavonlarning qancha-qanchasi kuygan bu o'tda. Sen ulug' ibodatga otlangan muslim yo'lovchisan, musofirsan, ko'nglingni parishon qilma, bo'tam. Ba'daz, allohga muhabbatgina boqiy va xayrlidir, bandaga muhabbatning xosiyati kam, turgan-bitgani g'urbat, zero bunda yaratganga siddiqlik bo'linur.

Ota-onalari qanaqa odamlar? so'radi Beknazar xizmatchining gaplariga e'tibor ham bermay. Ayni damda uning qulqlari tahdidu o'gitlarga kar edi.

Padari buzrukvor Ismoil hoji degan savdogar edi. Misrdan, Hindistondan mol olib kelib sotardi, dedi xizmatchi nigohini qo'lidagi tasbehdan uzib Beknazarga qarata. Bechora qiz validasi bilan yolg'iz qolgan. Bu yerda marg'ilonlik bir mo'ysafid bor, shunga bir nimalar ilinishadi, duo ilinjida.

Tez-tez kirib turadimi?

Vaqti-soati yo'q. Xohlaganda kiradi.

Ismi nima?

Bu so'roq javobsiz qoldi.

Ke, yur, ichingni g'umillatib ketgan nozaninning noni bilan Hoji otaning xonasida nonushta qilamiz. Ularga savob kerak, oshiqlar duosi mustajob bo'lur. Chunki ular chin dildan tilaydurlar. Xizmatchi mashriq ufqiga bir nazar tashladi-da, ichkariga yo'naldi. Hali kun chiqmagan, ammo tong ancha yorishib qolgan, Beknazarning belbog' yo patularini yelkalariga tashlagan sheriklari uzun-qisqa bo'lib hovli etagidagi quduq tomon borishardi.

Yigit parishonlik bilan bir-bir bosib arg'uvon sari yurarkan, oyoqlari yana zirqiray boshlaganday tuyuldi. Dumaloqlangan o'rnini yozmay, shundoq sholchaga cho'zildi. Kaftlarini boshi ostiga qo'yib, moviy falakka tikilgancha xayolga cho'mdi. Beixtiyor bu yerda "nafas rostlash"ni cho'zmoqqa chora axtara boshladi. Turgan gapki, hamrohlari endi unashmaydi, busiz ham uni deb salkam bir haftani yo'qotishdi, to'g'risi, yana bir-ikki kun turaylik demakka Beknazarning ham yuzi chidamasdi. Ammo jo'nashga ham ko'ngli chopmasdi. Oyoq hali yaxshi tuzalmabdi. Bu yoqda boyagi malak siymo ko'z oldidan ketmas, uni yana va yana, loaql tag'in bir bora ko'rish ishtiyogi, istagi fikri-yodini egallab olgan edi. "Qani endi xotin deganing ana shundoq shahdam, istarali bo'lsa ko'zing ham yayraydi, ko'ngling ham..." deb o'yldi u.

## II

Beknazar muolajani yana ma'lum muddatga davom ettirishga qaror qilganini aytib uzr so'ragandi, hamsafarlari uni ortiqcha qistab o'tirishmadi. Faqat kimdir: "Bunaqa ekan, boshda aytmaydimi, shuncha kundan beri vaqtimiz, pulimiz bekorga ketdi", deya to'ng'lladi. Beknazar og'zini do'mladi-yu, o'zini eshitmaganga soldi. Sariql boshini tebB=ratib, "Ko'pchilikdan ajrab qolayotganingiz chakki bo'lyapti-da, jo'ra, mayli, xudo shifo bersin, tezroq yo'lga chiqing, Makkai mukarramada eson-omon ko'rishmoq nasib etsin", dedi va bir necha qadam bosishgach, orqasiga qayrilib Beknazarga bir qarab qo'ydi. Beknazarning ham ichi achishdi nima bo'lsayam, ularga ancha o'rganib, Sariql bilan sirdosh bo'lib qoluvdi, lekin u uzoq ikkilanib turmadni. Zero, uni tutib qolayotgan kuch sehrli va juda qudratli edi. U Sariqluga ketaveringlar, baribir ahdimdan qaytmayman, deganday, keskin bir qo'l siltadi-yu, ichkari kirib, muk tushib yetib oldi. Uydagilar uni Arabistonga yetib olgan, deb o'ylashayotgandir. U esa, bu yerda uyuridan ajralgan qulunday garangsib yetibdi. Butunlay begona, tagi-tugi noma'lum, boz ustiga nomahram qizning yuziyu ko'zini, qaddi-bastini bir ko'riboq, anavi xizmatchi aytganday, mahliyoyu asir, volai telba bo'la qoldimi? Uni shunchaki yana bir martagina ko'rib, husni tavajjuhidan, qorong'i dilni mash'aladay yoritib yuboradigan nimgina jilmayishidan tag'in bir daf'a bahramand bo'lmoq uchun bir necha oylik hamroh-birodarlarini ranjitib, bu yerda taqdiri nima kechishidan ham tashvish chekmay qolib ketaveradimi, a? Xo'p, o'sha go'zal qizni yana bir emas, bir necha karra ko'rni ham, xo'sh, nimaga erishmog'i-yu, nima o'zgarmog'i mumkin? Bir-ikki og'iz suhbatlashmoqqa ham musharraf bo'lzin, unga, bir bandai mo'minning, musofir bechoraning jigaridan urib qo'yanini aytib, arzi hol etsin, xo'sh, qiz nima deydi, o'roqda yo'q, xirmonda yo'q savdoyi xushtoring tomdan tarasha tushganday muhabbatni evaziga qanday muruvvatu iltifot ko'rgizadi? Nima qillardi, nima derdi, "Xom sut emgan afandim, siz o'zi dunyoning qaysi burchagidan keldingizu, qaysi chekkasiga ketyatuvingiz? Yashash oshyoningiz qayda qolganu, bizniki qayda turibdi? Muhabbatni o'yinchoq deb o'layapsizmi yo men bilan urdim-qochdi o'ynamoqchimisiz? Yo'lingizdan qolmaganingiz, meniyam tinchimni buzmaganingiz ma'qulmikin...", deydi-da. Ehtimol, bunchalik ham deb o'tirmay, unga Shom, Arabiston tarafni ko'rsatib, adashib qolmasin deb, puxtagina tushuntirib ham qo'yar... Ha-da, boyning farzandi ekan, qarindoshi huzuriga panoh izlab borayotgan, belbog'idagi to'rt tangadan bo'lak hech vaqosi yo'q o'tkinchi yo'lovchini nazariga ilmasligi, uning shaydoligini sariq chaqaga olmasligi mumkin-ku. Nazariga ilganda, oshiqi devonaligini sariq chaqaga olganda nima qiladi? Uni yetaklab ketadimi, qayoqqa, qanday? Makkatillovgami yo orqaga qaytadimi?

Hemirisi yo'q-ku? Yo ichkuyov bo'lib qoladimi?..

Albatta, Beknazarning ongi agar boy qiz kambag'al yigitni yaxshi ko'rsa, uni qaramog'i va homiyligiga olishi mumkin, degan iddaodan holi, bu gaplar hozir xayolidan ancha yiroq edi. U faqat bugun tong aro uni aqlo hushidan mosuvo etgan o'shal jononani yana bir qatla ko'rmoq, uning diydoriga uzoqroq termilmoq (lekin u o'ylamasdiki, chanqagan odam bo'y, qo'li yetmaydigan suvga tikilsa, tashnaligi battar ortadi, xolos!), u bilan suhbat qurmoq ilinjida yonardi.

Birdan miyasiga sovuq bir fikr gurziday urildi: u o'zi qiz bolamikin? Kiyinishi, ro'mol yopinishiga qaraganda kelinchakkayam o'xshaydi. Boz ustiga yoshiniyam taxminlash qiyin edi.

Ma'lum sabablarga ko'ra uylanishga shoshmagan, kuyov bo'lgach esa, qaylig'iga ko'ngil qo'yolmagan yigit bir necha yurtni bosib, qancha shaharu qishloqlardan o'tib keldi. Qo'noqxona, musofirxonalarda o'rin bo'lmanida har xil kimsalarnikidan boshpana topib yotishdi. O'sha joylarda xizmat qilib yo turli yumushlar bilan o'ralashib yurgan yoki kunlab qolib ketishgan mehmonxonalarda uchragan yuz-ko'zlar ochiq g'alati tabiatli, hazilkashlikka moyil qiz-juvonlarning hech biriga yigitlik nazari ila suqlanmagan, birontasi uning diqqat-e'tiborini tortmagan edi. O'z qishlog'ida qunduzqosh suluvlar yonidan soch o'rimlarining birini oldiga tashlab, selkillatib o'tishganida ham bir mo'y qimirlab qo'ymasdi. Nega endi bu turk mahvashiga shundoq ko'zi tushdi-yu, yuragi o'ynab, vujudi nest bo'lib qola-qoldi? Uni bo'g'ma ilondek sehrlab oldimi? Dengiz suviga o'xshagan ko'zlarida

jodusi bormikin? Ismi nimaykin? Anovi so'xtasi souvq xizmatchi ham, asakasi ketadiganday, aytmadı...

Turk go'zali haqida tezroq, ko'proq narsa bilgisi kelardi, yana qizdan so'z ochish maqsadida daroz xizmatchi bilan uchrashishga bir necha bor chog'landiyu, har gal andisha etagini qo'yib yubormasdi.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish (lekin bu hali sevgi emas!) ko'p uchraydigan tabiiy hodisa, bu faylasuflar kuzatuvi va xulosasi emas, oddiy bandalar mahbublar va mahbubalar kashf etishgan, tan olishgan haqiqat. Bir boqishda jalg etuvchi maftunkor siyrat o'zicha hech narsa va'da qilmas, garchi qarovchining ichi-borini ag'dar-to'ntar etib yuborsa-da, illo, o'sha kimsaning majnunona tikilishiga javoban hadya etilgan mayin, sirli tabassum misoli tutay boshlagan o'tinga gugurt chaqilganday bo'lishi, hali shaydolik zahmati va rohatidan xabarsiz bir jomni muvozanatdan chiqarib, har ko'yga solishi mumkin. Ammo, ayni o'sha, bir-ikki kiprik qoqqulik fursatdagi muloyim va huzurbaxsh nigoh keyinchalik bechora oshiqni o'z ortidan ergashtirib, chamanzorlardan, bahavo kengliklardan baxt sari, murod sari yetaklamog'i yoxud yogurtira-yogurtira, o'z domiga ilintirgach, o'nqir-cho'nqir changalzorlarda ovorai jahon qilib, adashtirib, tolesizlik jariga uloqtirmog'i va yo aksincha, go'zal siyrat sohibasi kimmidir baloga qoldirgan, umidvor qilgan maylli qarashining jabru jafosini tortmog'i, hatto, iffati, nomusi bilan tovon to'lamog'i ham ehtimoldan uzoq emas.

\* \* \*

Vaqt tushovlanganday, endi terak bo'yи ko'tarilgan quyosh o'rnidan jilmay turganga o'xshardi. Beknazар hovlida u yoqdan bu yoqqa yurar, yana yotib, uxbab fursatni tezlatmoq istar, biroq uyqu ko'zları bilan arazlashib qolganday, sira kipriklariga yaqin yo'lamasdi. Yurganda ham, yotganda ham ikki ko'zı ikkala qanoti ham lang ochiq darvozada edi. Xayolida o'zgalarga osh-non berib, uning esa halovatini olmoqqa qasd qilgan u jonso'z sanam tushlikka ham biron narsa ko'tarib kirib qoladiganday...

Oftob tikkaga keldi. Peshin namozidan so'ng Beknazар joynomozda yana xayol surib o'tirdi, yuzini siypalab, nogoh bir necha kundan beri soqol olmagani esiga tushdi. Tugundan ustarasimi topib, quduq yonida apil-tapil iyak qirtishladi, murtini qaychiladi sheriklariga taassub qilib yo'lда mo'ylov qo'yan edi.

Kech kirdi. Beknazар betoqatlik bilan kutgan xonimdan darak yo'q edi. Ha-da, axir takkaga to'xtovsiz non, ovqat tashiyvermasa kerak...

Shu kuni ko'ngli yemak tilamadi. Yarim tunda ko'zi pinakka ketib edi, tong yorishib-yorishmay, kimdir chaqirganday, cho'chib uyg'ondi. Yuz-ko'zlarini quduqdan suv chiqarib astoydil yuvdi-da, bo'xchasidan asrab-avaylab kelayotgan bo'g'ma yoqali ohorli oq ko'ylagini olib kiydi, suv purkab, kaftlari bilan sidira-sidira g'ijimlarini sal epaqaga keltirgan bo'ldi, ustidan jujun kamzulini ildi, chang o'tirib, oq gullari xiralashgan, nimdosh do'ppisini qoqib-silkidi-da, durra bilan obdan artgach, tizzasiga kiydirib, kerib, anjanchasiga chakkasiga qo'ndirdi. Qo'nji kaltaroq xrom etigini nam latta bilan artib-tozalagach, oshig'ich borib darvozaning ilgagidan tortdi. Hech kim yo'qligini ko'rgach, tarvuzi qo'lting'idan tushganday, yurak hapriqishi pasaydi, ko'chada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. U yarashiqsiz qiliqlarining yosh o'smirlarga xos va nojo'ya ekanligini fahmlar, ammo oyoqlari, dili, ko'zlar ongiga bo'ysummasa, nima qilsin boyaqish. Lekin mabodo hozir qiz ro'parasidan chiqsa, unga nima deyishni, qanday salomlashishni ham bilmas, qolaversa, garchi bu yurt ahli ham turk esa-da, ularning gapini tushunish ancha qiyin edi, ayollarning lahjası, izhori dil shevasi yanada mushkulroq bo'lsa kerak. Ammo o'zbeklar takyasiga kirib-chiqib yuradigan qiz balki o'zbek tilini ham ancha-muncha bilar, anglar...

### III

Nihoyat malak ostonada ko'rindi quyosh yaraqlaganday. Ayol zotining go'zalligi, husni deyilganda uning bo'y-basti, yuz tuzilishi, oriq-semizligining o'rtachaligi, umuman tana uzvlarining o'zaro mutanosib va bejirimligi, rangining tozaligi, terisining tiniqligi, istarasining issiqligi, ya'ni ko'zlar va lablari burchlarining chiroyli jilmayishga moyilligi nazarda tutiladigan bo'lsa, Beknazар ko'zi bilan qaraganda qizning siymosi, andomi-jussasi ana shu mezon va andozalarga quyulib tushib, qolipdan ortib ham qolgudek edi. Bugun u och zangor tusli, yengi tirsakdan ko'ylak va zardoli rang nimchada yanada yashnab, gul-gul ochilib ketgan edi. Qo'lida kechagicha tugun bilan mayda, tekis qadam tashlab, yo'q-yo'q, tuproq yuzida unib-o'sgan inson bolasi emas, samoviy bir farishta xirom aylab kelardi. Sarasof solgan kishi nigohlaridan sanamning andak besaranjomligini ilg'ashi mumkin edi. Lekin Beknazар hozir nigohlarini emas, lov-lov yonayotgan liboslari-yu, shu liboslarga o'ralgan xushbichim, navrasta qaddini ko'rardи, xolos. Irg'ib o'rnidan turib, go'yo aziz bir mehmon istiqboliga peshvoz yurdi va "Salom, xonim!" dedi. Qiz ilkis to'xtab, yonginasiga kelib qolgan odamga kechagi ko'rganidan ancha o'zgargan tozargan, yashargan, dadillashgan yigitga ko'zi tushdi. Nigohlar bir soniya to'qnashdi. Beknazarning yuragi yana hadikdanmi, sarosimadanmi, shuvilladi, qilgan gunohi evaziga muqarrar jazo dakki kutayotgan boladay, oyoqlaridan mador qochdi, chiroyli boqib turgan ko'zlarga tob berolmay kalovlandi.

Ne deyursiz, hoji og'a? Qo'ng'iroqday jaranglagan, shevasi ajib bir yoqimli bu ovozning dangal va sho'xligi Beknazarning hayratini yanada oshirdi, shu bilan birga unga shahd, shahdgina emas, jon ato etdi.

Men hali hojimasman, endi ketyapman.

Alloh yo'lingizni bersin, afandim.

Qizning deyarli aniq, har holda tushunarli so'zlashi yigitni ruhlantirib yubordi, demak, u bilan bemalol gaplashish mumkin ekan. Biroq, Beknazар Nasriddin Afandi to'g'risidagi g'aroyib hangomalaru ichak uzdi latifalarni eshitganda qanchalik huzur qilmasin, bu yengilmas, hamisha mot qiluvchi, hozirjavob qahramonning ismi unda gohida quv, gohida lapashang, gohida o'ta bachkana, gohida juda qitmir va mug'ombir, xullas, turlanuvchan shaxsning umumiy nomi sifatida taassurot qoldirardi. Yigit garchi turk go'zalining dili ozor chekib qolishi mumkinligiga aqli yetib tursa ham raddiyasini bayon etmoqdan tiyolmadi.

Rahmat, xonim, lekin men afandiyammasman, dedi u tovushini bir oz pasaytirib va darhol qizning yuzidagi ifodani uqmoqchi bo'lganday, andishani ham chetga surib, astoydil razm soldi. Aslida u muloqotni uzaytirishning boshqa yo'llini topolmayotgan edi.

Unda kimsiz? So'roq ohangida, har qalay, jinday ranjiganlik alomati borligini tuyish mumkin edi. Bunday savolni kutmagan

Beknazар bir lahma dovdiradi.

Jo'ngina odam, dedi u haqiqiy qishloqcha soddalik bilan.

Shahlo ko'zlar pirpiradi.

Jo'n odam nechuk odam?

Shunaqa, oddiy odam, Beknazар kiftlarini qoqib jilmaydi topgan gapi o'ziga endi kulgili tuyula boshlagandi.

Xush qoling, jo'n odam!..

Qiz shunday deb ketmoqqa taraddudlangan edi, yigit shosha-pisha "Xonim, xonim!.." deb uni to'xtatdi, ichida esa bunday jur'atu jasoratning qayerdan paydo bo'lganiga hayron edi. Xizmatchining yo'qligi ham unga dalda berayotgandi.

Labbay, jo'n odam, dedi qiz yigitning shoshib qolgani va bechoravash holati nash'a qilib.

Yana bir pas turing...

Xo'p, bir pas emas, ikki pas ham turay. So'zlang!

Beknazarning taajjubi va zavqi ortib, ko'zлari charaqladi. U xususan qizning o'zbek tilida juda chiroyli gapirishidan xuddi eng mushkul muammosi hal etilganday o'zida yo'q edi. Unda hamsuhbatining turkligiga shubha tug'ilди.

O'zbekchani qayerdan bilasiz? so'radi u gapni ulash uchun yuzaga kelgan tayyor bahonani qo'lidan chiqarmay.

Buning tarixi uzoq, afandim, kechirasiz, muhtaram jo'n odam. Bo'ldimi?

Beknazar orzusi ro'yobga chiqib, qiz bilan tezgina uchrashgani va povintar-soyintar savollariga uning malolsiz javob berayotganidan bag'oyat mammun, lekin shoshilishda kerakli gaplar esiga kelmayotganday tuyular, o'zidan koyinardi, ammo aslida qizga nimalar deyishi zarurligini bilmas, dabdurustdan izhori muhabbatdan tushish odobB-dan emasligiga aqli yetar, bunday qilsa, qizning, shubhasiz, "tentakmi bu..." degan mulohazaga borishidan, ishning pachavasi chiqishidan qo'rqardi, ayni chog'da miyasida yana bunaqa imkoniyat tug'iladimi, yo'qmi, shuning uchun yotib qolguncha, otib qol qabilida tavakkal qilish kerakmikin, degan fikr aylanib, ikki oyog'ini bir etikka tiqardi.

Qayerga shoshasiz? so'radi u yana shunchaki vaqtini cho'zish niyatida. Qizning javoblari esa juda maroqli edi.

Shu yerga.

Nima olib kelyapsiz, nommi?

Ovqat.

Kimga?

Musofir-muhtojlarga.

Kamina ham muhtoj, faqat...

Xo'sh?

Ovqat pishirganga.

Hmm... Oshpazimizgami?

Oshpazlaring bormi?

Bor-da.

Ayolmi, erkakmi?

Bunga nechuk qiziqib qoldingiz, jo'n odam?

Hovlinglar kattami?

O'rtacha, nima edi?

Bog'bonmi, umuman, erkak xizmatkor kerakmasmi sizlarga demoqchiydim.

Kerak edi-yu, olib qo'ygannmiz-da.

Beknazar qiz javoblarining hazil yo chinligini anglolmay sal bo'shashdi, bachkanalashib ketmayapmanmi, deb qisindi, ittifoqo boshqa gap yodiga tushib, yana jonlandi.

Ismingizni bilsak bo'ladiimi?

Bilib nima qilasiz?

Olib ketaman.

Qiz "piq" etib kuldil, atrofga musiqiy jarang taraldi.

Ismimni-ya? Qayoqqa?

O'zbekistonga, dedi yigit entikib, qiz jiddiy so'rayotganday.

Aftidan nozanin musofirming so'zlarini chindan ham hazil deb o'yładi chog'i, kulib so'rashda davom etdi.

O'zbekistonning ne yeriga?

Andijonga.

Qizning yuz-ko'zi jiddiylashdi va bir nafasdan keyin yana tilga kirdi.

Siz Andijondanmisiz?

Ha.

Andijonning qayeridan?

Qo'qon qishloqdan.

Iy-e, shunaqa deng... Sizni ziyorat qilish kerak ekan.

Beknazarning ko'zлari qinidan chiqib ketayozdi.

Siz ham... Qo'qon qishloqdanmisiz?

Oltinko'l tomondan. Yurtimiz tinchmi? Qanday shamollar uchirdi?

Qashqargacha siyosat dovuli uchirgani aniq, bu yoqqa sizning shamolingiz uchirib kepti shekilli. Mana, ko'rdingizmi, ismingizni bekorga opketaman, demayapman ekan.

Shuniyichun hovliqyatuvdim deng. Agar yurtimizga bo'lsa, mayli...

"Temirni qizig'idia bos, Bek!"

Faqat... egasi bilan-da.

Qiz yana chimirilib go'yo sipo tortdi.

Endi sal oshirvormadingizmi, afandim. (Qiz bu iborani suhbatdoshining g'aB-shiB-ga tegish uchun atayin qo'lladi). So'ng labini burdi. Olib ketarmishlar... qanday qiB-lib olib ketarkin?

Boshimga ko'tarib yo... qo'ynimga solib, dedi Beknazar "jilov"ni bo'shatmay.

Qiz qizarindi.

Rostdan ja tegishqoq ekansiz, a?

Men jiddiy gapiryapman.

Ismimni aytmasam-chi?

Menga shugina himmatniyam ravo ko'rmaysizmi? Yurtdoshlik hurmati shumi?

Olib ketib qolaman deb qo'rqtyapsiz-ku?

Avval aytинг-chi.

Olib ketishga arziydimi, yo'qmi deng.

Siz odamning ko'nglidagi niyatini bilib olarkansiz, a?

Ana shunaqa, men bilan hazillashmang.

Xo'p, kelishdik, men samimiy so'rayapman.

Ismim oddiy Fazilat.

Juda chiroli va ma'noli-ku. Jamiki yaxshi fazilatlar sizda ekan-da.

Agar qizlarning yo'lini to'sib, gapga solib turaverish yaxshi fazilat bo'lsa, demak, u sizdayam bor.

Qarang-a, qanday yaxshi fazilatim borikin, deb o'ylab yurardim.

Bu xislat sizga tez-tez asqotib turadimi?

Atyapman-ku, bunaqa fazilatim borligini bilmasidim deb.

Xo'p yaxshi, endi olib ketmaysizmi?

Endi olib ketaman-da, zora kekkayib yurishga arziyidigan fazilatim bo'lsa...

Qiz soxta chimirilib, yigitga pastdan tikildi.

E, attang, bo'lak jo'nroq otni aytmapman-a?

Qanday ism bo'lsayam baribir sizga yarashaveradi.

Demak, sizga ismning ahamiyati yo'q ekan-da?

Egasi yoqsa, boshqa ot qo'yib olsayam bo'laveradi.

Ismi chiroli bo'lib, o'zi yoqmasa-chi, uniyam almashtirib olsa bo'laveradimi? mug'ombirona jilmaydi Fazilat.

Ancha quvga o'xshaysiz, a?

Yana yolg'ondakam tundlandi qiz.

O'shanda Fazilat savol-javoblarni chindan hazil deb o'ylagan (bunaqa hazilkashlar unga takyada ilgari ham uchrab turardi), xayoliga boshqa fikr kelmagan edi.

Xush qoling, jo'n odam, u shunday dedi-da, yigit yonidan atir-ifor taratib o'tib ketdi. O'ta turib unga kechagidek nim tabassum bilan qiyo boqib qo'ydi. Beknazар bu qarashning ma'nisini uqolmay qynaldi. "Holingiz shu ekan-ku, yaxshi yigit, gap aylantirishni bilasiz xolos ekan-da", demoqchi bo'ldimikin?

Fazilat zina yonida taraddudlanib turib qoldi.

Beknazар u tomon yurib bordi.

Hoji otaning oldiga kirgani tortinyapman, manavini berib qo'yolmaysizmi? qiz qo'lidagi tugunga ishora qildi.

Jonim bilan. Ehtimol bizgayam nasiba tegib qolar. Yo o'zi bir kishilikmi? Ko'ngil uchun bo'lsayam birga baham ko'ringlar demaysiz-a...

Kechirasiz, shu mulozamat esimga kelmabdi.

O'zi shunaqa manzirat bormi bu yerda?

Yo'q desayam bo'ladi, lekin sizam ja manzirat kutib o'tiradiganlarga o'xshamaysiz.

Shunaqa sulloh ko'rinanmanmi?

Tushunmadim.

Surroqqa o'xshaymanmi deyman.

Yo'g'e, o'libmanmi o'z yurtdoshim haqida shunaqa xayolga borib. Xafa bo'ldinB=gizmi?

Yo'q, xursand bo'ldim, dilingizdagini ochiq aytganingizga.

Kesatyapsiz-a? Savlatingizga qaraganda... nozik ekansiz.

Musofir odamning ko'ngli yarim bo'lib qolarkan.

Musofir sizmi, bizmi? Mayli, yaxshi boring, yurtdoshlarga salom ayting, dedi jo'nashga chog'langan Fazilat.

Beknazар labini tishladi.

Men hozircha hech qayoqqa ketayotganim yo'q.

Qiz to'xtab, Beknazarga yuzlandi.

Bu yerda butunlay qolib ketmassiz?

Taqdir biladi.

Yaxshi niyat qiling. Hajga bormoqchisiz shekilli?..

Beknazар sustlandi.

Xudo xohlasa...

Qiz to'xtab, Beknazarga yuzlandi.

Bu yerda butunlay qolib ketmassiz?

Taqdir biladi.

Yaxshi niyat qiling. Hajga bormoqchisiz shekilli?..

Beknazар sustlandi.

Xudo xohlasa...

Fazilat birdan jilmaydi.

Qaytishda yana shu yerga tushasizmi? so'radi u qandaydir o'zgacha erklangannamo ohangda.

Beknazarning ham chehrasi yorishdi.

Albatta, lekin hozircha shu yerdaman, yana kelishingizni kutaman, Fazilat, ismim Beknazар.

Omon bo'ling, Beknazар aka.

Fazilat darvoza yoniga yetganda orqasiga o'girildi-da, Beknazarga yana yengil tabassumli nigoh tashladi va ostona hatladi. Yigit nazarida qizning qarashi ishoraliday tuyuldi. Tugunni ayvon chetiga qo'yib, darvoza sari lo'killadi. Ostona o'tib, atrofga oshig'ich ko'z yogurtirdi yo'lning ikki tarafni ham ancha yergacha aniq ko'rinish turar, ammo Fazilat yo'q edi. Beknazар taajjub ichra qotdi. Orada kechgan qisqa fursatda qiz qayoqqa g'oyib bo'lishi mumkin?

Ko'chaning narigi yuzi kungay tomon ancha pastlik edi, tunuka yo sopol laxtakchali tomlar daraxtzorlar ichidan ko'rinish turar, taxminan bir yarim chaqirim narida Marmar dengizining ko'kimtir suvi chayqalib yotar, bunday so'lim manzara, huzurbaxsh havo dashtu biyobonlarda suvsizlikda cho'llab, darmonsizlanib, issiqdan nafasi qaytib zada bo'lganlar uchun jonning malhami, ko'zning rohati edi. Beknazarni esa hozir tabiat jozibasi ham, boshqasi ham qiziqtirmasdi, u tevarakka alang-jalang qilib yana bir oz turgach, ruhi tushib ortiga burildi. Shu payt "piq" degan kulgi eshitildi, u keskin o'girilib, ovoz kelgan yoqqa qaradi. Fazilat kun

chiqish sari chopqillab borardi. Shunda yigitning nazari o'zidan bir necha qadam narida, yo'l chekkasida na'mataksimon to'p bo'lib o'sgan, novdalar tebranayotgan qusholmasiga tushdi. Katta-katta odim otib qiz ketidan yurdi. U hozir nima qilmoqchi ekanini mushohada etishdan ojiz edi. Fazilat yigirma-o'ttiz qadamcha chopib borgach sekinlab, ortiga bir qayrilib boqdi, ammo Beknazar qizning yuzi-ko'zidagi ifodani payqay olmadi.

Beknazar hamon yirik qadamlar bilan intilar, qiz bilan oralaridagi masofa qisqarib borardi. Ko'cha nishablilik adog'iga, shundoq ro'paradagi ikki qanotli yog'och eshigi qiya ochiq hovliga yetib to'xtar, shu joydan yo'l ayri misol ikki yonga davom etardi. Ayni shu yerdan chapdagi daraxtzor siyraklashib, u tarafda ham xonadonlar yonma-yon qator darvozalar boshlanib ketgan edi. Ohu izidan quvayotgan sayyod singari "sayd"idan ko'z uzmayotgan Beknazar birdan uni yo'qotib qo'ydi (tezroq yugurishni o'ziga ep ko'rmayotgan edi). Qiz zimdan kuzatib kelayotgan shubhali sharpani adashtirgan kabi yana qaygadir yashiringandi. Yigit ko'cha o'rtasida to'xtab, entikkanicha darvozalarga jalanglay boshladi. O'sha paytda u diqqatini jamlab razm solganida eshiklardan birining ortida boyagidan yengilroq "piq"illashni eshitardi, lekin u hayajonda, sarosimada va bir oz hadikda (axir, begona shahar, birontasi "Kimsan, nimaga u qizni quvlayapsan", deb qolishi mumkin-ku!), qolaversa, temirchining bosqoniday urayotgan yuragini tovushi ancha-muncha piqirlashu qiqirlashni bosib ketardi.

O'ng betdag'i darvozalardan biri g'iyqillab ochildi. Beknazar yashin tezligida o'girildi. O'yma naqshli qopqaning ichki bo'sag'asida qirq besh yoshlardagi, yengi, etaklari uzun jigarrang ko'ylak kiyib, boshiga ko'kish farang ro'mol solgan xushro'ygina juvon unga ajabsinib qarardi. Yigitning shashti pasaydi, ko'zini olib qochdi, so'ljayib ortiga qaytdi. O'shanda "opa" bilan salomlashib qo'ymagani uchun (uni turk ayoli chamalagan edi) keyin anchagacha o'zidan ginalab yurdi.

Qisqa muddatli, istig'no va erkalik omuxtalangan holatlar keyinchalik ko'pgina savol-javoblarga asos-bahona bo'ldi, savol-javoblar esa ancha mubhamliklarni oydinlashtirdi, oydinliklar ularni bir-biriga yaqinlashtirdi, yaqinlik xiyyla mufassal muloqotlar bilan mustahkamlandi.

#### IV

Beknazar o'z elidan bir necha ming chaqirim uzoqda millatdosh qizni uchratib, unga asir bo'lib qolishni qanday sharlashni ham bilmasdi. Balki bu taqdir taqozosidir, degan fikr lop etib ko'ngliga keldi-yu, ongi-shuuridan sira ketmay qo'ydi. U turk go'zali deb ishongani asil o'zbek sanami, boz ustiga hamyurt ekanini bilgach, oddiy dengiz toshi deb o'ylagani qimmatbaho la'l chiqib qolgan javohir izlovchiday, o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Nazarida eng mushkul muammo hal bo'lganday, o'rtadagi ulkan, vahimali g'ov-to'siq bartaraf etilganday edi. Fazilat xonimning uni o'ziga yaqin olib Beknazar aka deyishi, u bilan bekinmachoq o'ynagan, "qaytishda yana takyaga tushasizmi?" deb so'ragani esa uni bir yo'la arshi a'loga havolatib yubordi. Boyaqish do'ppisini osmonqa shu qadar qattiq otdiki, yonginasida tarvaqaylab o'sib yotgan kashtanning eng yuqori shoxlaridan ham o'tib ketdi; unga desa do'ppisi qaytib tushmasa ham, bu yog'iqa bir umr yalangbosh yuraverishga ham rozi edi.

Fazilat endi takyaga bot-bot qadam ranjida qillardı. Endi uning qolida bir juftgina chevati yoki shunga o'xshash ixchamgina tugun bo'lardi. Daroz xizmatchi, uning oti Javdar bo'lib, Fazilat Javdar og'a derdi, Beknazarning yelkasiga qoqdi: "Axiri sho'x g'izolni tuzog'ingga ilintirdingmi deyman, kunda-shunda bo'p qoldi. Ha, anoyimas ekansan sen andijonlik. Lekin ishq degani misli alangai otash, yana avvalgi gapini takrorladi u, o'zingniyam, uniyam kuydirib xarob etmasang, bas. Axir seni yurting ko'p olis. U boy o'tgan bir savdogarning arzandası, yolg'iz onasi uni senga berib qo'yarmidi? Vaqtinchalik ko'ngilxushlikni ko'zlasang, chakki qilasan, bu o'ying xato, u imonli qiz. Sen o'zi muborak haj safariga otlangan bo'lsang... Bu ishing parvardigorga xush kelarmikin? Javdar og'aning pisandalari Beknazarni bir dovdiratdi, esankiratdi, esini ozgina joyiga tushirdi. Ha-da, oila-ro'zg'or tashvishlarini keksa padari buzrukвори gardaniga ortib, qachonlardir qishloqdan chiqib ketgan, balki allaqachon mehri ham ko'tarilib, begonaga aylangan qarindoshini orqa qilib Arabistoniga qochib borayotgan kimsa yarim yo'lida tayyor hamrohlardan ajralib, oshiq-ma'shuqlik o'ynab yursa-ya...

U yoqda ota-bola rejalaridan bexabar onaizori eshik tiq etsa sapchib, o'zidan ketay deb, har lahza zorlik bilan yo'liga qarayotgandir. Mana, uydan chiqqaniga yuz kundan oshdi, hali Makkai mukarramagacha ancha masofa bor. Darvoqe, qurban hayiti yaqinlashyapti, demak, hademay haj mavsumi boshlanadi. Yo'l bilmaydigan musofir dovdirab-sandirab topib borguncha yana qancha kun o'tadi. Andijonga qachon qaytish nasib etadi bir xudo biladi. Hali-beri qaytishiyam dargumonov, mana, bundan yigirma o'n besh yillar avval shunday savdo bilan yurtdan chiqib ketganlarning birontasi kelmadi-ku, shuncha vaqt mobaynida siyosat o'zgarmadi, yumshamadi-ku, aksincha, ahvol battarlashib boryapti...

Fazilat o'zi moyillik bildirgan taqdirda ham, onasi-chi? Bordiyu, onasi ham rozi bo'lsa, nima qiladi, qayoqqa olib ketadi? Makkai mukarramagami? Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga deb... Axir hozir Qashqarga ham qaytolmaydi-ku, u yerdagi qalits vaziyatni bildi-ku... Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi muammo cho'ntak... Qayoqqa yurganda ham hazilakam mablag' kerakmi, qayerdan topadi? Yanayam, Azim hoji tog'a bergen aqcha bilan shu joygacha yetib keldi, sheriklari bilan ketsa, bir amallab Arabistongayam borib olishi mumkin edi...

Bu xayollarning hammasi ham xom emas edi. Fazilat endi Beknazardan yotsiramas, qusholmasi panasiga, o'zgalar darvozasi orqasiga berkinib uni gangitmasdi, aksincha, uyigacha kuzatib qo'yish uchun yigitga izn-ixtiyor berardi. Uylari o'sha kuni xushro'y ayol chiqqan hovli, ayol esa qizning onasi ekan...

Beknazarning vaqtiz qiz, hamyonining tagi ko'rinish borar, binobarin, qiz bilan bekinmachoq o'ynab yuraverishga imkonli ham chekli edi.

Men sizni yoqtirib qoldim, dedi u Fazilatning o'tli ko'zlariga dosh berib, jiddiy tarzda.

Bunday ibora mag'riblik qizni ortiqcha entiktirib, unga shirin tashvish orttirmas, navjuvonning zimmasiga esa u qadar katta mas'uliyat yuklamas, ular bir necha yillar davomida bir-birini yoqtirib, achenlashib yuraverishlari mumkin, lekin Sharqda, jumladan, o'beklarda "yoqtirib qoldim" degani "sizni sevib qoldim, sizga uylanaman" degan ma'nolarni qat'iy ifodalaydi.

Fazilatning sho'xligi qochib, yerga qarab turardi.

Yaxshi ko'rib qolmadimmi, deb qo'rqaqman.

Qiz boshini ko'tarib kulimsiradi. Beknazar qizardi.

Kulgili gapirdimmi?

Qo'rqaqan odam qanday yaxshi ko'rarkin, deb hayron bo'lyapman.

Yurakdan aftyapman.

Fazilat yigitning ko'zlariga sinchkov nigoh soldi.

Aqldan ham aftyapsizmi, Beknazar aka? Bu joy qayda-yu, Andijon qayda?

Beknazar Fazilatni bir qur chala qizib sovigan, intiq qoni bir qur qo'zg'alib qoniqmagan, qoniqishga muhtoj, har lahma qayta ko'pirishga shay qaynoq yigitlik zavqi bilan sevib ulgurgan edi. Beknazar uchun o'sha damlarda tuzumu siyosatning, zamonusi makonning, ya'nini qay davrda, qaysi davlatda va qay holatda umrguzaronlik qilayotganining qimmati, ahamiyati yo'q, qayga, nima maqsadda safarga otlanganini ham paqqos unutgan, to'g'rirog'i, bu narsalar haqida o'yashni xohlamasdi. Shuning uchun u dastlab Fazilatning qaysi millat, qanday mazhabga mansubligi bilan ham qiziqmagan, faqat uning turk qavmdan ekanligini taxmin qilgan edi, xolos.

Bilaman, lekin ixtiyorim o'zimdamas, dedi. Qizning tortinmasdan berayotgan savollari unga ruh, madad bag'ishlamoqda edi. Bechora ixtiyorizingiz kimning qo'lida? so'radi Fazilat odaticha labining bir chetini qimtib. Beknazar talmovsirab taraddudlandi. Endi og'iz juftlagan edi, qiz so'zida davom etdi. Meni noto'g'ri tushunyapsiz shekilli. Sizni ota yurtimizdan kepti deb gaplashyatuvdim.

Fikri-yodimda siz, dedi o'zini ancha o'nglab olgan yigit. O'q kamondan uzilgan, endi uni qaytarishning iloji yo'q edi. Kechalari uxlamayapman.

Arab ertaklarida shunaqa gaplarni o'quvdim, dedi Fazilat kesatgannamo jilmayib.

Kulmang. Baxtinga hamyurt, hammillat ekansiz, agar turk qizi bo'lganiningizdayam fikrimdan qaytmasdum.

Qanaqa fikrdan?

Sizni yaxshi ko'rish fikridan.

Yaxshi ko'rish shunaqa osonmi?

Qiynalayotganimni sezmayapsiz-da.

Meni qanaqaligimni bilmaysiz-u, ehtimol fe'l'm yomondir.

Toshga sol, baxtingdan ko'r deyishadi.

Sho'ringizga sho'rva to'kilib qolsa -chi?

Niyatim qat'iy.

Sizga faqat o'z niyatingiz kifoyami?

Men sizga ishonyapman.

Fazilatning mijjalariga yana tabassum qalqdi, lekin u tezgina jiddiyplashdi.

Lekin men o'zimga ishonmayman.

Nimaga? shosha-pisha so'radi Beknazar o'zgacha xayolga borib.

Onam...

Onangizni ko'ndiramiz.

Qiz bosh chayqadi.

O'lindan boshqasining chorasi bor, tobora dadillashardi yigit.

Bu o'lindan ham qiyin bo'lsa kerak.

Unaqa demang, noumid shayton. Men sizni hech qachon ranjitmaslikka va'da beraman.

Dadamni dunyodagi eng yaxshi erkak deb o'ylardim, menimcha haqiqatdayam shunday edi. Onam ham uning yuziga tik qaramasdi, lekin ularniyam kelisholmay, "sen-men"ga boradigan paytlari bo'lardi.

Balki dadangiz yaxshi ko'rmay uylangandir. Bizning munosabatlarimiz boshqacha bo'lismeni ko'nglim sezib turibdi.

Buni oldindan aytish qiyin.

Tirik yursam, muhabbatimniyam, ahdimniyam chinligini isbotlashga urinaman.

Ana shu-da. Kim biladi?.. Fazilat so'zlarim qattiq ta'sir qilmadimikin, deganday suhbatdoshiga yer ostidan ko'z yugurtirdi.

Xudo xohlasa, umrim uzun bo'ladi siz uchun. Sizniqiyam... Xudodan faqat shuni tilayman.

Odama umr bilan birga yana ko'p narsa kerak.

Beknazarning dilidan aqli butungina ekan degan fikr o'tdi. Qizdagiz zehn, idrok sarchashmalari musofirchilik, otasining o'limi, onasining o'gitlari edi.

Xudo bandaga umr, ong, til ato qilib qo'ygandan keyin qolganiga o'zi tirishib erishadi-da.

Taqdir oldindan peshonaga yozilgan bo'ladi deyishadi.

To'g'ri, ehtimol siz menin peshonamga yozilgandirsiz. Ehtimol meni shuncha uzoqdan bu yerga ana shu taqdir yetaklab kelgandir.

Axir siz hajga ketayotgan odam edingiz-ku.

Ha, lekin sizni ko'rib, sheriklarimdan qolib ketdim, buyam bejizmasdir.

Qiz va uning onasi rozilik berishsa, Beknazar Saudiya borib, amakisiga dil yormoqni, undan ko'mak olib kelib, bu yerda baholi qudrat to'y rasmili-rusmini o'tkazishgach, Fazilat bilan Qashqarga qaytmoqni, Andijondagi ahvolni surishtirib, vaziyat yaxshi bo'lsa, o'tib ketishni o'zicha rejalashtirmoqda edi (Odamzod nimalarni orzu qilmaydi-ya!). U, agar qiz bola qattiq turib olsa, ona ko'nishi mumkin, degan xayolda edi. Bunday to'xtamga kelishining o'ziga yarasha asoslari bor edi. Ularning qishlog'idagi bir oila Turkmanistondan, yana biri Ozarbayjondan kelin tushirishgan edi. Kuyovlardan biri turkmanistonlikka uylangani qiz bilan Toshkentdagidagi bir institutda o'qishgan, ikkinchisi harbiy xizmat paytida uchrashib, yaxshi ko'rib qolgan edi. (Armiyadan rus, ukrain yo tatar qizlarini boshlab kelganlar-ku ko'p edi). O'sha qizlarning ota-onalari uchun shuncha uzoq yo'l bahona ham, to'siq ham bo'lomagan-ku. Yigit birdan gurillagan muhabbat otashi-alangasida yonayotgani uchun masalaning bir muhim jihatini inobatga olmayotgan edi: qiz yolg'izgina onasini tashlab, u bilan borsa-kelmas yoqlarga ketishi mumkinmi va bu adolatdanmi? Tanhogina ovunchidan ham ayrilsa, bechora bevaning hayoti qanday kechadi?

Fazilat hali Beknazar boshidan kechirgan asil savdolardan mufassal xabardor emas, haj qilgach, yurtiga qaytsa kerak, deb o'ylardi.

Men baribir bir narsa deyolmayman, hatto, o'ylab ko'rishgayam va'da berolmayman, dedi u yigitning tezroq bir qarorga kelishimiz kerak, meniyam ba'zi muammolarim bor, degan iltijosiga javoban. To'g'ri, tug'ilgan joylarimni, qarindosh-urug'larimni ko'rgim keladi, lekin...

V

Otasi qazosidan beri Fazilat uni qo'msab, yuragi ezilib, ko'p tunlarni uyqusiz, ko'p kunlarni yig'lab o'tkazardi. Yonida onasi borligiga qaramay, o'zini yolg'iz va himoyasiz, begonalar orasida vaqtinchalashga yashayotganday, muallaq his etardi... Onasi ham bot-bot og'rib qoladi. Nazarida... shuni o'ylab ba'zan dahshatga tushardi. Biron kor-hol ro'y bersa, qayga boradi, nima qiladi?.. U

otasidan abadul-abad judo bo'lganiga hali-hamon ishongisi kelmas, qismatning bunday og'ir zarbasiga mittigina yuragining qanday dosh berib kelayotganiga o'zi ham ajablanardi. Uning fikricha, dadajonisi bevaqt, barvaqt o'lmasligi kerak edi, u har doim bir kuni albatta vatanga qaytamiz, deb ta'kidlagani-ta'kidlagan, bu gap Sharifa opaning ham, Fazilatning ham qalbi va ongingin qat-qatlariga singib ketgan edi. Qizning nazdida otasi bir kun tirilib keladiganday va ularni, o'zi aytganiday, O'zbekistonga ko'chirib olib ketadiganday tuyulardi. Bu xayol qiz ko'nglining bir chekkasini sham kabi xiragina yoritib turganday edi. Onaning dardi ham qizinikidan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas. Jigargo'shalaridan, ko'ngil yaqinlaridan erta ayrılgan va musofirlilik, sig'indilikning jabru-jafolarini xo'p tortgan Sharifa xonimning Fazilatdan bo'lak yozilib gaplashadigan, yuragi achishib g'ami-anduhimi bo'lishadigan odami yo'q. Qizning sezishicha, onasi uni avaylab, o'zini vaqtı chog'day ko'rsatardi. Shaharda Afg'onistondan, Pokiston tomonlardan kelib qolgan, asli ota-bobolari o'zbekistonlik oilalar kam bo'lsa ham bor, lekin Fazilatlar ular bilan bordi-keldi qilishmasdi.

O'sha paytlarda Istanbulga bir necha yilgina avval kelib o'nashgan o'zbeklar alamzada vatangadolar bir-birlari bilan ahil va yaqin munosabatda emas edi. Qolaversa, Fazilatning otasi ko'pincha uzoq shahar va mamlakatlarda savdo-tijorat ishlari bilan yurgani sababli vatandoshlari bilan ahyon-ahyondagini, qisqa fursat uchrashar, ularning o'zaro muloqot-yig'inlarida ham ishtirot etolmasdi. Inchunin, musofir hamyurt, hamdardlardan ikki-uchtasingin boshi bir yerga jamlansa, darhol xalqaro ahvoldan tushishlari, umid ko'zlarini Amerikaga, Olmoniyaga tikib, o'sha yoqlardan najot kutadigan, asli savodlari haminqadar, ammo qo'yib bersa, har biri dunyoni ostin-ustin qilish, go'yo notejis aylanadigan falak charhini bir iz, bir maromga solib qo'ya olish salohiyatiga egadek chiranihshari siyosatdan, hukumat doirasidagi hodisa va masalalardan o'zini qirq gaz olib qochadigan Ismoil akaning ensasini qotirardi, o'zlarini har qanday murakkab siyosiy-ijsimoiy muammoni o'tirgan o'rınlarida hal qilib qo'yadigandek tutadigan bu bevatan, darbadar safsatabozlarning kimlarnidir alqab, kimlarningdir go'riga g'isht qalashlariga, millionlab qochoqlarga havoda uchib yurgan pashshachalik ahamiyat bermaydigan xorijiy hukmdorlarning go'yo bularning fikr-mulohazalari asosida ish olib borishsa, olam gulistonu, yer usti jannat bo'lib ketadiganday, takallufsizlik bilan davlatni boshqarish, siyosat yurgizish borasida "oqilona" usullar, yo'riqlar takB-lif etishib, chakaklari sitlguday talashib-tortishishlarini eshitib o'tirishga sira tobi-toqati yo'q edi.

Bir gal Beknazarning qistovi bilan Fazilat Istanbulga qachon, qanday kelib qolishganini so'zlab berdi.

OktabrCH to'ntarishidan keyin, sho'ro hukumati davlatni oyoqqa qo'yib olgach, odamlarni sarak-puchakka ajratishga tushadi. Sho'raviyalar nazdida ishga yaroqli ikki qo'li va och qornidan boshqa hech vaqosi yo'q yo'qsil bolCHsheviklar sarak, qolganlar esa puchaklar edi. Tadbirkor davlatmandlar, yer-suv egalari, hunarmandlar, savdogarlar, do'kondorlar, umuman andak qo'ri borlar tabaqasi "qulqo" deb qoralanib, mol-mulki musodara etilar, bu ham yetmaganday, o'zlar tazyiq ostiga olinib surgun qilinardi. Avomning ongi, qalbiga mustaqillik, ozodlik, vatan tushunchalari va tuyg'ularini singdirmoqchi, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatmoqchi bo'lgan xalqparvar ziyoli, ma'rifatli kishilar manglayiga "xalq dushmani", Islam dini arboblari, ulamolar, muftiyu, mudarrislar, arabchadan ozgina xat-savodi borlar, kitob o'qiydiganlarni kiga "zararli diniy unsur", "sho'roga haqsiz" (ya'ni fuqarolik huquqidan mahrum etilgan) tamg'alarini yopishtirilib, qora ro'yxatga tirkalardi. Undaylar oldida ikki yo'l bor edi xolos: yo bo'yinlarini yuvosh qo'y kabi sirtmoqqa tutib berish yo qochish...

Bola-baqralari bilan Rusyaning olis o'rmonlarida, qahraton izg'irinlarida qulday ishlab o'lib ketishlaridan ma'no yo'q edi.

Binobarin, ularga vatan xoinlari degan ayb qo'yishni adolatdan deb bo'lmasdi. Ular mol-dunyosidan ajralib qolishni istamagan, yo o'z huzurini ko'zlagan xudbinlar, vatanparvarlik, milliy g'urur hissini yaxshi tuymagan, dunyoning u yog'i ham, bu yog'i ham bir deb o'ylaydigan befarq kimsalar sifatida qoralanishsa, boshqa gap edi.

Sho'ro davlatidan qochib chiqishganlar faqat o'zbeklar emas, boshqa millat ichida ham tarki vatan ixtiyor etganlar kam emas edi.

Bu chora o'sha davrga, mavjud tuzum va siyosatga nisbatan norozilik, isyonning amaldagi ifodasi edi. Bundan ortig'i ularning qo'lidan ham kelmasdi.

\*\*\*

O'rta osiyolik muhojirlar chetga ikki yo'nalish mashriq tarafdan Qashqar (Sharqiy Turkiston) va mag'ribdan Afg'oniston orqali chiqib ketishgan. Har ikki yo'l ham bir-biridan battar mashaqqatli, xatarli edi. Afg'onistonga asov po'rtanalar har qanday Alpomishni ko'rdirim demay, yamlamay yutadigan Jayxun daryosidan o'tilardi. Sho'roning yuraklari shafqatsiz yirtqichlarniki bilan chatishtilrilgan GPUchilari, davlat xavfsizlik mahkamalarining xodimlari, chegarachilar daryo bo'yida kechasiyu kunduzi och bo'rilardek izg'ib, qamishlar orasida pusib yotishardi. Ular zimmasiga o'sha tuzum siyosatidan,adolatsizlikdan, huquqsizlikdan bezib, uyasi buzilgan qushlar kabi o'zlarini har tomonga urchan odamlarning qochib jon saqlashlariga ham yo'l qo'ymaslik vazifasi yuklangan edi. Ular maoshlarini "halollab", "xojalarining" ishonchini oqlash, rag'batga erishish maqsadida mas'uliyatlari topshiriqni qoyillatib ado etish uchun astoydil, jon-jahdlari bilan harakat qilishardi. Ayg'oqchi farmonbardorlar daryoga yaqinlashgan qoqchinlarga qopqon kabi bexosdan pand berib, qo'l-oyog'ini bog'lab, qaytarib ketishar va kerakli joyga topshirishardi. Yarim kechalari ularni bir amallab g'aflatda qoldirib yo hech kim kutmagan joyda yashirinib turadigan gupsarchilar bilan kelishib, daryodan o'tib ketayotganlarni ayovsiz ravishda o'qqa tutishardi. Ha, posbon-poyloqchilar qavmlari, o'z hammillatlarini ham, ular chol yo kampirmi, yosh kelinchak yo go'dakmi, tosh yuraklari zarracha achishmay otib tashlashardi. Odam farzandlari orasidan saylab olingen bu jon qaroqchilari ongi, shuuridan, qalbidan rahm-shafqat, achinish hislari qay tarzda sitib chiqarib yuborilganini hech kim bilmasdi.

Iskovuchlar dog'da qolishgan taqdirda ham "qutildik, endi marra bizniki" deB-yishga hali erta edi. Hali oldinda Jayxun to'lqinlari ajdahoday komini ochib, o'z qurbanlarini kutib, pishqirib yotardi...

1933 yil. Fazilat sakkiz oylik chaqaloq edi. Bobosi boy sifatida siquvgaga olina boshlagach, qochishga qaror qiladilar. Erta bahor suvlar sovuq mahalida ko'p mashaqqatlar bilan bir necha kunda Jayxun daryosi bo'yiga yetib borishadi. Kechasi qorong'ida gupsarda Afg'oniston tarafga o'tishayotganida birdan kuchli afg'on shamoli turib, hamma yoqni alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi. Osmon-falakka ko'tarilgan beshik-beshik to'lqinlar ularning gupsarini oldindagi boshqa bir solga olib borib uradi, ikkala sol ham chayqalib, ag'darilib ketayozadi, ustilaridagi odamlarning ko'pi, yosh bolalar uchib ketishadi. Fazilatlarning solida o'n bir kishidan atiga besh kishi qolgan, bobo, ena, o'rtanchi amaki, uning bir qiz, bir o'g'li va yana bir juvon suvga g'arq bo'lishgan edi. Voqeanning haqiqiy tafsilotidan Fazilat ancha yillardan keyin voqif etiladi.

Sharifa opa mudhish o'mishlarini Fazilatga bot-bot gapirib berardi. Qiz, ayniqa, daryodan o'tishdagi halokatli voqeani xuddi qo'rinqichli ertak kabi titrab-qaqshab tinglardi. Shunga qaramay, bolaligiga borib, ko'z ko'rib, qulqo eshitmagan u ayanchB-li hodisalarga kinoga qiziqqandek qiziqardi.

Qayig'imiz oldindagi qayiqqa borib urilganda shunday qattiq qarsillagan ovoz chiqdiki, xayolimda xuddi shundaygina boshimiz ustida to'p otliganday tuyuldi, derdi berilib ketgan Sharifa opa ko'zlari ola-kula bo'lib, eslasam, hali-hali yuragim orqaga tortadi. Birpas nima yuz bergenini fahmlamay o'tirdim. Gupsarimiz qo'pollik bilan tervatilgan belanchakday birdan aylanib ketdiyu, qiyshayib, suvga yonboshlab qoldi...

Ulg'aygan sari inson qadr-qimmati, umr mohiyatini anglay boshlagach, Fazilatning yuragi u fojeiy tarixni ko'tarmay qoldi. "Qo'ying, gapirmang, odamni ezvoradi", derdi u ko'ziga yosh olib.

O'shanda men otamning quchog'iда ekanman, hikoyasini davom ettirdi Fazilat, sol tebranib yonboshlaganda otam munkib yiqilgan, men suvga tushib ketay depman, u jon xalpida bir qo'li bilan gupsarchini mahkam ushlab, bilagimdan jon-jahdi bilan tortganida chirillab yig'lavorgan ekanman, keyin ham to'xtamay big'illayveribman. Qirg'oqda u yoq-bu yog'imni ko'rishib, qo'limning yelkamdan chiqib qolganini bilishibdi. Siniqchi istab davolatishguncha dam-badam dodlab, hammani qiyangan ekanman. O'shanda, o'sha baxtsiz kechada boshqa xeshlarimiz qatori onam ham suvda oqib ketgan.

Onangiz? gapni bo'ldi Beknazар.

Ha, onam, dedi qiz ovozi qaltirab, uning chiroyli, tiniq qorachiqlarini yosh xiralashtirgan edi. Otam men bilan kuymalanib, boshqa hech kimga qarayolmay qolgan, hamma o'zi bilan o'zi, birovga yordam berish to'g'risida o'ylashga ham ulgurishmagan, falokat ko'z ochib yumguncha sodir bo'lgan. Ko'pchilik o'ziniyam eplolmay, suvga shaloplab tushgan, quturgan to'lqinlar uyurmasi ularni bir pasda qa'rige yutvorgan. ...Men onamning yuzini ham tuslolmayman. Otam rahmatli o'shanda meni qanday tirik olib qolganiga hayronman...

Mozori Sharifda hammasi bir hovlida ijara yashashardi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, katta amaki va uning ayoli Fazilatning otasi Ismoil bilan o'rtanchi amakining bevasi Sharifa kelinni o'rta ga olishib, bo'lар ish bo'ldi, peshonamizga yozilgani shu shekilli, endi Fazilatni yetti yet, g'ayri millat o'gay etagiga solmay, ikkalangiz birga parvarishlanglar Sharifa, harqalay o'zimizniki, qizaloq ham yetimligini bilmay qo'ya qolsin, deb maslahat berishadi. Ukaning e'tiroziga, Sharifa kelinning uyalib-ikkilanishiga "Ha, sen boshqa xotin olib, sen boshqa erga tegmoqchimisan? Musofir yurtda senlarga kimming ko'zi uchib turibdi", deya o'dag'aylashadi, bizning qarorimiz shu, boshqa iloj ham yo'q deyishadi. Darhaqiqat, yosh otaning chaqaloq bilan qiyinalishi turgan gap edi, axir o'zi musofir bo'lsa, kimgayam uylanardi, bevatan, darbadar odamga kim ham suyukli qizini ravo ko'rard? Sharifa kelin ham bir o'zi erkaklar ichida nima qilishini bilmay boshi qotgan, o'ksib, bevaligidan o'ng'aysizlanar ham hadiksirardi. Ikkalasi yana bir yilcha bir hovlida boshqa-boshqa tunab yurishadi, bir-birining yuziga tik qaragani botinishmasdi. Keyin... taqdirga bo'yusunishdi. Shundayam Ismoilning irodasiga, sabr-bardoshiga tan bergen Sharifa o'rinni bitta soladi. U ham qizaloqqqa xuddi o'z bolasiday qarab, oq yuvib, oq tarab, yigitning izzat-hurmatini qozongan edi.

Bu gaplardan men bexabar edim, deydi Fazilat barmoqlari bilan tepa labining qirida osilib turgan ko'zyosholarni sidirib tashlarkan, amakimning xotinini o'z onam deb bilardim, uning o'gayligi haqidagi fikr hech qachon miyamga kelmagan, birov aystsam ishonmasdim. Otam bilan Sharifa kelinaya bu sirmi mendan pinhon tutishga kelishishgan bo'lsa kerak, biror marta yo unisi, yo bunisi meni shubhalantiradigan so'z yo boshqa sababga yo'l qo'yishmagan. Biz Afg'onistonda uzoq o'n yilcha bir joyda qo'nim topmay, hali Qunduz, hali Taxxor, hali Qandaxorga ko'chib, tentirab-dovdiraganmiz. Nimagadir amakim, kelinayamlar bilan boshqa-boshqa bo'lib ketganmiz. Endi, balki bir kunmas-bir kun menga haqiqatni sezdirib qo'yishlaridan cho'chib shunday yo'l tutishganmikin, deb o'layman. To'g'ri, bunday ko'chmanchilik, beqarorlikning boshqa sabablariyam bor edi. Hamma yerdayam bizga yaxshi munosabatda bo'lishavermasdi, qaytaga, yovqarash qiladiganlar ko'p edi. So'ogra, otam, onamning aytishicha, yurtimizda tez orada o'zgarish yuz berishidan umidvor ekan, bunaqa tuzum uzoq hukm surmaydi, hammasi yana joy-joyiga tushadi, shunda albatta vatanga qaytamiz, davlatimiz bizga o'xshagan baxti qarolarni chaqirib oladi, hovli-joy qilsak, ildiz otib bog'lanib qolamiz deb, ikkilanib yurardiyan. Keyin bilsam, bunaqa ko'ngilsizlik, hardamxayollik ko'pchilik musofirlarga xos ekan. Otam Afg'onistondagi notinchliklar, besaranjomliklardan, ola qarashlardan bezganmi... Es-es bilaman: odamlari ko'zimga tund, g'alati ko'rindari. Uylari, kiyimlari xarob edi. Qishlari sovuq, yozda nafasni qaytaradigan issiq shamol, chang-to'zon ko'p bo'lardi... Xullas, Pokistonga o'tib ketganmiz. U yoqdayam oldin Peshovar, kegin Ravalpindi degan shaharlarda ikki yildan ortiqroq turgach, Adanaga keldik...

## VI

Qariyb o'n besh-o'n olti yil davomida qancha joyga ko'chishgan, eshak arava, qattiq yuk mashinalari va boshqa xil ulovlarda yuntaqlari ustida g'ujanak bo'lib o'tirishganicha, yuzlab, minglab chaqirimli toshloq, qum-tuproqlı yo'llarda og'zi-burni, qulqlari changga to'lib, jazirama quyosh nurlari yuz-ko'zları, badanlariga nayza bo'lib sanchiladigan bepoyon sahrolarda, haybatli, xavfli dovonlarda silkinib-siltanib, ichaklari eshilib og'riganlari, qorni ochib, sillasi quriganda ko'ngli ozib, qayt qilib yuborganlari, qisqasi, o'ylasa yuragi zuluk chaqqanday chimillaydigan kunlarni qayta eslash, hikoya qilishgina emas, eshitish ham og'ir edi. Turkiyaning yirik shaharlaridan biri Adanada ham ikki yilcha umrguzaronlik qildilar. Fazilat qafasda olib yuriladigan yovvoyi qushcha singari bir-biriga o'xshaB-magan joylarda hayron, diqqinatas bo'lib, hech kimga elakishmay kunlarni o'tkazardi... "Yo bironta ko'ngil yozgulik sirdosh dugona ortirolmadim" deydi u alam bilan. Istanbulga kelishgach, uch yil odamlarga o'xshab xotirjam yashadilar. Ammo Ismoil akaning bu shaharda ham muqim bir vatan qilish niyati yo'q edi. U Misr, Hindiston tomonlardan ayollar jemperi, ro'mol olib kelardi-da, bu yerda olib sotarlarga tezgina, ulgurji o'tkazib, yana qaytib ketardi. "Umuman otam uyda kam bo'lardi. Shuning uchun uning diydorigayam, mehrigayam to'yamaganman". Fazilatning nazarida otasining uyda kam o'tirishiga yana bir sabab u hanuz Sharifa kelinayadan xijolat tortayotganga o'xshardi, uni ko'rganda akasi esiga tushib, iztirob chekardi, chamasi. Umuman bu bog'lanish o'z jigarining ayoli bilan bir yostiqqa bosh qo'yish Ismoil aka hayotidagi chegalab bo'lmaydigan, chegalansa ham baribir yana sitilib ketaveradigan katta darz edi.

Fazilatning ovozi borgan sari pasayar, Beknazар xuddi mungli qo'shiq tinglayotganday mutaassir bir holatda, nigohini qizning ohista, bir maromda ochilib-yopilayotgan g'uncha dudoqlaridan uzmarsi.

Bu yerda bizga yaxshi munosabatda bo'lismay, onam ikkimiz o'zimizni haliyam begona oilada, yet odamlar orasida yurganday, vaqtincha turganday his qilaveramiz, davom etdi qiz. Taqdir endi bizni qachon, qayerga uloqitrib tashlarkin, degan fikr miyamizdan chiqmaydi. Ehtimol, otam yo'qligiga shunday bo'lsa kerak. Mahalla-ko'ydagilar bilan ahil, xotirjam kun kechiriyapmiz. Haligacha birov musofir-kelgindiligidimizni yuzimizga solgani yo'q. To'y-hashamlariga aytishadi. To'g'ri, unaqa izdihomlarga ko'proq onam boradi, shuniychun meni taniydiganlar kam, men uch-to'rtta qo'shnidan boshqasini yaxshi bilmayman. "Boshqa joylardagiga qaraganda bu yerda xuddi o'z tug'ishganlarimiz ichida yashayotgandaymiz, mahalladagilar oldida qarzdormiz", deydi onam. "Nasib qilib, o'z yurtimizga ketsak, u yoqqa ko'nika olamizmikin", deb tashvish chekadi. Uku, yoshi

ancha kattaligida uydan chiqib ketgan, tanish, qadrdon joylar, qarindosh-urug'lari bilan topishib oлar, lekin men bechora-chi? Men, hatto, o'зimiz tomondagi bitta daraxt yo giyohniyam ko'z oldimga keltirolmayman, bironqa amma-xolamniyam qiyofasini eslolmayman...

Shunga qaramay, yuragining ba'zi-ba'zida o'sha tarafga talpinganini sezardi, qon tortishi rostmikin, deb o'yldi u. Otasi qoldirgan daftarni o'qigach, ko'ngli butunlay bo'lindi. Unda qiziqish bilan majburiyat uyg'unlashdi. Ilgarilari qizni hayotimiz qay tarzda davom etarkin, bu yog'i nima bo'larkin degan xavotir hech tark etmasdi. Endi qalbi tubida yangi umid uchqunlari yiltillay boshlagan, bu uchqunlar avvalgilariga nisbatan boshqacharoq qiziqroq va ravshanroqqa o'xshardi. Xayolining bir chekkasini daftardagi safsar siyoh bilan bosib yozilgan "O'zbekiston", "Andijon", "Oltinko'l" degan nomlar egallab oldi. Albatta, u yurt, u shaharlar haqida otasidan ko'p eshitgandi, Sharifa opa ham bot-bot eslab, xotirlab yig'lardi, ammo rahmatli otajonisi unga deb, ataylab bitib qoldirgan yozuvlarni o'qigach (bu yozuvlar ancha burun, Ismoil aka sog'lom paytida qog'ozga tushirilgan edi), ular butunlay o'zgacha ma'no kasb etib, boshqacha ta'sir qila boshladi. Ko'pincha kechalari qani endi o'sha joylar tushimga kirsa deya o'ylab, o'zicha tasavvur qilib, u nomlarni dilida takB-rorlab yotardi. Onasining ta'kidlashicha, u yoqlar Fazilat ko'rgan, yashagan hamma shaharlardan, hatto, haligacha ko'p qismini ko'rмаган bo'lsa-da, shu ko'rgan-bilganining o'zi ham juda ulkan va mahobatli tuyuladigan Istanbuldan ham go'zal va qandaydir yurakka yaqin emish. Shunday paytda toshdan toshga urilib, sharqirab oqayotgan suvlari tiniq soylar, daryolar, qumriyu bulbullar chag'-chag'lashayotgan yam-yashil, orasta bog'lar, favvorani eslatadigan majnuntollar, anvoyi gullar chaman bo'lib ochilgan gulzorlar, jambilu rayhon bo'yи taralib turadigan, shoda-shoda mevalari zalvoridan novdalari egilib yerga tegadigan shaftolizoru anorзорlar, anjirzorlardan iborat hovlilar Fazilatning ko'z oldida jonlanar va u beixtiyor entikib qo'yardi.

Otam oxirgi marta safardan kasal bo'lib, quruq o'zi qaytib keldi, qariyb pichirlab davom etardi Fazilat. O'shanda yo'lda molini qaroqchilarga oldirib qo'yan, keyin onamning aytishicha, o'zi kaltak yeb, jigar-buyraklari zaxolangan ekan... Qiz gapdan to'xtadi, uning so'zlamoqqa holi qolmagandi, birdan baralla hiqillab yig'lay boshladi, u shu damda tasalli, ovunchga muhtoj edi, lekin umrida bunaqa holatga ro'para kelmagan Beknazар uni qanday yupatish, nima deb taskin berishni bilmasdi. U apil-tapil atrofga nazar soldi, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, qo'lini Fazilatning orqasidan ohista o'tkazib, yelkasidan jur'atsizgina, muloyimlik bilan o'ziga tortdi. Iztirob ichidagi qiz jussasining shamolda egilayotgan novda kabi bir yonga beixtiyor og'ayotganini payqamadi ham, soniyalardan so'ng bir yelkasining nimagadir suyalib, halovat ola boshlaganini, ikkinchi kiftini esa beso'naqayroq, ammo haroratlari kaft mehribonlik bilan beozorgina paypaslab-silayotganini sezib qolib o'zini tortmoqchi bo'lidi, ammo tushuniksz bir tuyg'u, qandaydir sehrli bir kuch qo'zg'alishga, qo'lini qimirlatishga monelik qilar, Fazilat xuddi tushida uchib borayotgan odamday o'zini idora eta bilmas, bu tush unga juda g'aroyib, huzurli tuyulardi. Faqat o'z vujudining yigit gavdasi bilan qachon, qanday qilib bunchalik yaqin bo'lib qolganini fahmlamaganidan taajjubda edi.

\* \* \*

Fazilat chiroli edi. Har qanday sohibjamolning ham qaysi bir joyi yo a'zosida husni kamoliga zig'irdakkina bo'lsa-da, soya tashlab turadigan belgi yo alomat uchraydi. Fazilatning yuzi esa har jihatdan raso, to'kisga o'xshardi. Odatda xol ustki lab chetrog'iga, pastki lab ostiga, qoshlardan birining boshlanishiga, burun yoniga tushguchi edi. Beknazар Fazilatnikni kabi yuzning qoq o'rtasiga joylashgan va shu qadar yarashiqli xolni ko'rмаганди. Uning qoshlari esa bir qo'shiqni yodga solardi:

Qoshingga tekizmagil qalamni,  
Bir xat birla buzmagil raqamni...

Faqat tutashgan joyi xiyol egik va siyrakroq edi, lekin bu siyraklik ham unga nafis joziba bag'ishlardi.

Ilgarilari o'zbek qizlari tur mushga chiqish arafasidagina qosh-ko'ziga oro berishardi. Ularning erlik bo'lishgani eng avvalo qoshlarining terilganidan anglashilardi. Farbiylar ta'sirida shu udum yigirmanni asr oxirlarida barham topdi. Turkiya mag'rib mamlakatlari bilan avvaldan yaqin, demak bu yurtda, bu millatda taomil ildiziga ancha ilgari bolta urilgan chiqar. Sarasof solib qaralsa, Fazilatning qoshi hali qalamga ham, boshqa anjomga ham oshno bo'lumanini payqash mumkin edi. Beknazар yuzi hamisha ham ochiq yuravermaydigan qizning aynan qoshlariga sinchiklab tikilish odobsizlikka yo'yilishi mumkinligini o'ylab, nigohini undan tezgina olardi. Lekin nazarida uning qayrilma qoshlari tabiiy bejirimday, mo'ychinak tekkizishning chindan ham hojati yo'qday tuyulardi. Qolaversa, yigit bu shaharda qiz-ayollarning pardoz-andozi, bezanishlaru orolanishlariga erkaklar munosabati qandayligini bilmas, haqiqatda esa Turkiya buginamas, boshqa ko'p udumlarda ham Ovro'paga shiddat bilan intilardi. Shuningdek, Fazilat tannoz ham emas edi. Aksincha, ko'z-ko'zlanib, e'tiborni jalb etishga harakat qiluvchilarni jini suymasdi, lekin sirasini aytganda, uning ham nozik ado bilan erkalanishlarga haqqi bor edi, husni-malohati unga shunday imtiyoz va imkoniyat berardi. Qolaversa, qiz dunyonи musofir bir mazluma ko'zlar bilangina emas, baxtiyor mahbuba nigohlari bilan ham ko'rishni, yorug' olam zavqu safosidan bahra olishni xohlardi. Biroq ayni shunday faslda shafqatsiz qismat tayanchi va suyanchi padari buzrukvoridan ayirib, egniga qora kiydirdi, aza libosi esa kishi dildagi siyohlik bilan uyg'undir. Siyohiy engil va ko'ngil bilan erkalik, noz-ishva mos tushmasligi tabiiy, binobarin, Fazilat andishayu iboden boshqa sa'y-harakatga erk berolmas, bermas edi. Balki uning ham ikki qanot yoshlik va muhabbat ila parvoz etgisi, vujudu tuyg'ulari ixtiyorini kuchli shamol izmiga berib, o'zini osmonu falaklarda ko'rgisi, sirli yulduzlar bilan muloqot qurgisi, ana shu olis sirdoshlariga tolei kulganini suyunchilagisi kelardi. Lekin afsuski u ucha olmas edi, zero, hozircha uning bir qanoti mavjud edi, ikkinchisi hali o'sib chiqmagandi, o'sib chiqmoqchi bo'lgan qanot esa ayamajizada qolgan kurtak misoli zaif, nozik edi uni ko'tarolmasdi; u kurtakning amal olishiga, barg yozishiga Fazilatning ko'zi yetmasdi, zotan kurtak parvarishga, oftob qalb haroratiga muhtoj edi. Shuningdek, qiz dilining tub-tubida avaylab-asrab kelayotgan yana bir istagini quyushqondan tashqari deb hisoblash adolatdan emas edi. Quvonch, yo alamdan hech qayerga, umuman, bu yorug' olamga sig'may ketgan qiz, ayol, aslida, mo'jazgina maskanga sevikli kishisining bag'riga jo bo'lishi tayin. Fazilat ham goho-goho kimningdir keng va issiq ko'kragiga yuz bosib, o'zini, butun olamni faromush etgisi kelar va bu niyati, murodini hammadan, hatto onasidan ham pinhon tutardi. Zero, u kimga ham erkalanib, boshini kimning ham to'shiga burkagali haddi sig'ardi? O'sha muloyim tabiatli turk yigitigami? Aslida, u turkka ham uncha o'xshamaydi, negaki bu millatga mansub erkaklarning bunaqa yuvosh, royishini uchratish dargumon. Illo, otasining muddaosи, o'zining ham xohish-irodasi boshqacha edi-ku... Qizning xayolida, goho tushlarida kimdir kelib uni olis-olislarga yetaklab ketadiganday bo'laverardi. Rost, yoshlik va muhabbat degan bir-biridan o'jar, bir-biridan kibrli va shafqat bilmas ikki kuch borki, ular har qanday istak-xohishni ham, har qanday ahdu irodani ham burnidan ip o'tkazib, o'z ortidan ergashtirib huzurlanadi.

G'amgin hikoyaning davomi bundoq edi:

O'sha oqshom Fazilat bilan Sharifa opa Ismoil akaning safari shu gal ancha cho'zilib ketgani, (odatda, u oilasidan xavotirlanib tez qaytardi), boshqa har xil mavzularda gaplashib o'tirib, kech yotishgandi. Yarim kechada darvoza taqilladi. Ona-bola hadik va hayajon ichida borishdi, tanish ovozdan quvonishib, eshikni ochishdi. Otaning mashqi past edi, ichkariga kirishganda, yorug'da uning rang-ro'yи bir ahvoldaligini ko'rib qo'rqib ketishdi. Ismoil aka ertalab gaplashamiz, juda charchaganman, deb xotini bilan qizining ko'nglini sal tinchitganday bo'ldi. Darhaqiqat, u yotog'iga kirib jimb qoldi. Uxladi deb o'yladilar. Fazilat allamahal ingroqdan uyg'onib ketdi, yoniga qaradi: onasi yo'q. Otasining inqillayotgani aniq eshitilardi, u shosha-pisha xalatini egniga ilib o'sha tomonga oshiqdi. Sharifa opa erining peshonasiga ho'l sochiq bosayotgandi. Ismoil akaning yuzlari qizarib-bo'g'riqib ketgan isitmasi baland edi. Qisqasi, mushtipar ona-bolalarning yolg'izgina suyanch-panohlari, valine'matlari uzoqqa bormadi, muolajalar kor qilmay, ikki oyga yetmay qarog'lari mangu yumildi.

Bechora gapirolmas, yaxshi harakatlanmay qo'ygan qo'llari ishorasi bilan meni yoniga chorlar, tomiri chiqib, terisi yupqalashib qolgan nimjon kaftlarini boshimga tekkizib, sal-pal silar, kipriklaridan yirik-yirik yosh tomardi. Shu ahvolda onamga imo bilan meni ko'rsatib, og'zini xiyol ochib, o'zicha nimanidir uqdirardi. Onam ikkımız tiz cho'kib, bag'rimizni karavot chetiga bosgancha, otamning qoqsuyak bilaklarini silab, unga tasalli bermoqchi bo'lardig-u, lekin o'zimiz hiqillashdan tiyilomasdik, tomoqlarimizga xo'rsiniq tiqilib, bir narsa deyolmasdik.

Otam deyarli qimirlamas, shiftga takilganicha, ko'pincha ko'zlarini yumib yotardi. Avvaliga ishtahasi tuzuk edi, keyin birdan ovqat yemay, doriyam ichmay qo'ydi. Onam ostiga tuvak qo'yardi. Men qarayin desam, hech yaqinlashtirmsidi. Endi o'ylab, rahmatli ana shundan nomus qilib qynalganmidiykin deyman. Yo, tuzalib ketishdan umidini uzganmadi, tuz ham totmas, onam qoshiqda ovqat tutsa, boshini sarak-sarak qilib, panjasini "kerakmas" degan ma'noda sal-sal qimirlatardi. Menimcha, uning biron joyi qattiq og'rimasdi, ortiqcha ingramasdi.

Fazilat otajonisining jon berishi arafasida undan ko'z uzmay mo'lтирab yotgani, mijjalaridan ikki yonga simobday dumalab qulqlari ichiga kirib ketayotgan ko'zyoshlarini eslasa yuragi ezladi. O'shanda Ismoil aka ikki ojizani arosatda tashlab ketayotganidan qayg'urarmidi yo yakka-yagona farzandi, ko'zining oqu qorasiga "Sen sho'rpeshonaning baxtingni ko'rolmadim, endi mensiz holing nima kecharkin", degan so'zlarni aytolmay azoblanayotganmidi yo charxi kajraftorning shevasidan dog' o'lib, vatanga qaytib borish nasib etmagani alam qilayotganmidi. Fazilat bilolmasdi, u chidamay tashqariga chiqib ketardi mehribon padarining shunchalar xuni biyron bo'lismiga, chekayotgan mislsiz iztiroblariga bardosh berolmasdi. Aslida qizni ham "Endi biz kimiarning qo'lida, kimiarning ko'ziga sarg'ayamiz?" degan sarosima, qo'rquv dahshatga solib qo'ygan edi.

Shunday qilib otamdan ayrildim. Kattagina hovlida onam ikkımız sovuqqotgan musichalarday qo'nishib, dildirab qoldik. Onam meni yeri ko'kka ishonmaydi, guzarda yo qo'shnilarnikida sal hayallasam istab chiqadi. Otamdan qolgan qo'r bilan bir yilcha oziq-ovqat, kiyim-kechakdan qynalmay yashadik, keyin tortila boshladik. Onamga xazinamizning cho'g'i pasaydimi desam, sir bergisi kelmay, yo'q, senga sep qilyapman deydi. Ilchada otamning savdogarlikdagi sheriq bor. Ular Istanbulga bizdan oldinroq kelishgan ekan, otamga yo'l-yo'riq ko'rsatib, tijoratga yetaklagan, safarga ko'pincha birga chiqishardi. Onam avvaliga biron yerda ishlashni ham mo'ljallovdi, lekin meni o'ylab, fikridan qaytdi. Otamning og'aynisiyam "Qo'ying, sizga to'g'ri kelmaydi, men birodarimizga sizlardan xabar olib turishga va'da bergenman" debdi. U kishi ba'zan-ba'zan mayda-chuyda jo'natadi. Otam rahmatli bizni tayyoriga o'rgatib qo'ygan ekan, nima qilsagikin, deb onam ikkalamizning boshimiz qotadi, qo'limizdan bir ish kelmaydi. Birov ham qachongacha yordam berardi. Hovlini sotsak, ixchamroq, o'zimizga yarasha joy topib, oshganiga kichikroq do'kon olsamkin, deydi onam. Men sotuvchilik qilamanmi desam, "O'ylab gapiryapsanmi, qizim, otangning fe'lini bilarding, sen do'konda o'tirsang, u go'rida tik turadi-ya, menga bo'laveradi, yoshim o'tib qoldi, ham ermak uyda zerikib o'tirgandan ko'ra, ja bo'lmasa, birovga ijaraga bersak ham uch-to'rt tanga daromad kelib turar", deydi bechora.

Fazilat to'liqib so'zlarkan, hasrati bayoni dam sayin raxonlashib, ayni chog'da g'amgin tus olib borardi. Umrida bir suhbatda buncha ko'p va buncha hayajon bilan gapirganini eslolmasdi. U Beknazarga o'xshab dardi-shikvasini bo'lmay, hayratlangan ko'zlar bilan hamdardlik bildirib, jimgina tinglab o'tiradigan qayg'udoshga ko'pdan muhtoj edi. Uchrashganiga hafta, durustroq tanishganiga uch kungina bo'lgan yigitning, umuman olganda, begonaligini, nomahramligini, bu holatda ko'rganlar u haqda har xil fikrga borishlarini o'ylamas, balki o'ylasa ham, parvoyiga keltirmasdi. Siynasi alamga, ayriliq, yetimlik iztiroblariga, musofirlik o'kinchlariga to'lib ketgan edi. Gapirgan sari ichi-bori kengayib, qalb tubidagi majhul, og'ir tuyg'ular o'rmini yengil entiktiruvchi hissiyotlar egallab borar, ichidagi bir kimsaning "Bu odam buncha sergap qiz ekan deb uyat qilmayaptimikin" degan tanbehiga ham qulq osmas edi. U uzoq yillardan beri ko'rismagan sirdosh dugonasiga yurak zardobini to'kib solishga, ko'nglini bo'shatishga oshiqayotganday edi. Faqat u boshini quiyi egib, boyta Beknazara takya oldidagi qusholmasidan sindirib bergen novdaning mayda barglarini g'ayrishiuriy ravishda chirt-chirt uzbib yerga tashlar, hamrohining yuziga qaramaslikka harakat qilardi. Lekin ayni vaqtida, musofirlik dostonini aytayotgan pallada yigit unga yaqin va qadrli bir kishiday tuyulayotgandi. Hikoyadan to'xtagach, "bor-yo'g'i bir haftalikkina tanish kimsa" bilan o'rindiqda bir-biriga juda yaqin o'tirishganini birdan payqab qolgandal, hushyor tortib, bir oz jilarkan, hamsuhbatining kayfiyatini, fikrini uqmoqchi bo'lganday, yer ostidan nazar soldi. Chuqur xayolga cho'mib, qissago'yning boshidan kechirganlarini o'zicha taroziga solib o'lchayotgan Beknazara to'fonga uchragan o'z taqdır kemasining holati, nisbatan kam mashaqqatlari qisqa darbadarligi boshqalarning achchiq yozmishlari, o'n yillab davom etgan sarson-sargardonliklari oldida holva ekanligini tuyarkan, O'sh Qashqar Istanbul yo'llarida ko'rgan ancha-muncha qiyinchiliklardan noliganini o'ylab xijolat chekar, ota-onalari bilan deyarli yarim dunyonи aylanib chiqib ham ro'shnolik, huzurhalovat ko'rangan, yayrab-yashnamagan, aksincha, qismatning yangi-yangi, turfa sinovlariga to'qnash kelgan bu dilporaning ko'ngliga ozor yetkazib qo'yishdan ehtiyyot bo'lish lozim ekan, deya uqtirardi o'ziga o'zi.

Ayni vaqtida yoshgina joni bilan shuncha jabru jafo tortsa-da, qaddi bukilmagani, husni-malohati chekilmagani, ruhi cho'kmaganiga, aksincha, shaddodlik, hazilkashlik fazilatlarini saqlab qola olganiga qoyil qolardi. Darhaqiqat, Fazilatning sho'xchan fe'l-atvorida, durkun badanida, nurli chehrasida, qirmizi lablarida balog'at pallasidagi tiyrak qizlar kabi yashashga, o'ynab-kulishga, huzurlanishga ishtiyoq, muB-habbatga, erkalab-erkalanishga mayl yo'q emasligini, faqat bu hoyu-havaslar, andishayu hayo-pardasi ortida yashirinligini chamalash mumkin edi. Ha, parvardigor unga sinovlar bilan birga sabr-toqatni, bardoshni, eng muhimi jo'shqin yoshlik shijoatini, o'ktamlikni ham saxovat bilan ato etganga o'xshardi. Fazilat shu borada onasidan ustunroq ko'rinardi. Sharifa opa to'rt devor orasidagi bir xil kunlarning o'tishi maroqsizligidan, yuragi siqilib tars yorilguday bo'lishidan zorlanib qolsa, qiz unga tasalli berishga urinar yo "Yuring, otamni qabrini bir ziyorat qilib kelamiz", deb qo'yarda-qo'ymay Ilcha mavzeiga boshlab ketardi.

Beknazara o'zini gapga chechanlardan hisoblamasdi. O'zicha Fazilatni zeriktirib yo bilib-bilmay, nomanzur, noravo narsalarni

laqillab, qovun tushirib qo'yishdan cho'chirdi. Shu bois, Fazilatning roviyligidan, o'ziga faqat odob bilan tinglash mas'uliyati tushayotganidan ichida xursand edi. Lekin ortiqcha kamtarlik manmanlikdir deganlariday, og'izga mum solib o'tiraverish hamisha ham fazilat sanalavermaydi-ku, ayniqsa, suyukli mahbuba bilan muloqotda. Axir qiz bolaga xush yoqadigan, ya'ni, masalan, uning Shirinu Zuhro kabi go'zal, oqilaligini aytib, mehrimi tovlaydigan, o'zi haqida yaxshi inson va haqiqiy oshiq kabi taassurot uyg'otib, qizning qulfi-diliga kalit topish ham kerak-ku. Shuning uchun yigit butun vujudi qulqoqqa aylanib, Fazilatning yuziga tikilgan bo'lса-da, xayolan so'z bisotini titkilab, qizning izzat-nafsi va o'zining manfaatiga mos iboralarini tanlandi.

Nihoyat, Fazilat tin oldi.

Oyning o'n beshi qorong'i bo'lса, o'n beshi yorug', gap boshladi Beknazар. Siz ota-onangiz bilan bu yorug' olamning bor azob-uqubatlarini tortib, hamma imtihonlaridan o'tib bo'psizlar, inshoollo, endi sizlar uchun oyning yorug' kunlari boshlanar. Xudoyam endi sizlarga rahm qilar. Shoyad, dardlariningizga ozgina malham bo'lib, zahmatlariningizni yengillatishga meniyam ozgina nafim tegsa... Beknazар toyib ketganini fahmlab, to'xtalib qoldi. Fazilat uning ko'zlariga savol alomati bilan tikildi. Odamlar qanaqa qahatchilik, ocharchiliklarga yo boshqa kulfatlarga giriftor bo'lmaydi deysiz, davom etdi yigit. Siz o'zingizni jahon kezib, tomosha qilib yurgan bir sayyo Hatchiday tasavvur qiling: tug'ilgan shahri yo qishlog'idan boshqa yerni ko'r may, kurrai zaminda Istanbulday go'zal shaharlar borligidan bexabar o'tib ketayotganlar qancha ko'lmak suvg'a o'xshab! Ota-onasiz, yetimxonalarda o'sib-ulg'ayayotganlar kammi? Siz har holda shu yoshingizgacha otangiz bilan birga yashagansiz. O'zingiz aytganday, mehribon bir ayol sizni tuqqan onangizday avaylab, ko'nglingizga qarasa... Eng muhimi kattagina hovli-joylaring bor ekan. Hindistonda milyonlab odam uyi, aqalli boshpanasi yo'q, ko'chada tug'ilib, ko'chada o'larmish. Endi, bu bir kam dunyo. Insonning hamma orzu-umidlari ro'yobga chiqishi qiyin, baribir nimadir yetishmay turaveradi, lekin qiz bola uchun husn yarim baxt deyishadi. Chiroylisiz, sezilib turibdi: aqli-xushingiz ham birovdan qarz oladigan darajadamas, salomatligingiz joyida bular juda katta davlat, Fazilat, shukr keltirib, yana yaxshi kunlarni kutib yashasangiz arziydi, ajabmas... Faqat... Beknazар ma'noli jilmayib qo'ydi. Faqat, bir xil chiroyli qizlarga o'xshab baxt qushingizni mensimay, beparvolik bilan uchirib yubormasangiz olam guliston. Qani o'sha baxt qushi? o'smoqchiladi qiz kulimsirab. Yigit mo'ljalni to'g'ri olgan edi.

Sho'ring qurg'ur boshingizga qo'nishga jur'at qilolmay, atrofingizda parvona...

Fazilat yon-veriga alanglab, "baxt qushi" ni qidirgan bo'ldi.

Qani, ko'r mayapmanu?..

U sehrli qush, ko'zga ko'r inmaydi, xonim.

Ko'r inmasa, boshga qo'ngani qanday bilinadi, afandim, tegajog'lik qildi qiz ham.

Uni yurak sezadi.

Mening yuragim hech narsani sezmayapti-ku.

Bilib qo'ying, Fazilat, baxt qushining ko'ngli juda nozik, sezib turib sezmaganga olishsa, birpasda ranjib qoladi.

Keyin uchib ketib, boshqa chiroyliroq qizning boshiga borib qo'nadimi?

Beknazар kaftalarini tizzasiga urib xandon otdi. Bu gal u o'zining mag'lubligi ustidan kului.

Qoyil, Fazilat, mot qildingiz, dedi u ikkala qo'lini ko'tarib. Asiringizman.

Yo'q, men jiddiy so'rayapman, dedi Fazilat o'zini go'llikkа solib, ammo u lablarini arang qimtib turardi, chidamadi, kulib yubordi.

Juda oson yengilarkansiz, har doim shunaqamisiz?

Umrимда bunaqa mag'lubiyatga uchramaganman.

Mag'lubiyat alami juda achchiq deyishadi, a?

Men ham shunaqa deb o'ylardim, lekin odam o'z ixtiyori bilan asirga tushsa, boshqacha bo'larkan...

Xullas, o'sha kuni Fazilat Beknazarga ko'rgan-kechirganlarining bir qismini muxtasar gapirib berdi. Olamda bandasidan xufiya saqlaydigan sir-asrори yo'q, ko'ngli va hayoti qatlarini hech bir istiholasiz, hech bir istisnosiz ochib yuboradigan inson topilmasa kerak xususan, mahbubayu mahbublar orasida. Fazilat ham o'z shaxsiga daxldor ayrim qaltisroq hodisalarni oshkora etishni joiz deb bilmadi. Masalan, o'n uch-o'n to'tt yoshlari dayoq durkungina, oppoqqina qiz bo'lib, yigitlarning suqli ko'z tashlay boshlagani, Ravalpindida ijara yashashayotganida mahalladosh bir mardumming Mazohid ismli to'ygan qurtday semiz, telvatobroq o'g'li har xil narsalarni bahona qilib ularnikiga tez-tez kiradigan bo'lib qolgan, bir kuni shom paytida darvozaxonalarida ro'para kelib, uni eshikning bir qanoti orqasiga qorong'i burchakka qisib, barra qo'zichoqqa tashlangan och bo'riday tarmashganini, shunda qattiq qo'rqib ketgani, xuddi bevaqt nomusidan ajralgan qizday alam bilan, to'liqib-to'liqib yig'lagani va uyga kirib, titrab-qaqshab voqeani onasiga aytib bergani haqida lom-mim demadi. Otasi g'azabini yashirib, sopolik bilan bolasiga tanbeh berib qo'yishni so'ranganida oshqovoq kallali qo'shni xunuk ishshayib, "O'g'limizning havasini qo'z'agan bo'lса, demak qizingiz yetila boshlabdi, birodar, bundan quvommoq kerak, hademay qaynota bo'lasisz, nevara ko'rasiz" deydi.

Ismoil akaning muskullari titrab, mushtlari tugiladi, lekin muhojirligi yodiga tushib, g'azabini yutadi. Shundan keyin Turkiyaga jo'nab yuborishadi. Adanada xotini o'lgan, o'g'il-qizli bir boyvachcha Fazilatga o'g'iz solganida u hali o'n oltiga ham to'lмаган, ammo kelishgan qaddi-qomati rosмана ko'z tortadigan bo'lib qolgan edi. Ismoil aka Sharifa opaga xuddi ayollarday zorlanib, "Bu noinsoflar musofirni odam o'rnida ko'rishmaydi, qancha yashasang ham, baribir kelgindi hisoblashadi, bularga nima desak bo'laveradi, deb o'ylashadi. Yaramas go'rso'xtaning gapini qaraya, g'unchaday qizimni erka-tantiq arzandalariqa ona qilib berarmishman, hah, hammomni havas qilgan tuy-a-ey... Qisindining qismati shu-da..." deya xo'p asabiy lashgan, ko'zyoshlarini to'xtatolmay ko'chaga chiqib ketib, yana ko'chishga ulov topib kelgan edi. Holbuki, Adanada o'rnashib qolgan turkistonliklar anchagini bo'lib, ular orasida yaxshilari ham kam emas edi. Biroq Ismoil aka aslida bir yerda uzoq turolmas, ko'chishga, joyni yangilashga qandaydir bahona bo'lса kifoya edi. Ammo "hammomni havas qilgan tuy-a"ning xurmacha qilg'i "qandaydir" vajlar sirasiga kirmasdi, albatta.

Shuningdek, Fazilat bu shaharda Istanbulda mahalladosh turk yigitini bilan endigina boshlanayotgan g'ayri oddiy munosabatlari onasining tanbehi bilan tezgina barham topgani to'g'risida ham indamadi. Aslida har qanday ona qiziga birov xushtor bo'lса, boshqalarga anglatmasa-da, ichida quvonishi sir emas. Lekin... Sharifa opa o'shanda otaning o'limidan bir necha kun oldin aytgan vasiyat maqomidagi o'gitlarini eslatib, Fazilatni ogohlantirgan, qiz hali u qadar gurillab yonishga ulgurmagan hissiyotlari olovini qiblagohi sog'inchiga to'kilgan ko'zyoshlarila o'chirib olishga tuyassar bo'lgan, shu-shu mahalliy yigitlarning nazari-e'tiboridan o'zini olib qochadigan, chorshaf tutib yuradigan bo'lgan edi. Takyaga kirib turishining yana bir sababi ota istagi va vasiyatiga binoan o'zлari taraflik risoladagi bir yigitni uchratish xayoli edi, buni ona ham anglar, uning fikri, tilagi ham shu, lojaram, qizning u yerga tashrifini taqiqlamas, aksincha, ozmi-ko'pmi demay, ovqat, non berib o'zi uni o'sha musofirxonaga yo'llar, illo, ikkisi ham qalblaridagi pinhoniy niyat va e'timodlarini sirtdan bir-birlariga sezdirmaslikka harakat qilishardi. Binobarin, Beknazarning

yo'lib qolishi, ayniqsa, uning hamyurt ekanligi, to'g'risi, ikkala ojiza ko'ngillari tubidagi o'ksik xohish, ilinjni qo'zg'atib qo'ygani rost, lekin avvalo zohiran dilovar bu oshiqning nomai a'molini, moddiy ahvolini aniqlab, uning fe'l-atvorini, ahdi qat'iyligini sinovdan o'tkazish kerak va yana bir nozik muammo bor edi: axir Fazilat shuncha yil boqqan, mehr bergan odamini begona yurtda yakka-yolg'iz qoldirib, bir erkakning etagidan tutib ketavermaydi-ku. Faqat qaltis jihat shundaki, bu haqda birinch bo'llib qiz yo uning onasi tilidan shama, so'z chiqishi ravo emas, balki kuyovlikka da'vogarning fahmu farosatiga umid bog'lab turishga to'g'ri kelardi. Bo'lajak kelin so'nggi chora sifatidagina shu gapni shart sifatida o'rtaqa qo'yishi mumkin. Boshqa bir chigal jumboqni esa nimagadir ona-bola e'tibordan soqit qilishayotgandi, vaholanki u o'ta jiddiy, hal qiluvchi ahamiyatga molik edi...

Meni onangiz bilan tanishtirib qo'ymaysizmi, dedi Beknazazar.

Nima deb aytaman?

Vatandoshimiz ekan, siz bilan ko'rishib, suhbatlashmoqchi deysiz, vassalom. Menimcha, yo'q demaydi, axir uniyam hamyurtlari bilan gaplashgisi, dardlashgisi kelar.

Unda men onamning o'zidan bir so'rab ko'ray.

Ertasiga ertalab Fazilat bilan birrov uchrashganida qizning kayfiyati chog' ko'rindi. Ayol kishi, yot erkak bilan yuzlashishdan bosh tortishi mumkin degan xavotirda edi yigit.

Hayajonga tushdi, tugun endi yengilgina yechiladiganday, u o'ylagan g'ov-to'siqlarni ko'tarib tashlash qalovi topilganday, Sharifa opa qizimi unga qo'shqo'llab tutqazadiganB-day, terisiga sig'masdi. Ko'zlariga fotiha berayotgan ona siymosi ko'rinish ketdi.

Beixtiyor qo'llarini Fazilatning yelkalariga qo'ydi, qiz zalvorli kaftlarni olib tashlash uchun yigitning bilaklaridan tutdi va shu yo'sin bir lahma tinib qoldi, so'ng gavdasini orqaga tortdi.

Hayajonlanmang, Beg aka, hayajonlanmang. Eslatib qo'yay: uyimizga men bilan birmamas, bir o'zlar tushga yaqin qadam ranjida qilganlari ma'qul. O'zlarini urintirib qo'ymasinalar, ortiqcha ovoragarchilikning hojati yo'q, musofir odamsiz... Kulmang, rostdan atyapman.

\* \* \*

Shu kuni quyosh har qachongidan ham charaqlab chiqmoqda, uning alvon shafag'i yo'll chetida tarvayib o'sgan, tongning yengil shabbodasida nafis tebranayotgan arg'uvonu akaslarning uchlarida jilva qilardi. Havo yengil, yoqimli edi. Beknazazar o'zini har kungidan tetik, bardam his etardi. Jarlik tarafdan kelayotgan saharxez qushlar navosi unga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishlardi. U butun mehrini, sarmastligini anglatmoq uchun Fazilatga yurak-yuragidan jilmayib qarardi.

Qizga bo'lgan intilish zamirida qanday kuch, qanday hissiyotlar jo'shayotganini Beknazarning o'zi ham anglay, farqlay olmas edi uni bir ko'rishda lolu hayron aylagan husni-malohatiga shaydolikmi yo vujudining bir puchmog'ida lava ko'tarilishi oldidan yuz beradigan tog' osti titrog'iga o'xhash ehtiroslar tug'yonimi yoki yurak o'tanishlari bilan bog'liq chinakam muhabbatmi? Darvoqe, u Fazilatning nimasiga, qay bir jihat, fazilatiga ishqiboz bo'lyapti o'zi? Agar chiroyi uchun desa, bir chiroylini ko'rди-ku. Xotini Rashidaning ham surati binoyidekkina edi, siyrati, g'alati fe'l-atvorlarini bir yostiqqa bosh qo'yib, jismi-jonlari tutashgandagina ayon sezdi-ku. Odam olasi ichida deb, buning ham ishq alangasini, ko'ngil haroratini suvday o'chiradigan bir jihat chiqib, bosh qashib qolmasmikin? Tag'in shunday hol sodir bo'lsa, endi u shubhasiz bir choh yoxud arosat sahrosining qoq o'rtasiga tushadi, uning alami, dog'imi qancha tortishi faqat xudoga ayon. E, eng muhimi til-zabonli, ochiqqina ekan, bas, boshqa har qanday nuqsi-qusuriga chidash mumkin.

Darhaqiqat, muhabbat mijg'ovlikni yoqtirmaydi. Ikkilanuvchilarga chin oshiqlik zavqi begona. Har qalay, bo'lajak mahbubayu mahbub nigohlari dastlab to'qnashganda har ikkalasining yuragi kuchalasimon tutay boshlaydi, keyin har ko'rishganida ko'zlardan sachragan uchqunlar, so'zlar ohangidan taralgan epkin kuchalalarni yallig'lantrir, alanga oldiradi.

## VIII

Hayotda eng uzoq cho'ziladigan vaqt suyukli kishing bilan dastlabki visol oralig'idagi bezabon va berahm onlardir. Bunday fursat o'zining sanoqdagi mohiyatini yo'qotib, masofaga aylanadi, bu masofa yo'lga chiqayotgan xushtorga benihoya olisday, faqat va faqat yuqoriga o'rlab boradiganday, yuragini hapriqtiraveradi. Sharifa opa bilan ko'rishuvgacha bo'lgan muddat ham Beknazarni o'shandan kam intiqtirmadi. U oshiqqan sari oyog'iga tosh bog'lagan vaqt millari imillab silqiyotganday, ba'zida bir nuqtada qotib qolganday tuyulardi. Yigit juda muhim ijtimoiy masala bo'yicha yuqori doirada, baland nufuzli mas'ul shaxs bilan muzokara olib borish taraddudidagi mansabdor kabi bezovtalanardi. Chindan ham kutilayotgan uchrashuv ko'p narsani oydinlashtirmog'i kerak. Fazilatni chin onaday gard yuqtirmay ulg'aytirgan ayloning muomalasidan yigitga, uning qizi bilan tanishuviga munosabatini xayriyohmi yo norozimi bilib olish uchun tayyor imkoniyat bu. Agar opa iliq kutib olsa, ochilib gurunglashsa, bu ham shunga yarasha nazokat bilan muomala qiladi, yo'q, agar aksincha hol yuz bersa, ya'nii uncha ro'yixushlik bermasa yo bepisandroq qarasa, unda ortiqcha iltifot kutib, yaldoqlanib o'tirmaydi. Lekin har holda uning ko'nglini ilitishga, yumshatishga urinadi. Axir birinch ko'rishishdayoq, dastlabki "muzokara"dayoq hamma muammoni o'z foydasiga hal qilishga intilish asosiy rejaning pachavasini chiqarib qo'yishi ham ehtimoldan holi emas. Shuning uchun yaxshisi, tilimi tiyib, suhbat jilovini mezbonga berish va gapning daromadi qayoqqa burilishini og'ir-bosiqlik bilan kuzatib o'tirgani ma'qulmikin? Savollariga javob qaytaradi, zarur bo'lsa, so'z qo'shadi. Mabodo opa uning diliga o'tirishmaydiganroq biron narsa desa ham e'tiroz bildirmaydi. Azim hoji tog'a atyganday, qiziqqonlik qilmaydi, bil'aks, ishni buzib qo'ysa, keyin o'rning tushmasligi mumkin. So'nggi afsus-nadomatning foydasi yo'q. Agar muddaosiga erishish sevgi sharobidan qonib sipqorish nasib etsa, u holda vatangadoligi, quvg'inligi bilan bog'liq mashaqqatlaru ko'ngilsizliklar, ko'rgiliklar unutilib, azoblari yengillab ketadiganday, yurak o'tanishlari malham topadiganday tuyuB-lardi Beknazarga. Istanbulda Fazilatga ilk bor nazari tushgan lahzalardan e'tiboran go'yo uning haqiqiy yigitlik mavsumi boshlangan, taqdir shamoli uni beqo'him uchirib yurganiga o'kinish ham susaygan edi... Balki, qiz ham shu kunlarda ruhiyatida g'alati bir o'zgarishlar sezib, hayajonlanib yurgandir? Bir umr yot tuproqlarda, g'ayri, ko'ngilsiz bir erkak bilan qolib ketish xavotiri, tashvishi balki uning oromiyu halovatiga raxna solib kelar. Ehtimol endi u yurtdosh, millatdosh, boz ustiga mehr-muhabbat to'la ko'zlariku so'zlar bilan unga o'z vatani vasli va baxtli hayotni va'da qilayotgan bir shunqor yigitni yetkazgani uchun parvardigorga shukronalar aytayotgandir...

Ha, onajon! O'g'lingizni bolaligidida "shunqorim" deb erkalatardingiz. Shunqor burgutchalik bo'lmasa-da, ancha-muncha xavf-xatarni pisand etmaydigan jasur ovchi qush. Suyumligingiz esa, sichqonningmi, kalamushningmi "shitiri"dan yurak hovuchlab, bir qanot qoqqanicha Qashqarga, undan bir tupkaning tagiga Istanbulga qo'nib turibdi. Endi zora, shu yerdan huzuringizga haqiqiy justi bilan qaytsa!..

Beknazar u yoq-bu yog'ini tuzatib chiqayotgan edi, hovlida Javdar og'a uchrab, "Ha, yo'l bo'lsin, oshiq to'ra?" deb hazillashdi.

Bir aylanib kelay, yotovrib zerikdim, dedi u hovliqqanini sezdirmaslikka tirishib.

Kuning ko'chada o'tyapti shekilli, ma'noli jilmaydi xizmatchi bosh chayqagancha Beknazarni ortidan kuzatib.

Yo'l-yo'lakay do'kondan batonli non, qand-qurs oldi, axir Fazilat ming to'g'ri ma'noda ovora bo'limgang degani bilan (ehtimol sinamoqchidir) o'zbekchilikda, birinchi marta borayotgan hovliga, ayniqa, ayol kishi bor xonadonga ikki qo'lni burunga tiqib kirilmaydi-ku.

U tanish darvozani bukilgan ko'rsatkich va o'rta barmoqlari orqasi bilan qoqarkan, yuragini ham ana shu tovushga monand, undan tezroq va besaranjomroq urayotganini eshitardi. Eshik tezgina ochilib, qarshisida odmigina kiyingan Fazilat ko'rindi va mehmonning dimog'iga mushki anbar hidi urildi. Qizning chehrasi ham tiniq bu alomatlar yaxshilikdan dalolat edi. Beknazarning bahri-dili yashnab ketdi.

Mana, qulingiz ostonangizga bosh urib keldi, dedi u kulimsiragancha, kitoblardagiday bo'sh qo'lini ko'ksiga qo'yib, xiyol egilarkan.

Fazilat kulib yubordi.

Rosa hadisini opsiz-ku.

Nimasini aytasiz, tuni bilan mashq qilib chiqdim.

Bechora, mijja qoqmaganingiz sezilib turibdi, ko'zlarining qizarib ketibdi.

Ko'zlarim uyqusizlikdanmas, hozir hayajondan, xijolatdan qizardi.

Lekin unchayam hayajonlanayotgan kishiga o'xshamaysiz.

Manavi yerimga qo'lingizni qo'yib ko'rganingizda bu gapni sirayam aytmagan bo'lardingiz, dedi Beknazar o'ng kaftini chap ko'ksiga bosib.

Fazilatning shaytonligi tutdi.

Qo'limni u joyingizga qo'ysam bir yo'la ag'anab tushmang, odamni o'sal qilib.

Poyingizga ag'anasam o'zimni juda baxtiyor sezardim, Fazilat.

Shunaqa deng, qani, ichkariga marhamat bo'lmasa.

Qiz mehmonni shig'il mevalari och yashil barglar orasida quyma oltinday tovlanayotgan daraxtlar oralig'idagi g'isht terilgan yo'lakdan boshladi. Beknazar bu tansiq mevaning norinj apelChbsin ekanligini Eron zaminidan o'tayotganida bilib olgan edi. Lekin haligacha rang-tusi ko'zni oladigan bu ajoyib ne'matga og'zi tegmagandi, mazasi qanaqa ekan, degan fikr kechdi xayolidan. Atrofga nigoh tashladi. U hali turk uy-joylarining ichiga kirib ko'rмаган, bu borada tasavvuri ham yo'q edi. Hovli o'ziga to'q xonadonni eslatardi: kenggina, chor tarafi pishiq g'ishtli baland devor bilan o'rالgan, kun chiqish va janub tomonda derazalarini yirik-yirik, salobatlari uylar, boraverishda esa boloxonali so'ri bo'lib, ancha oldinga chiqib ketgan. Sahn va yo'laklarga g'isht bosilgan, har yer-har yerga manzarali qilich bargli palCh'ima va gilos ekilgan, umuman hovli sarishta, fayzli edi.

So'ri oldida etagi, yengi uzun siyohrang baxmal ko'yakli, chog'gina och jigarang durrani boshiga chambarak qilib o'rav, ustidan harir, sharfsimon ro'molni omonat tashlagan, Fazilatga nisbatan bo'ychanroq ayol kursi suyanchig'iga qo'llarini qo'yanicha iyagini xiyol qayririb turardi. Beknazar tomoni qo'sha Fazilatni quvalab kelgan kuni ostonada ko'ringan xushro'y ayol edi. Uning qosh chimirib qarashida boyvuchcha xonimlarga xos andak viqor va sirlilik borday tuyuldi, lekin bu dastlabki taassurot edi.

Yaqin borishganda opa ham mehmon tomona ikki-uch qadam yurdi.

Assalomu alaykum, deya bo'yinini salgina bukib salom berdi yigit. Uning ovozi, lablari titrayotgandek edi. Endi u hayajonining Fazilat oldidagi esankirash, to'lqinlanishdan bo'lakcharoq, kuchliroqligini payqdadi. Basavlatgina bo'la turib o'z ichidagi g'ulg'ulasimon bir nimarsani jilovlay olmayotganidan izza tortdi, lekin nimarsa garchi ko'zga ko'rinish, qo'lga ilashmas bo'lsa-da, har qanday fil kelbatli bilan ham mutlaqo hisoblashib o'tirmaydigan, hatto, Alpomishu Farhodlarga bo'y bermay, ularni xohlagan izmiga solib, azza-bazza dovdiratgan yovvoyi kuch edi. Zero, u hayajon shunchaki xabarchi, elchi emas, balki muhabbat homiysi, ramzan aytganda, tansoqchisidir. Odatda, tansoqchilar har qanday odamni sarosimaga solib, vahima uyg'otadigan siyoqli va sirli bo'ladi. Beknazar yana bir narsadan hayratlandi: garchi o'zlarini tomonda ayollar paranji, chachvon degan narsalarni tarix ortiga deyarli butkul uloqtirishgan bo'lsa-da, Qashqaru Pokistonda, Eronu Turkiyada xotin-qizlarni nuqul qora yo to'q jigarang chodrada uchratib o'rgangani uchun Fazilatning onasini ham, garchi kuni kecha uni ochiq ko'rgan esa-da, hijob yopingan holda tasavvur etgan edi. Aksariyat xotinlar erlari o'tgandan keyin o'zlarini erkin tuta boshlaydilar. Opa ham... Yoki Beknazar hali yosh yigit ekan, undan qochmasa ham bo'laveradi, deb o'ylagandir. Balki ichki bir tuyg'u yurtdosh kimsa bilan yopinchiqsiz ko'rishishga undagandir. Yo balki favqulodda diqqatga molik tashrif egasini yaxshiroq kuzatish zarurati, taqozosiga ko'ra...

Va alaykum assalom, xush kepsiz, dedi opa. Uning och pushti lablariga nim tabassum qalqan edi. Qani, yuqoriga chiqaylik. U qo'l bilan boloxonaga ishora qildi.

Ikki yoni ihotali taxta zinalardan yuqoriga ko'tarilishdi. Pastdan ancha mahobatli ko'ringan, chor tarafi to'q yashil rangga bo'yalgan, yog'och panjarali boloxonaning ichi u qadar keng emas edi. Muhimi, oldi shimolga Marmar tomona qaragan bo'lib, yengil chayqalib turgan moviy dengiz yanada aniq ko'zga tashlanar, o'sha yoqdan bodi sabo esardi. Ana shu yengil epkin Beknazarning qizigan vujudiga salqinlik ufurib, ko'ngil hapriqishlari damini kesganday, sal o'zini rostlab, musohabaga chog'lanib oldi.

Chog'qina to'garak xontaxtaga billur qanddonlarda Beknazar nomini bilmaydigan pishiriq-eguliklar, olma, norinj oz-ozdan, ammo did bilan qo'yilgan edi.

Choy ichasizmi, qahvami? so'radi mezbon.

Beknazarning dilidan "so'rab berisharkan-da" degan gap o'tdi. Birini aytish tanlash odob doirasidan tashqari, deb o'yladi u.

Baribir... unaqa ovoragarchilikning hojati yo'q. Yigitning ovozidan uning tortinayotgani, so'zlarini uncha yopishmayotgani anglashilardi.

Opa pastda uning ishorasini kutayotgan Fazilatga choy va qahva buyurdi. Beknazar bittasini aytsam bo'larkan deb o'ng'aysizlanib, bir qimirlab qo'ydi. Gapni kim boshlashi ma'qulligini mushohada qilib o'tirgan edi, opa joniga ora kirdi.

Xo'sh, mehmon uka, qayerlardan so'raymiz? Bu shaharga qanday kelib qoldingiz?

Opa suhbatni qovushtirish uchun Beknazarga o'ng'ay savol berdi. Albatta, Fazilat onasiga "tanishi" haqidagi ayrim ma'lumotlarni yetkazib ulgurgan bo'lishi kerak.

Beknazar ko'rgan-kechirganlarini qisqa gapirib berdi. So'ng bir ehtiyojsizlikka yo'l qo'yanini fahmlab qolib, o'zini koyiy boshladi:

Eh, xomkalla! Axir qochoqligi, yurtdan quvilgan jabrdiydaligini ayon etish bilan o'z niyat-maqсади yo'liga xitoy devoriga teng g'ov-to'siq qo'ydi-ku! Ona: "Bu uysiz bedana Fazilatni qayerlarda sarson-sargardon qilib olib yurmoqchiykin", deb o'ylamaydimi?! Shuningdek, u o'zi sezmagan holda jiddiyashib, so'zлari qatidan iztirob va alamzadalik, kimlargadir nisbatan qahr uchqunlari sachrar edi. U o'zini sipo, malolsiz va nekbin tutishi lozimligini unutib qo'yayotganidan ichida o'kinib, gapning paynovini o'zi tomonga burishga urindi.

Aslida, uncha vahimali voqeamas ediyu, otamga hech tushuntirolmadik. Sutdan og'zi kuygan odam qatiqni ham puflab ichganday, bobomiz qamoq zaxini hidlab chiqqani uchun bezillab, meni qo'yarda-qo'ymay, uydan chiqarib yubordi. Hech bo'lmasa uch-to'rt oy aylanib, ilojini qilsang, Makkatillodagi amakingni ko'rib kel, deb tayinladi. Menimcha u mashmashalar allaqachon tinchib ketgan bo'lishi kerak. Qashqardaligimda uydan xat olganman, unda hammasi joyida, sen, xudo nasib qilsa, haj ziyoratini o'tab, amakingni ko'rib kelaver deyishgandi. Beknazар gapimni qanday qabul qilyaptiykin, degan ma'noda ora-chura opaga qarab-qarab qo'yar, lekin uning yuzida hech qanday o'zgarish yuz bermaganini ko'rib davom etardi. Bundan yigirma yillar burun, dindorlar ta'qib qilina boshlanganda ma'raka-marosimlarga borib yurgan bir amakim, o'zidan hadiksirab, Arabistoniga jo'navorgan ekan. Taqdir-nasibmi, o'sha yoqda qolib ketgan. U qo'rqedimi, xijolat bo'lidiyo borgan joyi ma'qul tushib qoldimi, haytovur qaytmadi, keyin, bola-chaqali bo'lib, yukiyam og'irlashdi nazaramda... Beknazар gap orasida pastda bir narsalar ko'tarib u yoqdan-bu yoqqa o'tib yurgan Fazilatga panjara oralig'didan bot-bot qarab qo'yar, lekin qiz o'zini atayin beparvo tutayotganday, boloxonaga nazar tashlamasdi. Yigit ichida ranjidi. Ko'ngil qurg'ur nimalarni xohlamaydi-ya, axir bo'y yetgan qiz kechagina tanishgan va uyiB-ga birinchi marta qadami tegib turgan, oftobda qatiq ichishmagan kap-katta erkak bilan onasining oldida ko'z urishtirish o'ynasinmi? Unga tabassumlar hadya etib, bo'shashmang deganday imo-ishoralar qilsinmi? Domangirlik ham evi bilan-da.

Opa Beknazarga ham, uning amakisiga ham achinish bildirdi, o'zlarining ham shular qatori ekanini aytib, tasalli berdi.

Boshqa yurt odamlari har qancha yaxshi, mehribon bo'lishmasin, baribir o'ziB-mizB-nikiga o'xshamas ekan. O'zimiznikilarning ancha-muncha achchiq-tirsig'iyam o'tmaB-sidi, begonaning sal g'alatiroq, qattiqroq gapi ta'naday, kamsitganday tuyulaveradi, o'zingiz ham ularga botadigan, jahlini chiqaradigan gap gapirib qo'ymadimmikin, deb xijolat bo'lib turasiz. Eng yomoni, biz Fazilatning otasini tuproqqa berib, aro yo'lda qoldik, endi qismatimiz nima kechishiniyam bilmaymiz. U kipriklariga sizgan tomchilarni ro'molining uchi bilan artdi. Garchi, birinchi muloqotni obidiyya bilan boshlamoq, notanish, nosinashta mehmonga dardu hasratini dasturxon qilib yozmoq nojoiz, noqulay esa-da, Sharifa opa, harqalay, ayol kishi edi. Bu ko'rgililiklarni baland kayfiyatda insho etib ham bo'lmasligini Beknazar yaxshi bilardi. Binobarin, ikki hamyurt, ikki millatdosh, ikki musofirning mushtarak taqdirlari haqidagi hikoyalari ularni bir-biriga ruhan yaqinlashtirdi, ikkisining ham qalblari bir qorong'ilashib, yana yorishdi, oradagi yotsirash, istihola pardalari ko'tarilib, bir-birovining yuziga xuddi avvaliy yaqinlar kabi dadil qaray boshladilar. Birdan Beknazarning miyasiga "Fursatni boy berma" degan gap kelib, ohista o'smoqchiladi.

Birga-birga yurtga qaytmaymizmi, opa?

Sharifa opa qo'l siltadi.

E, ukajon, yurtga qanday qaytamiz? Siz-ku, erkak kishisiz, qolaversa, o'z uyingiz bor, biz ayollar urug'-aymog'imizdan, bor-budimizdan ayrilib chiqib ketganmiz, endi nima deb boramiz, qayga, kimnikiga sig'amiz?

Unaqa demang, opa, qarindoshlar bordir, bo'lmasa, mana, bizning hovlilar keng, keyin xudo bir yo'lga boshlar, dadillandi yigit. Opa miyig'ida kului.

O'zingizni yetarli-ku, yana ikkita darbadar-vatangadoning dardi-tashvishini qanday ko'tarasiz, uka?

Fazilat ixchamgina yaltiroq patnischada ikki stakan choy va bir finjonda qahva olib chiqib, xontaxtaga qo'ydi. Opa stakanlardan birini o'ziga oldi-da, patnisni yigit tomonga surdi. Beknazar Turkiyada choyni katta choynaklardan quyib ichmasliklariga ajablanmay qo'yan edi. U o'zini nihoyatda sipo tutayotgan qizning ortidan zimdan kuzatib qolarkan, qirrali stakandagi qop-qora choyga bir qaradiyu, qulqoli oq chinni finjonga qo'l uzatdi.

Qizi tushmagur choyni o'tkir damlab yuboribdimi?

Yo'q, yaxshi, dedi yigit qahvadan asta ho'plarkan. U opaning sezgirligiga qoyil qoldi.

Shirinliklardan tating, esim qursin, gapga tushib ketib... dedi ayol xijolat bo'lib.

Rahmat, rahmat, hozirgina nonushta qiluvdim, qo'lini ko'ksiga qo'ydi mehmon.

Beknazar hali jiddiy mavzuda so'z ohib qo'ydi, endi ahidian, gapidan qaytishni xohlamas, qayta olmasdi ham.

Jon salomat bo'lsa, bir iloji topiladi. Sizlarni men ko'tarib yurarmidim, yer ko'taradi. Bo'lmasa, bir oila bo'lvolamiz... U so'nggi gapni aytishga aytди-yu, tilini tishladi. O'zida bu jur'at qanday tug'yon organiga hayron edi. Chakki ketdi-yov. Tomdan tushgan tarashaday eshitiladigan bu taklif opaga qanday ta'sir qildiykin? Beknazar yer ostidan unga qaradi, lekin ayol e'tibor bermadimi, yo shunchaki aytди-qo'ydi-da, deb jiddiy qabul qilmadimi, har holda yuz-ko'zida bir o'zgarish sezilmadi, munosabat ham bildirmadi. Biroq yigit nima bo'lsa-da, gapni aylantirishni ma'qul ko'rди. Sizlar ham bu yerda qachongacha yurasizlar, axir bir kun qaytishinglar bor-ku?

Endi qaytishimiz dargumonga o'xshaydi. Akangizni shu yerga qo'ydik, biz ketsak, undan kim xabar oladi, kim is-chiroq qo'yadi? Mulohazaning umumiy mazmuni tushkunroq, noxushroq bo'lsa-da, "akangiz" degan ibora mezbonning Beknazarni o'zlariga beixtiyor yaqin ola boshlaganidan dalolat edi. (Umuman, ayol zoti pinhoniy rag'bat, ra'yini qanday oshkor etib qo'yanini o'zi ham payqamay qoladi). Bu hol shamolda titrab turgan yaproqdag'i yashash ilinjidek, bir og'iz iliq so'zga mahtal suhbatdoshda umid paydo etdi. Shuningdek, vaj-dalilning xulosa, ta'kid ohangida emas, muhokama tarzida o'rtaga tashlashi ham opada yon berishga xohish yo'q emasligini anglatardi. Bunday paytda eng muhimi, jilovni mahkam tutish.

Menimcha, agar yurtga qaytsalaringiz, akamizning arvohi qaytaga xotirjam bo'ladi, dedi Beknazar "raqib sustlashganda bor g'ayratni ishga sol" shioriga binoan yanada tetiklanib. Qabrda odamning faqat ustuxoni qoladi, ruhi osmonga uchib ketadi-ku, ruhlar har yerda hozir, degan naql bor, demak, sizlar qayerda bo'lsangiz, akamizning ruhi o'sha yerdan, atrofingizda yuradi.

Aslida bu Sharifa opaning ham dilidagi gaplar edi, lekin...

Tilda shunday deganingiz bilan, opa panjalari uchi bilan ko'ksi o'rtasiga ohista dukillatib ura boshladi, mana bu yer unamaydi-da. Qolovursa, hali yurtimizda siyosat o'zgargani yo'g'u, mana, o'zingiz ham... Bu boyagi ehtiyoitsizlikning "tovoni" edi.

Odamning ongida ko'pincha dastlab eshitilgan fikr qoladi, keyin uni ko'chirib yuborish qiyin, ammo xato yo o'ziga ziyon keltiradigan tushunchani o'zgalar xotirasini, tasavvuridan o'chirib tashlash ilojini qidirish lozim.

Meni bu yoqlarda yurishim, hali aytganiday, keksa otamning andishasi natijasi xolos. Endi o'ylasam, shu bahona bilan meni akasidan xabar olib kelishga yuborganga o'xshaydi. Beknazarning taxminiga asoslar ham yo'q emas edi. Enamiz rahmatli otamB-ga "Katta farzandimiz faqat akang bo'lgani uchun bechora seni doim ko'tarib yurardi, beshigingniyam men bilan tengma-

teng tebratgan, senda uning haqqi ko'p, u bilan bir iloj qilib xabarlashib turgin", deb yig'lар ekan. Enamiz o'tganini kimdandir eshitgan amakimning aqallni onasining qabri boshiga chiqib duo o'qishga ham yaramaganidan o'kinib, yozig'idan o'pkalab, yuraklari ezilib-ezilib yozgan xati bizga yarim yildan keyin yetib kelgan. Bizni davlatimiz bilan boshqa mamlakatlar o'rtaida xat-xabar aloqasi ham shunaqa-da. Beknazar chalg'ib ketganini fahmlab, uzr aytdi. Ortiqcha gaplar bilan boshingizni qotiryapmanmi? Men bo'lak narsani aytmoqchiydim. Bizda hukumat, siyosat asosan erkaklardan xavotirlanib, ular bilan olishadi, viloyatimizda biron taayyib qamalgani yo surgun qilinganini eshitmaganman. U nimanidir eslamoqchi bo'lqanday, bir lahma jimiб, keyin qo'shimchaladi. Yo'q, agar baribir vatanga qaytishga ko'nglingiz bo'lmasa, unda vatanga yaqinroq Qashqarga borish mumkin. U shaharda tanish, panohiga oladigan yaxshi odamlar bor.

Bandaning panohiga olgani nima bo'lardi, xudo panohiga olsin, uka. Ha, mayli, buyam bir gap-da. Siz otangizning aytganlarini bajarib, Makkaga boring, amakini toping, hajni o'tang. Hamma narsayam vaqtida farz. Biz ham Fazilatning otasi bilan hajni ko'nglimizga tugib yurardik, ana, mana deb, yillarni o'tkazdik, sarmoyani ko'paytirib olaylik deb hali u shaharga, hali bu davlatga ketaverdi, ketaverdi... Endi o'yelasam, rahmatli umrining qisqaligini sezib, bizga pul g'amlash harakatiga tushib qolgan shekilli. Demoqchimanki, niyatniyam imkon, sharoit borida amalga oshirib olish kerak ekan.

Unda hammamiz avval Arabistonga boraylik, dedi Beknazar yana bir bahona tug'ilib qolganidan suyunib.

Mayli, bu haqda keyin yana gaplasharmiz, dedi opa yigitning gapini bo'lib. Shundagina Beknazar masalaga chuqur kirib ketganini angladi. Birinchi safar kelishidayoq shuncha xotirjam o'tirgani va o'zini erkin qo'yib yuborganidan xijolat chekdi, turishga shaylanib, opadan ijozat so'radi.

Fazilat u bilan zinapoya oldida "yaxshi boring" deb xayrashib qoldi. Beknazar unga ma'noli qarab: "Qahva juda mazali bo'pti", dedi.

Opa uni darvozagacha kuzatib qo'ydi.

## IX

Ertalab yuzini yuvgach, Beknazar binoning qarshi tarafidagi devor bilan tutash, faqat ustigina yopiq ayvon ostida daladagi qo'riqchiday so'ppayib turgan katta, rux samovar tomon yurdi. Uning biron narsa yegisi yo'q edi, chanqagandi. Xizmatchiga kap-katta odamga ish buyurgisi kelmadi. Qolaversa, nima yumush bilandir band bo'lishi kerak edi. Kun botishdagi ayvonga taxlab qo'yilgan sarjindan olib kelib o't qaladi. O'tin hadeganda alanga olavermadni. Ko'zlar achishdi. Boshini bir tomonga engashtirib, tagdan jon-jahdi bilan puflay ketdi. O'tin u bilan o'chakishganday, yiltillab-yiltillab, mayda uchqunlar sachratardiyu, yona qolmasdi. Kul to'zib, ustiga yopirildi, ohorli ko'ylik ham rasvo bo'lidi deb g'ijindi. Ho'l o'tin uning kuchini pisand qilmayotgandi. Ha, o'tinni yorishga kuch yo aql kerak, uni yondirish uchun esa qalovini topish zarur. Qalovini topsang, qor ham yonadi deyishadiya. Demak, bari ish qalovda. Faqat o't yoqishninggina emas, boshqa har qanday tadbir, muammoning ham qalovini topish kerak... Yigit tutantiriq uchun avvondan quruq qiyrachaklarni terib keldi-da, samovar ostidagi qo'pol o'tinlarni chiqarib tashladi. Avval maydalarni X shaklida chalishtirib terdi, ustidan yirikroq tarashalarni qo'ydi, keyin olovning tagini ko'zini ochdi-da, bir parcha qog'ozni yondirib suqdi. O'tin chisir-chisir qilib tutasha boshladi. Yolqinning yupqa tillari ilon kabi o'rmalab, lapanglab o'tinlar orasiga kirib ketardi. Birpasdan so'ng alanga katta, qattiq o'tinlarning ham yonini yalab yallig'lantirdi olov rosmana yondi o't yoqishning qalovi ana shu edi, Beknazar buni bolaligidan bilardi, faqat ancha yillardan beri o'choq yoniga bormagandi, qolaversa, nafasi kuchiga ishongan, puflab o't oldirib yuboraman deb o'ylovdii. Lekin ko'ngilga o't yoqishning qalovini yaxshi bilmasdi, "uni ham izlayman, albatta topaman" so'zlandi u. To'g'ri, bu ishga bir vaqtlar ham urinib ko'rgan, ammo topolmagandi. Chunki... unda g'o'r edi.

Mana endi, shuncha olis, mutlaqo begona bir shaharda shunday bir dardi bedavoga mubtalo bo'lib, boshi qotib o'tiribdi. Qatiqni puflab ichib yurgan yigit bugun qaynoq sutniyam kosasi bilan simirishga tayyor. Qashqarda shunday ajoyib hoji tog'aning erkasi Xongulning miqti jussasiga, uning yetilib kelayotgan qizlarga xos xatti-harakatlari, gap-so'zlariga e'tibor bermagan, chunki uning biron joyda biron kimsaga ilashib qolish niyati aslo yo'q edi, axir u qayoqqa jo'nab, qayerda to'xtashi nomalum bir sayyoh, to'g'rirog'i, uyi yo'q bir bedana bo'lsa... O'zining sargardonligi yetib ortadi-ku, yana bir bechorani yurtma-yurt, shaharma-shahar tentiratib yurishi aqlga sig'adigan ishmi?.. Ha, u bir begunohning uvoliga qolishdan qo'rqardi, shu bilan birga cho'ntagining sayozligini ham yaxshi bilardi.

U qayeradir "O'n sakkiz yoshga yetib olsang bas, u yog'iga o'zingni o'zing boshqaradigan bo'lib qolasan", degan gapni o'qigan yo eshitgan edi. Demak, u falsafa emas, havoyi faraz ekan, bandai notavon o'ziga o'zi itoat qilolmay qolishi, umr yo'lida uning o'ziga bog'liq bo'lмаган, u kutmagan, hayotini butkul o'zgartirib, har qanday ahdi, so'zidan qaytishga majbur etadigan voqeа-hodisalar har qadamda, har lahzada yuz berishi mumkin ekan.

Qudratli oqim bo'l mishayot to'lqinlari odamlarning nafsi, ehtiroslari, hatto, e'tiqodidan ham kuchliroq, qaysarroq, ayovsizroq, beshafqatiroq. Bani bashar bu oqim uchun bir xasday gap, uni xohlasa chirpirak qilib aylantirib o'ynab, xohlasa girdobiga tortib, xohlasa qay bir sohilgami yo o'rtadagi toshloqqami itqitib, so'ng unga bir bora achinish bilan nazar ham tashlab qo'ymay, o'z yo'lida davom etaveradi.

Inson biron jiddiy muammoga duch kelib, uning yechimiga ojiz qolsa, bir necha ko'ylakni ortiq yirtgan mo"tabarroq odamning maslahatiga muhtojlik sezadi, nazarida o'sha tajribago'y jumboqning zulfinini yechib, eng to'g'ri yo'lni ko'rsatib beradiganday, uning tavsiyasiga ko'ra ish tutsa, mushkuli oson, murodi hosil bo'ladiqanday tuyula boshlaydi. Lekin qani o'sha xizrnamo xaloskor?..

Beknazar Fazilat xabar olib turadigan Hoji otani esladi. U burchakdagi xonadan har zamonda eski kalishini sudrab chiqib, hovli yo'laklarida, birov bilan gaplashmay, tasbeh tutgan qo'llarini orqasiga qovushtirib, yerga qaraganicha, bahor oftobi lohas qilgan mushuk singari erinchoqlik bilan bir oz aylanib, yana indamay hujrasiga kirib ketadigan ixchamgina jussali kishi edi. Yigitning ko'ngli kim bilandir dardlashishni yo loaql shunchaki gaplashib, o'zini sal chalg'itishni tilardi.

U takya xojasidan choynak so'rab ko'k choyni achchiq damladi-da, bir just piyola ham olib, o'sha mo'ysafidning kulbai xosi tomon yurdi. Hoji otaga tashqarida ikki-uch bora duch kelgan xolos, Javdar og'adan mushtipar otaxonning nimaga, qachondan beri bu takyada go'shanishin o'tirishi sababini so'ragan, lekin aniq javob eshitmagan, faqat birov bilan ko'pam osh-qatiq bo'lavermasligini taxminlagan edi. U salom berib kirganida qariya cho'k tushganicha, mo"jazgina xontaxta ustidagi lavhga qo'yilgan qandaydir kitobni pichirlab o'qish bilan mashg'ul edi. Boshini xiyol ko'tardi-yu, mutolaada davom etaverdi. Beknazar yana "Assalomu alaykum, ota" dedi. Chol kumushrang gardishli, tutqichlari o'rniga ip tortilgan ko'zoynagi ustidanostonada qo'l qovushtirgancha choynak ko'tarib turgan norg'il yigitga ajablanib alik olarkan, lavh yonidagi xatcho'pni paypaslab topib, kitob ichiga soldi, uni

yopib, o'rnidan buralib-suralib turdi-da, quchog'ini ochdi. So'ng enkaygan ko'yи takror-takror "Keling, keling, xush kepsiz" deb g'o'l diraganicha, ostidagi ikki qat yupqa ko'rpachanining bir qavatini yonboshiga, o'zidan yuqori tarafga tortib, mehmonni o'tirishga taklif etdi. Beknazar shundoq poygakka, ro'parada cho'kkaladi. Otaxonning qistovlariga ikki qo'llini ko'ksiga qo'yib, xijolat bo'l mang, yaxshi o'rashdim, deb unamadi. So'ng u bilan hol-ahvol so'rasharkan, atrofga birrov nazar tashladi. Xona torgina edi.

Takya ayvoniga qaragan, to'rtta o'ratcha ko'zdan iborat deraza tokchasida shishasining uch qismi qorayib ketgan lampa (ma'lum bo'l shicha, elektr chiroqni kechalari o'rnidan turib o'chirib-yoqishni daxmaza deb bilarkan), mushtdekkina sopol choynak va bir piyola, bir yon devor tokchada tartibsizroq qalashib yotgan bir necha semiz-yupqa, uzun-qisqa kitob, mezbon tagidagi bir to'shak, bir yostiq bor bisot shundan iborat edi. Eshik biqinidagi devorga qoqilgan mixda cholning bo'yiga mos kaltagina paxtalik qavima to'n, uning ustida ko'k satin joynamoz, ikkinchi tomondagi mixda esa yo'l-yo'l alak dasturxon va sariq sochiq ilig'lik edi.

Hoji otaning boshida qora baxmal do'ppi, egnida bo'g'ma yoqali uzun surrang ko'ylak, yuzi jussasiga mutanosib ixcham, dumaloq,

qorasi kam qolgan soch-soqoli kuzalmagan bo'l shicha qaramay, istarali, lekin qarashlarida umidsizlik yo qarilikka tobelikka o'xshash chuchmal bir ifoda zohir edi.

Norg'uladan tortadilarmi? so'radi chol.

Beknazar angrayibunga qaradi.

Mo'ysafid boshini yarim o'girgan holda o'zidan sal naridagi ko'zasimon, "qorni" dan chiqqan arqonsifat shlang yonida chuvalashib yotgan narsaga chilimga ishora qildi. Shundagina Beknazar o'zining ana shu g'aroyib matohga beixtiyor tikilib qolganini payqadi. Uning yodiga qishloqlaridagi Yetti hovli mahallasi chekkasida, taxminan mana shu otaxonnikicha hujrada yolg'iz o'zi kun kechiradigan, saratonda ham ichiga poxol patak solingan, orqasi yirtiq kattakon kalish, yiltillab ketgan uzun qora to'n kiyib, belini mahkam bog'lab yuradigan qop-qora soqolli chuvakkina chol tushgan edi. Uni Xo'ja bangi deyishardi. Xo'ja ismimi yo laqabimi Beknazar bilmasdi. U nos sotar, Beknazar otasiga nosga borganida ko'pincha poxol ustidan qizil yo'lli eski, laxtak-luxtak sholcha to'shalgan xona o'rtasida ilon o'ynatuvchiday chordana qurgancha, "xur-xur" latib chilim tortib o'tirgan bo'lardi. O'zlari tomonda boshqa bironta chilimkashni uchratmagan. Qashqarda, Azim hojining o'g'li bilan shahar aylangani chiqishganida bozordagi bir choyxona ayvonida davra qurib chilim chekib o'tirganlarni, u zahri qotilni bir-biroviga xuddi tansiq taomni ilinganday yo noyob, nafis mo'jizani taqdim etishayotganday ehtiyyotkorlik va tavoze bilan uzatishayotganini ko'rib, og'zi ochilib qoluvdi. Hozir Beknazar maxsus lavhga qo'yib, astoydil kitob o'qish bilan sassiq tutunni buruqsitib chilim tortmoqliknib bir-biriga uyg'un keltirolmay boshi qotardi. Xuddi dasturxonga asal bilan zahar yonma-yon qo'yilganday. Uning nazidda umuman bangilar ilmu ziyodan, ma'rifatdan yiroq kaslar edi. Nahotki inson hayotida unisining ham, bunisining ham o'rni bo'lsa? Yana, hoji odam... O'shanga toblari qalay deyman? savol takrorlandi.

Yo'q, men chekmayman, ota, dedi Beknazar mezbonning taklifini rad etayotganidan xijolat tortganday xiyol jilmayib.

Chakki qilasiz, lekin, aslida to'g'ri...

Beknazar savol alomati bilan cholga yuzlandi.

Birpas bo'lsayam, dardingizni yengillashtiradi, g'amingizni uzoqlashtiradi, lekin o'rganib qolsangiz, xumorisi yomon.

Beknazar ma'qullab boshini likillatdi.

Xo'sh, keling, yigit. Anchadan beri shu yerdasiz, illo, durustroq gaplashmadik. Qayerdan bo'lasiz? Bu yoqlarga qaysi shamol uchirdi?

Beknazar o'z qissasini qisqacha hikoya qilib berdi.

"Cholga vatandan so'z ochmang" deb ogohlantirishgan edi, ammo yurtidan mosuvo bo'lgan ikki musofir suhbatida bundan o'zga qanday mavzu bo'l shicha mumkin? "Odampi sog'inch qiyarkan, yaqinlaringizdan ayriliq dog'i, darbadarlik yomon ekan", dedi Beknazar so'zi nihoyasida.

Bu hali holvasi, dedi hoji ota kaptar tuxumiday iyagini oldinga chiqarib chuqur so'l shish olarkan va mitti ko'zlarini bir lahma yumib, yana ochdi. Har qanday yara bitadi, illo, vatan jarohati tuzalmaydi uni ko'ngil yig'isidagi namak o'yib, yangilab qo'yaveradi, ichingiz tinmay yig'laydi buni o'zingiz ham har doim sezavermaysiz, bu kuydirgi o'la-o'l guncha azob beradi, yurak-bag'ringizni kundan-kunga nimtalab, ilviratib boraveradi, oxiri sizni adoi tamom qiladi. Yolg'iz bo'lsangiz, o'ligim qaysi yet go'rda qolarkin, keB=yin qabrimdan kim xabar olib, qaysi xesh-aqraboim meni eslarkin, kim haqqi-ruhimga ikki oyat qur'on tilovat qilarkin, degan xavotir ichingizni kalamush kemirganday o'yib tashlaydi. Siz hali yangisiz, yoshsiz, bunaqa tashvish miyangizni egovlamas ehtimol, siz bir aylanib ota makoningizga qaytarsiz, bu bemaqsad tentirab-dovdirashlar alami-achchig'in ko'rmaganday ham bo'lib ketarsiz. Iloyim, shunday bo'lsin. Men benavochi, mana shu kulgada o'limimni kutib yotibman. Mo'ysafid birdan jimib qoldi, saldan so'ng bo'g'iq hiqillagan tovush eshitildi. Uning jag'ini, torgina ko'ksini qoplagan soqoli silkinar, hoji do'ppisining uzun popugi peshonasining o'rtasida tebranardi.

Beknazar, rostdan ham o'sha paytda bu yig'iyu izziroblar ma'nisini to'la anglab yetmagandi, keyinchalik boyaqish qariyaning iyagi, soqoliga qo'shilib bir siqimgina jussasi ham achinarli tarzda titrayotgan bolalarcha holatini ko'p esladi.

U Hoji otaning yoniga avvalo o'zini chirmoviqday o'rab olgan xayollaridan bir oz chalg'ish maqsadida kirgan, vaziyatga qarab boshiga tushgan savdoning bir uchini chiqarmoqchi edi. Mo'ysafidning dardi og'irligini, unga hasrat xaltasini to'kish azaga borgan kampirning o'z zorini aytib yig'lashiday o'rinsizligini tuyib, fikridan qaytdi. Aksincha, bu vatan gadosiga taskin berish zarur edi.

Lekin Hoji ota xo'rsiniqsimon bir ovoz chiqardi-da, Beknazarning tasallisini ham kutmay, diydiyosini davom ettirdi.

Turkistonda vatanimdan boshqa bir yaqinim qolgan-qolmaganini bilmayman, dedi u yaktaksimon ko'yilagining yon cho'ntagidan oq durra olib, uning bir chekkasini ko'rsatkich barmog'i uchiga o'rab, hamon tiyilmagan ko'zyoshlarini artarkan. Ehtimol vatan ham kaminani allaqachon unutib yuborgandir. Ota-onasining og'ir kunida asqotmagan noqobil o'g'ilga o'xshagan vafosiz, oriyatsiz farzandni, boshqalarning o'tda kuyayotganini ko'ra-bila turib, ularga yordam qo'llini cho'zish o'rni, o'z jonini qutqazish maqsadida juftakni rostlab qolgan mardumning kimga nima keragi bor? Menga o'xshagan yuzlab, minglab fuqarosidan ajralsayam vatanning bir mo'yi qimirlab qo'yimasligi mumkin, illo, kishining vatansiz kun ko'rmog'i dushvor ekan. Sizning boshingizga hargiz bu kunlar tushmasin, allohga tavallo qiling, bolam, kechasiyu kunduzi vatanimga qaytar, deb tilang... Hoji ota gapdan to'xtab, boshini egdi-da, birdan yig'i aralash xirgoyi qilishga tushdi.

Jahonda mendayin benavo bormikin,

O'lmayin jonidan mosuvo bormikin...

Noumid bo'l mang, Hoji ota, dedi Beknazar ovozi titrab, uning ham dili vayron bo'la boshlagan edi. Yaratganga oson, bir nafasda dunyoni o'zgartirib yuborishi hech gapmas. Inshollo, ota yurtingizni ko'rish nasib etar. Qarindoshlar ham bordir, hammasi tirqirab ketishmagandir.

Tilingizga shakar, o'g'lim, lekin... qariya yana hiqillay boshladi va bolishi ostini timirskilab mushtdan kattaroq eski, kir tugunchani ohib lavh yoniga qo'ydi-da, silab-silab, q'llarini ko'zlariga surta boshladi. Meni vatanim mana, shu bir siqim tuproq... Qazoim qayerda yetsa, mana shu tuproq bilan birga ko'mishsa, uni lahadda ko'ksimga bosib yotsam... Xudodan o'tinchim, yorug' dunyodan bir ilinjim shu...

X

Beknazaz battar yuragi siqilib, bo'shashib o'z joyiga qaytdi. Kelib-kelib dardini shu odamga aytmoqchi bo'libdi-ya. Hasratidan chiqqan tunut Istanbulni, be, Istanbul nimasi, butun olamni qoraytiraman deydi-ya.

Endi uning ko'zlaridan uyqu yanada uzoqlashgan edi. Arg'uvon butoqlari orasidan milt-milt qilayotgan besanoq yulduzlar ichidan Katta ayiqni, Oltin qoziqni, deyarli bir chiziqdicha joylashgan uchtalik yulduz turkumlarini elas-elas ko'rди. Dunyo shu qadar keng (hali uning oyog'i yetmagan qancha uzoq mamlakatlar bor) bo'lishiga qaramay, osmon juda torday tuyuldi. O'sha yulduzlar ularning hovlisi tepasida, hozirgi o'rirlaridan salgina narida gohida ravshan, gohida xiragina nur taratib turardi. Demak, yulduzlar nihoyatda ulkanligi uchungina emas, doimiy, muqim makonlari borligi uchun hamma jordan ko'rinvaversa kerak. Shundoq haddi-cheagarasi yo'q ochunda har bir odam tug'ilib o'sgan maskanida yashashi zarur. Beknazarga hali vatan qadri uncha o'tmaganga o'xshardi, lekin ota-onasi, opa-singillari, yoru do'stlarini ko'rgisi keldi.

Og'ir-bosiq, mulohaza bilan ish ko'radigan, farzandlariga juda g'amxo'r otajonini o'ylab ketdi. Beknazaz uylanmasidan ilgari ko'chadan kech qaytib, deraza yonidan qancha avaylanib, oyog'ining uchida yurib o'tsa ham, hushyor va sezgir padari buzrukvor "Bek, keldingmi?" deyishini hech kanda qilmasdi. U paytda boshqa hech narsa demas, nonushta ustida "Kechqurun ja kech qaytdingmi?" deb so'rab qo'yardi. Ammo buyurgan vazifasini vaqtida bajarmasa yoki nimagadir undan o'ginib qolsa, bir-ikki kun ochilib gaplashmasdi. Shunda Beknazaz xatosini o'nglashga, biron maqtovli ishi bilan ko'nglidagi kuduratni ko'tarib yuborishga harakat qilardi.

Onasi bir oz talabchanroq va tezroq, o'g'illari yo qizi ko'chada uzoqroq qolib ketsa, yo ertalab kechroq tursa, yo bir yumushni orqaga sursa, darrov qisdi-basdiga ola boshlaydi. Beknazarga esa: "Ishongan farzandimiz sen-ku", deb pisanda qilishni yoqtirardi. Minnat uchun emas, g'ururlanganidan, albatta. Lekin mehribonlikda unga teng keladigani yo'q, juda ilinuvchan, biron to'y-marakadan qaytganida uyda Beknazaz bo'lmasa, unga savatidagi qand-qurs, pishirqlardan, ayniqsa, u yaxshi ko'radigan qatlamanidan olib qo'yishni zinhor unutmasdi. Xullas, onaizorining unga alohida bino qo'ygani sezilib turar, Beknazaz orqavorotdan "Shu o'g'lim o'zimga tortgan" deganini eshitib suyunardi.

Keyin singlisini ko'z oldiga keltirdi musichaday beozor, halim muomalasi, shirin zabonlik bilan odamning jahlini yozib, ko'nglini eritib yuboradigan, so'zga chechan singlisini. O'qigan ertak, qissalarini shunaqa berilib, batafsil gapirib beradiki, eshitgan kishi o'zi to'qiyaptimikin deydi. U bolaligidan kitob jinnisi. "Yoriltosh"ni yod biladi, kim so'rasa ayтиb yig'lataladi. Beknazaz ko'pincha mahalla qizlarini og'ziga qaratib nimanidir hikoya qilayotganini ko'rardi. U sodda, ishonuvchan va ta'sirchan. Beknazaz har xil oldi-qochdi gaplarni, quralay ko'zlarini katta-katta ohib, hayratlanib tinglashidan huzurlanardi. Olimlar yozishibdi, endi qizil qor yog'armish, bundan buyog'iga odamlar sekin-asta maymunga aylanarmish, desa ham chippa-chin ishonib, xafa bo'lar va vahimaga tushib qolardi. Fazilatning ba'zi fe'llari hazilkashligi, yoqimtoyligi unga o'xshab ketadi. Boyaqish Rahima, Xolnazar akasidan ko'ra, Beknazaz bilan yaxshi chiqishardi, endi nima qilyaptiykin?..

Akasining fe'l-atvori sal g'alatiroq: Beknazarni ukam deb ayashni bilmaydi. Bolaligida birontasi bilan mushtlashib qolsa, unga bo'lishish, yonini olish o'rniga, "Kuching yetmasa, nimaga mushtlashasan?", deb o'ziga pishang berardi. Akasining yana bir qiligidan ichi og'rir, lekin indayolmasdi. Ikkalasi tamaddi qilishayotganda Xolnazar non ushatib, yaxshi pishgan bo'lagini o'zining oldiga, kuygan, burishgan qismlarini Beknazaz tarafga qo'yardi. Keyin otasi bilan onasining ukasiga nisbatan ayricharoq munosabatidan g'ashlanayotganga o'xshardi. Mabodo onasi Beknazarni maqtasa, bepisandlik bilan eshitmaganga olar yo ijirg'anib, labini burib o'tirar yo ukasining qiliqlarini, masalan, qaysarligini ayтиb, uning bahosini pasaytirishga urinardi. Lekin Beknazaz baribir hozir akasini ko'rgisi kelganini, uni sog'inganini tuyib bir entikdi.

Uning ko'z oldidan yon qo'shnilarini bir-bir o'ta boshladi. Xotini yuzta gap taxlaganda ham nima deyapsan demay, yonboshlagancha pishillab yotaveradigan Ma'di so'ltamat, saksondan oshib, beli bukchaysayam shudgordan chiqmaydigan Rajab buva, suvolg'ichini Beknazazlar tarafga sekin-sekin, kishi bilmas jildiraveradigan, ha desa, qachondir uy solayotganda qiblasini chiqarish uchun imoratining orqasida, ya'ni Beknazazlar hovlisida qolib ketgan bir suyam qiytiq yerni pisandalab xit qiladigan Nurqo'zi (Beknazazlar uni Surqo'zi deyishardi)... Ammo, ular baribir bolalikdan tanish, tashvishli kunda yugurib chiqishadigan, to'y-to'rkinda izzat yo xizmatdagi odamlar-da...

Xotinini o'ylab ta'bti tirriqlandi. O'zi boshdan ko'ngli chopmovdi, nimaga rozilik berdiykin-a? Umuman, nega uylandi o'zi? Agar hozir bo'ydoq bo'lganida Fazilatga tik qarab, ochiq yuz bilan, hatto, Shohistani ham chetlab o'tib, ko'z ohib yoqtirganim siz, deb dadil aytardi.

Lekin, musofirlikda eng yomoni yolg'izlik ekan. Yurtma-yurt kezib yurgan darbadarda do'st qayoqdan bo'lsin! Sariqul bilan ancha kelishib qolishuvdi, undan ham ajraldi. Iqbol, Muslim... Afsuski, ular olisda. Odam zerikkanda, yuragi siqliganda, quvonchini baham ko'rish yo biron maslahatga, tasalli-daldaga ehtiyoj sezganda do'st zarurligi Beknazarga endi bilinyapti. O'sha, bolalik qadrondlari bilan xayrashmagani unga juda alam qilar, shuni eslasa har gal yuragini bir nima changakdek qisardi.

Qora kanda degan yerdan keladigan shirin, oynaday tiniq buloq suvlarining qadri o'tmoqda edi. Yo'llarda, suvsiz joylarda chanqab, tomog'i qurigan paytlarda: "Qani endi ertaklardagi kabi ko'zingni bir yumsangu, o'zingni ana shu ariq bo'yida ko'rsang", deb ko'p orziqli. Hozir ham u o'sha obihayot ilinjida beixtiyor tamshanib, lablarini chapillatdi. Yo, tavba, arzimagan bir ish tufayli yetti uxbab tushiga kirmagan yurtlarda kezib yuribdiya. Endi bu yoqda boshini yangi savdolarga tiqib oglani ortiqcha. Bu bemavrid oshiqlikning oxiri nima bilan tugarkin? Ishqilib, baxayr bo'lsin-da. Hoji otaday kishi vatanim, yurtim deb yig'lab yuribdi, bu esa... tinchgina o'tirgan odamlarniyam halovatini buzib, ularning diligiga g'ulg'ula solib, ish oshirib o'tiribdi. Ha-da, o'zing qochqin bir darbadarsanu, yaxshi ko'rishga balo bormi?! Yana, uylangan bo'lsang, bir bokira qizni boshini aylantirib, sullohlilik qilyapsan.

Fazilat xotining borligini bilsa, o'laqolsayam senga tegishga ko'nmas. Ishqilib, chuchvarani xom sanab qolmagin-da!.. Ha, qani, tong otsin-chi, ehtimol ertaga masala ancha oydinlashar. Fazilat bilan onasi rosa muhokama qilishsa kerak. Zora, bir jo'yali to'xtamga kelishsa. Onaxonga insof bersin. Boshga tushganini ko'z ko'radi, agar rozichilik bildirishsa, qayda bo'lsayam ishlaydi. Bu yerda endi arra-teshasi ish berarmikin? Bularning tilini yaxshi tushunmasa... Mardikorchilikka ham jon derdi, Qashqarga yetib olgulik pul jamg'arsa, bas. Endi hajga borishiyam gumon...

XI

Qorong'ida omad yo omadsizlik sohiliga olib o'tishi nom'a'lum xilvat, vahimali ko'priksda ketayotganday, yuragini hovuchlab tong ottirdi va yana bir hayajonli kun subhidami bilan yuzlashdi. Yana yulduzlar xiralashgancha bir-bir so'nib, osmon avval muz rangga, keyin oqish tusga, nihoyat niliy gumbazga aylandi. Fazo chindan yorqin edi, lekin afsuski, bu holatga qarab kunning davomini bashorat qilish qiyin, ehtimol tushga yaqin harorat ko'tarilib, havo dim bo'lar?

Beknazar betoqatlana boshladi. Taxminicha Fazilat tushgacha xabar berishi kerak, shungacha daragi bo'lmasa, unda o'zi ularnikiga borishni diliqa tukkan edi. Biroq, sabri uzoqqa chidaydiganga o'xshamasdi. Aksiga olib, takyada Hoji otadan bo'lak kimsa yo'q, bir aylanib kelay desa, yo'g'ida Fazilat kirib qolishi mumkin. U o'zini chalg'itish, vaqt o'tkazish uchun yana samovarga o't qaladi. Garchi ko'ngli yegulik tilamasa-da, oqshom ham hech narsa tatimagani sababli oshqozoni tortishib zorlanmoqda edi. Bisotini kovaldi bir hovuch yong'oq talqoni, mayiz, ozgina qalamcha qilib to'g'ralsan qoq non bor ekan (bularni Sarigul qoldirib ketgan edi), naridan-beri tamaddilandi. Keyin yurdi, yotdi, turdi, aylandi, yana yonboshladi. Ikki ko'zi darvozada edi.

Nihoyat ostonada yuziga chorshaf tutib, tugun ko'targan xotin kishi ko'rindi. Qaddi-qomati va eng asosiy belgisi ko'k libosidan uning aynan o'zi intizorlik bilan kutayotgani ekaniga zarracha shubha qilmagan Beknazar sapchib o'rnidan turdi-da, istiqboliga shoshildi. Dastlab nigohi tushganida ilk ko'klamdag'i sabza maysani eslatgan o'sha chiroylar ko'ylik bugun yashil olov kabi lovullardi. Beknazar ilgarilar ahamiyat bermaganmi, yashil kiyim ayol zotiga bu qadar yarashganini ko'rmagandi. Umuman u yashilning bunchalar yoqimli, jozibador rang ekanligini o'ylamagan ekan. Demak, yashillik parvardigor tomonidan bahor uchun bejiz tanlanmagan ekan, chunki u ranglar podshosi ekan, degan xulosaga keldi. Lekin Fazilatning qadam bosishi sustroq tuyldi. Beknazar qizning qo'lidan tugunni olib shundoq yerga qo'ydi-da, ro'molini qayirmoqchi bo'ldi.

Hay-hay, nima qilyapsiz, nomahram kishi? dedi Fazilat o'zini bir yonga tortib.

Yuzingizni oching, bir ko'ray, dedi hazildan jonlangan yigit qizning bilagidan tutib.

Meni sharmanda qilmoqchimisiz? Fazilat gapi ohangi dag'alroq chiqqanimi sezib bir lahma tindi va mayinroq tovushda qo'shimcha qildi. Ko'rgansiz-ku, o'sha-da.

Qo'rqmang, takkada mendan boshqa mushuk ham yo'q.

Mushuk birpasda devordanmi, tomdanmi sakrab tushishi mumkin.

Sakrab tushmaydi, uzoqqa haydab yuborganman.

Fazilat sal bo'shashdi.

Xo'p, yuzimni ochish uchun qo'limni bo'shatasizmi? U gulgun jamolini pana qilib turgan qora harir chorshafni qayirib, boshiga tashladi. Beknazar qizning ko'zlariga astoydil tikilib, so'roqqa chog'landi-yu, dilidagi gaplarning muhimrog'ini avval tilga chiqarishni afzal ko'rdi.

O'sha deysiz-a...

Voy, o'zgarib qoptimi, nima qipti? shosha-pisha so'radi qiz yigitning so'zini bo'lib.

Yanayam chiroylar bo'p ketibdiyu...

E-e, bu kishining topgan gapini...

Beknazar andak bachkanalashganini payqab, jiddiy tortdi.

Xo'p, onangiz meni to'g'rimda nima dedi?

Yomon yigitga o'xshamaydi, lekin odam olasi ichida dedi.

Siz nima dedingiz?

Hech narsa, yelkasini qoqdi Fazilat. Nima deyishim kerak edi?

Sal maqtab qo'y madingizmi?

Maqtashga loyiq bir ish qildingizmi o'zi?

Beknazarning tarang tortgan tomirlari yozilib yumshadi. Fazilat hazil-huzulga o'tdiki, demak, vaziyat u qadar xavfli emas.

Tezroq asosiy gapni aytib ko'nglimni tinchiting, go'zalim.

Hay-hay, maqtoq ilinjida tillariga ortiqcha erk bervormayaptilarmi, afandim?

"Afandim" iborasini uning jig'iga tegish uchun aytganini anglagan Beknazar boz dadillandi.

Kechasi bilan o'ylab, sizni ta'riflashga bundan munosibroq so'z topolmadim. Agar turklarda a'loroq so'z bo'lsa, o'zingiz yordam bervoring, xonim afandim.

Sizga meni maqtang deb iltimos qilmadim shekilli, bey afandim.

Ko'nglingizga qanday yo'l topishni bilmayapman-da.

Qizlar xushomadga laqqa tushadi deb o'ylaysiz-da, a? Bu eski usul.

Turkiyada shundaydir, bizda hali unchalik emas.

Ko'cha ko'rganman, tajribam yetarli demoqchisiz-da...

Beknazarning yuragi "shig'" etdi. Nimaga shama qilyapti bu shayton qiz, biron narsanining isini payqamadimikin ishqilib... Yo'g'-e, uning nomai a'molini qayerdan, kimdan ham eshitardi. Yo onasi o'zicha tusmollab bir nimalar dedimikin?..

Har qalay, bu "nomai a'mol"ni hozircha Fazilat bilmay turgani durust, lekin keyin meni aldabsiz deb qattiq ranjisa-chi?

Ishonchimni poymol etdi deb o'ylasa-chi? Ha, yo'q, u gaplarga hali uzoq, podadan oldin chang ko'tarishning nima keragi bor?

Mavridi kelganda yotig'i bilan tushuntirar. Axir u xotini bilan biron kun ham ko'ngildan hamsuhbat bo'lgani yo'q-ku, buni

Rashidaning o'ziyam tasdiqlashi mumkin. Har holda, gapni chuvalashtirib o'tirishning hojati yo'q, degan fikrda edi Beknazar. Shu tariqa u sirlarning hammasini oshkor etmaslik bobida Fazilat oldidagi "qarz"idan uzildi. Albatta, ikkisi ham faqat yaxshi niyatda shundoq yo'l tutishdi tabiiyki, hamma ham o'zi hurmat qilgan yo hali u qadar ishonchini qozonmagan kimsaga yoqimli, beg'ubor ko'ringisi keladi. Axir, tuyani yutib, dumini ko'rsatmasdan o'tib ketadiganlar qancha! Umuman, xotini yo eri yoki boshqa bir yaqin kishisidan maxfiy tutgulik a'moli yo'q kasning o'zi bormikin bu yorug' jahonda? Beknazar shu birgina xijolatchiligin vaqtincha xufiya saqlab tursa zarar qilmas. Axir hadislarda ham oilaviy ishda o'zaro murosa uchun yolg'on gapisish mumkin deyilgan-ku. Boshqa yoqqa ketib qolyapsiz, Fazilat xonim, dedi Beknazar o'zini jiddiylikka olib.

Nima to'g'rida so'yashiyatuvdik o'zi?

Asosiy gap...

U nima gap edi?

Onangizga aytgan takliflarim...

Qiz kulib yubordi. Uning kulgidan nurlanib, ichi yorishib ketgan ko'zlar shaffof yuzasi oy shu'lasidan jivirlayotgan chashmani

eslatar, unga qaragan nigohning tashnaligi ortardi.

Esim qursin, asli men sizdan bir narsani bilgani keluvdim. Onam so'ra-chi, bugun jo'naymizmikin yo ertagamikin deyatuvdni. U kishi yo'lga chiqaveradigan bo'lgan, orqasidan yetib olishimizni tayinlagan demabsiz-da... Odamning ustidan bunaqa kulish yo'q-da, go'zal xonim afandim.

Siz aytganday, bu so'z bilan ham "afandi" uncha kelishmaydi.

Yana gapni buryapsiz...

Menmas, gapning o'zi burilib ketsa, nima qilay.

Sabrimni sinab ko'rmoqchi bo'lsangiz, buni boshqa safarga qoldirsak, avval mening hayotim uchun juda muhim narsani bilvolsak...

Men uchun uncha muhim emasmi? dedi Fazilat qosh chimirib.

Mening hayotim deganda siznikiniyam nazarda tutyapman-da, yaxshi qiz.

E, uzr, afandim, ikkalamizning hayotimiz qo'shilib ketganidan g'aflatda qopman.

Fazilat yana chorshafini apil-tapil pastga tortdi. Yopinchiq ko'tarilganda tuman chekinib, xira olam yorishib ketganday, tushirilsa, atrofni boz qorong'ilik chulg'aganday tuyulardi Beknazarga. U uf tortdi.

Chodrangiz odamni diqqinamas qilib yuborarkan.

Sabrga o'rganasiz, dedi qiz ovozini pastlatib, sabrga...

Darvozadan ikki qo'lida xalta ko'targan Javdar og'a bilan yarashimli engil va turkcha to'ntarilgan paqirchasimon, jigarang fas kiygan o'rta bo'yli, oltmis yoshlardagi sinchkov nigohlisi kishi kirib kelganida ular hamon yo'lak o'rtasida "muzokara" qilishayotgan edi. Fazilat shoshib chetlandi. Garchi, chorshafda bo'lsa-da, Fazilat har nechuk endi bu yerda g'alat tarzda turish nojoozligini tuyib, ohistagina "Sog' bo'ling, og'a" dedi-da, tashqariga intildi. Beknazar tiqilinchda onasini yo'qotib qo'yishdan qo'rqiб izma-iz, qadamini shig'ab borayotgan bolakay kabi qiz ortidan lo'killadi. Fazilat xuddi arazlagan nozli yor singari tobora ildamlardi. Beknazar sekin-sekin "Fazilat, Fazilat" deb chaqirar, yashindan qochayotganday orqa-oldiga qaramay chopayotgan qizning etaklari hilpirab, tovlanib borayotgan uzun yashil shoyi ko'yagli ko'ziga chindan-da alangaga o'xshab ko'rinar, yaqinlashsa, kuydiradiganday tuyulardi. U Fazilatga yetib olib, yelkasidan tutib to'xtatishni mo'ljallasa-da, katta ko'chadaliklarini o'ylab ikkilanardi. Lekin uzun oyoqlarini atayin mayda tashlab lapanglashi birovni po'pisa uchun quvalayotganday kulgili ko'rinyayotganidan bexabar edi.

Nihoyat, Fazilat keskin to'xtab, orqasiga o'girildi.

Nimaga halloslab kelyapsiz? Ko'rganlar nima deydi? Bu qiz anavi musofirning bir narsasini o'g'irlab qochibdi shekilli deb o'yplashmaydimi, Bek aka?!

O'zingiz namuncha yugurasiz bo'lmasa?

Haliyi kishi otamning og'aynisining tanishi.

Nima qipti?

Nima qipti deydi... Qayting, hali o'zim kelaman. Yo'q, yaxshisi, ertaga Sulton Ahmadda ko'risha qolamiz... Fazilat shunday deb yana shitob yurib ketdi.

Qiz "oq qorning tagiga..." desa ham Beknazar uchib borishga tayyor edi, faqat "ertaga" degan so'z ta'bini xira qildi. Ho'x-ho', qachon kech kirib, qachon tong otadi. "Bugun-chi?" degan so'roq bo'g'zida qoldi Fazilat sehrli malakday allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Yana, uchrashuvning vaqtisi-soati ham belgilanmadni. Aytmadimi, demak, shunaqa mahaldir-da, o'yaldi Beknazar. Tarvuzi qo'lting'idan tushib, takyaga kirdi. Javdar og'a bilan "anovi" kimsa hovli to'ridagi chorpoyada gurunglashardi. Yarashiqisiz qilig'idan, ayol kishining ortidan bo'taloqday elchiganidan endi xijolat tortdi va tez-tez yurib, hojatxonaga o'tdi. U yerda uzoq o'tirdi. "Shubhali" kishining daf bo'lishini kutib, oynali tuynukdan qarab qo'yari, nazarida mehmon ham uni poylayotganday, shu yoqqa tez-tez nazar tashlardi. Toqati toq bo'lgan Beknazar sharutta chiqdi-da, cho'nqaygancha ko'radagi suvda tahorat oldiyu, oq durrasiga artinganicha, hech qayoqqa qaramay, tashqariga shoshildi. Ko'chada Fazilatlar tarafga bir lahma qarab ikkilanib turgach, qarama-qarshi tomonga yurdi.

## XII

Beknazar qaytib kelganida takya egalari ko'chib ketgan hovliday huvillab yotardi. Xizmatchi tag'in qayoqqa gumdon bo'lidiykin? Hoji ota ham yotib, kitob o'qib zerikmaydigan alomat chol ekan-da... Hovlida ko'rinsa, birpas gaplashardi. Yana oldiga kirishga iymandi, uzoq vaqt yolg'iz yashagan kishi odam yoqtirmaydigan bo'lib qoladi, deya ko'nglidan o'tkazdi.

Boz kunni kechiktirish g'ami tushdi. Sheriklaridan so'ng Beknazar o'rin-ko'rpusini kunduzi ichkari xonaga ko'chirib, kechasi dam bo'lgani uchun yana tashqariga chiqib yotardi. Arg'uvon osti so'lim va bahavo edi. Ayniqsa, tong-saharda shimol yoqdagi daraxtzordan taraladigan qushlar navosiga qulqoq tutib, o'sha tarafdan esadigan Marmar dengizining namxush epkinidan siynasi yayrab, xayollarga berilish huzurli edi. Uning qadroniga aylangan, har kuni qariyb bir vaqtida arg'uvon shoxida paydo bo'ladiyan musicadan kattaroq bir qoraqush shoshilmay, og'ir-bosiqlik bilan uzoq sayrardi. Parranda, garchi shundoq boshi tepasida, ovozi juda tiniq esa-da, negadir olis-olislarda kuylayotganday, xonishi qandaydir g'am-anduhga qorishiqday mahzun eshitilardi. Nega u doim yolg'iz yurarkin, jufti yo'qmikin, deb o'yldardi Beknazar. Balki, tovushidagi mungning sababi shundandir... Bu hazin nolani tinglaganida negadir hovvilari orqasidan o'tadigan, yalpiz atri anqib turadigan ariq bo'yida nozik kaftlari bilan zilol suvni sochib-o'ynab, tush aytayotganday shikastahol o'tirgan singlisi ko'z oldiga kelardi. Boshini choyshabga burkadi, lekin bir necha daqiqadayoq nafasi qaytib to'lg'ondi, yuzini ochib yubordi. Bir zumda uni zulmat qa'rige tortib ketadigan uyqular qayoqqa ketdiykin-a?.. U chuqur xayollar girdobiga sho'ng'idi. Endi u shu bebosh va betizgin asov to'lqinlar orasida bir umr quloch otib yurmoqqa tayyor va qodirday his etardi o'zini.

Beknazar Layli bilan Majnun, Farhodu Shirin to'g'risidagi dostonlarni, sevishganlar haqidagi bo'lak kitoblarni o'qiganda, "Tohir va Zuhra" kabi kinolarni ko'rganda muhabbatning sehriga, odamga gohida azob, gohida huzur-halovat bag'ishlashiga qoyil qolardi. Illo, bu g'aroyib mo"jizaning shunchalar mastu mustamand, beorom va betoqat qilishini, sabrdangina emas, iroda, ixtiyoridan ham begona aylashi mumkinligini o'ylamagan edi. Yana, muhabbat qissalarida (bunaqa, qissalar u paytlar hali uncha ko'pmas edi) xushtorning ko'kragini zaxga berib yotishi borasidagi gapni o'qisa, "Yozuvchilar ham ja-a oshirvorishadi-da, ko'kragini zaxga berib o'tiradimi, bir yo'la o'zini biron baland qoyadan qahramonlarcha tashlamaydimi", derdi piching qilib. Mana, menam yaxshi ko'rganman, lekin o'zimni tuta oldim-ku, yana men juda yosh edim. Mana, yuribman-ku, chidasa bo'larkanu. Ha, endi, u kalondimog' mahvash ko'ngil bermasa, etagiga osilib oladimi, erkaklik g'ururini poymol qilib... derdi g'ashi kelib. Endi bilyaptiki,

bekorga "oshig'u beqarorlik" deyilmas ekan, bu tuyg'u odamni, ayniqsa uning ichini, yuragini beomon qizita boshlaganida, bu kuchli harorat taftini pasaytirish chorasi topolmay qolar ekan.

\* \* \*

Beknazar Andijondan O'shgacha olib kelgan aravakashni esladi. Uydan chiqib ketgan kuni u shaharning chekkarog'idagi choyxonalarda amallab vaqt o'tkazdi-da, O'shga qatnaydigan ulovlar bekatiga borib, ot aravaga o'tirdi. Mashina yo'q, ko'ngli besaranjom, tezroq Andijondan jilib yuborishi zarur. Qorong'ida aravakashning yuzi uncha ko'rinnasdi, to'g'rirog'i uni yaxshiroq ko'rib qo'yish xayoliga ham kelmasdi. Har holda u kattaroq yoshdagi, o'rtta bo'yli, lo'li bashara, siyrak qora mo'ylovli qotmagina kishi bo'lib, darveshlarni eslatardi. Qasmog'i chiqqan to'rt gulli do'ppini peshonasining bir tomoniga dol qo'ndirib (go'yo o'zicha chapaninamo qiyofaga kirib), girdidan chorsini chambarak qilib bog'lagan edi.

Yo'lga tushishganda uzoq-yaqindan itlarning uzun-kalta hurishi, qarisifat qirB-chang'i biyaning har zamonda kalta pishqirib, yo'talib qo'yishini, yog'siragan tegarchikning g'ichirlashimi hisobga olmaganda tun ancha osoyishta, xiyla ichkaridagi qishloq hovlilarida miltillagan chiroq shu'lalari elas-elas ko'zga tashlanardi.

Beknazarning ko'zlaridan asli uyqu yiroq bo'lsa-da, boshqa yo'lovchilar qatori o'zini mudraganga solib, tebranib ketardi. Bir payt qulog'iga g'alati bir xonish kirdi. Tinglab, bu kutilmagan "hofiz" aravakash ekanligini bilgach, yana qimtinib oldi. Avvaliga ashula mazmuniga uncha e'tibor bermadi, u hamon dardi-tashvishi bilan andarmon edi. Shikasta nola yuragini chimillatayotganini payqagach, hamma narsani unutib, yanada astoydil tinglay boshladи. Qo'shiq hech tugamasdi. Yo'lning chaqir toshli joylarida g'ildirak g'itir-g'itir qilib, xonishning avjini buzzardi, xolos (sirasini aytganda qo'shiqning avji ham yo'q edi), boshqa mahal nag'ma bir maromda davom etardi. Beknazar bir xil so'zlar qayta-qayta takrorlanayotganini angladi. Shundan so'ng "na-na-nay"simon xonishdan zerikib, yuragi qisildi. Aravada undan tashqari uch-to'rt katta-kichik yo'lovchi (oralarida erkak to'n yopinib, g'ujanak bo'lib o'tirgan qizmi, ayolmi ham) bor edi, ammo hech kim miq etmas, hamma qo'nishganicha aravaning siltashiga hamohang silkinib borardi.

Bundan boshqa ashula yo'qmi, tog'a, bir xil plastinkangiz odamni ja-a ezbordi-yu, dedi oxiri Beknazar chidamay, "pauza"ni poylab turib.

Bu yorug' dunyoda asil qo'shiqning o'zi shu, ukam, dedi kirakash izzat-nafsi og'riganday. Biroq bu "og'riq" tezda o'tib ketdi shekilli, bir oz jim ketgach, endi yana ham astaroq g'ing'irlashga tushdi.

Xullas, o'shanda Beknazarning xiyla ensasi qotgan, lekin "Kimning aravasiga tushsang, o'shaning ashulasini aytasan" ("eshitasan" deyish kerak ekan degandi u ichida) maqolini eslab, tishini tishiga qo'yib kelgan.

Qayta-qayta eshitaverghanidan mug'anniying nolai afg'oni xotirasining qat-qatiga o'rnashib qolgan ekan, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, xirgoyining so'zлari xayoliga marjonday tizilib kela boshladи. Qo'shiq matni aslida bor-yo'g'i o'n qatorgina edi.

Bu dunyo notugaldir,

Taqdir ipi chigaldir.

Chigallikning chorasi

Qalamqosh bir go'zaldir.

Go'zallarda vafo yo'q,

Chin oshiqqa safo yo'q.

Bu ko'p ko'hna masaldir

Umr yo'qli, jafo yo'q.

Ishq dardiga davo yo'q,

Bundan o'zga navo yo'q.

Qo'shiq ma'nosini Beknazar endi to'laroq anglab yetdi. Lekin o'shanda aravakashning nega boshqa ashulalarni puchakka chiqarganini mushohada ham qilib o'tirmagandi. Ha, aslida u shunchaki ishq nag'masi emas, haqiqiy oshiq nolasi, kuygan ko'ngil ohi-zori ekan. Bechora devona, sho'riga sho'rva to'kilgan darvesh!.. U ham boshidan ko'p mushkul sinoatlarni kechirgan shekilla. Bu ishq balosi podshohdan ham istihola qilmaganiday, notavon g'arib rahmini yeb o'tirmaydigan savdo ekan.

Ana shunday xayollar u yoqdan-bu yoqqa shafqatsizlik bilan otayotgan pallalarda Beknazar Fazilatlarnikida aynan o'sha mavzuda munozara borayotghanidan bexabar edi.

### XIII

Takyada savdogar tog'aning tanishini ko'rishi bilan qizning ko'ngliga hech kutilmagan qo'rquv, vahima tushdi. Otasi vafotidan keyin so'na boshlagan yurtni ko'rish istagi Beknazarni uchratgach, qishdan chiqib jonlangan darranda kabi yana g'imirlab, tinchi buzilgan edi. Bungacha u o'zi sezmagan, o'ylamagan holda taqdirga tan bera boshlagan, bepoyon dengizda mo'ljalni yo'qotib, o'zini o'lik oqim ixtiyoriga topshirgan qayiqchi singari, umrining davomi qanday kechishini deyarli o'ylamay qo'ygan edi. Avvaliga u Beknazarning niyati, oh-vohlarini ham shunchaki o'tkinchi havas, orqa-keti o'ylanmay aytileyotgan puch va'dalar emasmikin deb xayolladi. Yigit rejalarining ro'yogba chiqmog'i mushkulday, umuman iloji yo'qday tuyular, qolaversa, uzundan-uzoq, yurtma-yurt kezilgan yo'llar, qiyinchiliklarni, ayniqsa, Jayxun daryosidan o'tishdagi xavfu xatarni o'ylasa vahimaga tushib bezillar, bir qarorga kela olmasdi. Onasining bir kumi: "Otangning anovi og'aynisi Zaynulla afandi seni o'g'liga mo'ljallayapti chog'i, so'zlaridan sal sezib qoldim", degandan keyin Fazilat ham o'zicha savdogar tog'aning ko'z ostidan bunga sinchkov nazar tashlashlari, uning arzandası Ziynatbekning esa g'alatiyoq, qiz bolaning yuragini jig'ilatib, hadiklantiradigan qarashlari mag'zini chaqqan (uning oldida chorshaf yopinmasdi), lekin bu borada qayta gap qo'zg'almagani uchun guminni unutib ham yuboruvdi. Boyagi odamni ko'rdi-yu, negadir o'sha gap yodiga tushdi. Agar otasi ham, o'g'li ham rostdan shu niyatda bo'lsa, ular ra'yini qaytarish qiyin... Unda ilalabad shu yerda qolib ketishlari aniq.

Shaharning Fazilatlar yashaydigan mavzei nisbatan tinch, osoyishta edi, qolaversa, taqdir Sharifa opa bilan qizni har xil sinovlardan o'tkazib, har qanday qiyinchilikka ham moslashtirib, ko'nikuvchan qilib qo'ygan edi. Zaynulla tog'a safarlarga ketganida uning zavjasni va o'g'li ba'zi-ba'zida Fazilatlardan xabar olish uchun ularnikiga tashrif buyurib turishardi. Fiybatchiroq va ziqnaroq ko'rinaldigan La'li opani Fazilat uncha xush ko'rmasdi. Lekin Sharifa opa qiziga og'ir bo'lishni maslahat berardi. Har qalay, ular dalda edilar-da. Erkagi yo'q xonodon ayollariga oson emas. Sharifa opa Fazilatni takyadan o'zga joyga deyarli yubormas, zarurat yuzasidan do'kon yo guzarga o'zi chiqar, doim darvozani ichidan berkitib ol, deya tayinlagani-tayinlagan edi. Boshqa mahal ham eshikni mahkam yopib o'tirishardi. Ilgarilari Ismoil aka uyda kam bo'lsa-da, har holda ko'ngillari to'q va

ishonch bilan yashashardi. Qiblagohsiz xojasizlikdagi kunlар nihoyatda uzoq tuyulardи. Kun-tunning odatdan tashqari cho'zilib, vaqt o'tishining qiyinlashuvi aksariyat hollarda umidsizlik, istiqbolga ishonchhsizlikdan dalolat beradi. Ona bilan qiz hech kimni kutishmasdi, biron yoqqa borishni mo'ljallashmasdi. Ziynatbey o'zi yo onasi ikkovi qadam ranjida qilishganda, nima bo'lsayam, Fazilatlar hovlisida sal jonlanish yuzaga kelardi.

Ziynatbey degani oq yuzli, bo'y Beknazarnikidan pastroq, semiz-to'laligi kelishgan degan ta'rifga bir oz halal bersa-da, istarali, har holda birov ayb topmaguday edi. Rangini aniq ajratish mahol bo'lgan ko'zlar yirik-yirik, qarashlari o'tkir, mehrli. Lekin... Fazilatning otasi "baribir bir kuni qaytamiz" degani-degan edi...

Endi uning qabrini tashlab qayga ketamiz, kim bizni o'z panohiga, qanoti ostiga oladi, deb ko'zyosh to'kardi Sharifa opa. Otaning yo'qligi ko'p bilindi, uni eslab ezilishardi. Ayol kishini ojiza deb bekorga aytishmas ekan. Agar Fazilatning o'nida o'g'il bo'lsa, balki otasini katta do'xtirlarga ko'rsatarmidi, chet ellarga olib borib davolatib kelarmidi?.. Pushti panohlari bo'lganda kimga tegsayam, qayerda yashasayam mayli edi. Endi bu yot o'lkalarda umrbod qolgandan ko'ra, qiyinalishsayam, sarson bo'lishsayam o'zlar tomona ketishgani yaxshiydi. Shuning uchun, Zaynulla tog'alar oshkora og'iz solmay turib, Beknazar akaning taklifiga rozilik bildirish, bunga onasini ham bir amallab ko'ndirish kerakmikin? Axir u ham kelishimli, gap-so'zi joyida ekan, onasigayam ma'qul ko'rindi-ku. Yoqtirishi ham rostga o'xshaydi. Uning astoydilligiga imoni komil bo'lsa, onasi ham yo'q demas. Otasining qabri bu yerda qolsa, na chora, kimlarning qabri qayerlarda qolmaydi. Agar... agar bir kun onasining ham ko'zi yumilsa... (Fazilatning azoi badani uyushgandek chimilladi)... Unda tamom, tug'ilgan makoni, urug'-aymog'in bir bora ko'rish umidi ham chippakka chiqadi! Intilsang-u, intilganingga yetolmasang, bu qo'ling kalta, oyog'ing shol, tiling ojiz, ko'zing ko'r yashaganday gap-ku. Yo'q, onasini bir amallab unatish kerak. Beknazar aka bir oila bo'lvolamiz, deb onasiniyam birga olib ketishga shama qildi-ku. Bunaqasi yana uchraydimi, yo'qmi? Eng muhimi... eng muhimi o'zining ham ko'ngli chopib turibdi. Bir yigit shunchalik bo'lar-da, qaytaga taqdir u bilan uchrashhtirganidan mammun bo'lishlari kerak.

Fazilat chorpoyada peshin namozini o'qiyotgan onasi ibodatni tugatishi bilan yoniga bordi, ikkala qo'li panjalarini bir-biriga kirishтирив, uning yelkasiga qo'ydi-da, og'irligini solmay, erkalanganday surkalarkan, chala suhbatlarini yana davom ettirish niyatida hazil bir ohangda so'z qotdi.

Hozir-ku ikkalamiz bir-birimizga suyanib, bir-birimizni yupatib yuribmiz, bittamizning boshimiz yostiqqa tekkuday bo'lsa... u meni nazarda tutyapti deb o'ylamayaptimikin, deb, onasining ko'zlariga xavotir bilan qarab qo'ydi. Qachongacha qoni qo'shilmaydigan begonalar ko'ziga mo'ltilaymiz, onajon?

Sharifa opa gap nima haqda borayotganini hamdard qalbi, taqdirdoshlik tuyg'usi bilan anglab turardi. Rost aytadi, ko'nglidan o'tkazdi u, yosh bo'lsayam, musofirchilik ko'rdi-da, gaplari butun, ko'p narsaga aqli yetadi. Baxtiga, yaxshiyam shu qizning borligi, xudodan aylansin, u bo'lmasa, bir o'zi qayerga sig'ardi?.. U o'ziniyu qizining hozirgi turmushlarini, yaqin va uzoq kelajakdagи taqdirlarini kechasiyu kunduzi o'ylagani-o'ylagan, ichidan ezelgani-ezilgan edi, faqat buni mumkin qadar Fazilatga sezdirmas, aksincha, xotirjam, beparvo ko'rinish payida bo'lardi. Ba'zan yarim tunlarda uyg'onib ketib, qaytiб mijja qoqolmaydi. Bo'y yetgan qiz bilan o'zga elda yolg'iz yashash turgan-bitgani tashvish, hadik edi. Oyog'inining uchida yurganday yuradi, shitir etgan tovushdan cho'chiydi, darvoza bexos taqillasa bir irg'ib tushadi. Sal ilgariroq joy so'rab keladigan musofirlardan, hovli gavjumroq bo'ladi, ham harna uch-to'rt so'm ro'zg'orga yordam deb, vaqtinchalik ijarchilar qo'yib ko'rishgandi. Onaning o'zi tortinib qoldi xuddi birovnika qo'shni turganday. Bunisiyam mayliydi, bir safar xotinli kattagina kishi g'alati qarash qilaverib zeriktirdi, keng yo'lakdan turtilib o'tadimi-ey... Qarasa, bo'lmaydigan, tezda dumini tuguvdi. Keyingi gal ikkita qo'noqning biri ko'rinishidan qo'y og'zidan cho'p olmagan, odamning betiga tik qarashga uyaladigan yoshgina go'rso'xta bir kun tunab, ertasiga: "Opa, kechalari zerikmaysizlarmi?..." deb gapni indalloSIDAN boshlasa bo'ladi, kesakdan o't chiqqanday. Opaning og'zi ochilib qoldi. Bir-ikki Fazilatga ham o'g'rinch aazar tashlaganini sezuvdiyu, uncha e'tibor bermagandi. O'sha paytdayoq unga takyaning yo'lini ko'rsatib qo'ydi. Shu-shu yoshniyam, keksaniyam yaqinlashtirmaydi. Och qornim, tinch qulog'im. Erkak kishi xo'rozday gap ekan makiyon ko'rdi deguncha payiga tusharkan... Cho'loqmi, bukrimi, ering bo'lsin ekan...

\*\*\*

Fazilatning boshiga yana har xil savdolar yog'ilmasligi uchun uni uzatishda adashmaslik, bu borada yetti o'lchab bir kesish, eng zaruri o'zidan uzoqlashtirmsligi lozim edi.

Ona xayolan bir kesak bilan ikkita emas, birdaniga uchta quyonni o'lja tushirmoqni bo'lajak kuyovning Fazilatga munosib, har jihatdan maqbul va marg'ub chiqmog'in, erining ruhi shod bo'lmg'ini hamda o'zining sahrodagi yakka qayrag'ochday shumtirab qolmasligini orzu qilardi. "Xudo xohlasa, albatta shunday bo'ladi, mana ko'rasiz", deya Fazilat rag'batlantirishga urinardi. Ammo opaga xohishlarining to'kis ushalishi ehtimoldan juda yiroq tuyulardи, shu bois Beknazarning olsislardan, boz ustiga aynan o'z muzofotlaridan kelib, ularning mahallasidagi takyada to'xtashi, Fazilatni bir ko'ribq yoqtirib qolishini allohning inoyatimikin deb, yigitning xonardoniga kirishiga rozilik bildirgan va u bilan suhbat asnosida ko'nglida umid uchqunlagan edi. Faqat dildagi g'ulg'ulani sirtga chiqarishdan tiyilib turardi. U kechadan beri Beknazarning gaplarini taroziga solib, o'ylab o'yining tagiga yetolmasdi, ikkilanardi. Shoshgan odam adashib, aldanib qolishi mumkin. Fazilatning yuziga sinovchan tikildi.

Sen u yigitning va'dalariga ishonyapsanmi, qizim?

Tuzuk odamday ko'rinyaptiyu. Biz qatori ancha mashaqqat tortibdi, aldamas...

Baribir sinalmagan ot-da, qizim.

Qaydam, tepadigan otga o'xshamaydi.

Xo'p, mayli, lekin O'zbekiston Rossiyaning qo'lida qaram. O'zing ko'rib, bilib turibsan, hamma undan bezigan. O'zi qochib, boshpана istab yurgan odam, bizni boshqa yoqqa olib ketsa bilmadim-u, yurtga qaytolmasa kerak. Borgan taqdirimizdayam u yerda bizni kim taniydi, sen qanday yashaysan? To'g'ri, kindik qoning o'sha yodqa to'kilgan, qon tortadi, lekin...

Boshga tushganini ko'z ko'rар, aya, shunchasiga chidab kelyapmizu... Har holda, ota vatanimizni ko'ramizu...

Rozi bo'laveraylik demoqchimisan? yana o'smoqchiladi ona.

Fazilat yelka qisdi.

Otangning qabri-chi? Uning arvohi chirqiramaydimikin, bolam?

Savol ohangi mayinroq, ona ham kalavani uzb qo'ymaslik ehtiyyotida ekanligi ayon edi. Faqat u uzoq yillar bir yostiqqa bosh qo'ygan tanmahram hamda volida, shuningdek, katta sifatida yoshlар uncha e'tibor qilmaydigan, ammo keyinchalik armon bo'ladi, muammoni eslatib, ta'kidlab qo'yishni burchi hisoblardi. Vaqtlar kelib ta'na-malomatga qolishi mumkin-da. Har qalay, u asil ona emas, Fazilatning: "o'zimniki bo'lganida..." deya alam-afsus chekmasligiga kafolat berish qiyin, garchi u eriga "o'gay"

bo'lmasa-da...

O'tganlar ruhi yaqinlari atrofida yuradi deyishadi-ku, dedi Fazilat sekingina.

"Voy qizi tushmagur-ey, bunaqa gaplarni qayerdan o'rgandiyykin?.." o'yldi ona.

Bu kunlarimiz ham holva bo'lib qolmasmikin deb qo'rqaman-da. Bu yergacha qanday yetib kelganimizni o'ylasam, vahimaga tushaman... Beknazar degan Qashqarni gapiryapti, u shaharda bizning qarindoshimiz yo bir tutqumiz bo'lmasa...

Yaqin tanishlarim bor deyapti, erkak kishiku, so'zining uddasidan chiqishiga ko'zi yetib gapiryatgandir... Baribir musofir bo'lganimizdan keyin, bu yerda yashadik nimayu, Qashqarda yashadik nima?.. Yana bunday... imkoniyat tug'iladimi, yo'qmi... Mana shuncha paytdan beri birovdan bunaqa taklif eshitmovdik. Eng muhimi, siz bilan birga bo'lamic. Axir o'zingiz ham yurtga qaytishni ko'p gapisardingiz-ku... Otam ham...

Senga ma'qulmi o'zi, bu yigit? ta'kidlab so'radi ona.

Qaydam... Qiz yuzini onasining ko'ksiga yashirdi.

Musibat keyingi ikki yil mobaynida Sharifa opa bilan Fazilatni bir-biriga yanada yaqinlashtirib, mehribonlashtirib qo'yan edi. Qiz yuragini tub-tubida mudom g'imirlab, shashtini qaytarib kelgan "ming qilsayam, baribir o'z onam emas" degan o'jar tuyg'u uni butunlay tark etdi. Endi ular o'zlarini haqiqiy ona-boladan ham ko'ra opa-singilday, ba'zida hatto hamroz dugonalarday tutishardi. Aksariyat, onasining pinjiga tiqilib olgan qo'zichoqday Sharifa opaning ko'ksi bilan yelkasi oralig'iga, goho shundoq yuragi ustiga bosh qo'yanicha uqlab tong ottirardi Fazilat. Ayrim kechalari esa allamahalgacha dardlashib, bir-biriga taskin berib yotishar, birga kulib, birga ko'yzosh to'kishardi. Holbuki, endi Sharifa opa Fazilatga ham ona, ham ota edi.

Ha, shayton, maslahatni pishirib, gapni bir joyga qo'yib bo'ldilaringmi? Aytdim-a, takka desa peshonasi tirishadigan qiz o'sha yoqqa tanda qo'yib qoldi deb.

Men hali unga chuchuk so'zimni berganim yo'q, ayajon, o'lay agar, uyam "sizni yoqtirib qoldim" dedi, xolos.

Shu bitta gapiga laqqa tushib, taqdirimizni uning ixtiyoriga topshiraveramizmi? Sen-ku, sen... Men unga ortiqcha yuk bo'lib... Qiziq ustida osmondag'i oyni va'da qilib, keyin bo'lakcha bo'lib olmasmikin?

Voy ayajonim-ey, gapingizni qarang-a, men hozir unga tegib ketyapmanu... Axir meniyam o'zimga yarasha kallam bor. Oldin o'sha Qashqariga boraylik, u yerdagi shart-sharoitni ko'raylik. Ungacha uniyam qanaqaligini bilib, shunga qarab ish tutarmiz. Xudo bir yo'lga boshlar...

Bunaqa tavakkal gaplarni qo'y, qizim. Seni deb hajga borishdanam kechib, shuncha joydan orqaga qaytsayu, u yerga borgandan keyin seni qayerda ko'ruvdim desa...

Nima, aybi bormi, aytaveraman: yo'l-yo'lakay bir-birimizni sina-ab boramiz, keyin o'ylab ko'ramiz deyman, shu shartimga ko'n sangiz mayli deyman.

Opa kului.

Yoshligingga borasan-da, Fazilat. Yo'l mashaqqatlari yodingdan chiqdimi deyman. Har xil joylarda tunashga to'g'ri keladi, chegaralardan o'tish osonmas. Yuklarimiz bo'ladi. Keyin, hazilakam pul ketmaydi, bolam...

Qiz hovlini sotishni eslatib, onasini hovuridan tushirishga, hadigini yengillatishga urindi.

Agar peshonamizga shu ish yozilgan bo'lsa, xudo yo'limizni o'nglaydi, siz sira tashvish chekmang, ayajon, deb Sharifa opani mahkam quchoqladi. Nega birdan shunday qilgisi keldi bilmasdi. U hayajonda edi, xayolida ko'zlarini javdiratib Bek aka turardi... Taomil yuzasidan Fazilat ertani kutmog'i lozim edi, biroq, qizga fursat juda g'animatday, hali zamon Zaynulla tog'alar tomondan sovchi kelib, ish butunlay chappasiga ketadiganday tuyular va nihoyat onasining salgina (ha, shunday deydi!) moyillik bildirayotganga o'xshayotganini aytса, Bek akaning qay holatga tushishini ko'rishga oshiqib, yuragi potirlardi. Albatta qiz tug'ilgan go'shasini, ilk bor ko'rgan yorug' olam manzaralarini ko'z oldiga keltirolmasdi, lekin gohi-gohida qalbining oshyoniga intilgan qushday talpinishini sezardi. O'shanaqa paytlarda qachondir, kimdir qo'llaridan yetaklab olib ketishini orzu qilardi. Balki... o'sha kimdir mana shu yigitdir?..

U chorshafni boshiga soldi.

Yana qayqqqa? so'radi ona norozi ohangda.

O'sha yoqqa, ertalab odamlar kep qolib, yaxshi gaplasholmadik. Bechora menga mahtal bo'lib o'tiribdi. Birpasda qaytaman.

Hoy qiz, esingni yig', ta'kidladni ona, "o'ldim-kuydim"iga uchib, hamma gaplarimizni aytib o'tirmagin tag'in.

Xotirjam bo'ling, aya!

Uzoqlab ketmagan!.. Sharifa opaning bu tayinlovi ohangidan xavotirdan tashqari, uning ham yigitning qat'iyroq niyat-maqsudini tezroq bilish istagida ekanini chamalash mumkin edi.

#### XIV

Fazilat ham Beknazarni g'oyibdan yuborilgan, onasi ikkovini musofirlik, mazlumlikdan qutqaruvchi xaloskor bilib, unga qiziqishi, moyilligini g'ayriixtiyoriy chora ilinji deb o'ylayotgan edi. Hozir qiyalikdan ko'tarilib borarkan, takya darvozasi yonida, pastak kursichada shu tarafga qarab o'tirgan kimsaga ko'zi tushdiyu, yuragi allanechuk orziqib, beixtiyor qadamini tezlatdi. Qiz qorasini ko'rsatishi bilan yigit ham o'rnidan dast turib shu tomonga talpindi. Demak, chorshaf ostidan ham uni tanidi. Fazilat Beknazarning shoshib kelishidan yana bilaklariga yopishishini tuyib, unga bir qadam qolganda to'xtadi-da, "yuring" deb, ortiga burildi. Beknazar ildam bosib, unga yondashdi.

Gapiring.

O'zingiz gapiring.

Nimaga yana yuzingizni to'svoldingiz?

"Suq yomon narsa" deydi ayam.

O'sha kuni chorshaf tutmagan ekansiz, a?

Sizni o'lja izlagan och bo'riday saharlab chiqishingiz tushimga kiribdimi?

Hali biz sizga bo'riyam bo'ldikmi, xonim afandim?

Tulki demaganimgayam shukr qiling, Fazilat shunday deb kulib yubordi. Beknazar ham unga beixtiyor jo'r bo'ldi.

Buni har doim tutib yurmaysiz shekilli?

Ha, otam o'tgandan keyin ayam endi katta qiz bo'p qolding, deb tuttirgan. Asli, bu matoni jinim suymaydi, nafasim qaytib, yuragim qisilib ketadi. Zarur mahallarda, ayam aytganday, nomahramlar orasiga kirgan paytlarda solvolaman.

Hozir hech kim yo'g'u yo men ham?..

Bo'imasam-chi...

Mayli, hozircha nomahram bo'p tura qolaylik.

Keyin-chi? Qiz chorshafini xiyol ko'tarib qiya qarab kulimsidi.

Keyin ajabmas, allohnning biz g'ariblarga rahmi kelsa...

Ho, shunaqa deng. Allohdan faqat o'zingizga muruvvat tilarkansiz-da.

Beknazar dovdirab qoldi. Bir nafas jimb dedi:

Kamina zoriqib turgan narsalarga o'zgalar hojat sezmasa kerak deb o'ylayman.

Rahm-shafqat hammaga, hamisha kerak deyishadi.

Unda hammaga tilaganim bo'l'sin. Beknazar orqa-oldiga qaradi, yaqin-o'rtada birov yo'qligiga ishonch hosil qilgach, qo'llarini duoga ochdi: Ey parvardigori olam, hammaning diliqa, shu qatorda Fazilatxonning diliqayam ko'pgina rahm-shafqat solgin, toki muhtojlardan mehr-muruvvatini ayamasin, omin.

Tilak tilashga usta ekansiz.

Xudo bizga o'xshagan musofir-bechoraning tilagini tezda ijobat qilarmish. Bandalar bo'l'sa, o'zlarini tushunmaganga solib, merovsirab turaverishadi, odamni qiyab...

Jim... dedi Fazilat. Ro'paradan chorshaf yopingan, kiyinishidan yoshi ulug'roq bir ayol yetti-sakkiz yoshlardagi bolani yetaklab kelardi. Ular o'tib ketishgach, qiz davom etdi. Musofirlik riyozatlariga chidab yurgan kishiga bo'lak ancha-muncha qiyinchilik nima degan gap?

Ancha-muncha deng. Bu qiyinchilik oldida boshqa har qanday riyozatu azoblar holva ekan.

Ko'p kitob o'qiyisizmi deyman?

Musofirlikda kitob o'qish ko'ngilga sig'adimi? Ayniqsa, mushkul bir dardga mubtalo bo'lib qolsang...

Qanaqa dard? Biron joyingiz og'riyaptimi?

Yurak... juda qattiq sanchyapti.

Ha-a, yurakning davosi chindanam mushkul deyishadi.

Ha-da, tabib davolashni istamasa...

Tabibning o'ziniyam g'am-tashvishi ko'pdir-da...

Ular kattagina xiyobonga yetib borishdi. Tom mazmunda chorsa maydon o'rtasining bu boshida va narigi chekkasida bittadan chor qirrali yo'g'on, balandligi taxminan yigirma besh metrli tosh ustun qo'qqayib turar, o'ng tarafda esa mahobatli, ko'rinishidan ancha qadimiy masjid bo'lib, atrofda boshqa deyarli ko'zga alohida tashlanadigan bino, inshoot yo'q edi. Sayrgohning har yer-har yerida kashtan, akas kabi manzarali daraxtlar andak fayz bag'ishlab turishini hisobga olmaganda, kimsasizligidanmi, o'simlik kamligidanmi, hudud qandaydir noobod, maroqsizday tuyulardi. Beknazar tosh ustunlarga qarab serrayib qoldi. Ularning nima maqsadda qo'yilganini, qanday ma'nova ahamiyat kasb etishini anglamadi. Zotan, hozir u bu yodgorlik ma'nisini chaqadigan kayfiyatda emas, ko'ngli, fikri butunlay o'zga muammoda edi. Fazilat bu toshlarni ko'p ko'rgani bois, ularga e'tibor bermasdi. Xo'sh, ayangiz nima dedi? mavzuni asosiy muddaoga burdi Beknazar betoB-qatlanib.

Hozircha tayinli gap aytgani yo'q. Qaydam, u yigitni yaxshi bilmasak deyapti. Rostiyam, o'zingiz to'g'ringizda tuzukroq so'zlab bermadingiz, ayam ba'zi narsalarni so'rovdi, nima deyishni bilmadim.

Kishiga avaylagan yarasiga xuddi bir narsa tegib ketayotganday tuyulaveradi, qancha ehtiyojlangan sari o'zini bir nimalarga urib olaveradi. Shunga o'xshab, muhim bir siringni boshqalardan yashirishga harakat qilganing sayin, ular xuddi ana shu nozik joB-yingni paypaslashib, seni hadiklantirishaveradi.

Beknazarning nazdida qiz ham, onasi ham aynan uning uylangan-uylanmaganini bilishga qiziqishayotganga o'xshardi. Sharqona odob, oriyat nuqtai nazaridan Beknazar ham, Fazilat ham o'z tuyg'ulari va moyilliklarini mumkin qadar uzoqroq pinhon saqlashlari, shu bilan birga, bir-birlarini taftishdan, sinovdan o'tkazmoqlari lozim edi. Biroq vaziyatning tangligi, vaqtning qistalangligi bunday murakkab jarayonni bosib, yengib o'tishni taqozo etmas edi. Lekin baribir ba'zi gaplarni oydinlashtirib olmasa bo'lmashligini dilidan o'tkazdi yigit. Qiz bolaning ko'ngli nozik, berdisini aytib tushuntirguncha to'nini teskari kiyib olsa, tamom. Birinchi kundanoq unga ko'ngilsiz edim, hech qancha yashaganimiz ham yo'q, javobini berib kelganman, deganiga ishonarmidi. Ishongan taqdirdayam, men xotin ko'rgan, sondan chiqqan kishiga tegamanmi, deyishi turgan gap. Yolg'on so'zlash og'ir gunoh albatta, ammo nachora... Bu dunyoni yolg'on dunyo deyishadi-ku, demak, bu naqlida bir hikmat bor...

Man, ko'rib turibsiz, shu men. Musofirman, bu ham yetmaganday, mubtaloman. Kattagina hovli-joyimiz, ota-onam, akam, singlim olsida qolib ketishgan, lekin ularning hozirgi ahvoldidan bexabarman, har qalay, men ularni sog'inganday, ular ham meni eshikdan lop etib kirib kelarmikin, deb har kuni yo'l qarashayotgani aniq. Chunki, mo'ljalimiz bo'yicha men bu paytgacha uyga qaytishim kerak edi. Sababini sizga aytganman. Qisqasi, Saudiyyaga borayotuvdim, boshim aylanib, Istanbulda qolib ketdim.

Ammo hozircha taqdirimdan suyunib turibman, ishqilib, suyunganim qut bo'l'sin. Xo'o'sh, endi yaqinlarimni qachon ko'raman xudoning amriga, sizning xohishingizgayam bog'liq. Agar xo'p desangiz, ayangizni ko'ndirsangiz, Qashqarga boramiz. Andijon bilan xabarlashamiz, kelaverishsin deyishsa o'tib ketamiz, bo'lmasa, vaqtincha o'sha yerda ijaraga uy olib yashab turamiz. Ishlab pul topaman, qo'limda hunarim bor tuzukkina ustaman. Tanishlarim yordam berishadi. Vaziyat o'zgarishi bilan yurtimizga qarab yo'lga tushamiz. Mening ahdim, niyatim shu.

Inson aksariyat hollarda xudbinlik tuyg'usiga, manfaatni hamma narsadan ustun qo'yish, bequsur, oljanob ko'rinish mayliga qanday yon bergenini o'zi ham sezmay qoladi. Yigit xijolat chekdi, albatta. Lekin, "Axir men uning o'tmishini, fe'l-atvori, yurish-turishini, shu paytgacha qanday yashaganini surishtirmayapman-ku", deya ichida o'ziga tasallli berdi. Bu sevgining seni avrab, bosh-ko'zingni aylantirib qo'ygani oqibati bo'l'sa kerak. Rostiyam, bularni umringda ko'rmagan bo'lsang! Qanday odamlarikin? Kelib chiqishlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari qanaqaykin? Mana, ikki yildan beri ona-bola bosh egasiz, erkaksiz hovlida kun kechirisharkan... Ammo, qayerdan, kimdan, nima deb ham surishtiradi?

Fazilat qachon, qanday ketish va boshqa masalalar haqida so'ragisi kelar, o'z shartlarini aytmoq uchun og'iz juftlar, lekin izzat-nafsi, onasi eslatgan qizlik g'ururi yo'l bermas edi. Ha, chin islomiy qiz bechoralarning yigitlardan farqi shuki, ular eshitadilar, kutadilar, ilhaq bo'ladilar va... ko'nadilar. Fazilat o'zini Beknazarning salobati bosayotganini ham sezdi. Ayni damda yigitning orzu-rejalariga, lafziga ishongisi, yurtiga yetib borsa, qarindoshlariga boshidan kechirganlarini hikoya qilib, ko'nglini bir yozgisi, xumordan chiqqisi kelardi. Hayot unga zerikarli tuyuladigan vaqtlar ko'p bo'lardи, ba'zi-ba'zida yuragi birdan siqilib, o'zini qo'yarga joy topolmay qolardi. Shunaqa paytlarda keng hovli-joylari torlik qilar, o'zini tutqun to'ti o'rnila ko'rар, qani endi, qafasdan chiqib uzoq-uzoqlarga uchib ketsam derdi. Darhaqiqat, uzzu-kun ona-bola o'tirishadi. To'g'ri, mahallada tengqur qizlar

yo'q emas, lekin ular orasida Fazilat hanuz o'zini begonaday, yangi ko'chib kelgan kimsaday tutadi, u ataylab qilmaydi, balki shunday hissiyotlar girdobidan qutulolmaydi. Yerliklar unga boshqacha nazar bilan qarashayotganday, ko'ngillaridagi gaplarini unga ochiq-oydin oshkor etishmayotganday, ba'zida unga bir oz g'ashlari kelayotganday, ayrimlar u bilan shunchaki qo'l uchida ko'rishib, til uchida salomlashib qo'yganday, xullas, o'talarida ko'rinnmas qora parda borday tuyulaveradi.

Agar... agar Beknazar aka bularning yoniga kirsa, har qalay, ancha dalda bo'larmidi. Mahallada-ku hech kim Fazilatni ham, onasini ham beting qursin degani yo'q, qo'ni-qo'shni bilan kirdi-chiqliklari tuzuk, biroq xonadonga bir erkak kishi juda zarur ekan. Bozor-o'charge... Dazmolning simi uzilsa yo boshqa biron buyum ishlamay qolsa, kimga borishingni bilmaysan, javon yo eshicing qiyshayib-netsa, nimanidir bir yerdan ikkinchi joyga jildirishga to'g'ri kelsa, qo'shni erkaklardan iltimos qilish kerak. Oqshomlari eshik tiq etsa, yuraklari gupillay boshlaydi. Shunaqa qilib, qisinib, omonat yashagandan ko'ra, qiyinchilik, sarsongarchilik bo'lsayam, o'z vatanlariga ketishgani yaxshimasmi?

Hammahalla Najotning odobi, xulqi Fazilatga ma'qulga o'xshab, uni ko'rganda o'zida g'alati hissiyotlar uyg'onayotganini sezardi. Yigit dugonasi Turkonaning akasi edi. Ularniki besh-olti hovli narida edi. Fazilat mактабда o'qimadi. Bir joyda muqim turishmagani, ertangi taqdirlari noma'lumligi uchun bunga sharoit ham, imkoniyat ham bo'lindi. Istanbulda turkistonlik muhojirlarning farzandlari ham mактабга qabul qilinardi, lekin Fazilatning yoshi o'tib qolgan, kollejda o'qish uchun avval mактабни bitirish lozim edi. Qolaversa, Ismoil aka tanhogina qizlarining begona shaharlarning notanish ko'chalarida yakka-yolg'iz yurishini xohlamas ham edi. O'qib-yozishni biladi, shu kifoya derdi. (Yo'l bo'yalaridagi, guzarlardagi qahvaxona, suhabatgohga o'xshagan joylarda har xil toifadagi yosh-yalanglar karta, narda o'ynab o'tirishardi). Najot qaysi bir kollejni bitirib, oliyogohga o'qishga kirish taraddudida edi. Ular har zamonda ko'chada uchrashib qolishardi. Fazilat o'n sakizda ayni gulgundan yoshda, kitoblar ta'siriga berilgan, qiz bolaning unga yoqayotgan yigitni ko'rganda nega o'zida g'ayricha bir tuyg'ular paydo bo'la boshlashi sabablarini yaxshi tuyadigan pallada edi, faqat o'sha kimsaga ko'ngil berib, bog'lanib qolishdan cho'chirdi. Uning farazicha, o'zaro ma'noli, xiyol tabassumli qarashlar, gohi oshkor, gohi pinhon kuzatishlar hali chinakam muhabbatga aylanib ulgurmagandi; sevgi domiga o'ralashib ulgurmasdan bir chorasini ko'rmoqni o'ylab-o'ylab qo'yardi. Odatda qizlar qalbalarida uyg'onayotgan ishq tuyg'ulari, ehtiroslarini intiqlik bilan kutilgan g'oyat aziz va mo'tabar mehmon istiqboliga peshvoz chiqqandek katta hayajon va iftixor bilan qarshilaydilar. Ammo Fazilat sirdan sho'x tabiatli, shaddod ko'rinsa-da, chuqur mulohazali, sabotli qiz edi bularni ham unga musofirlik o'rgatgandi holati va shart-sharoiti o'z hissiyotlariga ortiqcha erk berib yubormaslikni, aql bilan ish tutishni taqozo etishini teran anglardı. Balki Sharifa opa ham ochiq sezmasa-da, qizining ko'zga yaqinligidan har xil gumonlarga borar, tashvish chekardi, buni qiz onaning uni "Qayoqqa chiqding, nima qilding?", "Nega uzoq yurding?" deya so'rab-tergashlaridan, "Bo'y qiz bo'p qolding, iloji boricha o'zingni siro tut, qadamingni o'ylab bos, har kimgarga (bunda albatta yigitlar nazarda tutilayotgani tayin edi) kulib, suzilib qaramagin", deya tayinlashlaridan payqardi. Bir kuni yana shu haqda so'zlashib o'tirishgandi, ona gapning po'st kallasini aytdi.

Mayli, yoqtirsang qarshiligidan yo'q, Najot yomon yigit emas, ota-onalari ham tuzuk odamlar. Unda... shu yurtda butunlay qolib ketishga to'g'ri keladi-da, qizim...

To'g'risi, uni yoqtirishimniyam, yoqtirmasligimniyam bilmayman, dedi Fazilat dovdirab. Keyin men otamniyam, sizniyam xohishlaringizga zid bir ish qilmayman, ayjon. Siz nima desangiz shu, mening sizdan bo'lak kimim bor... O'shanda, ehtimol har ikkisining ham ongidan yurtga qaytish imkonni tug'ilguncha qari qiz bo'lib o'tirib qolish mumkin-ku, degan o'y kechgandir, lekin bu mulohaza ularning tiliga chiqmagandi. Beknazarga ro'para kelgach, Fazilatga turk yigitidan uzoqlashish, undan ko'ngil uzmoqqa bahona topilganday tuyuldi. Beknazар dam ko'z oldida uni hamma balodan asrab, qafasdan olib chiqib ketadigan haqiqiy najotkor sifatida gavdalalar, dam unga qiziqishi, moyilligini g'ayrixtiyoriy chora ilinji deb o'zini ishontirishga urinardi. Ayni vaqtda, oq-sariqdan kelgan, muloyim tabiatli Najot bilan Bek akasini taqqoslab, keyingisining alp qomati, fe'lidagi dadillik va shiddatni, qora qosh-ko'zlarining yarashimligini, eng muhimmi, eng asosiysi yurtdoshligini o'ylab yuragida iliqlik tuyardi.

\* \* \*

Ular maydonda bir oz aylanishdi. Ikkisining ham xayollarida qatlanib turgan gaplari, savollari bisyor edi, lekin andisha, istihola ularga xalal berardi... Fazilat sal naridagi Ilcha mavzeiga boshladi. Ayyub Ansoriy maqbarasi o'rashgan hovlisimon hududga kirishdi. Ziyoratchilar ko'p edi. Demak, Ansoriy hazratlari ancha mashhur, mo'tabar zotlardan ekan-da, deb o'yladi Beknazар, marqadni hayrat bilan tomosha qilarkan. Keyin yana Fazilat yetovida daxma ortidagi qabristonga o'tishdi. Mozorga ajratilgan joy cheklanganidanmi, qabrlar juda zich bo'lib, aksariyatining tepasiga har xil rangdag'i marmardan sag'ana toshi o'rnatalgandi. Beknazар hayron bo'ldi: bunaqa odat g'ayridinlarga xos deyilardi-ku, demak muslimonlarga ham mumkin ekan-da...

Qayta qolaylik, u yog'i go'riston ekan-da, dedi u.

Yuravering, undadi qiz ovozini pastlatib va oldinga o'tdi. Yigit ergashdi.

Qabrtoshlar odam bo'yi, undan pastroq edi, oralig'larda bir kishi siqquday yo'lak bor edi, xolos. Yer ko'p-ku, shunaqayam ziqnalik qilishadimi, derdi Beknazар ichida. Yurish noqulayligidan g'ubor bosgan marmar ustun-taxtalarga surkanmay o'tishning iloji yo'q edi. Fazilat kiyimlariga chang tegayotganiga ahamiyat bermay, ortiga ham qaramay ilgarilardi. Mozorotning deyarli narigi chekkasiga chiqib qolishdi. Nihoyat, qiz chog'roqqina qabrtosh oldida to'xtadi.

Otam shu yerda yotibdi, dedi va chorshafini qayirib boshiga tashladi-da, cho'nqayib o'tirdi. Beknazар ham beixtiyor uning yoniga cho'kdi.

Bo'yi bir, eni yarim metr chamasi oqish marmar taxtaga faqat "Ismoil Fiyos o'g'li. Turkiston" degan yozuv bitilgan, suratsiz edi. Sokin qabristonda kishining ko'nglini cho'ktiruvchi haziniyat hukmron edi.

Fazilat past tovushda, qariyb pichirlab "Oyatal kursi" surasini o'qimoqqa kirishdi. Beknazар qo'liga ilashgan quruq cho'pni beixtiyor barmoqlari orasida aylantirgancha, xayolga cho'mgan qiyofada o'tirardi. Fazilatning boyu jaranglab chiqayotgan ovozi endi mungli nolaga aylangan edi. Yigit mutaassir bo'ldi, yuragi to'lqinlanib, qizga ixlosi, mehri yanada ortayotganini his etardi. Otasining qabrigacha olib kelib ko'rsatdiki, bu qizning unga ishonchidan, faqat shodligini emas, shunaqa dardli, qayg'uli onlarini ham baham ko'rishga hozirligidan va uni hamandard, qayg'udosh sifatida ko'ra boshlaganidan nishona...

Ko'zlar jiqla yoshga to'lgan Fazilat tilovatni tugatib, qo'l ocharkan, Beknazarga bir qarab yana yuzini qabrga burdi. Yigit xudodan o'tganlarning, alalxusus, shu qabrdan yotgan bandai mo'minning bu yorug' dunyoda bilib-bilmay yo'l qo'ygan gunohlarini mag'firat aylab, qorong'i go'rlarini o'qilgan qur'on nurlari bilan munavvar, oxiratini obod etishini, qolganlarga, xususan, ayoli Sharifa opa va yakka-yolg'iz jigarporasiga sabr-toqat, baxtli-saodatlari umr tilab, duo qildi. U qiz oldida uni xijolatdan, isnoddan

asragan ozgina diniy tushunchaga egaligidan mamnun, shu tushunchani ongiga singdirgan bobosidan, padari buzrukvoridan minnatdor bo'ldi, zero, o'sha davrda O'zbekistonda qur'on suralarini biladigan, tilidan shunchalik duoi fotiha keladigan yoshlar (ayniqsa, yigitlar) kam, juda kam edi.

Boyagi alpozda orqaga qaytisharkan, Fazilatning hamon unsiz yig'layotgani sezilib turardi. Mayli, bir oz ko'nglini bo'shatib olsin, dedi ichida Beknazар, keyin shunaqa mahalda aytildigan odatiy gaplar bilan yupata boshladi. Tasallisi kor qilavermagach, qizni chalg'itish niyatida dedi:

Bemalolroq yuradigan yo'l qoldirishmagan ekan-da.

Boshqa yo'l boru uzoqroq, aylanib borish kerak, dedi Fazilat, musofirlar shunaqa chekkaroq yerkarga qo'yiladi shekilli.

## XV

Uchrashuvlar mazmuni, muloqotlar mavzusi deyarli bir edi.

Pakka Sulton Ahmad maydoni edi. Ularning toleiga xiyobon ko'pincha xoli, o'rindiqlar ancha bo'sh bo'lardi.

Otam yurtimizga tegishli joylarni, o'zimizning qayerdanligimizni yozib qoldirganakan, gap boshladi Fazilat keyingi gal muzqaymoq yeb o'tirisharkan. Hayron bo'ldim: axir rahmatli u deparalarni, kimlarning avlodiligidimizni qulog'imga quyib tashlovdiku deyman.

Balki dardi, alami ichida ketgan padari buzrukvor xotiraga ishonib bo'lmaydi, qiz bola... mendan keyin unutib yuborishi mumkin, deb o'ylagandir. Ehtimol u bir kun vatanga qaytishlariga ishongandir, yo aksincha, bunga ko'zi yetmagani uchun ham shunday qilgandir.

Onaizor sandiqning tagida xuddi yombi singari asrab kelinayotgan o'sha daftarni Fazilatga yaqinda, turk yigit Najot to'g'risida gap ochilgan paytda oshkor etdi. Balki u "Mana buni yaxshilab o'qib, uqib ol, o'zing xulosa chiqar" degan niyatda yozuvni qiziga ko'rsatgandir. O'shandan beri Fazilat daftarni bolishi ostiga qo'yib yotar, kunda bir necha marta qo'liga olib, qayta-qayta o'qir, ko'zlariga surtar, ba'zi-ba'zida o'sha bitikB-lar sabab, o'z onasini, otasini qo'msab, taqqid palaxmoni onaizorini yovuz daryo komiga, buni esa shuncha uzoqqa o'zi qaytolmaydigan, qaytsa ham yetolmaydigan joylarga uloqtirganidan o'kinib-o'kinib yig'lardi. Daftarda yurt, shahar otlaridan tashqari, bir necha ism ham bo'lib, ularning kim, qanday qarindoshligi yonlariga qayd etilgandi: "Saodat amma, Abdurasul pochcha, Xo'jaoyim xola, Ma'ruf Xo'ja pochcha, Mahmudaxon xola, Maqsudali pochcha, Abdulhamid, Abdulhakim, Ortiqboy, Qorasoch, Ermamat, Halima, Sharofat, Sherali jiyanlar..." Fazilat bu nomlarning ham aksariyatini ko'p eshitgandi, lekin ba'zilarini bilmas yo qanday tutashligi xayolidan ko'tarilayozgan edi. Angladiki, ularniyam yodda saqlashi kerak. Qiz otasiga, demak, unga ham bevosita daxldor kishilar haqidagi aniq ma'lumotdan xabar topgach, dilining bir chekkasida qanoat va xotirjamlik hissi uyg'organini sezib qoldi. "Demak, qarindoshlarimiz, yaqin kishilarimiz uzoqda bo'lsayam, anchagina bor ekan", degan fikr uni tetiklashtirdi. Ularning ayrimlari o'tib ketishgandir, lekin loaqal yarim-yolchisi hayotdir...

Qisqasi, otamdan yodgorlik ana shu daftar qo'limga tekkandan keyin yuragimga qandaydir g'ulg'ula tushgan, dedi Fazilat. Xuddi sayyoх musofirlar ichidan qarindoshlarimiz chiqib qoladiganday, oyoqlarim o'z-o'zidan takkaga tortadi. Biron yangilik umidida Hoji ota bilan gaplashgim keladi. Ayamga o'sha cholga non, ovqat-povqat berib turaylik deyman, bechora mayli, qizim, savob bo'ladi deydi. Biram yaxshi ayol, biror marta meni qattiq urishganini yo iltimosimmi qaytarganini eslolmayman. Ko'p ishlarda meni katta odamday ko'rib maslahatlashadi.

Bittaginamisiz? so'radi Beknazар.

Ha, qisqa javob aytdi Fazilat, boshqa izoh bermadi.

Aslida savol javob beruvchini xursand qiladigan savol emasligini yigit o'ylamadi chog'i. Qiz jimib qoldi, balki yodiga yolg'izligi va buning sabablari tushgandir. Ikki yilki farzand ko'rmayotgan Sharifa kelinoyi yurtdan chiqishganda og'iroyoq edi, Amudaryodagi halokatda qo'rqib ketganidan homilasi tushib, qaytib bo'yida bo'limgandi.

Endi ko'payasiz, dedi Beknazар andak tezobligi, shoshqaloqligi oqibatidagi xatosiga tuzatish kiritmoq, gapni burib yubormoq niyatida.

Fazilat tabiatan yo balki yurtma-yurt, shaharma-shahar kezishlar, har xil voqeа-hodisalarga duch kelishlar, ko'p narsalarga guvoh bo'lisljar oqibatidir hushyor, ziyrak qiz edi, kosa tagidagi nimkosani anglagandi, qizarinqiraganini sezdirmaslikka va chehrasiga tabassum balqitishga harakat qilib, o'z navbatida hazilni davom ettirdi.

Siz fol ochasizmi yo bashoratchimisiz?

Beknazар sekin kului. Uning kulgisi samimi edi. Fazilat savoli o'ziga ham nasha qilganday, "piq" etdi-yu (bu orada u xijolat bo'lib, atrofga birrov nazar tashlab olgan edi), iymanib, lablarini qimtidi, ammo aqiq, uyatchan dudoqlar chetidan taralgan, nazokatli jilmayish yuz-ko'zlariga yoyilib ulgurgandi. Bu tabassumni yuzaga kelgan yaqinlik alomati deb o'yagan Beknazар qizning qimtilgan tizzalari ustiga qo'yib o'tirgan qo'lidan asta ushldi. Avvaliga qiz qarshilik ko'rsatmadni, qani, nima qilar kin deganday, qaltis harakat oqibatini yengil hayajon bilan kutdi. Bir oz titrayotgan kuchli panjalar iskanjasidagi barmoqlarining xiyol engashgan yigit lablariga yaqinlashib borayotganini payqagach, shosha-pisha qo'lini tortdi, biroq kechikkani, kaftining orqasi cho'g' bosilganday qizib ketganini, haroratning yashin tezligida tirsagi va kifti orqali yuragi tomon yugurganini tuydi, "odobsizlik"ka keskin e'tiroz bildirish lozim degan o'y keldi, lekin bu gal tili pand berdi.

Hay, nima qilyapsiz, afandim, odamlar ko'radi.

Afv eting, xonim afandim, gunohkorman, yigit ham qizdan kam hayajonlanmayotgan edi.

Ana, ko'rdingizmi, yaxshi bilarkansizu. Siz-da, meniyam, o'zingizniyam gunohga qo'yib...

Hay-hay, ja oshirvormang, yurtdoshlarning ko'rishib, uchrashib turishi gunohB-masdir.

Yurtdoshlar shunaqa ko'risharkanmi?

Hadirslarda birovni yoqtirsangiz, unga sezdirib qo'ying deyilgan.

Ho-o, yoqtirganini ka-atta maydonda, shunaqa qilib sezdirarkanmi?

Bo'Imasa, qanaqa qilib?..

Bilmadim, Fazilat yana yuzini yonboshiga o'girib oldi. Uning kulgisi qistagan edi, lekin bu kulgi qimtilgan lablari orasiga qisilib qoldi. Qo'lida tasbeh o'girganicha bir-bir bosib Sulton Ahmad masjidiga kirib ketayotgan uzun bo'yli bir kishining boshini burib, shu tarafga ko'z qirida qarab qo'yganini ko'rib chalg'idi. Kim bo'ldiykin, mahallasidanmikin? Najotning otasiga o'xshaydi. Bir marta yigit bilan birga ko'chada ketishayotganda duch kelishuvdi. O'shanda Najot qiz boladay qizarib, dovdirab, otasiga tuzuk-quruq bir narsa ham deyolmagandi.

Ana, qarang, bizni kuzatishyapti, dedi-da, Fazilat shartta o'rnidan turdi.

## XVI

Beknazarning Sharifa opa bilan keyingi suhbatи ancha jiddiy kechdi. Masala har taraflama muhokama etildi, o'rtadagi riosa, yuz-xotir pardalari vaqtincha bir chetga surib qo'yildi. Beknazar ahdining qat'iy, sidqidildan ekanini qayta-qayta ta'kidladi. Faqat biron joyda ishlab, ozroq pul jamg'arishi lozimligini ham yashirib o'tirmadi. Yo'lni bilib olgani, har holda uncha qiynalishmasligini, iloji boricha ularni ehtiyyotlab, avaylab olib ketishga harakat qilajagini gap orasida qistirib o'tdi.

Mumkin, ishonchli hamrohlar chiqsa, Qashqardan sizlarni Andijonga jo'natib yuborarman, dedi u opaning yon berganday bo'shashganidan dadillashib. Bizda, yana aytaman, ayollarni qamab, yo boshqacha zug'um qilishayotgani yo'q, tayyoq erkaklarning boshida sinayapti, xolos.

Yigitning ongiga "ularni bir amallab ko'ndirib olsam bas" degan fikr mahkam o'rashib qolgan edi. Balki Qashqarga yetib borishguncha munosabatlari yaxshi bo'lib ketar. Beknazar hozir arqonni uzun tashlash aqidasisiga suyanar, asosiy maqsadi Fazilatning muhabbatiga erishishgina emas, balki ularni yurtga yetkazib qo'yishdan ham iboratligiga opani ham, qizni ham ishontirishga urinar, faqat bu borada Fazilat bilan hammaslakligini opaga sezdirmaslikka tirishardi. Niroyat kuyib-pishib uqdirishlari nishonalari bo'y ko'rsatdi.

Ehtimol sizni bizga xudoning o'zi yuborgandir, dedi Sharifa opa.

Hamonki yo'limiz, dasturxonimiz bir bo'lar ekan, sarmoya to'g'risida ortiqcha bosh qotirishga hojat yo'qdir, axir, ketadigan bo'lsov, hovlini sotamiz-ku.

Albatta, Beknazarning niyati amalga oshsa, uy-joyning pullanishi aniq, lekin er kishi ayollarning hamyoniga sherik bo'lib, ikki qo'lini burniga tiqb yurolmaydi-ku. Unda xushtorligiyu, himmati qayoqda qoladi?

Mayli, uyniyam sotamiz, ammo menam ozroq mablag' jamg'armasam bo'lmas...

Hovlining puli yetmaydi deb o'ylayapsizmi? Uydayam bir nimaga yaraydigan ancha-muncha narsalarimiz bor.

Yetishgayu yetar, yana, uzoq yo'l. Har holda aqchaning ortiqchasi zarar qilmaydi, opa.

Gapingiz to'g'ri, ammo, bir aravaga tushadigan bo'lsov, seniki-meniki deb yurmaylik deyman-da, unda biz xijolat bo'lib, tortinib qolamiz, ahillikkayam darz yetadi, Beknazarjon inim.

Siz tashvish chekmang, opa. Xudo xohlasa, siz aytgancha, topganimiz, quyug'imiz, suyug'imiz o'rtada bo'ladi. Men faqat dard qolmaylik deyman-da. Qashqarda yurtga o'tishga hayallasak, ijara yashab turishga to'g'ri kelib qolishi mumkin...

Beknazarning tili uchida: "Men erkak kishiman, yonimda o'z sarmoyam bo'lishi kerak", degan so'zlar tizilib turardiyu, chiqib ketolmasdi.

Bu, akang tushmagur xiyyla o'jarga o'xshaydi, Fazilat, dedi opa Beknazar chiqib ketgach, labini chimirib kulimsirarkan.

To'g'ri-da, ayajon, esingizdam, "Pul topaman deb, qachongacha shaharma-shahar yurasiz", deganingizda otam rahmatli nuqul "Puli ko'pnинг qo'l uzun, puli yo'q puli borga tobe bo'ladi" derdi. Orijatli erkak siz aytgan gapga unamaydi-da.

Qaysarlik qilib, yo'l-cho'lida bizni qiyomasimkin deyman-da, qizim.

Qaysar podsho degani. Unaqlar tutgan joyini qo'yvormaydigan, bir so'zli bo'ladi.

Opa qiziga hayron boqdi.

Bunaqa gaplarni qayoqdan bilasan qiz bola joning bilan?

Bilaman-da, otam meni bekorga "dono qizim" dermidi. Kitoblardan o'qiganman.

Kitoblarda yozovradi-da. To'g'ri ish qilyapmizmikin deyman-da. Yomg'irdan qochib do'lga tutilganday, uy-joyni sotib, tayyor boshpanadan ayrilib, sarson bo'lmasak-da ishqilib. Kitoblarda sen o'qiganday bo'lsa bordir, hayotda boshqalarni faqat o'zining yo'liga yurgizishga urinadigan odamlar qaysar deyiladi. Qaysarlik yaxshi xislat sanalmaydi, qizim. Unaqlar aytganida "gah" deb turvolishadi, boshqalar bilan muomala qilishi, ish bitkazishi qiyin, murosaga ko'nmaydi. "It qaysar" degan iboranı eshitganmisan? Mana, qara, hozirdan bizning gapimizga xo'p demayapti. Lekin, o'ziga to'qroq xonadondan bo'lsa kerak, bo'lmasa bu yergargacha yetib kelishi qiyin edi. Otang "Sovetlar siyosati, zug'umidan ham puli, moli borlar qochib qutilyapti, xolos, qo'ri yo'qlar qamoqqa yo surgunga qulog'ini ushlab ketyapti" degich edi.

Rostiyam, erkak kishi, moli-davlati bo'lmasa, bo'ynini qisib, indamay turaveradi-da, aya.

Hozir shuni mulohaza qiladigan vaqtmi Bek akangga?

Mayli, ayajon, ishlayman desa, ishlasis. Unga darrov qayoqdayam ish qarab turibdi, bu shaharda hech kimni tanimasa, hech qayerni bilmasa. Keyin, o'ziniyam uzoqqa sabri chidamas... Birdan Fazilatning xayoliga biznikida yashab turaversa-chi, degan o'y keldi. Bu harqalay, jo'yali mulohaza edi, u holda shoshilishniyam hojati bo'lmasdi. Ammo... qiz o'z rejasidan uyalib ketdi, lab tishlab, onasiga birrov nigoh tashladi, lekin uning uncha e'tibor qilmaganini payqab, davom etdi. Ikki oy ishlar, uch oy ishlar. Gapimizdan o'zicha ma'no chiqarib, zo'rg'a turishgan ekan degan xayolga bormasin tag'in.

Ona bu yog'ini o'ylamapman degandy, bosh qimirlatib qo'ydi.

Aslida ayolning andishasi boshqa yoqda Fazilatga indamasa-da, Zaynulla afandi halal berib qolmasmikin, deya xavotirlana boshlagan edi. Fazilat nima bo'lsayam yosh-da, onasi uyni tuzukroq pulga sotamizmikin desa, o'ylab-netmay, o'sha kishi yordam bermasmikin yo o'zi olib qo'ya qolmasmikin, deb o'tiribdi. Unga aytib bo'larkanmi, lekin, aytmaslikning ilojiyam yo'q. Axir xayrima'zurni nasiya qilib jo'nab yuborishmaydi-ku.

Ammo savdogar ona-bola ojizalarning allaqanday bir musofir bilan til biriktirib qilayotgan sa'y-harakatlarini ma'qullamasligi tayin, zero, Sharifa opaning taxminicha, uning o'g'lini Fazilatga uylantirib, hovlini ham qo'lga kiritish niyati ham yo'q bo'lmasa kerak. Opa o'zini uning shamalarini anglamaganday tutishi, ro'yxushlik bermayotgani ham shundan edi. Zaynulla afandi bir kuni gapni aylantirib, shunga taqadi... "Do'stim sizlarni menga, meni allohga topshirgan. Bilasiz, biz ko'p qadron, hamdam edik, savdo yo'lida birga xiyyla aziyatu mashaqqatlar chekkanimizdan ham ozmi-ko'pmi xabarlingiz bor, nima topgan bo'lsak, birga baham ko'rganmiz. Shuning uchun unga sizlarni o'z hifzi-himoyamga olaman deb va'da bergenman. Boshlaringizda erkak yo'q, bizni yaqin, sinashta odamlar o'rnida ko'rib, qanday yumush bo'lsa, tortinmay, bemalol aytaveringlar, men yo'g'inda, Ziynatbey yordam berib turadi, uyam sizlarni juda hurmat qiladi. Sizni xuddi o'z onasiday ko'radi, Fazilatni yaxshi qiz deb ko'p maqtaydi..."

Savdogar muddaosini ochiq-oshkor qilmagani sababini opa o'g'lining hali bir oz yosh (Fazilat bilan deyarli tengdosh edi) ekanligida deb o'yldardi. Beknazarga shu gaplarning bir uchini chiqarsamikin, yo unda bu o'jar yigit shoshqaloqlik qilib biron noyo'ya ish ko'rsatib qo'yarmikin?.. Yo'q, har qalay, unga bildirishmagani ma'quldir...

XVII

Beknazar ishning bu qadar jo'n, xamirdan qil sug'urganday oson bitayotgani uchun mammun, qiz ham, Sharifa opa ham o'z taklifiga, ya'ni Qashqarga ketishga rozilik bildirish rag'bat yo'q emasligini ko'ngil havasiga ham moyillik alomati deb bilar, asosiy muammo hal bo'ldi deb hisoblar, umrida to'rtta odamning o'rtasiga chiqib qo'l ko'tarmagan yigit, dam-badam devonalarday, o'zidan-o'zi barmoqlarini qisirlatib o'yinga tushar edi.

U qishloq bolasi, anchayin sodda edi. Taqdir shamoli hali uni chirpirak qilib uchirib, ne manzilu makonlarga eltilashini, charxi kajraftor g'arib boshiga qanday sho'rishu g'avg'olar tayyorlab turganini xayoliga ham keltirmsadi. Ayni damlarda u chindan ham baxtiyor edi. Go'yo ayol zoti bilan bog'liq orzu-umidlari, zavqu ehtiroslari qayta tirilib, pajmurdha jismi-joniga mislsiz qudrat, favqulodda g'ayrat ato etilgandi. U mutlaqo imkonsizday tuyulgan tilagi kutilmaganda juda tez ushalayotganidan esankirab qolgandi. Bunaqa mahalda oson qo'lga kiritilgan boylik, baxt ko'pincha barakasiz yo'omonat bo'lishi haqidagi gaplar qaysi bir omadi chopib turgan oshiqning yodiga kelardi? Beknazar nazarida ham chiroyli, ham xushtabiat, xushfe'l, bir so'z bilan aytganda, ayni ko'nglidagiday dildorni topgan va endi u bilan bir umr saodatli, osuda hayot kechirish mumkin, oradagi ancha-muncha qiyinchiliklar chikora deb o'ylardi. Qiyinchilik ham nima bo'lardi yo'l yurish, issiq-sovuq havoli, tog'u toshli, sahroyu dashtli joylardan o'tish... Tinch, salomat Qashqarga yetib olishsa, u yog'iga ishi yurishib ketishiga ishonardi. Padari buzrukvorining qadronlari omon bo'lissa, uni sarg'aytirib qo'yishmaydi. U bobosiyu otasining qadri shunchalik balandligini o'sha odamlarning o'ziga ko'rsatgan muruvvatu iltifotlaridan bildi. Arabistonagi amakisi ahvoli qandoq ekan? Unga yetib borolmaydigan bo'lidi-da. Fazilat bilan uning onasini hozir u tomonlarda yetaklab yurolmaydi vaqt hamda mablag' muammosi bunga monelik qiladi. Qolaversa, ularniyam bunga ra'yli yo'q. Tezroq ularni yurtga yaqinroq joyga olib ketish zarur. Faqat mablag' kerak, mablag'... Fazilatlarning uylari qanchaga sotilsayam, o'zlariga harjlashadi-da, Beknazar ayol kishilardan pul olib ishlatarmidi. Endi jadalroq ish axtarishga tushish lozim. Arra-teshasi naf bermasa, baquvvat qo'llari bor...

\* \* \*

Parvardigor bandasining ishini o'nglayman desa, hech gapmas. Beknazar ish borasida kimdan maslahat, yordam so'rasamikin deb, o'zicha Javdar og'anı mo'ljallab yotgan edi, ochiq eshik taqillab qoldi. U shartta tiklanib qaradi. Ostonada o'rta bo'ydan balandroq, yalangbosh, oq oralagan sochlarining old tomoni, xususan ikki chakkasi siyraklashgan, soqoli qirtishlab olingan, ixham mo'ylovli, ko'zları maydarоq kishi kulimsirab turardi.

Assalomu alaykum, andijonlik yigit o'zlarimi?

Beknazar irg'ib turib eshik tomon yurarkan, xayollandi: "Kim bo'lidiykin? Fazilatning otasini og'aynisimikin?..."

Va alaykum assalom, dedi u hamon ajablanganicha mehmonga qo'l uzatib. Ha, men, xush kelibsiz, ichkariga marhamat.

Yo'q, rahmat. Hoji otani yo'qlab kiruvdim, bir vatandosh kelgan deb qoldi, shunga ko'rishib qo'yay dedim, aybga buyurmaysiz. Qadr qilganingiz uchun rahmat, aka, qani, bu yoqqa o'tiraylik, Beknazar o'zi solib yotgan, ohori ketgan ko'rpačhaga ishora qildi. Tashakkur, hamyurt, yaxshisi, Hoji akaning xonasiga yuring, birpas otamlashib, ko'nglini olamiz bechora g'aribning. Ulug' shoir aytganiday, "Kimki bir ko'ngli buzuqni xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay". Meni ismi-nasabim Sabo Rahmat.

Mehmonning ochiqligi, ilashimliliq Beknazarga yoqdi.

Hoji aka Makkatillodan qaytishda shu yerda qolgan. Vatanga yaqinroq deb, Afg'onistonni mo'ljallaganu, ammo u yerda musofirlarga munosabat yomonligini o'ylab, shu takkani boshpana qilib olgan, yo'l-yo'lakay izoh berdi u.

Hoji ota Beknazar o'tgan safar ko'rjan holatda o'tirar, anjomlar ham joy-joyida edi. Mo'ysafid o'rnidan turmoqqa shaylangan edi, Sabo Rahmat uning yoniga ildam o'tdi-da, yelkasiga kaftini bosdi.

Qo'zg'almasinlar, taqsir. Mana, yurtdoshni boshlab keldim.

Ular xonaning bir tomoniga mezbonning o'ng tarafiga solingen yupqagina surrang to'shakka cho'kkaladilar. Xona sohibi duoga qo'l ochdi.

Fayridinlarga insof bersin, o'l kamizdan baloi ofatlarni xudoning o'zi daf etsin, omin.

Omin, omin, jo'r bo'lishdi mehmonlar.

Qani, taqsirim, bir tortamizmi? dedi Sabo Rahmat jilmayib, chilimga ishora qilarkan.

Kulasiz-da, a, qismatdosh, kulasiz.

Xo'rillatib tortishingizga borman-da. O'ziyam juda-a huzur qilasiz, a?

Endi buyam kor qilmay qoldi, mulla.

Kuchlirog'idan topaylikmi? Sabo Rahmat Beknazarga qarab ko'z qisib qo'ydi.

Allaqachon topib qo'yanman, Sabohiddin.

Ob-bo', Hoji akasi tushmagur-ey, o'trgan o'mingizda ancha-muncha ishni bitirib tashlaysiz-a. Qani, ko'raylik-chi, o'sha zo'rini...

Rost aytSAM, yashil choyga, ya'ni o'zimizning ko'k choyga yetadigani yo'q ekan, Hoji ota Beknazarga yuzlandi. O'g'lim, samovarda choy qaynayaptimikin?

Hozir qaray-chi, Beknazar o'rnidan dast turib, xontaxtadagi mushtdaygina sariq sopol aralash chinni choynakni olib, tashqariga chiqib ketdi.

Durust yigitga o'xshaydi. U bechorayam siz bilan biz singari zug'umdan, chaquvdan kuyib qochganlardan ekan, dedi Hoji ota va Beknazarning ba'zi gaplarini aytib berdi.

Sabo Rahmatning kulimsirab turgan yuzi jiddiy tus oldi.

Ha, taqdirdoshlar ko'payyapti, Hoji aka. O'rtada "qochdi-keldi"lar sal bosilib qoluvdi, yana boshlanibdi-da. Bu yaxshi alomatmas. Sho'ro ustunlari chirib boryapti, deb ularning qulashini qancha intizorlik bilan orzulasak, qancha iltijo bilan tilasak, tobora mustahkamlanib, istibdodi avj olyapti-ya.

Ammo Jaloliddin Manguberdiy qahramonlarimizgayam o'zimiznikilar pand berishgan.

To'g'ri aytasiz, Hoji aka. Bobur Mirzoday ulug' shoir,adolatli hukmdorniyam yurtdan mosuvoyu darbadar qilganlar ham o'zining eng yaqinlari, ishonganlari edi.

Lokin, shundoq deb, butun xalqni ayblab bo'lmaydi, vatandosh.

To'g'rikuya, albatta, sopining o'zidan chiqarish Stalin davlati siyosatining o'zagi desayam bo'ladi, lekin u dayusning odam hayron qoladigan fe'llariyam bor. Aziz farzandini generalga almashtirmay, voz kechib yuborganini aytaman-da. Tarixda tantiq shahzodalar davlat, boylik ishtiyoyqida yurt boshiga nima ko'rguliklar solmagan?.. Beknazar pichirlaganday assalomu alaykum deb

kirdi-da, choynakni xontaxtaga qo'ydi. Hoji ota xontaxtaning narigi chekkasidagi piyolalarni uning oldiga surdi. Biroq, davom etdi ancha qizishib qolgan Sabo Rahmat, odamlarimiz shuncha tez, shuncha osonlik bilan o'sha siyosatning yaloqbardorlariga, ayg'oqchilariga aylanib ketadimi deb xunobingiz oshadi-da.

Hoji ota shikasta tovushda "Ha-a..." deb qo'ydi.

Beknazar choyni uch marta qaytargach, piyolalarga quyib Hoji otaga, Sabohiddin akaga uzatdi.

Sallasini olib kel desa, kallaga yugurishadi-da, dedi Sabo Rahmat choydan ho'plib.

Unaqlarga ham oson tutib bo'lmaydi, mulla, jon shirin, qorong'i xonada, qon chiq-maydigan joyiga ikki-uch tepki yegandan keyin qiyin-qistovga dosh berish qiyin. Axir zax hujrada, burga, iskaptoparlarga talanib, bir qoshiq xo'rda zor bo'lib yotish yo uzoq, qora balchiqli o'rmonlarda azob-uqubatlar bilan itday o'lib ketish kimga yoqadi?

Juda ko'ngilchansiz-da, Hoji aka. Turkistonliklar degan so'z menga vatangadolar deganday eshitiladigan bo'p qoldi.

O'zimizning aybimiz ularnikidan yengilmi? Peshonamizga qochoq, xoin degan tamg'alar bosib bo'lingan. To'g'ri, biz siyosiy muhojirmsiz, ammo hukumat bizni allaqachon qora siyoh bilan yoziladigan ro'yxatga tirkagani aniq.

Biz birovni sotmadik, kimgadir xoinlik qilmadik-ku.

Vatanga xoinlik qildik, vatanga, mulla Sabohiddin. Jon qutqargan botir deb, yurtni mustamlakachilarga tashlab qochganimiz qanday xiyonatdan kam?

Vaziyat taqozo etganda payg'ambarimiz ham hijratni ma'qul ko'rgan ekan...

E, mulla, payg'ambarimiz bilan bizni qochishimizning farqi katta. Rasululloh qo'l ostidagilarni, sahabayu jangchilarini ehtiyoq qilgan, biz esa o'zimizni... Aslida qamalish yo badarg'a bo'lishdanmas, mol-dunyoimizdan ajrab qolishdan qo'rqqanmiz.

Unaqa demang, Hoji aka, biz mutelikda, dinsizlikda, yashagandan ko'ra, sarson-sargardonlikni afzal ko'rganlarmiz. Qolaversa, baribir qo'lizmizdan hech narsa kelmasdi-da... O'z yurting bo'la turib, Zokirjon Furqat yozganiday, o'zga ellarda adashgan itday qayoqqa borishingni bilmay, dovdirab yurish odamga alam qiladi-da. Olamda o'z vatanini tashlab, qorni to'ygan yerni makon tutib yashayveradiganlar ham ko'p ekan. O'zbekistonni bosdi o'shanaqalar.

Endi juda qattiq ketdingiz, o'tirgan o'rnida bir to'lg'anib oldi Hoji ota. TayoqB-ning bir uchi o'zimizga kelib tegishiniyam hisobga olyapsizmi? Asosiysi, taqdir degan narsa bor. Kim qachon, qayerda janobi azroilga ro'para kelishi faqat parvardigorga ayon.

Durst, ammo bandalar ham bir-biriga sabab bo'lyapti-ku. Ularga o'ylash, mushohada qilish uchun aql-idrok ato etilgan-ku, Hoji aka. Mana, siz nima uchun vatan, yurt deb kuyunib, yig'laganingiz yig'lagan?

Ha, endi, hammaning fe'li o'ziga, hamma har xil yaratilgan... Meni qo'yavering, kamina to'ridan go'ri yaqin bir faqir. Alamimni yig'idan olishdan bo'lak nimagayam yarardim. Osmon uzoq, yer qattiq.

Noumid shayton, Hoji aka, hali bardamsiz. Yurtda bir evrilish yuz berib, omon-omon zamonlar boshlanib qolsa, sizni o'zim olib ketaman.

Mabodo, aytganingizday, yurtga qaytadigan bo'lib qolsalaring, iltijo qilaman, albatta meniyam otmi, eshakmi, bironta ulovning dumiga boylab, bir amallab olib ketasizlar, jon vatandosh. Bu dunyodaku yaxshiliklaringizni qaytarolmayman, illo, u dunyoda qancha savobim bo'lsa, do'st sifatida hammasini sizga olib berishni yaratgandan o'tinib so'rayman. Ungacha umrim yetmasa, aqalli qabrimdan bir hovuch tuproq olib ketib, O'zbekiston chegarasi boshlangan yerlarga sochib yuborsangiz ham mingdan-ming roziman.

Xotirjam bo'ling, Hoji aka, sizsiz hech qayoqqa ketmaymiz.

Lokin endi biz yurtga qaytolmaymiz, jigar, axir qaysi yuz bilan boramiz?..

Beknazar "muzokara"ni qiziqish bilan tinglab o'tirarkan, dilidan hamsuhbatlarnikiga yaqin hissiyotlar kechardi. Nahotki ular ham bunga o'xshab, arzimagan sabab bilan yurtdan chiqib yo qochib yurishgan bo'lsa?..

Sabo Rahmat yonida odam borligi birdan esiga tushganday, boshini Beknazar tomon burdi.

Siz ham gapiring, yurtdosh, yo hali bunday savdolar kallangizni garang qilib ulgurmadimi?

Beknazar mujmalgina javob berdi. Sabo Rahmat endi uning qayerdanligi, bu yoqlarga qanday kelib qolgani, niyat-rejalari bilan qiziqib, aniq savolga o'tdi.

Ism-shariflari qanday?

Beknazar.

O, juda taxallusbop ekan. Bek Nazar. Bobur Mirzo deganday. Mabodo she'r-per yozib turmaydilarmi?

Yo'q, dedi Beknazar o'zini bir oz o'ng'aysiz sezib. U adabiyotdan juda uzoq bo'lmasa-da, har holda badiiy ijodga ham uncha yaqin emas edi.

Padari buzrukvorining otlari-chi?

Beknazar aytdi.

Demak, Beknazar Darmon... Turkiyada ism-shariflar shundoq aytildi, bizdagiga o'xshab, g'ayri millatchasiga "...ev,...ov" deyishmaydi. Men ham hujjatda Sabohiddin Rahmatullayev yuritilaman, lekin turk birodarlarimiz Sabo Rahmat taxallusini berishdi. U yana kului. Hoji akaniyam ismi-sharifi uzundan-uzoq Abduzuhriddin Farohiddinov. Abdu Farah yoki Hoji Farah deb aytqolaylik, desam, hech ko'nmaydi-da. Otasiniyam, o'ziniyam ismlarini yarimta qilishni xohlasmishlar. Vatansiz odamga nomi butun bo'lди nimayu, yarimta bo'lди nima deyman. Xudo xohlasa, vatanimiz butun bo'ladi deydi. Mayli, ishqilib, aytgani kelsin. Xo'-o'sh, shunday qilib, Andijondanman deng. Yon qo'shni ekanmiz. Bizniki Farg'onaning Quvasidan. Hoji aka bilan qadronmiz, to'g'rirog'i, hasratdosh, dardoshmiz. Har zamonda suhbatlashib xumor yozgani kelib turaman. Shu bahona, bu karvonsaroya qo'nib o'tadigan hammillatlardan ancha-muncha axborot, ma'lumotlar olamiz. Mana, eng keyingi xabar va yangiliklarni sizdan eshitamiz. Yurtda hozir siyosiy holat qanday? Xalqning ruhi-kayfiyati nechuk?..

Beknazar bir lahma taraddudlanib qoldi. Uning o'zi siyosat jabrini tortib yurganlardan biri esa-da, bu yoqimsiz ibora bilan bog'liq xatarli, betayin vaziyatga qanday holat va voqealar kirishini ichida mulohaza qila boshladi. Nihoyat, xayoliga cho'llarni o'zlash tirish shiori bilan qishloq ahlining ayrimlarini oilasi bilan tug'ilgan, unib-o'sgan makonlaridan yulqib olinib, majburan Mirzacho'l, Yangiyer, Bo'z kabi dasht-biyobonlarga ko'chirilayotgani keldi. Bu endi qarindosh-urug'lar, bir-birini qo'llashi mumkin bo'lgan o'zaro yaqin, hamfikr odamlarni bir-biridan uzoqlashtirish, parokandalashtirishning "dohiyona" yo'li, bolCHshevikkcha usuli edi. Bo'shab qolgan hovli-joylarga esa Rusiyaning olis, ovloq burchaklaridan cho'chqabiq Zoyalar kelib o'rnashardi. Shuningdek, "xalqlar otasi"ning qahriga uchrab, issiq o'rinalidan yarim tunda bir zalp bilan qo'zg'atilgan chechenlar, qrim tatarlar, mesxeti turklarini ham "manjaniq"larga solishib, ko'zni yumib, O'rta Osiyo mintaqasi tarafga otishar va ular to'zg'oqday har

tomonga yoyilib tushishardi...

Aholining ruhi-kayfiyati... Ikkinchiji jahon urushidan qay bir a'zosidan ajralib, taniyu qalb jarohatlari bitmay, umuman mehnatga yaroqsiz bo'lib qaytgan sobiq askarlarning, onalar, kelinchaklar yuragidan janggohlarda, Stalingrad "to'g'on"ida, front orqasida, mehnat frontlarida o'qdan va ochlikdan o'lgan ota-onasi, eri, aka-ukasiyu boshqa yaqinlaridan judolik alamining zahri hali ketmagan edi. Ular bor-budini og'zidagi noniyu egnidagi kiyimigacha "vatan mudofaachilariga" ga yuborib, o'zlarini hanuz o'sha yupunlik va nochorlikdan chiqishmagandi. Qolmishiga ularga har turli o'lponlari to'lovlar go'shit, sut, saryog', jun, tuxum kabi kurakda turmaydigan, tarixning eng ayanchB-li davrlarida ham bo'limgan soliqlar solinib, ularni to'lashga qurbi yetmaganlarning go'daklari oziqligiga yarab turgan sog'in qo'y yo echkisini qaroqchilar kabi sudrab chiqib ketishar, bechoralar chirqirab qolishaverardi. Xullas, hali o'mganini rostlab olmagan, qachon rostlashi ham dargumon odamlarning holati, kayfiyati qanday bo'lardi? To'g'ri, ular bir narsaga chaqaloqdan munkillagan qariyalargacha tinkasini, million-million kishilarning yostig'ini quritgan beno'xta, bedavo urushning tugaganiga shukrona keltirib kun kechirishardi. Lekin urush davrida qisqa muddat karaxt yotgan qatag'on ajdahosi yana bosh ko'targan edi, u hamishagiday och va yovuz tinimsiz qurbanlik tilardi hali u sabab, hali bu bahona bilan qatllar, "qama-qama"lar, surgun-itoblar davom etardi. Salgina avvalroq Said Ahmad, Shuhrat, Shukrullo, Mirzakalon Ismoiliy, Shayhzoda kabi taniqli shoir-yozuvchilar qamalgan, ulardan biriga uyida isiriq saqlagan, oilasida chaqaloqni beshikka belattirgan, degan ayb taqalgan edi.

Beknazaz shular haqida bilganicha gapirib berdi. Sabohiddin akaning ham, Hoji otaning ham peshonalari tirishdi, qovoqlari uyilib, lunjlarini osildi. Ulardagi boyagi tetiklikdan, ehtirosli xitoblardan asar ham qolmagan edi.

Anchagacha hech kimdan churq etgan sado chiqmadi.

Beknazaz yer ostidan kattalarga razm soldi. Hoji otaning boshi egilib, yuzi umuman ko'rinas, ushoqqina yelkalari silkinardi.

Kattagina kallasini ohista, bir maromda tebratib o'tirgan Sabohiddin akaning ham mijjalari namdan yiltirardi.

Nihoyat, Hoji ota boshini ko'tardi, uning ko'zlarini qizarib ketgan edi.

Shunaqa deng, Bek Nazar. Biz ko'rgan kunlar ham bir navi ekan-da. Yo alloh! Bu qandoq kofirlarkim, beshik tutganlarni, isiriq tutatganlarni, eskicha kitob o'qiganlarniyam yasoqqa tortishaversa-ya!..

Ishtonsizning hadigi cho'pdan deganlari shu-da, Hoji aka. Lekin bizdag'i komunistlarning zug'umlari yapon komunistlarning xitoyliklarga, xitoy komunistlarning uyg'urlarga bergan jazolari oldida holva. Ular hukumatning biron mulozimiga nisbatan bilib-bilmay noo'rinoq so'z aytgan yoki yozilgan va yozilmagan qonunlarga xilofroq harakat sodir etib qo'yanlarning oyog'iga kishan solib sudrasharkan, mahbuslarni qoziqqa bog'lab, itlarga talatisharkan.

Umuman, bolCHshevik degani bir balo ekan-da, mulla Sabohiddin. Lokin hammasi unaqamasdir

Ha, albatta, bari gap buyruq beradiganlarda-da... Sabo Rahmat Beknazarga qaradi.

Endi, uka, bu bekorchi chollar mucha menga yopishib olishdi demasangiz, malol kelmasa, sarguzashtlarni, shunday deymizda, a, Hoji aka, aslida sarguzashtmas, jafozasht, alamzasht, muxtasar gapirib bersangiz. Qaysi tomonlar bilan keldingiz, yo'llar, chegaralarda ahvol qanaqa?

Beknazaz bir oz ijirg'andi, "Xuddi tergovchiday so'raydi-ya" deya o'yladi, lekin ko'nglidagini sezdirmaslikka urindi. O'zining qariyb besh oylik ko'rgan-kechirganlarini Sabohiddin aka kutganidan ham qisqa to'rt-besh daqiqada ixcham, lo'nda aytdi-ko'ydi. Umuman ko'p gapirishni yoqtirmasdi. Ammo to'g'risini so'zladi. O'rni kelib qolganda, muddaosini qistirib o'tishni ham unutmadi. Ochiq-oshkor bayon etmasa-da, shu shaharga yetganida hamyonining tagi ko'rinish qolgani, shuning uchun ishlab, sarmoya jamg'arishni mo'ljallayotganini shama qildi. Fazilat bilan bog'liq savdosi haqida og'iz ochmadi, to'g'ri-da, umrida birinchi ko'rib turgan odamlarga darrov shaydolik dostonini o'qib o'tiradimi?

Siz Abdulla Qodiriy degan adibni bilasizmi? "O'tkan kunlar" ro'monini o'qiganmisiz? Birdan butunlay boshqa mavzuda savol berib qoldi Sabohiddin aka.

Beknazaz shunday bir zo'r yozuvchi o'tganini eshitganu, lekin bironta kitobini ham ko'rmagan edi.

Attang... Andijonlik Cho'lpon degan shoirni-chi?

Yo'q, o'qimaganman.

Afsus. Cho'lponni Turkiyada yaxshi bilishadi, ayniqsa, yoshlar suyib o'qishadi. Ikkala adibning ham qismati dog'li. Cho'lponni mutolaa qilsam, uning yosh ketganiga juda achinaman. O'lmasa, shu paytgacha qandoq inju she'rlar bitardiykin... Sabo Rahmat ohista, maromida o'qiy boshlaydi:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,  
Asrlik toshi yanglig' bu xatarli yo'lida qotdim-ku...

Fazalning so'nggi bayti Beknazarning qalbini tirnab o'tganday bo'ldi:

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay, yerga botdim-ku.

Hoji ota xontaxta ostidan nos rangli mo"jazgina bir kitob olib, varaqlay boshladidi.

"Yer yuzinda o'zga bir olam erur bizning vatan", deb alqagan O'zbekistonimizni Sulaymon bazzoz o'g'li.

Beknazarning bo'ylaganini ko'rib Hoji ota kitobni uzatdi. Lekin u lotin imlosida, bu harfga Beknazarning tishi o'tmas edi, kitobni Sabohiddin aka oldi, lekin sahifasini ochmay, yod aytdi:

Ko'z yoshimda yuvsam  
Yurtning bag'rini,  
Tilim bilan so'rsam  
Oqqan qonini.

Shunday iste'dodlar yurtim, elim deb juvonmarg bo'lib ketdi-ya.

Qarang, bir banda xudoning omonati hayotini xalq uchun tikishga qodir, lekin xalq u mushtday jonni hifzi-himoyasiga olishdan ojiz.

Xalqimizda hamjihatlik yo'q, Hoji aka, hamjihatlik. To'p yuradigan, hashaki itday keladigan chiyabo'rilar sherdanam tap tortishmas ekan. Chigitday-chigitday arilar o'qlovday ilonni chaqib ishirib yuborishadi.

E, siz ularni aytasiz, bir kitobda o'qib qoldim: qunduz boru suvkalamush, shular jamlidka qiy-chuv qilib, timsohday bahaybat, vahshiy narsaniyam quvib solisharkan.

Hukumatning xalqmas, olomondan qo'rqishining sababiyam shu-da. Xalq qancha ko'p bo'lsa, shuncha parokanda bo'ladi.

Bechora Cho'lpon "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir" deb yozibdiya, kuyib-yonib.

Ha, shunday odamlarni burgaday ezib tashlashdi-yu, siz bilan biz nima degan gap, Hoji aka.

Zap juftakni rostlab qolgan ekanmiz demoqchisiz-da, a, mulla Sabohiddin? Lokin bu ishlarni hali so'roq-savoliyam bor...

Beknazар "bangi chol" deb o'ylagan qariyaning va Sabohiddin akaning ma'nili she'r o'qishi, faylasuf yo katta yozuvchilarday (yo chindan ham shunaqamikin...) mulohaza yuritishlariga qoyil qolib o'tirar ekan, o'zining Qodiriyo ro'monlari, Cho'lpon asarlaridan bebahraligidan, yoshlari bir joyga borgan manavi hasratdoshlar kabi o'sha hamshaharinig to'rt yo'l baytini yod bilmasligidan xijolat chekardi. Shuning uchun u hamsuhbatlarining dam unisi, dam bunisining og'ziga tikilganicha, gap qo'shmay, jimgina quloq solar, misralarning mag'zini chaqmoqqa urinardi. U Vatanning shunchalar aziz va muqaddasligini, ilk subhidam havosi, atirgullar va boshqa totli bo'ylar dimog'iga, soyning shildirashi, qushlar chug'uri qulog'iga inib, ona siyosiyu ko'z ochib ko'rgan xona, atrofdagi dov-daraxtlarning rangin yaproqlari, moviy osmonning bir bo'lagi qorachiqlariga singib, muhrlanib qolgan tabarruk makondan olisda, begonalar orasida umrguzaronlik qilishning nechog'lik fojiali qismat ekanligini o'ylamagan ekan.

Ayni vaqtida u mavzuning o'zgarib, tamom boshqa yoqqo burilib ketganidan, Sabohiddin akaning ham, Hoji otaning ham uning arzi-holiga e'tibor qilishmaganidan o'kinib o'tirar, uning uchun hayot-mamot masalasiday muhim bo'lgan ish topish to'g'risida qayta eslatishning noqulayligini o'ylab ziqlanardi. Shaharning ancha-muncha past-balando, darvozasiyu darchasini bilib olgan odamlardan, xususan, Sabo Rahmatdan jo'yali bir maslahat, yo'l-yo'riq chiqar degan ilinji dam sayin ingichkalashib borayotganga o'xshar, shunchaki o'ksinish endi rosmana ranjuvga aylanayotgandi. Lekin uning yozg'irishi, ranjishi o'rinnimi? Ha-da, sening yetti tug'ib bir qolganing yo amma-xolangning erimidi, yo o'tkazib qo'yan joB-ying bormidiki, undan umidvor bo'lib, tama qilishga, o'pkalashga haqqi-huquqim bor deb hisoblasang! Umringda birinchi marta ko'rishib, gaplashib turgan bo'l sang... To'g'ri, yurtdosh, ammo yurtdosh ekan debon duch kelgan kimsaning etagiga osilib olishavermaydi-ku. U kim o'zi, kasbi-kori qanaqa, qayerda yashaydi, nima yumush bilan shug'ullanadi, qo'lidan bir ish keladimi bular senga hali noma'lum-ku. Ko'p gapiresh balki odatidir. Zang bosgan yuragini kimga bo'shatishni bilmay turgan odam qayg'udoshini uchratsa dardini to'kadi-da. Ha, ikki oyog'ing bir etikka tiqilmay, ozgina sabr qil-chi, ja bo'lmasa, cholning oldidan chiqqach, qulog'iga "Sizda ikki og'iz gapim boridi" deb, xonangga boshlab kirib, alohida gaplasharsan, har qancha darding, iltimosing bo'lsa, o'sha yerda yolg'iz o'ziga aytarsan. Voy shovvoz-ey, fe'lingga tortasan-da. Senga hamma ish kampir shaftolining danagini ayirguncha, shappa-shuppa bita qolsa-da, a? Umuman he yo'q, be yo'q, tomdan tarasha tushganday, birdan menga ish topib bering deyishing qandoq bo'larkin?..

Lekin ish bungacha borib yetmadi.

Ha, xayol surib qoldingiz, inim? Beknazarning o'ylarini to'zitdi Sabo Rahmat. Sizniyam yarangizni yangiladikmi? Biz benavolarga e'tibor bermang. Manavi akangiz, iyak qoqib Hoji akaga ishora qildi, mening yagona hamdamim. Boshqa hamyurtlar ham bor, ammo dardimni shu kishi tushunadi. Ta'bi nazmi ham xiylagina. Yozmasayam, mutolaani yaxshi ko'radilar. O'zlar Marg'inondan.

Bosh qimirlatib, siniq jilmayib o'tirgan Hoji ota Beknazarga yuzlandi.

Xafa bo'l maysiz, o'g'lim, bu kishimning tillarini hakka salgina cho'qilab qochgan, Marg'ilon deyishga qiynaladilar.

Eski kitoblarda shundoq yozilgan, kaft silkidi Sabo Rahmat xuddi rostakamiga munozara qilayotganday soxta tundlik bilan.

Hofizu Cho'lponnikidan boshqa kitob ham o'qiydilarmi o'zlar, taqsirim?

Hazil, hazil, soqolini selkillatib qiqirladi Hoji ota. Kulganda ko'zları kattaroq ochilib, rangpar yuzlariga qon yugurganday bo'lardi. Ana shunaqa, Bek Nazar, biz ba'zan tegishib ham turamiz, bular faqat bir-biriga hasrat qilishar ekan, deb o'ylamang. Ha, biz alamdiydarlar dastlabki paytlarda juda asabiy edik. O'zaro suhbatdayam qizishib ketaverardik. Keyincha musofirlilik dog'i-dardlari yurakdan o'tgach, bir-birimizni ancha avaylaydigan, qadrlaydigan bo'p qoldik. Lekin hozir ham ba'zan kuyunib, lovullab ketamiz. Aslida-ku inson bolasi hamma vaqt, hamma joyda o'zaro ahil, intifoq yashashi kerak, hayvonlarga o'xshab shoxlashmay.

Hayvon shoxlashgani bilan kek, gina saqlamaydi, Hoji ota, bir pasdan keB-yin yana birga o'tlab ketaverishadi, odamzod esa, birov bilib-bilmay sal jig'iga tegsa, kuchi yetsa, darrov javobini qaytaradi, bo'lmasa mushtiga tupurib qo'yadi. Darvoqe, Bek Nazar, endi kaminaning holi bayonidan ham bir shingil eshitsangiz. Meni gapirtirib, nomai a'molimni bilib olib ketaverishdi, deb yur mang tag'in. Biz ham dunyoni aylanib-aylanib, yigirma yildan ziyod sarsonu sargardon yurib, u yurtda bir-ikki yil, bu mamlakatda uch-to'rt yil to'xtab, nihoyat shu shaharda joylashdik. Shu darbadarliklar orasida ota-onani, boshqa qavmu qarindoshlarni boy berdik... Bu yerda qancha turamiz xudo biladi. Afg'onistonda ko'proq yashadik. Keyin Turkiyaga o'tdik.

Marsin degan shaharda o'nashdik, lekin chekkaroq edi... Hajdan qaytayotgan istambullik bir afandi bilan tanishib qoluvdik, unga ergashib bu yoqqo qarab mang'idik. Kadiko'y degan manzilda uzoqroq qarindoshi bor ekan, o'shalarnikiga ijara tushdik. Kasbimiz mayda tijoratchilik. Har holda, tirikchilik o'tib turibdi. Kadiko'y ham chekkayu, harqalay, Istanbulning shundoqqina tumshug'i tagida. Bevatan odam devonaday gap qayerga, kimnikiga bo'lsa kirib ketaveradi. Hozir Turkiyada, xususan, Istanbulda ham o'zbeklar ancha ko'payib qoldik. "Turkistoniyalar" degan jamiyat tuzish to'g'risida maslahatlar bo'lyapti. Bu jamiyat bizning haq-huquqlarimizni himoya qiladigan, o'zaro moddiy va boshqa yordam ko'rsatadigan xayru saxovatli bir uyushma bo'lishi ko'zda tutilyapti. Bu yerda hozircha birov mushugimizni pisht, tovug'imizni kisht deyotgani yo'q, faqat bir-birimizning holi-a'mollarimizdan boxabar bo'lib turmoq uchun shunday vositaga ehtiyoj sezilyapti. Sizga ish topishga harakat qilamiz, yurtdosh. Tanishlar bor, maslahatlashib xabar beraman. Ha, aytganday, sizga qanday xizmat ma'ql?

Qanday xizmat bo'lsayam... dedi Beknazarn tetiklanib. Uning yangi tanishi haqidagi qarashi dabdurustdan o'zgardi. "Xiyla ishbilarmon, dadil odamga o'xshaydi".

Masalan? ta'kidlab so'radi Sabo Rahmat.

Endi, bu shaharda qanaqa ishlar bo'lishi mumkin bilmayman. Bizda yer ochish, sholi o'roqchilik, devor-tosh singari ishlar boridi... Beknazarning dilidan juda past ketdimmi, degan o'y kechib, to'xtadi-da, suhbatdoshining yuziga ohista nazar soldi.

Turkiyada ham mayjud unaqa yumushlar, ammo Istanbulda emas, qishloqlarda. Shaharda eng ko'p xizmat hamm... Sabo Rahmat

This is not registered version of TotalDocConverter

"hammon" so'ziga boshishnikin, deyil ikkani, uchun asiga "yukchilik" dedi va u ham mehmonga yer ostidan nigoh tashladi, uning yuzida malollik yo og'rinish sezilmagach, davom etdi. Istanbul dengiz o'rtaсидаги шаҳар, шунинг учун бу yerda bandargoh ko'п, kemalarga yuk ortib-tushirishda ishchi kuchiga hojat katta.

Juda yaxshi, faqat... Beknazар "ko'proq haq bersa bo'lди" demoqchi edi, andishasizlikka yo'yishmasin deb fikridan qaytdi. Xo'sh, xo'sh, tortinmay aytavering, qistadi Sabo Rahmat.

Beknazarning xayoliga birdan boshqa mulohaza kelib qoldi va o'zi ham ichida suyunib ketdi. Faqat, yaqinroqdan bo'lsa... dedi u endi Sabohiddin akaning yuziga oshkora iltijoli ko'z tikib. U mana shu istagiga o'zi kutganday javob olishni juda-juda xohlardi.

Shahar katta bo'lsayam, ulov katta muammo emas, inim. Albatta yaqinroqdan surishtiramiz, Beknazarning ko'nglini tinchitdi Sabo Rahmat.

Ma'zur tutasiz, Sabo Rah... Sabohiddin aka, turklarning tili o'zimiznikiga o'xshasayam, tushunishga qiynalyapman. Qolaversa, shaharni yaxshi bilmayman. Beknazar o'zining zaif tomonini tan oldi.

Xijolat bo'limgan, ishni birga izlaymiz. Tilniyam hash-pash deguncha o'rganvolasiz. Boshda sal mushkulroq tuyuladi, xolos. Biz ham ikki-uch oy Ali desa, Vali deb, ko'zning o'rniga qoshni ko'rsatib yurganmiz. Kelinayangizlar haliyam bu tilni yaxshi bilishmaydi. Ko'chaga chiqishmaydi-da. Aslida uncha qiyinmas, o'zbek tilini sal bukib gapirsangiz, turkcha bo'laveradi. Masalan "xonim"ni "xanum", "afandim"ni "efendim" deysiz, vassalom, kuldi Sabo Rahmat va tezgina jiddiy tortdi. Chunki turklar bilan bir millatmiz, azaldan tilimiz ham, yer-molimiz ham bir bo'lgan, keyinchalik shuncha keng yerlar torlik qilib, bema'mi urushlar, xudbinlik, ittifoqsizlik tufayli bir-birimizdan yiroqlashib ketganmiz, xolos. Endi musofirlik bizni qayta yaqinlashtiradi chog'i. Turkiyada qozoq, turkman va boshqa turkiy millatga mansub kishilar ham bor, ammo ular bizga nisbatan ancha kam.

Beknazar Hoji otaning xonasidan qalbida xiyla xotirjamlik tuygan holda chiqdi.

Ikkinchi qism tugadi.